O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



# KRIMINOLOGIYA
XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL

# КРИМИНОЛОГИЯ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# CRIMINOLOGY
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

United Nations
Office on Drugs and Crime

TİKA
REPUBLIC OF TÜRKİYE MINISTRY OF CULTURE AND TOURISM
TURKISH COOPERATION AND COORDINATION AGENCY

ISSN 3060-5369

№2 – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

# KRIMINOLOGIYA
XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL

# КРИМИНОЛОГИЯ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# CRIMINOLOGY
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№2 – 2025

**KRIMINOLOGIYA** | XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
**КРИМИНОЛОГИЯ** | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
**CRIMINOLOGY** | INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 2/2025
ISSN 3060-5369

Muassis: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Hammuassislar: BMTning Jinoyat va narkotiklar bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy boshqarmasi (UNODC)
Turkiya Hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA)

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2025 yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro'yxatga olingan. Ro'yxat raqami C-5669705. Guvohnoma № 584299

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Kengashi muhokamasidan o'tgan

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologiya» xalqaro ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi

Tahririyat manzili:
100187 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL KRIMINOLOGIYA

**TAHRIR HAY'ATI RAISI**

**Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich**
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI**

**Gordeyev Sergey Nikolayevich**
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho'ba mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

**Rajapov Azamat Xudaynazarovich**
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Nazarmuxamedov Davron Abidovich**
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Abdullayev Bekmurod Tojimirzayevich**
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Xatamov Rustam Abduganiyevich**
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

**O'zbekistonlik ekspertlar**

**Rustambayev Mirzayusup Xakimovich**
yuridik fanlar doktori, professor

**Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich**
yuridik fanlar doktori, professor

**Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna**
yuridik fanlar doktori, professor

**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**
yuridik fanlar doktori, professor

**Arziqulov Dilshod Ne'matovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

**Kaxarova Munira Maxamadjanovna**
siyosiy fanlar doktori

**Yarov Bekmamat Alikulovich**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

**Xorijiy ekspertlar**

**Filatova Mariya Alekseyevna**
Rossiya Federatsiyasi Jinoyat huquqi va kriminologiya markazi boshlig'i, yuridik fanlar doktori (Rossiya)

**Gabor Kovach**
Vengriya Qirol Lyudovik Davlat xizmati universiteti Huquqni muhofaza qilish departamenti rahbari, general-mayor (Vengriya)

**Purvi Poxariyal**
Hindiston Respublikasi IIV Milliy Kriminologiya va sud ekspertizasi instituti rahbari, doktor (Hindiston)

**Andrea Domokos**
Vengriya Islohot cherkovi Karoli Gaspar universitetining Jinoiy fanlar instituti departament rahbari, professor (Vengriya)

**Tareq Al-Rayes**
Naib Arab xavfsizlik fanlari universiteti boshlig'i o'rinbosari, professor (Saudiya Arabistoni)

**Abeuov Dulat Aliaskarovich**
Qozog'iston Respublikasi IIV B. Baysenov nomidagi Qarag'anda Akademiyasi boshlig'i, doktor PhD (Qozog'iston)

**Muminova Gulnora Taxirovna**
katta muharrir, dizayn

**Fayziyev Abdujabbor**
texnik muharrir

Bichimi 60x40 1/8. Bosma tabag`i 9.5.
Adadi 50 nusxa
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan
Bosishga ruxsat etildi 11.12.2025
Buyurtma № 25/



# MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK TAHLIL

8 ...... **Berdialiyev B.E.**
Kriminogen omillarni aniqlashda profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktikaga doir vazifalari

16 ...... **Yakubov A.S., Azim Shuxrat**
Moliyaviy piramidalarini noqonuniy tashkil etish, faoliyati va reklama qilish uchun jinoiy javobgarlik

25....... **Alauxanov Ye.O, Abdramanova N.K.**
Latent jinoyatlarning jamiyatning kriminallashuviga ta'siri

34 ...... **Ismailov I., Adilkariyev X.T., Oblakulov D.O.**
Latent jinoyatchilik – kriminologik tadqiqot obyekti

51 ...... **Niyozova S.S.**
Voyaga yetmagan shaxsning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va uning holati

60 ...... **Maxmudov D.R., Azizov D.M.**
Ayollar jinoyatchiligi va giyohvandlik: kriminologik tahlil

66 ...... **Kaxarova M.M.**
Xotin-qizlar jinoyatchiligi: tahliliy yondashuv

72 ...... **Ollamov Ya.Y., Yarov B.A.**
Korrupsiyaning turli fanlarda va korrupsiyaga qarshi kurashish to g risidagi qonunchilikda tushunchasi

81 ...... **Turabbayev X.A.**
Internetda giyohvandlik moddalari aylanmasi va ularning tergoviga doir dolzarb masalalar

88 ...... **To'rayev I.E., Esanov D.I.**
Giyohvandlik moddalarining Internet orqali noqonuniy aylanishi va unga qarshi kurashishning ijtimoiy-huquqiy jihatlari

94 ...... **Akramov X.F.**
Deviant xulq-atvorning ilmiy nazariy tahlili

102 .... **Ibragimov Sh.Sh.**
O'zbekiston respublikasida bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini kamaytirish metodologiyasi

109 .... **A'loxonov M.A.**
Zamonaviy kriminologik nazariyalar evolyutsiyasi: an'anaviy va innovatsion maktablar

KRIMINOLOGOK TADQIQOT

115 .... **Adilkariyev X.T., Tulteyev I.T.**
Jinoyatchilikni ilmiy diagnostika qilish va prognozlashning nazariy va metodologik jihatlari

124 .... **Abdurasulova Q.R., Umirzakov B.A.**
Kompleks yondashuv – kriminologiya yo'nalishining ilmiy-amaliy integratsiyasi

134 .... **Muxitdinov F.M.**
Jinoyatchilikning envayronmental determinantlari

145 .... **Arzikulov D.N., Yernazarov S.Ye.**
Huquqni tartibga solish organlari xodimlari va fuqarolar o'rtasidagi psixologik o'zaro hamkorlikni shakllantirishning uslubiy asoslari

153 .... **Mirzayev J.U.**
Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga zamonaviy raqamli yondashuv

160 .... **Badalboyev F.Yu.**
Ishni sudga qadar yuritishda raqamli dalillardan foydalanish algoritmi

XALQARO TAJRIBA

166 .... **Irisbekov U.A.**
Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olish yo nalishida ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda ularni milliy amaliyotga joriy etish masalalari

174 .... **Tashkenbayev F.X., Nosirov Sh.B.**
O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida tirbandliklarning oldini olishda yevropa davlatlari ilg'or tajribasini qo'llash prognozlari

179 .... II XALQARO FORUM «Jahon Kriminologiyasining Ilg'or Tajribalari»

KRIMINOLOGIYA | XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
КРИМИНОЛОГИЯ | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
CRIMINOLOGY | INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 2/2025
ISSN 3060-5369

Учредитель: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Соучредители: Региональное представительство управления ООН по наркотикам и преступности (UNODC)
Турецкое агентство по сотрудничеству и координации (TIKA)

© Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан

Журнал зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан 23.01.2025 г.
Рег.номер С-5669705
Свидетельство № 584299

Журнал подготовлен в Редакционно-издательском центре Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан.

При перепечатке статей полностью или частично ссылка на «международный научно-практический журнал «Криминология» Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан» обязательна.

Ответственность за достоверность и точность фактов, цифр, выдержек и экономической статистики, приводимых в материалах, несет автор.

Размещенные в журнале материалы отражают личную точку зрения авторов, которая может отличаться от точки зрения редакции.

Рукописи, поступившие в редакцию, не рецензируются.

**Председатель редакционного совета**

**Бердиалиев Бахтиёр Эркинович**
начальник института, доктор философии по юридическим наукам

**Члены редакционного совета**

**Гордеев Сергей Николаевич**
ответственный сотрудник Администрации Президента Республики Узбекистан, доктор юридических наук, доцент

**Ражапов Азамат Худайназарович**
ответственный работник Кабинета Министров Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

**Назармухамедов Даврон Абидович**
Заместитель министра внутренних дел Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

**Абдуллаев Бекмурод Тожимирзаевич**
доктор философии по юридическим наукам

**Хатамов Рустам Абдуганиевич**
начальник Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам, доцент

**Члены редакционной коллегии**

*Эксперты из Узбекистана*

**Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович**
доктор юридических наук, профессор

**Адилкариев Хожимурод Тухтамуродович**
доктор юридических наук, профессор

**Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна**
доктор юридических наук, профессор

**Тулаганова Гулчехра Захитовна**
доктор юридических наук, профессор

**Арзикулов Дилшод Неъматович**
доктор психологических наук, профессор

**Кахарова Мунира Махамаджановна**
доктор политических наук

**Яров Бекмамат Аликулович**
доктор философии по филологическим наукам, главный редактор

*Зарубежные эксперты*

**Филатова Мария Алексеевна**
руководитель Аналитического центра уголовного права и криминологии, доктор юридических наук (Россия)

**Габор Ковач**
начальник департамента правоохранительных органов Венгерского университета государственной службы им. Короля Людовика, генерал-майор полиции

**Пурви Похариял**
руководитель Национального института криминологии и судебной экспертизы МВД Республики Индия, профессор (Индия)

**Ардреа Домокос**
заведующий кафедрой Института криминалистики Университета им. Кароля Гашпара Венгерской реформатской церкви, профессор (Венгрия)

**Тарек Аль-Раес**
заместитель начальника Арабского университета наук безопасности им.Наифа, профессор (Саудовская Аравия)

**Абеуов Дулат Алиаскарович**
начальник Карагандинской Академии МВД РК им. Б.Бейсенова, доктор PhD (Казахстан)

**Муминова Гулнора Тахировна**
старший редактор, дизайн

**Файзиев Абдужаббор**
технический редактор

Адрес редакции:
100187 г. Ташкент,
Мирзо Улугбекский район,
ул. Буюк ипак йули, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

Формат 60х40 1/8. Усл.печ.л. 9.5.
Тираж 50 экз. Отпечатано в Редакционно-издательском центре Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан
Подписано в печать: 11.12.2025
Заказ № 25/

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL KRIMINOLOGIYA



КРИМИНОЛОГИЯ

# СОДЕРЖАНИЕ

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

8 ...... **Бердиалиев Б.Э.**
Задачи в сфере социальной профилактики при выявлении криминогенных факторов

16 ...... **Якубов А.С., Азим Шухрат**
Уголовная ответственность за незаконные организацию, деятельность и рекламирование финансовых пирамид

25....... **Алауханов Е.О, Абдраманова Н.К.**
Влияние латентных преступлений на криминализацию общества

34 ...... **Исмаилов И., Адилкариев Х.Т., Облакулов Д.О.**
Латентная преступность как объект криминологического исследования

51 ...... **Ниязова С.С.**
Понятие и статус преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетнего

60 ...... **Махмудов Д.Р., Азизов Д.М.**
Женская преступность и наркомания: криминологический анализ

66 ...... **Кахарова М.М.**
Женская преступность: аналитический подход

72 ...... **Олламов Я.Ю., Яров Б.А.**
Понятие коррупции в различных дисциплинах и в антикоррупционном законодательстве

81 ...... **Тураббаев Х.А.**
Актуальные проблемы интернет-наркотрафика и его расследования

88 ...... **Тураев И.Э., Эсанов Д.И.**
Социально-правовые аспекты незаконного оборота наркотиков через интернет и борьба с ним

94 ...... **Акрамов Х.Ф.**
Научно-теоретический анализ девиантного поведения

102 .... **Ибрагимов Ш.Ш.**
Методология снижения дорожно-транспортных происшествий (дтп) с участием детей в Республике Узбекистан

109 .... **Аълохонов М.А.**
Эволюция современных криминалистических теорий: традиционные и инновационные школы

КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

115 .... **Адилкариев Х.Т., Тультеев И.Т.**
Теоретико-методологические аспекты научной диагностики и прогнозирования преступности

124 .... **Абдурасулова К.Р., Умирзаков Б.А.**
Комплексный подход – научная и практическая интеграция области криминологии

134 .... **Мухитдинов Ф.М.**
Энверонментальные детерминанты преступности

145 .... **Арзикулов Д.Н., Ерназаров С.Е.**
Методологические основы формирования психологического взаимодействия сотрудников правоохранительных органов с гражданами

153 .... **Мирзаев Ж.У.**
Современный цифровой подход к предупреждению правонарушений, совершаемых в сфере семейных отношений

160 .... **Бадалбаев Ф.Ю.**
Алгоритм использования цифровых доказательств при рассмотрении дела в суде

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

166 .... **Ирисбеков У.А.**
Опыт некоторых зарубежных государств в сфере предотвращения преступлений вымогательства и вопросы его внедрения в национальную практику

174 .... **Ташкенбаев Ф.Х., Носиров Ш.Б.**
Прогноз использования передового опыта европейских стран по предотвращению заторов на автомобильных дорогах общего пользования Республики Узбекистан

179 .... II МЕЖДУНАРОДНЫЙ ФОРУМ «Передовой Опыт Мировой Криминологии»

KRIMINOLOGIYA | XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL
КРИМИНОЛОГИЯ | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
CRIMINOLOGY | INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 2/2025
ISSN 3060-5369

Founder | Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan
Co-Founders | UN Regional Office for Central Asia on Crime and Drugs (UNODC)
Turkiya Hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA)

© Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan

The journal was registered on January 23, 2025, by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan under the number C-5669705 Certificate 584299

Discussed by the Council of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.

Original layout prepared at the Editorial and Publishing Center of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.

When reprinting articles in whole or in part by any means, it is mandatory to indicate that they are taken from the "International Scientific and Practical Journal "Criminology" of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan"

The author is responsible for the accuracy and reliability of the facts and figures, excerpts, economic statistical data presented in the materials.

The author's opinion may differ from the editorial point of view.

Manuscripts submitted to the editorial office are not reviewed.

Address:
100187, Tashkent city,
Mirzo Ulugbek dist.,
Buyuk Ipak Yoli str., 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Website: kti.iiv.uz

**Chairman of the Editorial Board**
**Berdialiyev Bakhtiyor Erkinovich**
Head of the Institute, Doctor of Philosophy in Law

**Members of the Editorial Board**
**Gordeev Sergey Nikolaevich**
head of the Sector of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor
**Rajapov Azamat Khudaynazarovich**
responsible employee of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law
**Nazarmukhamedov Davron Abidovich**
deputy Minister of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law
**Abdullayev Bekmurod Tojimirzayevich**
Doctor of Philosophy in Law
**Xatamov Rustam Abduganiyevich**
head of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law, Associate Professor

**Members of the Editorial Board**
*Uzbek experts*
**Rustambaev Mirzayusup Khakimovich**
Doctor of Law, Professor
**Adilkariev Khojimurod Tukhtamurodovich**
Doctor of Law, Professor
**Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna**
Doctor of Law, Professor
**Tulyaganova Gulchehra Zakhitovna**
Doctor of Law, Professor
**Arzikulov Dilshod Nematovich**
Doctor of Psychological Sciences, Professor
**Kakharova Munira Makhamadjanovna**
Doctor of Political Sciences
**Yarov Bekmamat Alikulovich**
Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Chief editor

*Foreign experts*
**Filatova Maria Alekseevna**
head of the Center for Criminal Law and Criminology of the Russian Federation, Doctor of Juridical Sciences (Russia)
**Gábor Kovács**
Police Major General , Dean of the Faculty of Law Enforcement of the Ludovica National University of Public Service of Hungary
**Purvi Pokxariyal**
Head of the National Institute of Criminology and Forensic Examination of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of India, Doctor (India)
**Andrea Domokos**
Head of the Department of the Institute of Criminal Sciences of the Karoli Gaspar University of the Reformed Church of Hungary, Professor (Hungary)
**Tareq Al-Rayes**
Deputy Head of the Arab University of Security Sciences, Professor (Saudi Arabia)
**Abeuov Dulat Aliaskarovich**
Head of the B. Baysenov Karaganda Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Kazakhstan, Doctor of Philosophy (Kazakhstan)

**Muminova Gulnora Takhirovna**
senior editor, design
**Fayziyev A.R.**
technical editor

Format 60x40 1/8. Conditional printed sheet 9.5.
Circulation 50 copies
Printed in the Printing hose of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan
Signed for publication:11.12.2025
Order № 25/



# CONTENT

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS

8 ...... **Berdialiyev B.E.**
Tasks in the sphere of social prevention in identifying criminogenic factors

16 ...... **Yakubov A.S., Azim Shukhrat**
Criminal liability for the illegal organization, operation, and promotion of financial pyramids

25....... **Alaukhanov E.O., Abdramanova N.K.**
The impact of latent crimes on the criminalization of society

34 ...... **Ismailov I., Adilkariyev Kh.T., Oblakulov D.O.**
Latent crime as an object of criminological research

51 ...... **Niyozova S.S.**
Scientific approaches to the objective signs of sexual crimes

60 ...... **Makhmudov D.R., Azizov D.M.**
Women's criminality and drug-related crime: a criminological analysis

66 ...... **Kaharova M.M.**
Women's crime: an analytical approach

72 ...... **Ollamov Ya.U., Yarov B.A.**
The concept of corruption in various disciplines and in anti-corruption legislation

81 ...... **Turabbayev Kh.A.**
Current problems of internet drug trafficking and its investigation

88 ...... **Turayev I.E., Esanov D.I.**
Socio-legal aspects of illicit drug trafficking via the Internet and the fight against it

94 ...... **Akramov Kh.F.**
Scientific and theoretical analysis of deviant behavior

102 .... **Ibragimov Sh.Sh.**
Methodology for reducing road traffic accidents involving children in the Republic of Uzbekistan

109 .... **A'lokhonov M.A.**
Evolution of modern criminological theories: traditional and innovative schools

CRIMINOLOGICAL RESEARCH

115 .... **Adilkariyev Kh.T., Tulteyev I.T.**
Theoretical and methodological aspectsof scientific crime diagnosis and prediction

124 .... **Abdurasulova Q.R., Umirzakov B.A.**
A comprehensive approach - scientific and practical integration of the criminology field

134 .... **Muxitdinov F.M.**
Environmental determinants of crime

145 .... **Arzikulov D.N., Yernazarov S.Ye.**
Methodological basis for the formation of psychological interaction between law enforcement officers and citizens

153 .... **Mirzayev J.U.**
Modern digital approach to the prevention of offenses committed within the framework of family relations

160 .... **Badalboyev F.Yu.**
Algorithm for using digital evidence in proceeding a case to court

FOREIGN EXPERIENCE

166 .... **Irisbekov U.A.**
Experience of selected foreign countries in preventing extortion crimes and issues of their implementation into national practice

174 .... **Tashkenbayev F.X., Nosirov Sh.B.**
Forecast of the application of advanced European experience in preventing traffic congestion on public roads in the Republic of Uzbekistan

179 .... II INTERNATIONAL FORUM «Advanced Experience in Global Criminology»

# KRIMINOGEN OMILLARNI ANIQLASHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORINING IJTIMOIY PROFILAKTIKAGA DOIR VAZIFALARI



***Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich***

*yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i*

*доктор философии по юридическим наукам*
*Начальник Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан*

*PhD in Law*
*Head of Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*

***Annotatsiya.*** *Maqolada profilaktika inspektorining jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimidagi o'rni, uning funksional vazifalari, mahalla va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari, shuningdek ijtimoiy profilaktika sohasidagi amaliy faoliyati ilmiy tahlil qilingan. Profilaktika inspektorining faoliyati aholi xavfsizligini ta'minlash, "xavf guruhi"dagi shaxslar bilan kompleks ish olib borish va huquqbuzarliklar profilaktikasini zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ijtimoiy profilaktika, profilaktika inspektori, kriminogen vaziyat, huquqbuzarliklarning oldini olish, xavf guruhi, mahalla, probatsiya xizmati, idoralararo hamkorlik, jinoyatchilik profilaktikasi, jamoat xavfsizligi.*

***TASKS IN THE SPHERE OF SOCIAL PREVENTION IN IDENTIFYING CRIMINOGENIC FACTORS***

***Abstract.*** *The article scientifically analyzes the role of the prevention inspector in the system of crime and offense prevention, his functional tasks, mechanisms of interaction with the community and state bodies, as well as his practical activities in the field of social prevention. It is argued that the activities of the prevention inspector are of great importance in ensuring public safety, comprehensive work with individuals in the "risk group" and the prevention of offenses based on modern approaches.*

***Keywords:*** *social prevention, prevention inspector, criminogenic situation, prevention of offenses, risk group, community, probation service, interagency cooperation, crime prevention, public safety.*

Jamiyat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar dinamikasini barqaror pasaytirish va fuqarolarda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda jinoyatchilikning oldini olish faqat fosh etish va jazolash mexanizmlariga tayanmasdan, balki jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va tarbiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks profilaktika choralarini talab qiladi. Mazkur keng qamrovli vazifalarni amalga oshirishda profilaktika inspektorining o'rni muhimdir.

Profilaktika inspektori joylardagi kriminogen vaziyatni muntazam o'rganadigan, aholi bilan bevosita muloqotda bo'ladigan va jinoyat xavfining ildiz omillarini barvaqt aniqlay oladigan davlat vakili sifatida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Uning faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan maqsadli ish olib borish, mahalla miqyosida barqaror ijtimoiy-huquqiy muhitni shakllantirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Inspektor nafaqat qonunchilik talablariga asoslangan nazorat va ogohlantirishdan, balki profilaktikaning ijtimoiy va gumanistik mexanizmlaridan foydalanadi.

Inspektor vazifalarining mazmuni va ahamiyati, avvalo, aholi bilan doimiy muloqot olib borish, fuqarolar bilan individual tarzda ishlash kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Uning faoliyati jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshirishda ijtimoiy munosabatlarni, mahallaning ichki muhiti va fuqarolarning turmush sharoitlarini chuqur o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda u shaxsning ijtimoiy muhiti, iqtisodiy sharoiti, oila ichidagi munosabatlar, ta'lim yoki ish faoliyatidagi muammolarni o'rganadi. Ayniqsa, kam ta'minlangan, ijtimoiy xavf guruhiga mansub, nizoli va muammoli oilalarni doimiy kuzatib borish, ularda yuzaga kelayotgan ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga ko'maklashish, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslar [1] bilan ishlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish [2] profilaktika inspektori faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Shu bilan birga, inspektor o'z hududidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning xulq-atvorini tahlil qiladi, ularning jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyilligini aniqlaydi, o'qituvchilar, psixologlar va mahalla faollari bilan hamkorlikda profilaktik ishlar olib boradi. Bu yoshlar o'rtasidagi mojaro, tajovuzkorlik, ommaviy tartibsizlik yoki huquqbuzarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni erta aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, profilaktika inspektori yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar holatini muntazam monitoring qilib boradi, ularning turmush sharoitlari, salomatlik holati, himoyaga muhtojlik darajasini baholaydi. Zarur hollarda ijtimoiy xizmatlar, tibbiy muassasalar va mahalla bilan hamkorlikda imkon qadar yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Ushbu keng qamrovli faoliyat natijasida profilaktika inspektori huquqbuzarlik sodir etilishi ehtimoli bo'lgan vaziyatlarni oldindan ko'ra oladi, xavf omillarini tahlil qiladi va ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali profilaktik mexanizmlarni ishga soladi. Bu mexanizmlar oilaviy tarbiyani mustahkamlashdan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy ko'maklashish, psixologik yordam ko'rsatish, yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish kabi keng tadbirlarni o'z ichiga oladi. Biriktirilgan hududda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini baholash tartibiga [6] ko'ra, inspektorlarning ish jarayoni tahlil qilinadi.

Natijada, profilaktika inspektori faqat huquqni qo'llovchi organ xodimi sifatida emas, balki ijtimoiy targ'ibotchi, maslahatchi, psixolog va jamoa rahnamosi sifatida ham jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga beqiyos hissa qo'shadi. U tegishli hududda sodir etilgan, birinchi navbatda ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning sabablari va sharoitlarini o'rganib, huquqqa xilof harakatlarni keltirib chiqargan omillarni aniqlashtiradi hamda mas'ul tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarning harakatsizligiga nisbatan choralar ko'radi [4].

Profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktikadagi vazifalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar ushbu institutning zamonaviy jamoat xavfsizligi tizimida muhim

o‘rin tutayotganini tasdiqlaydi. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish profilaktika faoliyatini xalqchil, integratsiyalashgan va ijtimoiy yo‘naltirilgan mexanizm sifatida yoritish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni faqat huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy huquqiy asoslarini belgilabgina qolmay, balki profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktika jarayonidagi o‘rni va vakolatlarini ham aniq tartibga soladi. Qonunda belgilangan profilaktikaning turlari – umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika – profilaktika inspektori faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Bu turlar inspektorning faoliyatini faqat huquqiy choralar bilan cheklab qo‘ymasdan, balki uni keng qamrovli ijtimoiy institut sifatida namoyon etadi [9; 7-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martda qabul qilgan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] qarori mamlakatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini tubdan yangilash, tizimli institutsional islohotlarni amalga oshirish va profilaktika faoliyatini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishda asosiy huquqiy manbalardan biri hisoblanadi.

Qarorda, avvalo, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi bir qator amaliy muammolar – huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashdagi kamchiliklar, turli idoralar o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada samarali emasligi, profilaktik tadbirlarning tizimli emasligi, mahalla instituti bilan o‘zaro bog‘liqlikning kuchsizligi kabi masalalar ochiq va aniq bayon qilingan. Bu esa sohadagi islohotlarga mustahkam ilmiy-huquqiy asos yaratib berdi.

Qarorning eng muhim jihati – huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasi davlat organlarining ustuvor vazifasi sifatida belgilanganidir. Bu tamoyil profilaktika faoliyatini huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatidagina emas, balki ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlovchi umumdavlat siyosati sifatida qarashga asos soldi [10; 89-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [5] farmoni mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini ilmiy, tizimli va innovatsion asosda takomillashtirishga qaratilgan strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu farmon bilan jamoat xavfsizligi sohasida yangi yondashuvlar, mexanizmlar va profilaktika subyektlari faoliyatining zamonaviy modeli belgilab berilgan.

Farmonning eng muhim jihatlaridan biri – huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini ilmiy tahlil qilishni profilaktika faoliyatining markaziy vazifasi sifatida belgilagani. Bu orqali profilaktika inspektorlari va sohaga mas’ul organlar faoliyatida statistik ma’lumotlar, kriminologik tahlillar, axborot texnologiyalari va tahliliy instrumentlardan foydalanish majburiy tarzda yo‘lga qo‘yildi. Demak, jamoat xavfsizligiga oid qarorlar va profilaktik choralar endi ilmiy tahlil va xulosalarga asoslanishi kerak bo‘ldi.

Farmonda alohida ta’kidlangan muhim yo‘nalish – notinch oila, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari bilan ishlashda tubdan yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etish. Shu maqsadda “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli” tizimlari ishlab chiqilishi va joriy etilishi belgilab berildi.

Ushbu tizimning mohiyati shundan iboratki, profilaktika inspektori har bir xonadonning ijtimoiy, psixologik va kriminogen omillarini kompleks baholaydi, ehtimoliy xavflarni oldindan aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha manzilli choralar ko‘radi. Bu ijtimoiy profilaktika faoliyatini shaxs va oila darajasiga yaqinlashtirish, ya’ni individual profilaktikaning ilmiy asoslangan yangi modelidir.

Farg‘ona shahrida 2023-yil 28-iyul kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida tub burilish nuqtasi bo‘ldi, desak mubolag‘a emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatdagi kriminogen vaziyat, uning dinamikasi va profilaktik faoliyat samaradorligi chuqur tahlil qilingan holda, ayrim hududlarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish ishlari yetarli darajada tashkil etilmayotgani qat’iy tanqid qilindi.

Yig‘ilishda alohida ta’kidlangan muhim jihatlardan biri – Nukus shahrining “Altin jagis” mahallasida jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan ijtimoiy profilaktikaning mutlaqo yangi tizimi joriy etilgani va uning amalda samara bergani bo‘ldi. Ushbu tajriba huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillarini aniqlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qamrab olish, oilalardagi nizolar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan yangi – integratsiyalashgan yondashuv sifatida baholandi.

Shunga qaramay, Prezident mazkur ilg‘or amaliyotning mamlakat bo‘ylab keng joriy etilmaganini jiddiy tanqid qildi. Aslida, profilaktika inspektorlari, mahalla yettiligi, hokim yordamchilari va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik modeli har bir tuman va shaharda birdek amalga oshirilishi lozim edi. Biroq, amaliyotda hududlar o‘rtasidagi farq katta ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Davlat rahbari tomonidan bildirilgan muhim xulosa – endilikda jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat oqibatlarni bartaraf etish bilan cheklanmasligi, balki jinoyatlarga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ijtimoiy muammolarni erta bosqichda hal etish ustuvor yo‘nalishga aylanishi lozimligi ta’kidlandi. Bu esa profilaktika inspektorlarining vazifalari zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqilishi, ularning faoliyatida kriminologik tahlil, ijtimoiy diagnostika, xavf guruhlarini erta aniqlash, oilalar bilan psixo-ijtimoiy ishlarni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Prezidentning ushbu topshirig‘i amalda mamlakatda barvaqt profilaktikaga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatning keng qo‘llanilishini, aholi, yoshlar va ayollar bilan ishlashda yangi tizim va mexanizmlarni joriy etishni, shuningdek, profilaktika inspektorlari faoliyatida raqamli tahlil va prognoz qilishni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy profilaktika tizimining eng muhim jihat uning aniq manzillilik va maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida tashkil etilishidir. Ya’ni, profilaktika tadbirlari aholining umumiy qatlamiga emas, balki alohida e’tiborga molik bo‘lgan shaxslarga yoki huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan hamda jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga manzilli, tizimli va rejalashtirilgan asosda olib boriladi.

Ijtimoiy profilaktika tadbirlari uch xil shaklda, xususan, ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar bilan individual tarzda ishlash hamda ijtimoiy profilaktika obyektlari va mahalladagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etish yo‘nalishida olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-sonli qarorida [7] ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan 16 toifa shaxs aniq belgilab qo‘yilgani, har bir toifa vakillariga nisbatan qanday yondashuv zarurligi va amaliy mexanizmlar asosida qanday choralar ko‘rilishi lozimligi bo‘yicha nazariy asos va uslubiy ko‘rsatmalar bayon etiladi.

Profilaktika faoliyatida ushbu toifa shaxslarning har biri bilan individual ishlash jamiyatdagi xavfli jarayonlarni barvaqt aniqlash, fuqarolarni muammoli holatlardan chiqarish, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda insonparvar, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni qo‘llashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy profilaktika tadbirlari ikki toifadagi shaxslar, ya’ni huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo‘lgan shaxslar, huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo‘lgan shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektori faoliyatida ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda mahalla va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Jumladan, profilaktika inspektori aniqlangan ijtimoiy muammo yoki xatti-harakat turiga qarab, tegishli chora-tadbirlarni “mahalla yettiligi” a’zolari va boshqa jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiradi.

1. Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga ruju qo‘ygan shaxslar bilan ishlash:

Profilaktika inspektori ushbu shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini to‘liq o‘rganadi. Ular bilan individual profilaktik suhbatlar o‘tkazish orqali ijtimoiy va psixologik holatini baholaydi, shuningdek ularning kasbiy salohiyatini aniqlab, kasb-hunar o‘rganishga jalb etish imkoniyatlarini qidiradi. Inspektor, shuningdek shaxslarni sog‘lom hayot tarziga qaytarish va ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘radi. Bu jarayonda tibbiy ko‘rik va psixologik-ta’limiy reabilitatsiya ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, salbiy odatlarning shakllanish omillarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

2. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga ruju qo‘ygan shaxslar bilan ishlash:

Bunday shaxslarning turmush tarzi va oilaviy sharoiti tahlil qilinib, ular bilan individual profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi. Inspektor ularni qimor va tavakkalchilikning salbiy oqibatlari va huquqiy javobgarligi to‘g‘risida xabardor qiladi hamda salbiy odatlarni bartaraf etish choralarini qo‘llaydi. Shu tariqa shaxslar ijtimoiy faoliyatga qaytarilib, jamiyatdagi salbiy ta’sirlardan himoya qilinadi.

3. G‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar bilan ishlash:

Profilaktika inspektori ularning turmush tarzi, xulq-atvori va g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarining sabablarini aniqlaydi, shaxslar bilan individual suhbatlar o‘tkazadi va ularni sog‘lom hayotga qaytarish choralarini qo‘llaydi. Bunday vaziyatlarda inspektorning asosiy vazifasi ushbu toifa shaxslarni ijtimoiy muhitga integratsiya qilish va salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etishdan iborat bo‘lishi kerak.

4. Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash:

Ushbu kategoriyadagi shaxslar turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini kompleks tahlil qilish talab etiladi. Inspektor ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, bandligini ta’minlashda zarur ko‘mak ko‘rsatadi. Bu jarayonda mahalla va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

5. Qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash:

Inspektor ushbu shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini aniqlaydi. Vasiy yoki homiysi bo‘lmagan voyaga yetmaganlar uchun mas’ul shaxslarni biriktirish, ularni fan, kasb-hunar va sport to‘garaklariga jalb qilish hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralari amalga oshiriladi. Shu bilan profilaktika inspektori ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun barqaror va salbiy ta’sirdan himoyalangan muhit yaratadi.

Shu tariqa, profilaktika inspektori faoliyati ijtimoiy muammolarni barvaqt aniqlash, ularni mahalla va jamoat tuzilmalari orqali samarali hal etish hamda fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida amalga oshiriladi. Bu jarayonda individual profilaktika, psixologik, ijtimoiy va ta’lim yo‘nalishlarini integratsiya qilish inspektor faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi.

Profilaktika inspektori faoliyati nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishga, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ilmiy nazariyalarga ko‘ra, ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi quyidagi asosiy prinsiplarga bog‘liq:

Maqsadga yo‘naltirilgan individual ish, bunda har bir shaxsning ijtimoiy holati, oilaviy muhiti va xulq-atvori alohida tahlil qilinadi. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy va psixologik ehtiyojlari asosiy o‘rinda bo‘ladi.

Jamoatchilik bilan hamkorlik – mahalla, maktab, sport va kasb-hunar markazlari orqali shaxslarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish. Bu jarayonda “mahalla yettiligi” a’zolari muhim rol o‘ynaydi.





Integratsiyalashgan profilaktikada huquqiy, psixologik, ijtimoiy va ta’lim mexanizmlari kompleks ravishda qo‘llaniladi. Bunda, shaxslar uchun tibbiy ko‘rik va reabilitatsiya, kasbiy yo‘nalishda ta’lim va sog‘lom hayotga qaytarish choralari birgalikda amalga oshiriladi.

Amaliyotda profilaktika inspektori quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llaydi:

individual profilaktika suhbatlari – turli salbiy ijtimoiy xatti-harakatlarga ruju qo‘ygan shaxslar bilan suhbatlar o‘tkazish, ularning sabablarini aniqlash va ijtimoiy barqarorlikni tiklash;

ijtimoiy va psixologik monitoring – oilaviy sharoit, turmush tarzi va xulq-atvorni muntazam tahlil qilish:

kasb-hunar va ta’limga jalb qilish – kam ta’minlangan va nazoratsiz shaxslarni ish va ta’lim bilan ta’minlash, ularni ijtimoiy faoliyatga integratsiya qilish;

mahalla va jamoat tuzilmalari orqali dastak – “mahalla yettiligi”, sport va fan to‘garaklari orqali shaxslarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish;

reabilitatsiya choralari – psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, salbiy odatlarni bartaraf etish choralarini amalga oshirish.

Shu tariqa, profilaktika inspektorining faoliyati jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Inspektor faoliyatining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq: shaxslarga individual yondashuv, jamoatchilik va mahalla bilan samarali hamkorlik, psixologik, ijtimoiy va ta’lim mexanizmlarini integratsiyalash, kam ta’minlangan va xavf guruhiga oid shaxslar uchun barqaror ijtimoiy muhit yaratishdan iborat.

Amaliyotda profilaktika inspektori faoliyati ijtimoiy xatti-harakatlarni bartaraf etish, jamiyatda huquqiy ongni oshirish va aholi xavfsizligini ta’minlashda asosiy mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, profilaktika inspektori orqali mahalla, maktab va jamoat tashkilotlari hamkorligi ijtimoiy profilaktika samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Profilaktika inspektori faoliyati faqat huquqni muhofaza qilishga oid vazifalar bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga, ijtimoiy adolat va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-profilaktik vazifalarni ham bajaradi. Uning ishi jinoyat sodir bo‘lishining oldini olishga qaratilgan eng muhim mexanizmlardan biri sifatida nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki aholi o‘rtasida ham o‘ziga xos ishonch va ahamiyatga ega.

Ijtimoiy profilaktika tizimi orqali profilaktika inspektorlari tomonidan olib borilgan ishlar 2024-yil davomida jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim natijalar berdi. Hisobot davrida xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar tahlili natijasida huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan 580 mingdan ortiq shaxs aniqlangan va elektron xulosalar tuzilib, “mahalla yettiligi” vakillariga taqdim etilgan. Xulosalarning taqdim etilishi quyidagicha bo‘lgan: mahallalar raislariga 168 606 ta, hokim yordamchilariga 145 958 ta, xotin-qizlar faollariga 172 805 ta, yoshlar yetakchilariga 100 237 ta.

Bu ko‘rsatkich profilaktika inspektorlarining oilalar va shaxslar bilan individual ishlash hamda jamoatchilik bilan hamkorlik mexanizmlarini faol qo‘llagani samarasidir.

Bu ma’lumotlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini tartibli tashkil qilishda shaxslar, oilalar va mahalliy jamoatchilikning ishtiroki qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Elektron xulosalar orqali aniqlangan xavfli vaziyatlar “mahalla yettiligi” va mahalliy tuzilmalar tomonidan kompleks profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bergan.

2024-yilda[8] ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshirilgan shaxslar soni 410 413 nafarni tashkil etib, umumiy aniqlangan shaxslarning 69,8 %ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini ko‘rsatadi, chunki ular shaxslarning huquqiy ongini

oshirish, salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etish va ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali huquqbuzarliklar sodir etish ehtimolini sezilarli darajada kamaytirgan. Shuningdek, 177 193 nafar shaxs bilan profilaktik ishlar olib borilgan, bu esa xavf guruhlarini aniqlash va ularni kompleks tadbirlar bilan qoplashda inspektorlar tomonidan amalga oshirilgan doimiy monitoringning natijasidir.

Ilmiy tahlildan kelib chiqadigan boʻlsak, profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligi quyidagilarda namoyon boʻladi:

xavfli shaxslarni aniqlash va monitoring qilish – jamoatchilik bilan hamkorlikda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori boʻlgan shaxslarning turmush tarzi, oilaviy sharoiti va ijtimoiy holatini muntazam tahlil qilish;

kompleks profilaktika tadbirlari – mahalla vakillari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari va hokim yordamchilari bilan hamkorlikda shaxslarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, kasb-hunar va taʼlim imkoniyatlaridan foydalanish, salbiy odatlarni bartaraf etish;

elektron xulosalar tizimi – axborot tizimi orqali shaxslarning huquqiy va ijtimoiy holatini qayd etish va tizimli tahlil qilish, natijasini tegishliligi boʻyicha yoʻnaltirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 2024-yil davomida profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar va jamoatchilik bilan hamkorlik orqali ijtimoiy profilaktika samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Bu holat ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishda profilaktika inspektorlari faoliyatining muhimligini taʼkidlaydi.

Profilaktika inspektori – huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida toʻgʻridan-toʻgʻri aholi bilan ishlaydigan, joylardagi vaziyatni yaxshi biluvchi va uning barqarorligini taʼminlashga masʼul shaxs. U mahalla doirasida ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, keksa va yolgʻiz fuqarolar, nogironligi boʻlgan shaxslar, yoshlar, muammoli oilalar va nosogʻlom oilalar bilan individual ish olib boruvchi, ehtimol tutilgan xavf omillarini erta aniqlovchi profilaktikaning asosiy subyekti hisoblanadi.

Profilaktika inspektori faoliyatining oʻziga xos xususiyati shundaki, u jinoyat yoki huquqbuzarlikning amalga oshishidan oldin harakat qiladi. Uning vazifasi nafaqat jinoyatni fosh etish, balki uning sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, oldini olishdan iborat. Shuning uchun inspektor faoliyatida huquqiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar uygʻunligi muhim oʻrin tutadi.

Profilaktika inspektori ijtimoiy profilaktika tizimining markaziy figurasi sifatida jinoyatchilikning oldini olishda muhim oʻrin tutadi. Uning faoliyati huquqiy, ijtimoiy va psixologik mexanizmlarni qamrab olgan kompleks jarayon boʻlib, mahalla doirasida barqarorlikni, aholi xavfsizligini taʼminlash, yoshlar tarbiyasida ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Profilaktika inspektorining samarali faoliyati jinoyatchilikni kamaytirish, jamiyatda xavfsizlikni taʼminlash va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim omil boʻlib, uning ishini qoʻllab-quvvatlash va institutsional rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.





**Foydalanilgan manbalar / References**

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi qonun.
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida”gi qonun.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini taʼminlash samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi “Biriktirilgan hududda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha faoliyatini baholash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi “Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
8. Jinoyatchilik tendensiyalari va jinoyatchilik omillari davlat hisoboti // Oʻzbekiston Respublikasi kriminologiya tadqiqot instituti // T.2024.
9. Ziyodullayev M.Z., Isayev S.A. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslarini takomillashtirish yoʻlida // Qalqon. – 2015. – № 1. – B. 7.
10. Ismailov I., Muxamedov Oʻ.X., Ziyodullayev M.Z. va boshq. Ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar – xalq manfaatlariga xizmat qilishni taʼminlash kafolati: Oʻquv qoʻllanma. – T., 2017. – B. 89.

# УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА НЕЗАКОННЫЕ ОРГАНИЗАЦИЮ, ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И РЕКЛАМИРОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ ПИРАМИД




***Якубов Александр Санджарович***

*Заслуженный юрист Республики Узбекистан, профессор, доктор юридических наук*

*O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, professor, yuridik fanlar doktori*

*Honored lawyer of the Republic of Uzbekistan, Professor, Doctor of Law*



***Азим Шухрат***

*доктор философии по юридическим наукам (PhD), заместитель начальника Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан*

Кроме того, проблема манипулирования статистикой («укрывательство»), выявленная в наших результатах, является хорошо известным явлением в постсоветской криминологии [7]. Однако наше исследование вносит вклад в изучение этой проблемы, явно связывая эту внутреннюю административную проблему с внешним, социальным результатом криминализации. Когда эффективность работы полиции оценивается по показателям раскрываемости, основанным на неверных данных, у ведомства появляется стимул игнорировать сложные преступления, такие как мошенничество или насилие в семье. Это не только создает «темную цифру», но и активно формирует криминальный ландшафт, делая определенные виды преступлений «более безопасными» для совершения. Этот вывод ставит под сомнение чисто жертвоцентричные объяснения латентности преступности и подчеркивает решающую роль институциональных патологий.

Ключевым моментом дискуссии является влияние цифровизации. Хотя технологии создают новые возможности для преступности (киберпреступность), они также предлагают новые инструменты для обеспечения прозрачности. Наш анализ показывает, что Казахстан еще не в полной мере использует эти инструменты. Высокая латентность киберпреступности, выявленная в наших результатах, контрастирует с ситуацией в таких странах, как Южная Корея или Эстония, где специализированные полицейские подразделения и упрощенные онлайн-платформы для подачи заявлений значительно улучшили регистрацию таких правонарушений [16]. Это указывает на критическую область для политического вмешательства.

Ограничения данного исследования включают его зависимость от мета-анализа существующих опросов, а не от нового крупномасштабного исследования виктимизации, которое могло бы предоставить более детализированные и надежные данные. Кроме того, количественная оценка такого сложного понятия, как «криминализация общества», остается методологической проблемой. Однако, сопоставив данные из официальных, социологических и юридических источников, в данном исследовании представлена надежная и детализированная модель для понимания одной из наиболее актуальных проблем правового и социального развития Казахстана.

В данном исследовании проанализировано глубокое и многогранное влияние скрытой преступности на криминализацию общества в Казахстане. Исследование подтверждает, что «темная сторона» преступности – это не просто статистическая аномалия, а мощная социальная сила, которая искажает реальность, подрывает доверие и разъедает основы правового государства. На основе проделанного анализа можно сделать несколько ключевых выводов:

1. Значительное несоответствие: существует критический и опасный разрыв между официально зарегистрированными показателями преступности и фактическим уровнем

виктимизации граждан Казахстана, особенно в сфере преступлений против собственности, мошенничества, домашнего насилия и повседневной коррупции.

2. Доверие как ключевой вопрос: основной причиной скрытости преступности является не апатия жертв, а глубокое и рациональное недоверие к эффективности, честности и справедливости правоохранительных и судебных систем.

3. Системные недостатки: Институциональные практики, такие как акцент на показателях эффективности, которые стимулируют сокрытие «сложных» преступлений, и громоздкие процедуры подачи заявлений, в значительной степени способствуют усугублению проблемы, смещая акцент с модели правосудия, ориентированной на интересы жертвы.

4. Безнаказанность порождает преступность: широко распространенная безнаказанность, являющаяся результатом скрытой преступности, напрямую способствует правовому нигилизму. Она нормализует девиантное поведение и снижает социальные и психологические барьеры для участия в незаконной деятельности.

5. Возникновение «теневого правосудия»: неспособность официальной правовой системы обеспечить доступное и надежное правосудие в отношении значительной части преступлений вынуждает граждан искать решения через неформальные или откровенно преступные каналы, тем самым узаконивая параллельные структуры власти.

6. Неправильная политика: Стратегии предупреждения преступности и распределение ресурсов, основанные на неполных официальных статистических данных, по своей сути неэффективны и не позволяют бороться с наиболее распространенными и социально опасными формами преступности.

7. Замкнутый круг: Скрытая преступность и криминализация общества замыкаются в замкнутом круге: скрытая преступность подрывает доверие и нормы, что в свою очередь приводит к большей терпимости к незаконным действиям и снижению готовности сообщать о них, что еще больше увеличивает «темные цифры».

Чтобы разорвать этот круг и двигаться к по-настоящему справедливому обществу, необходима многосторонняя стратегия:

Для правительства и законодательных органов:

Ввести регулярное, независимое и общенациональное обследование жертв преступлений, чтобы получить надежные данные о реальном уровне преступности и направить политику на основе фактических данных.

Реформировать систему оценки эффективности работы правоохранительных органов, отказавшись от простых показателей раскрываемости и перейдя к более сложным показателям, включая опросы общественного доверия и уровень удовлетворенности жертв.

Упростить и оцифровать процесс подачи заявлений о преступлениях, создав удобные для пользователей онлайн-платформы для подачи заявлений о не экстренных случаях, особенно о мошенничестве и киберпреступлениях.

Усилить правовые и практические механизмы защиты жертв и свидетелей, чтобы уменьшить страх мести.

Для правоохранительных органов:

Ускорить переход к модели «ориентированной на обслуживание» полиции с упором на вовлечение общественности, процессуальную справедливость и дебюрократизацию.

Создать и обеспечить надлежащим образом специализированные подразделения для расследования сложных скрытых преступлений, таких как насилие в семье и киберпреступность, укомплектовать их специально обученным персоналом.





Ввести политику нулевой терпимости в отношении сокрытия преступлений («укрывательство») со строгим внутренним контролем и подотчетностью.

Для гражданского общества и системы образования:

Провести общенациональные информационно-просветительские кампании, направленные на дестигматизацию виктимизации (особенно в случае домашнего и сексуального насилия) и информирование граждан об их правах и механизмах подачи заявлений.

Усилить программы по повышению правовой грамотности в школах и университетах с целью формирования культуры уважения к закону с раннего возраста.

**Использованные источники / References**


1. Комитет по правовой статистике и специальным учетам Генеральной прокуратуры Республики Казахстан, 2023 г. Сборник статистических данных о состоянии преступности в Республике Казахстан за 2022 год. Астана.
2. Нургалиев, Б.М., 2020 г. Виктимологический анализ преступности в Казахстане: проблемы и перспективы. Алматы: Юрист.
3. Рогов, И.И., 2019 г. Концепция правовой политики Республики Казахстан: модернизация и новые векторы развития. Нур-Султан: Әділет.
4. Transparency Kazakhstan, 2022 г. Мониторинг состояния коррупции в Казахстане: Годовой отчет. Алматы: Transparency International.
5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. (2014, с изм. на 2023 г.). Информационно-правовая система «Әділет».
6. Ахметов, К.С., 2021 г. Латентная преступность как угроза экономической безопасности. Журнал «Право и государство», 3(92), сс. 45-52.
7. Гилинский, Я.И., 2021 г. Криминология: теория, история, эмпирическая база, социальный контроль. Санкт-Петербург: Алеф-Пресс.
8. Борчашвили, И.Ш., 2019 г. Актуальные вопросы уголовно-правовой политики Казахстана на современном этапе. Нур-Султан: Фолиант.
9. Сулейменова, Г.З., 2022 г. Проблемы противодействия киберпреступности в Республике Казахстан. Евразийский юридический журнал, 5(168), сс. 210-215.
10. Турсункулова, А.Б., 2020 г. Социальные детерминанты коррупционной преступности в системе государственной службы Республики Казахстан. Вестник КазНУ. Серия юридическая, 1(93), сс. 112-120.
11. Иншаков, С.М., 2018 г. Системный подход к изучению латентной преступности. Москва: Юрлитинформ.
12. Gillespie, A., & Gilsinan, J.F., 2021 г. «Петля цинизма»: как эндемическая коррупция парализует институциональные реформы в посткоммунистических государствах. Европейский журнал криминологии, 18(4), сс. 567-585. DOI: 10.1177/1477370820912345
13. Merton, R.K., 1938 г. Социальная структура и аномия. Американский социологический журнал, 3(5), сс. 672-682.
14. Tyler, T. R., 2006 г. Почему люди подчиняются закону. Издательство Принстонского университета.
15. Aebi, M. F., & Linde, A., 2020 г. Проблема «темной цифры» преступности в Европе. Справочник Routledge по европейской криминологии, сс. 88-105. Routledge.
16. Park, J., & Choi, Y., 2022 г. Роль специализированных подразделений по борьбе с киберпреступностью и государственно-частного партнерства в повышении уровня регистрации заявлений: исследование на примере Южной Кореи. Журнал цифровой криминалистики, безопасности и права, 17(1), сс. 1-18.
17. Беккариа, Ч., 1764 г. О преступлениях и наказаниях.

# LATENT JINOYATCHILIK – KRIMINOLOGIK TADQIQOT OBYEKTI




**Isamidin Ismailov**

*yuridik fanlar doktori, professor O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti*

*доктор юридических наук, профессор Университет общественной безопасности Республики Узбекистан*

*Doctor of Law, Professor University of Public Security of the Republic of Uzbekistan*



**Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich**

*yuridik fanlar doktori, professor O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti*

*доктор юридических наук, профессор Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан*

*Doctor of Law, Professor Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*



**Oblakulov Davlat Oltinboyevich**

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi o'qituvchisi*

*Правоохранительная академия Республики Узбекистан, преподаватель*

*Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Lecturer of the Department*



***Annotatsiya.*** *Maqolada "Latent", ya'ni "yashirin" jinoyatchilikni kriminologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganishning zarurati, ahamiyati, uning tushunchasi, turlari, ayrim jinoyatlarning latentlik darajasi hamda ularni taqozo etuvchi omillar ilmiy manbalarni va normativ-huquqiy hujjatlarni tadqiq etish natijalari asosida yoritilgan, shuningdek mavzuga oid nazariy va amaliy muammolar tahlili natijalariga tayangan holda xulosalar shakllantirilgan.*



***Kalit so'zlar:*** *jinoyatchilik, latent jinoyatchilik, tabiiy latent jinoyatchilik, sun'iy latent jinoyatchilik, chegaraviy latent jinoyatchilik, yuqori latentli jinoyatlar, o'rta latentli, past latentli jinoyatlar, latentlik oqibatlari, latentlik sabablari.*


### *LATENT CRIME AS AN OBJECT OF CRIMINOLOGICAL RESEARCH*


***Abstract.*** *The article, based on a study of scientific sources and regulatory legal documents, reveals the need and importance of studying "latent", i.e. "hidden" crime as an object of criminological research, its concept, types, the degree of latency of individual crimes and the factors determining the need for such a study, and also forms conclusions based on the results of an analysis of theoretical and practical problems associated with the topic under consideration..*



***Keywords:*** *crime, latent crime, natural latent crime, artificial latent crime, borderline latent crime, high latent crime, medium latency, low latent crime, consequences of latency, causes of latency.*


Jinoyatchilikni ta'riflovchi asosiy miqdor va sifat ko'rsatkichlar jinoyatlarga oid statistikani tahlil qilish asosida aniqlanadi. Ammo jinoyatlarga oid statistika mavjud jinoyatchilik borasida to'liq ma'lumot bera olmaydi, boisi qandaydir obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra qayd etilmagan va rasmiy statistikaga kiritilmagan jinoyatlar ham mavjud. Aynan u yoki bu sababga ko'ra rasmiy ma'lumotlarda o'z aksini topmagan jinoyatlar latent jinoyatchilikni tashkil qilib, unga, keng ma'noda, haqiqiy jinoyatchilikning ajralmas qismi sifatida qarash zarur.

Yangi O'zbekiston davlat siyosatida jinoyatchilikning oldini olish unga qarshi kurashning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, bu sohada o'tkazilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatning barcha hududiy birliklari, ya'ni "mahalla – tuman(shahar) – mintaqa – viloyat – respublika" darajalarida kriminogen vaziyatni ilmiy asosda kompleks tahlil qilish natijalariga asoslanib, samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar doirasida Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda – IIV)ga barcha darajadagi ichki ishlar organlari bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishini samarali ta'minlash maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek jinoyat ishlarini tergov qilish, kriminogen vaziyatni prognoz qilish amaliyotiga doir faoliyatining samaradorligini kompleks hamda tizimli tahlil qilishni tashkil etish majburiyati yuklatildi [52].

Quyidagilar ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari deb belgilandi:

birinchidan, vujudga kelayotgan real tezkor va kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan tarzda taqsimlash va boshqarishning samarali mexanizmini joriy etish;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida tahliliy ishlarni aniqlanayotgan amaliy muammolarni tizimli tahlil qilish va kriminogen vaziyatni prognozlashga yo'naltirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish [53].

Ta'kidlash joizki, dastlab IIV tuzilmasida Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi tashkil etilib, uning asosiy vazifalari belgilanib, faoliyati yo'lga qo'yilgani, ayniqsa

O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi va uni amalga oshirish strategiyasi doirasida har yili tasdiqlanadigan “Yo‘l xaritalari” asosida jinoyatchilikni kompleks ilmiy tahlil qilish tizimli amalga oshirish imkonini bermoqda.

Lekin, mamlakatning barcha hududiy birliklarda kriminogen vaziyatni ilmiy tahlil qilish asosida birinchidan, jinoyatchilikni, uning latent qismini aniqlash, yangi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan jinoyat turlari va ko‘rinishlarini prognozlash kabi murakkab vazifalarni bajara oladigan, ikkinchidan, maxsus bilim, qobiliyat, tajriba va salohiyatga ega bo‘lgan professional kadrlarni tayyorlaydigan, uchinchidan, xavfsizlikni ta’minlash sohasida, ayniqsa jinoyatchilik, shu jumladan uning latent qismini o‘rganish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar olib borish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kriminologiya sohasidagi ayrim adabiyotlarda “latent” jinoyatchilik tushunchasi (XX asrning) 60-yillarda keng tarqaldi va shu yillari yashirin jinoyatchilikni o‘rganish muammosi keng tus olganligi [39. B.139.] qayd etilgan bo‘lsa-da, lekin Yevropada mazkur muammoni tadqiq etish undan ancha oldin boshlanganligini boshqa manbalarda ko‘rishimiz mumkin.

Dastlab latent jinoyatchilik muammosi yuzasidan fikrlar XIX asr boshlarida A.J. Ketle, E. Ferri, F. Zaxarevich asarlarida ko‘tarilgan. Xususan, latent jinoyatchilik va ularni aniqlash masalasiga belgiyalik kriminolog Ketle alohida e’tibor qaratib, “sodir etilayotgan jinoyatlarning faqat ozgina qismi ma’lum” degan fikrni ilgari surgan.

Shuningdek, jinoyat sifatida ro‘yxatga olingan va haqiqatda sodir etilgan jinoyatlar nisbati bilan latent jinoyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolarini XIX asrda g‘arb kriminologlari Mayo-Smita R., Resner R. va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin [13. B.72–78.].

Latent jinoyatchilik – haqiqatda sodir etilgan jinoyatlar majmuining ro‘yxatga olinmagan qismi bo‘lib, kriminologiyada “yashirin”, ya’ni “latent” jinoyatchilik deb yuritiladi. “Latent” so‘zi lotincha – (latens) “latentis” so‘zidan olinib, (yashirin, ko‘rinmas, sezilmas) “yashiringan”, “ko‘rinmaydigan”, “tashqaridan namoyon bo‘lmaydigan (“tashqi tomondan bilinmaydigan”)”, degan ma’noni bildiradi.

Yuridik ensiklopediya mualliflarining bildirishicha, ro‘yxatga olingan va olinmagan jinoyatlarning jami (majmui) “haqiqiy jinoyatchilik” deb ataladi. Sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy soni, odatda, “qorong‘i son” deb, aniqlangan jinoyatlar soni esa “aniq son” deb ataladi. Xorij kriminologiyasida “qorong‘i son” muammosi ancha vaqtdan beri maxsus tadqiqot mavzusini tashkil etadi [44. B. 208.; 8.S.277].

V.V.Luneevning fikriga ko‘ra, amaldagi haqiqiy jinoyatchilik, odil sudlov xabardor bo‘lgan, ya’ni rasmiy ro‘yxatga olinayotgan jinoyatchilik sonidan bir necha marotaba ko‘proqdir [24. S.125.].

Demak, haqiqatda sodir etilgan va rasmiy ro‘yxatga olingan jinoyatlar o‘rtasidagi farq mavjud bo‘lib, bu aynan latent jinoyatchilik hisoblanadi. Shu bois kriminologiyada jinoyatchilik rasmiy hisobga olinganligiga ko‘ra:

- qayd etilgan, ya’ni rasmiy hisobga olingan (rasmiy) jinoyatchilik;
- qayd etilmagan, ya’ni rasmiy hisobga olinmagan (yashirin, latent) jinoyatchilikka bo‘linadi.

Mahalliy olimlar tomonidan yozilgan yuridik adabiyotlarda qonunga binoan, sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish yoki ko‘rib chiqish huquqi berilgan organlardan yashirilgan, ushbu organlar tomonidan aniqlanmagan va jinoiy jazoga tortilishi kerak bo‘lgan qilmishlar ro‘yxatida aks etmagan, ya’ni qayd etilmagan jinoyatlarni latent jinoyatchilik deb hisoblash qabul qilingan [40. B.44.].

M.Usmonaliyev, Y.M.Karaketov latent jinoyatchilikka rasmiy ma’lumotlar bo‘lmaganligi tufayli statistik tahlil qilishga kirmay qolgan jinoyatlar yig‘indisi kiradi, boshqacha aytganda latent jinoyatchilik – haqiqatan sodir etilgan, lekin qandaydir sababga ko‘ra, huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar ro‘yxatiga kirmay qolgan jinoyatlardir, deydilar [39. B.140.].

Latent jinoyatga bir muncha kengroq ta’rif O.I.Ismoilov tomonidan berilgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, “latent jinoyat – muayyan davlatning vakolatli organlariga ma’lum bo‘lmagan, ma’lum bo‘lsa-da, g‘arazli maqsadda ro‘yxatdan yashirilgan, ilgari ro‘yxatga olinmagan yoki ro‘yxatga olinsa-da, noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilish natijasida jinoyat deb topilmagan, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmish”.

A.A.Konev “latent jinoyatchilik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketmagan, vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muayyan maqsadga yo‘naltirilgan tezkor qidiruv va boshqa harakatlar natijasida aniqlanmagan jinoyatlarni hamda jinoyat sodir etganlik haqidagi ma’lumotlarni saqlovchi fuqaro, muassasa, korxonalardan HMQOga tushmagan jinoyatlarni latent jinoyatlar deb hisoblash kerak” [39. B.139.].

A.Yu. Reshetnikov va O.R. Afanasyevaning fikriga ko‘ra, latent jinoyatchilik – bu rasmiy statistikalarda aks etmagan, ya’ni yashirin yoki ro‘yxatga olinmagan faktik jinoyatchilikning qismi. Hisobot davri davomida (yil, yarim yil, chorak, oy) davlat yoki mintaqada ma’lum miqdorda jinoyatlar sodir etiladi, buni faktik jinoyatchilik deb atashadi. Ammo statistik hisobda faqat davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olingan jinoyatchilikning qismi aks ettiriladi. Faktik sodir etilgan jinoyatlarning sezilarli foizi rasmiy statistikada aks etmaydi [20].

Umuman olganda, yuqoridagi yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kriminologiyada “latent jinoyatchilik” tushunchasi haqida umumiy, hamma birdek qabul qiladigan yagona tushuncha mavjud emas. Latent jinoyatlarning eng sodda, zamonaviy va lo‘nda ta’rifi S.M. Inshakov tomonidan berilgan: “Latent jinoyatlar – bu sodir etilgan jinoyatlarning ro‘yxatdan o‘tkazilmagan qismi” [16.; 14. B.65–70].

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda latent jinoyatchilik ikki qismdan, birinchi qismi hisobga olinmagan yoxud davlat idoralari, avvalo, huquqni muhofaza qilish organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan jinoyatlarni qamrab olishi, ikkinchi qismi amalda mavjud bo‘lgan va ko‘pchilik jinoyat sifatida qabul qiladigan, lekin hozirgacha davlat tomonidan jinoyat sifatida rasman tan olinmagan ijtimoiy xavfli qilmishlardan iborat ekanligi, ilgari amal qilgan analogiya instituti, garchi bu qonuniylikka zid bo‘lsa-da, qonunchilikdagi muayyan kamchiliklar o‘rnini to‘ldirish imkonini berishi keltiriladi [3. B.12.; 2. B.26.; 36. B.29–30].

Agar mualliflar bu yerda jinoyat qonunida jinoyat hisoblanmagan, biroq jinoyatchilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy salbiy hodisalar, alkogolizm, fohishalik va giyohvandlikni nazarda tutayotgan, ularni jinoyat bilan bevosita aloqador ekanligini inobatga olib, shu nuqtai nazarga kelgan bo‘lsa, ushbu fikr qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Biroq, bizningcha, yuqoridagi fikr ayni paytda munozarali hisoblanadi, chunki O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (keyingi o‘rinlarda – JK.)da analogiya instituti mavjud emas.

Jkning 4-moddasida, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishi qayd etilgan. Mazkur qoidaning Kodeks moddasida mustahkamlanishi unda ko‘zda tutilgan qilmishlarnigina jinoiy harakat deb qabul qilishga asos hisoblanadi. Agar Kodeksda jamiyatdagi muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar tartibga keltirilmagan bo‘lib, bunday xatti-harakatlar jinoyatdek ijtimoiy xavfli tabiatga ega bo‘lsa ham jinoyat sifatida e’tirof etilmaydi. Jinoyat qonunchiligida analogiyaga yo‘l qo‘yilmaydi, ya’ni jinoyat kabi ijtimoiy xavfli ko‘rinsa-da, ammo shunga o‘xshash jinoyatga qiyoslab yoki o‘xshash qonun normasini qo‘llab shaxs qilmishini jinoyat deb baholab bo‘lmaydi. Jinoyat kodeksida analogiya qo‘llanilsa, ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Zero, JKning 14-moddasida ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi, deb belgilangan.

Bu borada xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1810-yildagi Fransiya Jinoyat kodeksning 4-moddasida "qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, jinoyat yo'q", Inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi 1789-yildagi fransuz deklaratsiyasining 5-moddasida "qonun faqatgina jamiyat uchun zararli bo'lgan harakatlarni taqiqlash huquqiga ega", deb belgilangan.

Mazkur Deklaratsiyaning 8-moddasida nullum crimen, nulla poena sine lege prinsipi mustahkamlangan. Unda "hech kim jinoiy qilmish sodir etgunga qadar belgilangan tartibda o'rnatilmagan va chop etilmagan hamda qonuniy tartibda amalga kiritilmagan qonun bo'yicha jazolanishi mumkin emas"ligi yozilgan. Ushbu prinsipning mazmuni qonunda ko'rsatilmagan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat hisoblanmasligi va bunday qilmish uchun jinoiy jazoga tortib bo'lmasligini anglatadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tasdiqlangan "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomda latent jinoyat – huquqni muhofaza qiluvchi organlarga noma'lum bo'lgan muqaddam ro'yxatga olinmagan yoki ro'yxatga olingan bo'lsa-da, noto'g'ri huquqiy baho berilishi natijasida jinoyat deb topilmagan, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish deb qayd qilingan [13, 14 ].

Kriminologiyada latent jinoyatchilikni tasniflashga alohida e'tibor qaratiladi. Yuridik adabiyotlarda latent jinoyatchilik turli mezonlarga, xususan, sodir etilgan hodisani aniq yoki noaniqligiga, yashirin yoki yashirilganligiga, jinoyatlarni latentlik darajasiga, jinoyatlar toifasiga ko'ra guruhlarga ajratish orqali tasniflanmoqda.

Masalan, latent jinoyatchilik (obyektiv mavjud bo'lgan), ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga noma'lum bo'lgan va ro'yxatga olinmagan (subyektiv sababli), ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan hisobga olinmay yashirilgan jinoyatlarga ajratiladi.

Bir qator mualliflar (A.Yu.Reshetnikov, O.R.Afanasyeva, M.V.Goncharova, V.V.Luneev) latent jinoyatchilikni shakllanish mexanizmi asosida quyidagilarga ajratadi:

– murojaat qilinmagan jinoyatlar (xabar (ariza) berilmagan) jinoyat sodir etilganligi haqida jabrlanuvchi, guvoh va boshqa shaxslar ma'lumotga ega bo'lgan, ammo huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermagan jinoyatlar. Masalan, ba'zi hollarda jabrlanuvchilar maishiy masala yoki tergov qilish uchun juda ahamiyatsiz bo'lgan voqea deb jinoyat haqida xabar bermasligi hayotda ko'p uchrab turadi;

– hisobga (ro'yxatga) olinmagan jinoyatlar, ular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xabardor bo'lgan, lekin rasmiy statistikaga kiritilmagan, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish va ro'yxatga olish uchun asoslar mavjud bo'lsa-da, lekin huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan va tergov olib borilmagan jinoyatlar;

– aniqlanmagan (fosh etilmagan) jinoyatlar, jinoyat haqida xabar berilgan, holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan va tergov harakatlari olib borilgan, biroq tergov va tezkor-qidiruv organlarining mas'uliyatsizligi yoki malakasi yetarli bo'lmagani bois jinoyat hodisasi yoki jinoyat tarkibi aniqlanmagan holatlar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining malakasi pastligi sababli tergov qilinmagan yoki noto'g'ri malakalangan (kvalifikatsiya qilingan) jinoyatlar [20].

Ayrim manbalarda yashirin jinoyatchilikning oddiy, oraliq va sun'iy yashirinlik kabi guruhlari belgilangan [23. B.60] bo'lsa, kriminologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda esa, latent jinoyatlar uch guruhga: tabiiy-latent, chegaraviy vaziyatdagi va sun'iy latent jinoyatlarga bo'linadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotida yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikkinchi guruh, ya'ni chegaraviy vaziyatdagi latent jinoyatlarni aniqlash juda ham murakkab bo'lganligi bois kriminologiya bo'yicha nashr qilingan eng so'nggi adabiyotlarda latent jinoyatchilik asosan ikki guruhga bo'linadi.

1-guruh – "yashiringan jinoyatchilik" deb nomlanib, unga ayrim turdagi jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-taftish xizmatlari faoliyatidagi kamchiliklar, aholi ma'lum bir qismining ijtimoiy-huquqiy nigilizmi va shunga o'xshash sabablarga ko'ra, aniqlanmagan jinoyatlar kiradi.

2-guruh – "yashirilayotgan jinoyatchilik" deb nomlanib, unga huquqni muhofaza qilish organlarining ayrim mas'ul shaxslari tomonidan turli motivlar: o'zi boshqarayotgan yoki xizmat qilayotgan organning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati ahvolini yaxshi ko'rsatish, g'araz va boshqa shunga o'xshash maqsadlarda amaldagi qonunlarni buzgan holda jinoyatga oid statistikaga kiritilmagan jinoyatlar kiradi.

Bunday hollarda, yuqorida qayd etganimizdek, eng avvalo, javobgarlikning muqarrarligi prinsipi buziladi, buning oqibatida esa jinoyatchilar jazodan qutulishlariga ishonch hosil qilib, jinoiy faoliyatini davom ettirishi yoki boshqalarni huquqbuzarlikka jalb etishiga olib keladi.

Sodir qilinayotgan jinoyatlar o'z vaqtida aniqlanmasligi, qayd etilmasligi, jinoyatni sodir qilgan shaxslar esa qonunga asosan jazolanmasligi kabi holatlar jinoyatchilikning tomir otishiga sabab bo'ladi. Alal oqibat, uyushgan jinoyatchilik avj olib, qasddan odam o'ldirish, nomusga tegish, ashaddiy bezorilik, talonchilik, giyohvandlik, o'g'irlik, poraxo'rlik ko'payib ketadi.

Bu borada Britaniyada jinoyatchilik statistikasi ikki shaklda yuritiladi. Biri politsiya tomonidan qayd etiladigan jinoyatlar (Recorded Crime Statistics) bo'lsa, ikkinchisi 40 mingdan ziyod aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovlar orqali aniqlanadigan (Britis Crime Survey) jinoyatlar. Bunday so'rov Britaniyada 1982-yildan buyon har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinadi, ro'yxatdan o'tmagan latent jinoyatlar, ayni vaqtda umumiy jinoyatchilikni aniqlashning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Bundan tashqari so'rovlar o'tkazish jinoyatdan jabrlanganlarni aniqlash imkonini ham beradi, shu sababli jinoyatdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan va jabrlanganlar bilan muntazam so'rov o'tkazish ko'pchilik davlatlar amaliyotiga kirib borgan. AQSHda 1972-yildan buyon doimiy asosda yilda ikki marta so'rov o'tkaziladi [32. B.141].

Mutaxassislarning fikricha, latent jinoyatchilikning hajmini (miqdorini) aniqlash va baholash umuman jamiyatda mavjud bo'lgan jinoyatchilikning obyektiv ahvolini bilish va uni baholashning birdan-bir yo'lidir. Bu borada mahalliy va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi asosida yashirin jinoyatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning yillik o'sishi uning 5-7% latentligi haqida xulosaga kelish imkonini bermoqda [10. B.168]. Bu har yili qayd etilgan arizalar hamda sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi xabarlar sonining qiyosiy tahlili natijalariga qarab belgilanishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kriminologik tadqiqotlarda jinoyatlarning latentlik darajasini aniqlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotlarda korrupsiyaviy jinoyatlarning latentlik darajasi yuqori ekanligi qayd etiladi. Xususan, M.M.Polyakov mazkur jinoyatlarga ko'plab manfaatdor shaxslar aralashgani tufayli [34. S.12], O.V. Damaskin esa korrupsiyaviy jinoyatlarning o'ziga xos jihatlari ularning latentlik darajasi yuqoriligini taqozo etishini ta'kidlashadi [11.S.16].

Boshqa bir qator tadqiqotlarda korrupsiyaviy jinoyatlar latentlik darajasi eng yuqori ekanligini e'tirof etilib, ayrimlari ularning latentligini 90 foizdan 99 foizgacha baholasa [26.B.5], boshqa biri ijtimoiy so'rov natijalariga asoslanib, respublikada uning darajasi 70 foizdan yuqoriligini [26.B.12], boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlarining latentlik darajasi o'ta yuqoriligini, ya'ni 95 foizni tashkil qilishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, tadqiqotlarda korrupsiyaviy jinoyatlar ichida poraxo'rlikning latentlik darajasi eng yuqori hisoblanishi e'tirof etilib, ularning ayrimlari mazkur jinoyatlarning atigi 0,1-2 foizigina aniqlanishi [22. S.233; 4. B.18], boshqa birlari esa ro'yxatga olingan har bir jinoyat uchun huquq-tartibot idoralarida hisobga olinmagan 75 ta jinoyat to'g'ri kelishini qayd etishadi.

Mazkur jinoyatlar latentlik darajasining yuqoriligini poraxo‘rlik hamda tijoratda pora evaziga og‘dirib olishda uning oshkor bo‘lmasligidan har ikkala tomon, ya’ni pora bergan (pora evaziga og‘dirib olgan) ham pora olgan ham birdek manfaatdor bo‘lishi, shuningdek, ular, odatda, o‘zlaridan so‘ng hech qanday iz qoldirmasligi bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, tadqiqotlarda poraxo‘rlik – qiyin ochiladigan jinoyat ekanligi, u sodir etilganda, ikki manfaatdor shaxs harakat qilishi: pora beruvchi va pora oluvchi, ba’zan ularga vositachi ham qo‘shilishi, tushunarli sabablarga ko‘ra bu hodisa odamlarning ko‘z oldida yuz bermasligi va bunday ishlar bo‘yicha guvohlik negizi, odatda, juda cheklanganligi sababli yuqori latentlik darajasiga egaligi qayd etiladi [45. B.57].

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning yuqori latentligidir. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy xavfi uning latentlik darajasi o‘ta yuqoriligi bilan ham bog‘liqdir. [15].

Olimlarning fikricha, voyaga yetmaganlar jinoyati katta yoshdagilarning uyushgan va iqtisodiy jinoyatlari bilan bir qatorda eng yashirin latent jinoyatdir. Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining umumiy taxminiy latentlik darajasini 70 foizgacha aniqlash mumkin. Bu jinoyatning o‘ziga xos turiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining real ko‘rsatkichlarining rasmiy statistik ma’lumotlardan oshib ketish darajasi o‘rtacha 80 – 90 foizni tashkil qiladi [25. B.559–562].

Shuningdek, mutaxassislar ekologik jinoyatchilikning 95–99 foizi latent ekanligini ta’kidlaydi [40. B.415–420]. Tadqiqotlarda ekologik jinoyatlarning latentligi sababi, ular uchun qo‘llaniladigan jinoiy javobgarlikning past bo‘lishi bilan bog‘liq degan fikrni bildiradi. Jinoiy javobgarlikni qo‘llashning past bo‘lishi sababi har xil bo‘lishi mumkin: jinoyat qonuni tuzilishining yetarli emasligi, qonundagi kamchilik [12. S.116], sodir etilgan jinoyat xavfliligining yetarli darajada baholanmasligi (tergov organlariga ishning o‘tkazilmasligi, jinoiy javobgarlik o‘rniga ma’muriy javobgarlikka tortish) huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga to‘g‘ri baho berilmasligi [47.C.36] va boshqalar.

Milliy va xorijiy manbalarda o‘g‘rilik [2. B.26.; 36. B.29], oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik [48. B.9,20], [27. B.28,110], [5. C.66; 37. B.73], [3.; 31. C.85; 56. S. 33], [30. B.77], giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarining qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar ham [18. C.5; 55. B.67], [9. C.14.; 55. B.67], [46] latentlik darajasi yuqori ekanligi qayd etilgan.

Kriminologik adabiyotlar tahlili, olimlar va mutaxassislarning latent jinoyatchilik haqidagi fikr-mulohazalari, amaldagi qonunchilik hujjatlari tahlili natijalari uning turlari, ro‘yxatga olinmasdan, huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilikka noma’lum bo‘lib, yashiringan holatda jamiyatda mavjudligining sabablari hamda oqibatlari, shuningdek ularning darajasini aniqlash usullariga oid bilimlarni shakllantirish imkonini berdi.

Latent jinoyatchilik turlari. Latent jinoyatchilik haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun ularning yashirinib qolishini taqozo etuvchi sabablar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib uch turga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Birinchi turi – jinoyat sodir etilish fakti huquqni muhofaza qilish organlariga noma’lum bo‘lgan, ular tomonidan ro‘yxatga olinmagan hamda tergov qilinmagan jinoyatlar majmuidan iborat tabiiy latent jinoyatchilik.

Mazkur turga kiruvchi jinoyatlar to‘g‘risidagi xabar tegishli davlat organlariga yoki shaxsga ma’lum bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Jinoyatchilikning tabiiy latenligi, ya’ni huquqni muhofaza qiluvchi organlar bexabar qolgan jinoyatchilikka quyidagi holatlar sabab bo‘lishi kuzatilgan:

birinchidan, jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan sodir etilgan jinoyatni huquqiy bilimlarining yetarli darajada emasligi sababli, huquqbuzarlikning boshqa turi (masalan, ma’muriy huquqbuzarlik) yoki axloq normalarining buzilishi sifatida noto‘g‘ri baholanganligi va bu haqda vakolatli davlat organlariga xabar bermaganligi yoxud hayotiy tajribaning yetarli emasligi;

ikkinchidan, jinoyat yuz berganligiga jabrlanuvchining o‘zi shubhalanishi tufayli murojaat qilmasligi (masalan pulini o‘g‘irlatgan, biroq jabrlanuvchida pulini yo‘qotdim degan taxmin bor);

uchinchidan, sodir etilgan jinoyat korxona, muassasa, tashkilot yoki alohida shaxslarga ma’lum bo‘lmaganligi yoki ma’lum bo‘lsa-da, lekin axloqiy va huquqiy faolligining yetarli darajada emasligi (loqaydligi, beparvoligi) sababli vakolatli davlat organlariga xabar berilmasligi;

to‘rtinchidan, jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan jinoyat sodir etilganligini aniq bila turib, bu haqida vakolatli davlat organlariga turli sabablarga ko‘ra xabar qilmasligi;

beshinchidan, jinoyat haqida faqatgina uni sodir etgan shaxsga ma’lumligi yoki uning jinoyat izlarini ustalik bilan yashirilganligi yoxud o‘zi ham qilmishning jinoiy ekanligini anglamaganligi va boshqalar.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan jinoyat sodir etilganligi haqida vakolatli davlat organlariga xabar qilmasligi:

a) jinoyat sodir etilishiga jabrlanuvchining o‘zi sababchi bo‘lishi (masalan, tanosil kasalini yuqtirish);

b) jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning jiddiy emasligi (masalan oz miqdorda mol-mulkining yashirin ravishda talon-toroj qilinganligi, badaniga yengil tan jarohati yetkazilganligi va hokazo) uchun vaqtini ketkazmaslik;

v) jabrlanuvchi unga nisbatan sodir etilgan jinoyatni boshqalar bilishini istamasligi(masalan, nomusga tegish yoki oilaviy zo‘ravonlik);

g) jabrlanuvchiga yaqinlari yoki boshqalar tomonidan ruhiy ta’sir o‘tkazilishi (masalan, nomusga tegish jinoyatida jabrlanuvchi voyaga yetmagan (yoki turmushga chiqmagan) qizning kelajagiga ta’sir qilishdan qo‘rqishi yoki turmushi buzilishidan, sharmanda bo‘lishdan yoki qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlarning “gap-so‘zidan” qo‘rqish);

d) jabrlanuvchi aybdordan qo‘rqishi, ya’ni jinoyatchi (yoki uning sheriklari) tomonidan kelgusida qasos olishidan xavfsirashi;

ye) jabrlanuvchining o‘zi ham javobgarlikka tortilishidan qo‘rqishi;

j) jabrlanuvchining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga asossiz ravishda ishonmasligi kabi holatlar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda butun dunyoda tabiiy latent jinoyatlar ko‘payib bormoqda. Latent jinoyatlar, ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik, nomusga tegish, shuningdek, iqtisodiy sohada yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Jahon iqtisodida vujudga kelgan tanglik, pandemiya sharoitida bu tanglikning yana ham kuchayishi iqtisodiy sohada alohida turdagi jinoyatlarning o‘sishiga olib keluvchi bir qancha holatlarni vujudga keltirdi. Iqtisodiy sohada sodir etiladigan ayrim turdagi aniqlanishi murakkab bo‘lgan jinoyat turlarining ko‘payishi bir qancha salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Bu turdagi yuqori latentli jinoyatlarga olinayotgan daromadni soliqdan yashirish, jinoiy daromadlarni legallashtirish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq jinoyatlar, kiberjinoyatchilik, korrupsiya, davlat va jamoat mulkini talon-toroj qilish, xaridorlarni aldash va boshqa ko‘pgina jinoyatlarni kiritish mumkin.

Ikkinchi turi – ijtimoiy xavfli qilmish aniqlansa-da, lekin turli sabablarga ko‘ra uni aniqlagan shaxs tomonidan qilmishni jinoyat deb tushunmaslik (anglamaslik) holatlari bilan bog‘liq holda qayd etilmagan jinoyatlar majmuidan iborat chegaraviy latent jinoyatchilik.

Latent jinoyatchilikning bu turi tabiiy va sun'iy latentlikni o'rtasida turadi. Bunda ijtimoiy xavfli qilmish huquqni muhofaza qilish organlariga ma'lum bo'ladi, lekin malakalash uchun ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli unga noto'g'ri huquqiy baho berilib, jinoyat sifatida ro'yxatga qo'yilmaydi.

Mazkur turdagi latent jinoyatchilikni tashkil etuvchi ijtimoiy qilmishlar oqibatida ro'y bergan hodisa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tegishli mansabdor shaxslari, shuningdek jalb etilgan mutaxassislar tomonidan jinoyat deb idrok etish uchun ma'lumotlar yetarli emasligi oqibatida noaniqligicha qoladi.

Uchinchi turi – mansabdor shaxslar tomonidan turli sabablarga ko'ra amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan holda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb tan olinmagan, qayd etilmagan va yashirilgan jinoyatlar majmuidan iborat sun'iy jinoyatchilik.

Mazkur turdagi jinoyatchilikda esa sodir etilgan jinoyatlar tegishli vakolatli organlar mansabdor shaxslari, shu jumladan jalb etilgan mutaxassislar tomonidan g'ayriqonuniy tarzda inkor qilinadi va tegishlicha ro'yxatga olinmaydi. Qisqaroq qilib aytganda, huquqni muhofaza qilish organlari sodir etilgan jinoyat to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsalar-da, uni ro'yxatga olmaydilar.

Sun'iy latent jinoyatchilikni tashkil etuvchi jinoiy qilmishlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xizmat va shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq holda ro'yxatga olinmagan yoki hisobga olingan bo'lsa-da ochilmagan, to'liq ochilmagan yoki noto'g'ri malakalangan jinoyatlar hisoblanadi.

Demak, latent jinoyatchilikning ma'lum bir qismi to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qonun normalarini buzish natijasida vujudga keladi, bu esa, o'z navbatida, qator salbiy oqibatlarga, xususan:

jinoyat sodir qilgan shaxs uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi buzilishiga;

jinoyatchilarning javobgarlik yoki jazoga tortilmasligi oqibatida ular tomonidan undan ham og'ir yangi jinoyatlar sodir etilishiga;

fuqarolarda bu organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati haqida noto'g'ri fikr shakllanishi va ularga nisbatan asta-sekin ishonchsizlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Xorijiy va milliy manbalarda jinoyatchilikning sun'iy latentligi, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilinsa-da, lekin ro'yxatga olinmay qolishiga quyidagi holatlar sabab bo'lishi qayd etilganligi kuzatiladi:

kriminogen vaziyatni ijobiy qilib ko'rsatish maqsadida, hisobotlarda "salbiy" ko'rsatkichlar paydo bo'lishini istamaslik;

huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan organ xodimlarining faoliyatini baholashda, ularga biriktirilgan hududdagi jinoyatchilik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida ko'rsatilganligi sababli, xodimlarning jinoyatlarni yashirish va hisobga olinmaslikdan manfaatdorligining mavjudligi;

huquqni muhofaza qiluvchi organ mansabdor shaxsining malakasi yetarli emasligi, mas'uliyatsizligi yoki jinoyatning fosh etilishiga ko'zi yetmasligi, murojaat etuvchiga ishonmasligi yoki jinoyat yuz berganligiga shubha mavjudligi sababli jinoyat haqidagi xabarlarni turli vajlar bilan asossiz qabul qilmasligi sababli ro'yxatga olmaslik yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishi;

moddiy manfaatdorlik, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, shuningdek boshqa korrupsiyaviy holatlar va boshqa g'arazli maqsadlarga turli yo'llar bilan erishish orqali jinoyatni ro'yxatga olmaslik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni latent jinoyatchilikning salbiy oqibatlari sifatida baholash mumkin:

– jinoyatchilikning haqiqiy holati, darajasi, tarkibiy tuzilishi, dinamikasi, jamiyat, davlat va fuqarolarga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararning miqdori va xususiyati haqida noto'g'ri tasavvur beradi;

– jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi barcha holatlarni aniqlash, jinoyat uchun jazoning muqarrarligi prinsipini ro'yobga chiqarish qiyinlashadi, jinoyatchilarda va aholining boshqa qatlamlarida jazosizlik tuyg'usi shakllanadi va jazolanmay qolishiga ishonchi yuzaga keladi;

– mamlakatda, uning turli ma'muriy-hududiy birliklarida jinoyatchilikni bashorat qilish imkoniyati cheklanadi, bu esa jinoyatchilikning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham hozirgi vaqtda "latent jinoyatchilik" hajmi dunyo davlatlari va keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda hamda unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish borasida tadqiqotlar olib borish kriminologlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Latent jinoyatchilik miqdorini aniqlash jinoyatchilikka umumiy baho berishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham hozirgi kunda barcha rivojlangan davlatlarda latent jinoyatchilikni o'rganish, jamiyatda uning haqiqiy darajasini aniqlashga kriminologlar katta ahamiyat berishmoqda. Shunga qaramasdan, hattoki rivojlangan davlatlarda ham latent jinoyatchilikning haqiqiy hajmini aniqlash imkoni mavjud emas, bu esa mazkur masalaning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq.

Buni bir qator ilmiy va sotsiologik, ya'ni qiyosiy, statistik so'rovlar o'tkazish (anketa to'ldirish, intervyu, ommaviy axborot vositalari materiallari), ekspert tekshiruvi, hujjatlarni o'rganish va yashirin jinoyatlarni tahlil qilish va baholash uchun tavsiya etilgan boshqa usullardan foydalangan holda amalga oshirish ham mumkin. Ta'kidlash joizki, latent jinoyatlarning tuzilishi bir xil emas, shu bois latent jinoyatlarni aniqlash usullarini ularning turlariga qarab ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Latent jinoyatchilikni aniqlashda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi natija berishi mumkin: kuzatuvlar olib borish; hujjatlarni tahlil qilish; qilmishlarni tahlil qilish; so'rovlar o'tkazish; mutaxassislar bahosi; tergov, tezkor-qidiruv usullari; jamoatchilik fikrini o'rganish va boshqalar.

Kriminologlar tomonidan jinoyatchilik, uning alohida turlari latentligi darajasini aniqlash usullari ishlab chiqilgan va amaliyotda sinab ko'rilgan. Tadqiqotlarda bir qator statistik ko'rsatkichlarni, xususan: odam o'ldirish, badanga og'ir tan jarohati, o'rtacha og'ir, yengil shikast yetkazish kabi jinoyatlar miqdorlarini solishtirib ko'rish; jinoyatga oid statistikada qayd etilgan badanga shikast yetkazish jinoyatlari bilan kasalxonalarga murojaat qilgan shaxslar miqdorini solishtirish. Shu maqsadda jinoyatga oid statistika ma'lumotlari ma'muriy, intizomiy, fuqaroviy huquqbuzarliklar bilan solishtiriladi. Masalan, jinoyatga oid statistika ma'lumotlari bo'yicha xaridorlarni aldash yoki daromadni soliqdan yashirish holatlarining miqdori kamayganligi, soliq inspeksiyasi organlarining ma'lumoti bo'yicha bunday holatlarning ko'payganligi mazkur jinoyatlarning latentlik darajasi oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Alohida turdagi jinoyatlarning latentlik darajasini aniqlashda davlat asosan huquqni muhofaza qilish organlari, ommaviy axborot vositalariga yuborilgan jinoyatlar haqidagi ariza, shikoyat va ma'lumotlarni tahlil qilish hamda uni jinoyatga oid statistika bilan taqqoslash ham samarali usullardan hisoblanadi. Latent jinoyatchilikning hajmini aniqlashda qo'llaniladigan eng samarali usullar jamoatchilik fikrini o'rganish va ekspertlar bahosi hisoblanadi.

Aytish lozimki, latent jinoyatchilik ma'lum bir hududda sodir etilgan jinoyatlarning aniq ko'rsatkichlarini belgilashda muayyan xatoliklar yuzaga kelishiga va prognozlash natijalariga ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida, latentlik darajasi ortgani sayin, jinoyatchilikka oid ma'lumotlarning

aniqlik darajasi pasayadi, bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishni rejalashtirish, uning oldini olish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, jinoyatlarning latentligi uning ijtimoiy xavflilik darajasini to‘g‘ri baholash, jinoyatchilikning holati, dinamikasi, tuzilishi haqida, keltirilgan zararning xususiyatini bilish imkonini pasaytiradi.

Faktik jihatdan haqiqatda sodir etilgan jinoyatlar ro‘yxatga olingan hamda surishtiruv va tergov harakatlari olib borilgan jinoyatlardan bir necha baravar ko‘proqdir. Xususan, ekspertlar tomonidan mazkur tafovut 2–3, hatto 4–5 baravarni tashkil etishi e’tirof etiladi. Masalan, AQSH mutaxassislarning ma’lumot berishicha, bitta ro‘yxatga olingan nomusga tajovuz qilinganlik holatiga 10 ta ro‘yxatga olinmagani to‘g‘ri keladi.

Ko‘pgina kriminolog olimlarning fikriga ko‘ra retsidiv jinoyatlarning latentlik darajasi 25–30 foizni tashkil etadi.

Biroq, turli davlatlardagi kriminologlar latent jinoyatchilik hajmini turlicha baholaydilar, ayrimlarining aytishicha, politsiya sodir etilgan 20 ta jinoyatning bittasidan xabardor bo‘ladi, boshqasi esa og‘ir jinoyatlarni sodir qilgan har 50 kishidan bittasigina jazolanadi deb hisoblasa, uchinchisi jinoyatchilikni suvda suzib yuruvchi “muz tog‘i” (“aysberg”)ga o‘xshatib, uning suv ustidagi qismini rasmiy, ya’ni qayd etilgan jinoyatchilik, suv tagidagi pastki qismini latent jinoyatchilik deb hisoblab, davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olinadigan jinoyatlar “muztog‘” (“aysberg”)ning suv yuzasidagi qismi ekanligi, uning to‘rtdan uch qismi yashirinligini e’tirof etishadi. Boshqalari esa, ayrim turdagi sodir qilinayotgan jinoyatlarning 1/10 qismi ham aniqlanmayotganligi va jinoyatga oid statistikada qayd qilinmayotganligini ta’kidlaydilar.

Yuqoridagi fikrlar latent jinoyatchilikning hajmi juda kattaligini isbotlaydi. Kriminologik adabiyotlarda jinoyatchilik latentlik (yashirinlik) darajasiga qarab uch guruhga: yuqori; o‘rta; past latentli jinoyatlarga ajratiladi.

Birinchi guruhga latentligi yuqori bo‘lgan jinoyatlar kiradi, bunda jabrlanuvchilar va jinoyatga aloqador shaxslarning faolligi deyarli nolga teng bo‘ladi. Ko‘pincha jabrlanuvchi uning huquq va manfaatlariga nisbatan jinoyat sodir etilganligidan bexabar bo‘ladi yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma’lumot tarqalishini xohlamaydi.

Ekspertlarning ta’kidlashicha, kompyuter texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning latentlik darajasi AQSHda taxminan 80 foizni, Buyuk Britaniyada 85 foizni, GFRda 75 foizni, Rossiyada ham katta foizni tashkil qiladi [43. B.246].

Symantec Security xalqaro kiberxavfsizlik xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, “har soniyada” dunyo bo‘ylab 12 kishi kiberhujumga uchraydi va dunyoda har yili taxminan 556 million kiberjinoyatlar sodir etiladi va buning natijasida 100 milliard AQSH dollardan ziyod zarar yetkaziladi [19].

Bunga asosiy sabab jinoyat virtual kibermakonda sodir etilishi natijasida, aybdorlarning ko‘p hollarda ma’lum vaqtgacha aniqlanmasligi yoki jinoyatning latentlik darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi [33].

Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, kiberjinoyatlarning yanada ko‘payishiga sabab huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining ushbu sohada yetarlicha bilimga ega emasligi hisoblanadi. Mazkur sohada latent jinoyatchilikning kundan-kunga oshib borayotganligi, bu borada alohida kadrlar tayyorlashga, ayniqsa, iqtisodiy jinoyatlarga oid kiberjinoyatlarni aniqlash, malakalash va fosh etish salohiyatiga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish, shuningdek, ushbu jinoyatlar haqida tushuntirish beradigan Oliy sud Plenumi qarorlari qabul qilinishi zarurligini aytib o‘tadi [35. S.190–191; 6. B.158–159].

Ma’lumki, korrupsiya har qanday davlatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, butun dunyoda global muammo hisoblanib, unga qarshi kurashish dunyo davlatlari uchun dolzarb, ayni vaqtda esa ustuvor vazifa hisoblanadi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchiga aylanmog‘i lozim” [1. B.456].

Ikkinchi guruhga latentligi o‘rtacha jinoyatlar kiradi. Mahalliy olimlarimiz latentligi o‘rtacha jinoyatlarga jinoiy ravishda homila tushirish (abort)ni kiritadilar [21. B.74], boshqa bir kriminologiyaga oid manbalarda bu guruhga firibgarlik, bezorilik ham nazarda tutilgan.

Biroq tadqiqotchilar firibgarlik allaqachon dunyoda latentligi yuqori bo‘lgan jinoyatlardan biriga aylanganligini qayd etadilar [7. B.3; 38 B.130–137]. Firibgarlikning haddan tashqari yuqori latentligi, ijtimoiy xavfli qilmishning real miqyosi, real tendensiyalar, ushbu toifadagi jinoyatlarning sifat va miqdor ko‘rsatkichi haqida ma’lumotlarning to‘liq emasligi, o‘z navbatida, ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligiga salbiy ta’sir o‘tkazadi [28. B.77–78].

Uchinchi guruhga latentligi past bo‘lgan jinoyatlar kiradi, ular haqida ma’lumot maksimal darajada ochilgan (qotillik, bosqinchilik, talonchilik, og‘ir va o‘rtacha darajadagi tan jarohati yetkazish, terroristik harakat, garovga olish, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish natijasida odam yoki odamlar o‘lishi va boshqalar). Eng kam latentlik tez aniqlanganligi va fosh qilinganligi bois qotilliklar hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, jinoyat turlarining latentlik darajasi sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Ilmiy adabiyotlarda, sodir etilayotgan jinoyatlar og‘irligi oshgani sari ushbu jinoyatlar latentligi darajasi pasayishi [29. C.81] haqidagi fikr tarafdorlari anchagina. Bu fikrni ko‘p jihatdan asosli deb aytish mumkin, chunki jinoyatchilik latentligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar jinoiy tajovuzlar determinantlaridan kam emasligi aniq. Misol uchun talonchilik latentligi bosqinchilik jinoyatlari latentligi darajasidan bir qadar yuqoriligi tabiiy hol.

Shuni alohida qayd etish joizki, “yashirin” jinoyatchilikni o‘rganish uchun ushbu latentlikning qay darajada ajratilganligi muhimroq. Xususan, g‘araz maqsadda zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlardan xabardor shaxslarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchisi, faqat jinoyatchi va jabrlanuvchi xabardor bo‘lgan jinoyatlar. Mazkur toifaga, asosan, shunday jinoyatlar kiradiki, ularni sodir etish jarayonida aybdor jabrlanuvchiga nisbatan psixik ta’sir (qo‘rqitish shaklida) yoki uncha jiddiy bo‘lmagan jismoniy yoxud moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan jismoniy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchisi, jinoyatchi, jabrlanuvchi va unga yaqin insonlar xabardor bo‘lgan jinoyatlar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, g‘araz maqsadda sodir etiladigan tajovuzlar qurbonlari bo‘lgan jabrlanuvchilarning ko‘pchiligi jinoyat sodir etilganligi holatini har doim ham yashirmaydi, qarindoshlari va yaqin insonlari bilan bu voqeani muhokama qilishga intilishadi. Albatta, ushbu jarayon, odatda, jinoyat sodir etilishi davomida va undan keyingi vujudga keladigan bosim, ruhiy zo‘riqish, yangi tajovuz qo‘rquvini yengib o‘tishga ko‘mak berib, shu kabi jinoyatlarga yana duch kelmaslik, ularga chap berish yuzasidan maslahatlar olishda asqatadi. Shuningdek, jabrlanuvchiga ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazilganda, bundan tashqari, unga nisbatan sog‘ligi buzilishiga sababchi bo‘lgan kuchli jismoniy ta’sir ko‘rsatilganida (hatto jabrlanuvchi tibbiy muassasaga murojaat etishdan voz kechgan taqdirda) jinoyat sodir etilganligi holatini yashirishning imkoni bo‘lmasligi mumkin.

Jamiyatdagi huquqiy tartibotning holati, ma’naviy, ijtimoiy-ruhiy muhit rasman qayd qilingan jinoyatchilik bilan emas, balki haqiqiy, mavjud, lekin hozirgi vaqtda katta qismi yashirinib qolayotgan jinoyatchilik bilan belgilanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda latent jinoyatchilikni o‘rganish, uning hajmini aniqlash usullarini ishlab chiqish, jinoyatchilikning bu qismini jamiyatda

bo'lishini taqozo qiladigan holatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, miqdorini kamaytirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish kriminologlar va huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Latent jinoyatchilik jamiyatning, shu jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan maxsus davlat organlarining amaldagi qonunlar doirasida nazorati ostida bo'lmaganligi oqibatida rivojlanib boradi va jamiyat uchun, uning rivojlanishi, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun xavfli hodisadir.

Ma'lum bir turdagi iqtisodiy jinoyatlar latentlik darajasining yuqoriligi aholining ma'lum bir qismida bunday xatti-harakatlarni jinoyat deb hisoblamaslik fikrini paydo qiladi va oqibatda aholining avval bunday qonunbuzarliklarni sodir qilmagan qismini ham ushbu turdagi jinoyatlarga chorlaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, olinayotgan foydani soliqdan yashirish holatlari bozor iqtisodiga o'tish va bozor iqtisodi to'liq shakllangan davrda latentligi eng yuqori huquqbuzarlik hisoblangan.

Ta'kidlash lozimki, birinchi guruhga qiruvchi "yashiringan" jinoyatlarning hajmini kamaytirish hozirgi vaqtda aholining huquqiy ongini shakllantirish, o'stirish, savdo, moliya, bank tizimida amalga oshiriladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish, bu munosabatlar ustidan ijtimoiy nazoratni o'rnatish, mulkdorlarni jinoiy xatti-harakatdan qaytaradigan iqtisodiy mexanizmlar, moddiy manfaatdorlik usullarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, bu toifaga kiruvchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va uni sodir qilgan shaxslarga qonuniy asosida chora ko'rish huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga yuklatilgan.

Ikkinchi guruhga kiruvchi "yashirin" jinoyatlarning hajmini kamaytirish esa bevosita huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish, ularni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, kerakli moddiy-texnika bazani yaratish, maxsus texnik vositalar bilan qurollantirish, ushbu organlarda xizmat qiladigan xodimlarni ijtimoiy, huquqiy himoya qilish, ular ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Latent, ya'ni yashirin jinoyatchilikni o'rganmasdan turib, jinoyatchilikning haqiqiy ahvoli, tuzilishi, darajasi, dinamikasi, geografiyasining mukammal tavsifi haqida fikr yuritish qiyin. Shu uchun ham tadqiqotchilar faqat ro'yxatga olingan jinoyatchilik emas, balki haqiqiy, faktik jinoyatchilikni hartomonlama va to'liq o'rganishlari lozim.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, latent jinoyatchilikning quyidagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish mumkin:

birinchidan, latent jinoyatchilik haqiqiy jinoyatchilikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi;

ikkinchidan, latent jinoyatchilikning o'ziga xos miqdor va sifat ko'rsatgichlar bilan bog'liq xususiyatlari mavjud;

uchinchidan, jinoyatlar latentlik darajasi bo'yicha turli ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ular o'zgaruvchandir;

to'rtinchidan, latent jinoyatchilik mavjudligini taqozo etuvchi omillar jinoyatlar turlari bo'yicha bir xil emas;

beshinchidan, latent jinoyatchilik darajasining oshib borishi jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi va aholi noroziligini keltirib chiqaruvchi eng xavfli omillardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, latent jinoyatchilik – bu ma'lum bir mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligida, muayyan davrda sodir etilgan, lekin huquqni muhofaza qiluvchi organlarga oldindan noma'lum bo'lganligi sababli, shuningdek mazkur organlar xodimlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari yoki qarorlari natijasida rasmiy hisobga olinmagan jinoyatlar majmuini o'z ichiga olgan miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ega o'zgaruvchan ijtimoiy xavfli hodisa sifatida haqiqiy jinoyatchilikning ajralmas tarkibiy qismidir.

Shuni yodda tutish lozimki, latent jinoyatchilik faqat kriminologiya fanining o'rganish obyekti bo'lmay, uni sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya, ayniqsa, huquqiy fanlar bilan aloqadorlikda o'rganishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi talablarini hayotga joriy etish, ilm-fan va ilmiy faoliyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi qonun hamda Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo'yicha faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish hamda jinoyatlarning omillarini o'z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi [54].

Bugungi kunda respublikamizda kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida "g'oyadan amaliyotgacha" degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni qo'llash tizimini yaratish;

jinoyatchilik, shu jumladan latent jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, salbiy tendensiyalarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

jinoyatning asl omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari tizimini belgilash, kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etib borish;

yuridik, sotsiologik, psixologik, pedagogik, tibbiy, atrof-muhit, raqamli kriminologiya kabi zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish, ta'lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o'qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

zarur tashkiliy-huquqiy va tuzilmaviy asoslarni shakllantirgan holda jinoyatchilik omillari va uning salbiy tendensiyalari bartaraf etilganligini ilmiy baholash amaliyotini yo'lga qo'yish;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manzilli hamkorlikni faollashtirish, qo'shma kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish hamda O'zbekiston kriminologiyasi jahon reytinglarida munosib o'rin egallashini ta'minlash[51].

Qonunchilik hujjatlarida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutiga latent jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, uning omillarini ilmiy diagnoz qilish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda quyidagi manbalarni:

tergovga qadar tekshiruv hujjatlari (jinoyat haqidagi murojaatlar, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlar);

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan jinoyatchilik holatlari haqidagi xabarlar (shu jumladan, ularga yozilgan izohlar);

ijtimoiy fikrni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini o'rganish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan har chorak yakunida tahlil, prognoz va diagnoz natijalarini umumlashtirib, latent jinoyatchilikning tendensiyalari va omillari to'g'risida axborot-tahliliy hujjat tayyorlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlarga kiritish tartibi ham belgilandi [51].

Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etishning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha belgilangan vazifalarni jamiyat ehtiyoji va zamon talablari asosida taʼminlash maqsadida:

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga raqamli kriminalistika sohasida innovatsion tadqiqotlar olib borish, katta hajmdagi maʼlumotlar (“Big Data”), sunʼiy intellekt va boshqa ilgʻor texnologiyalarni tahlil qilib, amaliyotga joriy etish vazifasi yuklatilib, uning tarkibidagi Raqamli kriminalistika ilmiy-uslubiy markazi negizida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi [49];

Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriatning “yurisprudensiya” taʼlim yoʻnalishida oʻqish muddati toʻrt yilni tashkil etadigan “Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati” yoʻnalishida kadrlar tayyorlash ;

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oʻqish muddati bir yilni tashkil etadigan “Kiberxavfsizlikni huquqiy taʼminlash” magistratura mutaxassisligi boʻyicha kadrlar tayyorlash yoʻlga qoʻyildi.

Mazkur chora-tadbirlar, albatta, kelgusida jinoyatchilikni, ayniqsa kiberjinoyatchilikni, shu jumladan uning latent qismini kompleks tahlil qilish, bu sohada ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish hamda amaliyot uchun zarur boʻlgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan manbalar / References**


1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston. T.:”Oʻzbekiston”, 2024. – 560 b. – B.456.
2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik / Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. Rustambayev. M.H. –T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – 305 b. – B.26.
3. Abdurasulova Q., Niyozova S. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari: Oʻquv qoʻllanma / Mas’ul muharrir. yu. f. n., dos Sharipova G.S. – T.:TDYUI, 2006. – 87 b.
4. Abdurasulova Q. Ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslarini takomillashtirish: davra suhbati // Yurist axborotnomasi, 2018. – №3. – B.18.
5. Абельцев С.Н. Личность преступника и проблемы криминального наследия. – М., 2000 – С. 66.
6. Anorboyev A.U. Kiberjinoyatchilik, unga qarshi qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta’minlash istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B.158–159.
7. Altiyev R.S. Firibgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: Yurid. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD)... dis. avtoref. –T., 2020. – B.3.
8. Большая юридическая энциклопедия. – М.: Эксмо, 2008. – С. 277.
9. Боровиков В. Ответственность за вовлечение несовершеннолетних в занятие проституцией. // Законность. 1992. – №12. – С. 14.
10. Chris Crowther. An Introduction to Criminology and Criminal Justice. 2007. – S. 168.
11. Дамаскин О.В. Коррупция: состояние, причины, противодействие: Монография. – М.: Триумфальная арка, 2009. – С. 16.
12. Эффективность юридической ответственности в охране окружающей среды. – М.:Наука, 1985. – С.116.
13. Исмоилов О.Ю. Латент жиноятчиликнинг тушунчаси ва уларни таснифлашнинг хусусиятлари // Kriminologiya va jinoiy odil sudlov, 2021 /1–2. – Б.72–78.
14. Ismoilov O.Yu. Latent jinoyatchilik:tushunchasi va tavsifiy xususiyatlari // Yurist axborotnomasi. – № 2 (2021). – B. 65-70.
15. Ismailov I., Ziyodullayev M.Z. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining kriminologik tahlili va oʻziga xos xususiyatlari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 2, pp. 79-98
16. Иншаков С.М. Латентная преступность в Российской Федерации: 2001 – 2006 / Под ред. Иншаков С.М. – М.: Закон и право, ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 351 с.; С.М. Иншаков Латентная преступность как объект исследования // Криминология: вчера, сегодня, завтра. – № 1 (16). – 2009. – С.107–130.
17. Ильяшенко А.Н. Основные черты насильственной преступности в семье // Социологические исследования. – 2003. – № 4.
18. Каширин Р.М. Оперативно-розыскное предупреждение незаконного оборота наркотических средств в исправительных учреждениях: Дис… канд. юрид. наук. – Псков, 2012.
19. Karpova D.N. Cybercrimes: a global issue and its solution. Vlast'= The Power no. 8, pp. 46–50.
20. Криминология: Учеб. пособие для вузов / Решетников А. Ю., Афанасьева О. Р. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во Юрайт, 2024. – 166 с.;
21. Kriminologiya. Umumiy qism: Darslik / Ismailov I., Abdurasulova Q. R., Fazilov I. Yu.; mas’ul muharrir Ikramov Sh.T. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 272 b. – B.74.
22. Kriminologiya: Uchebnik. Otv.redaktor: Rustambayev M.X. – Tashkent: TGYUI, 2008. – S.233.
23. Kriminologiya: Darslik / Zaripov Z.S., Yakubov A.S., Avanesov G.A. va boshq.; prof.Zaripov Z.S.ning tahriri ostida – T.: Oʻzbekiston Ryespublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 539 b. – B.60.
24. Лунеев В.В Преступность XX века. Мировые, региональны и российские тенденции. – М., 1997. – С.125.;
25. Mustafoqulov B.A. Voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligiga qarshi kurash tizimini takomillashtirish – davr talabi//Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yetuk professional kadrlarni tayyorlash: tendensiyalar va istiqbollar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024-yil 4-sentabr) / Mas’ul muharrir: Nigmatov R.O. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. – 594 b. – V.559–562.
26. Meliyev X.X. Korrupsiyaviy jinoyatchilik va unga qarshi kurashishning kriminologik choralari: Yurid. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD)... dis. avtoref. – T., 2024. – 59.b.
27. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: Yurid. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD)... dis. – T., 2019. – B.28,110.
28. Mo'minov B.A. Firibgarlik to'g'risidagi jinoyat ishlarini ko'rib chiqishga oid sud amaliyotining dolzarb masalalari// Firibgarlik va kiberjinoyatlar sodir etilishini oldini olishdagi huquqiy muammolar”xalqaro konferensiya materiallari (2021-yil 5-oktyabr) – B.77–78
29. Миненок М.Г., Миненок Д.М. Корыст. Криминологическая и уголовно-правовые проблемы. – СПб.: Юридический центр пресс, 2001. – С. 81.
30. Mirshayeva K.O. Ayollar tomonidan gʻaraz maqsadlarda zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish: Yurid. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD)... dis. – T., 2024. – B.77.
31. Мурзагареева Е. В. Женская преступность и ее предупреждение //Право. Общество. Государство. 2018. – С. 85.
32. Niyozova S. Shaxsga qarshi zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologik profilaktikasiga doir xorijiy davlatlar tajribasi // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2020. – №03. – B.141.
33. Ochilov H.R. Oʻzgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik. Yurid. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD)... dis. avtoref. – T., 2017. – 63 b.
34. Поляков М.М. Административно-правовые способы предупреждения коррупционных правонарушений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. –М., 2009. – С. 12.
35. Простосердов М.А. Экономические преступления, совершаемые в киберпространстве и меры противодействия им: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2016. – С 190–191.
36. Rustambayev M.X., Abdurasulova Q.R., Nurmuhammedova G.B. Kriminologiya. Darslik. T.:Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 424 b. –B.29-30.
37. Raxmanov R.N. Oila turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning viktimologik tavsifi va profilaktikasi: Oʻquv qoʻllanma. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. ‒ 68 b. – B.73.
38. Tashtemirov A.A. Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlikni fosh etish bilan bogʻliq masalalar // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. Journal of Law Research. 2022, Special issue 6, pp.130-137.
39. Usmonaliyev. M., Karaketov Y.M. Kriminologiya. Darslik. Ma’sul muharrirlar: Abdurasulova Q.R., Tohirov F.T. T.”Yangi asr avlodi”, 2001.
40. Utemuratova S.Sh. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ayrim kriminologik jihatlari // Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 16-oktabr. I qism . – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 491 bet. – B. 415–420.
41. Отаубаева А.Б. Разграничение преступлений и административных правонарушений в сфере экологии: сравнительно-правовой анализ законодательства Казахстана и Узбекистана // O'zbekiston qonunchiligi tahlili ilmiy-tahliliy jurnal. – 2025. – №3. – Б.65–73.
42. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olish: Monografiya. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 152 b. – B.16.
43. Viktimologiya: Darslik / Abdurasulova Q.R. , Zakirova A.G., Muxitdinov F.M. va boshq.; mas’ul muharrir, professor Muxitdinov F.M. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 320 b. – B.246.
44. Yuridik atamalar qomusiy lugʻati / Mas’ul muharrir prof. H.R Raxmonqulov. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 208.

45. Zufarov R.A. Poraxo‘rlik uchun jinoiy javobgarlik // Masul muxarrir: y.f.d., prof. Rustambayev M.X. – T:.TDYUI., 2004. – 221-b. – B.57.
46. Состояние преступности в сфере незаконного оборота наркотических средств в Российской Федерации. Региональные различия: Монография / под ред. Евлановой О. А. – М.: Юрлитинформ, 2013. –.304 с
47. Зумакулов Д., Прохоров Л. Квалификация экологических преступлений // Российская юстиция. – 2000. – №8. – С.36.
48. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo‘llanma / Sh. A. Pulatova, A. Sh. Murodov. – Toshkent: Baktria press, 2020. – 56 b. – B.9.
49. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-229-son qarori// https://lex.uz/docs/6977736
50. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-17-son qarori https://lex.uz/docs/7339006.
51. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-22-son qarori //https://lex.uz/docs/6755253
52. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2883-son qarori // https://lex.uz/docs/3165013
53. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3919-son qarori // https://lex.uz/docs/3877315
54. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-10-son Farmoni//https://lex.uz/docs/6755597
55. O‘razaliyev M.Q. Jinoyatchilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy salbiy hodisalarning sabablari va ularning oldini olish: Monografiya. – T.: TDYUU nashriyoti, 2023. –196-b. – B.67.
56. Шиян В. И. Личности потерпевшего от насильственных преступлений, совершаемых женщинами // Профессионал. 2017. – № 5 (85). – С. 33.

# VOYAGA YETMAGAN SHAXSNING JINSIY DAXLSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA UNING HOLATI



***Niyozova Salomat Saparovna***

*yuridik fanlar doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti professori*

*доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета*

*Doctor of Law, Professor of the Tashkent State Law University*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxsning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va uning holatiga doir ilmiy yondashuvlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada jinsiy jinoyatlar shaxsga qarshi qaratilgan, jinsiy erkinlik va daxlsizlikka tajovuz qiluvchi, jamiyat uchun eng xavfli jinoyatlardan biri ekanligi hamda uning ijtimoiy xavfliligi borasida olimlarning fikrlari keltirilgan va tegishli taklif va tavsiyalari berilgan.*
***Kalit so‘zlari:*** *jazo, javobgarlik, jabrlanuvchi, jinoyat, jinsiy, jinsiy daxlsizlik, jinoiy-huquqiy jihatlari, zo‘ravonlik, tajovuz, nomusga tegish*

***SCIENTIFIC APPROACHES TO THE OBJECTIVE SIGNS OF SEXUAL CRIMES***

***Abstract.*** *This article analyzes the concept of crimes against the sexual inviolability of a minor and scientific approaches to its status. In addition, the article presents the opinions of scientists on the fact that sexual crimes are directed against the individual, encroach on sexual freedom and immunity, are one of the most dangerous crimes for society, and its social danger, and provides relevant proposals and recommendations.*
***Keywords:*** *Punishment, responsibility, victim, crime, sex, sexual integrity, criminal-legal aspects, violence, aggression, defamation.*

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi tajovuzlarning sodir etilish sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish muammolarini o‘rganish va ularga yechim topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Voyaga yetmaganlar jismoniy va aqliy jihatidan hali to‘liq shakllanmaganligi bois, ularga nisbatan alohida munosabatda bo‘lish va maxsus huquqiy himoya qilish taqozo etiladi.

Darhaqiqat, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda jinoyat sodir etishning sharoit va sabablari, jinoyatchi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi. Shunga muvofiq, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyatlar kriminologik jihatdan o‘rganilganda, bunday jinoiy faoliyatni davom ettirish yoki yangi jinoyat sodir etilishi mumkinligini oldini olish uchun qanday harakatlar qilish kerakligi va boshqa shaxslar tomonidan shunday qilmish sodir etishlarining oldini olish ko‘zlanadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyat sodir qilgan jinoyatchi shaxsiga qonun yo‘li bilan bunday jinoyatni oldini olishning qanday choralari ko‘rilishi mumkinligini ham belgilaydi.

Voyaga yetmagan shaxslarning hayotiy tajribasi hamda huquqiy ongining yetarli emasligi bu turdagi jinoyatlarning latentligi har doim yuqori darajada boʻlishiga bevosita taʼsir etadi. Oʻtkazilgan soʻrovlar natijalari ham ushbu holatni yana bir bor tasdiqladi. Unga koʻra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar ularga nisbatan sodir etilgan jinoyat boʻyicha: 39,5 % holatda hech kimga xabar bermagan, 9 % holatda faqat yaqin qarindoshlariga xabar bergan, 20,5 % holatda «sharmanda boʻlishi»ning oldini olish uchun sir saqlagan; shuningdek, 31 % holatda jabrlanuvchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik bildirgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, voyaga yetmaganlarning, yaʼni 18 yoshga toʻlmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini har qanday tajovuzlardan huquqiy himoya qilish har bir davlat hududida nafaqat hozirgi davr uchun, balki insoniyat tarixining barcha davrlari uchun muammoli tarzda xos [1] boʻlib, bu oʻziga xoslik uni mustaqil tadqiqot predmeti sifatida bevosita tahlil qilib chiqishni taqozo etmoqda.

*Material va metodlar.* Tadqiqot davomida voyaga yetmagan shaxsni jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar tushunchasi va uning holati oʻrganildi.

Mazkur tahlil jarayonida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni rivojlantirish hamda amaliyotni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Ushbu tadqiqot ishida tahlil qilish, funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik soʻrovlar oʻtkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

*Tadqiqot natijalari.* Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligini muhofaza qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki voyaga yetmagan shaxsning jinsiy hayotga barvaqt jalb qilinishi jismoniy va ruhiy sogʻligʻiga katta zarar yetkazishini hisobga olib, uning jinsiy daxlsizligi himoya ostiga olingan ijtimoiy qadriyatlar bilan bir qatorga qoʻyilishi lozim.

Bolalarning ongi va axloqiga qaratilgan tajovuzlardan biri uning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan harakatlardir. Ushbu “insoniy fazilatlarga zid” jinoyatlar uchun qattiq jazo choralarini belgilash ham tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda bolalarning jinsiy daxlsizligini muhofaza qilish doimo yuridik fanning ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan va shunday boʻlib qolmoqda [2].

Jinsiy zoʻravonlik bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalaning eng xavfli va koʻpincha yashirin shakli hisoblanadi. U aksariyat hollarda bolaning ruhiy holati oʻziga xos tarzda buzilishiga sabab boʻladi, shu bois kasalliklarning xalqaro tasnifi va tadqiqotchilar tomonidan mustaqil muammo sifatida tan olingan. Bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlikka doir statistika maʼlumotlari turli mamlakatlarda turlicha boʻlib, ularning miqyosi anchagina keng. Ayrim maʼlumotlarga koʻra, AQSH va Buyuk Britaniyada ayollarning 20–30 %, erkaklarning 10 % bolaligida turli jinsiy tajovuzlardan jabr koʻrishgan[3].

Har qanday bola jinsiy zoʻravonlikdan jabrlanishi mumkin, bunday zoʻrlikka qizlar oʻgʻil bolalarga qaraganda uch baravar koʻproq duchor boʻladi. Baʼzi manbalarda keltirilishicha, mamlakatimizda har yili yuzlab bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik holatlari roʻyxatga olinadi, biroq, baʼzi bir tadqiqotchilarning fikriga koʻra, jabrlanganlar soni amalda rasmiy roʻyxatga kiritilganiga nisbatan kamida oʻn baravar koʻproqdir [4].

Jinsiy jinoyatlarning latentlik darajasi juda yuqori boʻlgani bois ularning toʻliq statistik hisobini yuritish mumkin boʻlmasa-da, tegishli jinoyat ishlari boʻyicha ekspertiza, tergov va sud amaliyoti natijalarining tahlili hamda olib borilgan ayrim tadqiqotlar bunday jinoyatlar miqdori hozirgi vaqtda ancha koʻpayganligini qayd etish imkonini beradi. Mutaxassislar bu “muztogʻ”ning choʻqqisi xolos, amalda bunday jinoyatlar ancha keng tarqalgan, degan fikrni ilgari surmoqdalar. Bizning fikrimizcha, bunday hol oilaviy-maishiy sohaga koʻproq tegishlidir [5].





Hozirgi vaqtda kattalar va bolalar oʻrtasidagi jinsiy munosabatlar aksariyat mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida qattiq qoralanadi. Xususan, AQSH jinoyat qonunchiligida bolalarning nomusiga tegish, ularni jinsiy tahqirlash, bolani yoʻldan ozdirish, bolalarga shilqimlik qilish, yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada boʻlganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan [6].

Bolalarga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etganlik, ularni pornografiya mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki fohishalikka jalb etganlik uchun kattalar ogʻir jazoga tortiladi. Jazo chorasi nafaqat jinsiy harakatlarning xususiyatiga, balki jabrlanuvchining yoshiga ham bogʻliq boʻladi. Bola huquqlari toʻgʻrisidagi Konvensiyaga muvofiq, 18 yoshga toʻlmagan shaxslar bola hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinsiy jinoyatlar turdosh (oʻxshash) obyektiga koʻra alohida bobga ajratilgan. Oilada bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismining IV va V boblaridagi 118, 119, 128 va 129-moddalarida javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinsiy jinoyatlar orasida ayniqsa kichik yoshdagi bolalar va oʻspirinlarning nomusiga tegish xavfli, chunki bunday qilmish jabrlanuvchiga ancha jiddiy (jumladan, jinsiy aʼzolarning shikastlanishi bilan bogʻliq) jismoniy zarar yetkazadi, ayol yoki erkak organizmi, bola ruhiyatining normal rivojlanishi va shakllanishining buzilishiga sabab boʻladi, koʻp hollarda bunday zarar jabrlanuvchilarning nomusiga tajovuz qilish bilan bogʻliq boʻlib, ular uchun ancha ogʻir ruhiy oqibatlarni vujudga keltiradi.

Nomusga tegish oqibatida voyaga yetmagan qizning homilador boʻlishi ham nihoyatda xavflidir. Bu turdagi jinoyatlar amalda ancha koʻp uchraydi, lekin ulardan atrofdagilar doim ham ogoh boʻlavermaydi va shu sababli ularning aybdorlari jinoiy taʼqib qilinmaydi.

Bolalarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan, anomal seksual xulq-atvorning turli-tuman shakllarini oʻzida mujassamlashtirgan ayblanuvchilar orasida pedofiliya va efebofiliyaga moyil boʻlganlar koʻpchilikni tashkil etadi.

“Pedofiliya” atamasi ikki maʼnoda qoʻllaniladi, torroq maʼnoda u “bachchabozlik”ni, kengroq maʼnoda esa “bolalarga nisbatan jinsiy maylning kuchliligi”ni anglatadi. Pedofiliyaning alohida turi boʻlgan efebofiliya (epheb – oʻsmir) jinsiy yetilish davrida ikkala jinsdagi yoshlarga nisbatan jinsiy maylning kuchliligidan iborat perversiya bilan tavsiflanadi [7]. Pedofiliya bolalar bilan jinsiy aloqa qilishga intilishda namoyon boʻluvchi seksual maylning buzilishidir. Bola bilan jinsiy aloqa qilishni afzal koʻruvchi, uning seksual faolligi faqat bolalarga nisbatan namoyon boʻlgan taqdirda, bunday harakatlar haqiqiy pedofiliya hisoblanadi. Katta yoshdagi erkakning qiz bola bilan uning jinsiy yetilish davrida yoki buning arafasidagi ayrim aloqalari pedofiliya hisoblanmaydi.

Mutaxassislar jinsiy aloqa qilishdagi qiyinchiliklar yoki bunday aloqa qilish imkoniyatining yoʻqligi tufayli yuzaga kelgan oʻrindosh pedofiliyani haqiqiy pedofiliyadan farqlaydilar. Ayni holda voyaga yetgan odam bilan jinsiy aloqa qilish afzalroq boʻlsa-da, shaxs bolalarga nisbatan jinsiy harakatlar qilish bilan kifoyalanishga majbur boʻladi. Oʻrindosh pedofiliya qarilik davrida koʻproq kuzatiladi [8].

Yu.M.Antonyan va S.P.Pozdnyakova bergan maʼlumotlarga koʻra, pedofiliya jinsiy maylning mazkur mayl obyekti oʻzgarishi bilan bogʻliq buzilishining qariyb yarmida uchraydi [9]. Bunda u juda katta xavf tugʻdiradi, zero shaxsda patologiyaning mazkur shakli mavjud boʻlganida u bolalarga nisbatan kuchli kriminogen faollik koʻrsatadi va bu oʻrganilayotgan muammoning yechimini topish katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar” deb nomlangan IV bobi (118–120-moddalar) va “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” deb nomlangan V bobi (128–129-moddalar)da nazarda tutilgan jinoyatlar pedofiliya yoki efyebofiliya

xususiyatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Bolalarga nisbatan sodir etiladigan seksual harakatlar har xil: bolaga erotik erkalash obyekti deb qarash, o‘zida yoki mazkur harakatlar tashabbuskorida jinsiy ehtiros qo‘zg‘atish, petting, jinsiy, oral yoki anal aloqalarga og‘dirilishida namoyon bo‘lishi mumkin. Amalda gomoseksual va geteroseksual pedofiliya ko‘proq uchraydi.

Pedofiliya psixiatrlar, shu jumladan sud psixiatriyasi mutaxassislari va, ayniqsa, seksologlar e’tiborini ko‘pdan beri o‘ziga tortib keladi. Bu hodisaga nisbatan kriminologlar, kriminalistlar va jinoyat huquqi sohasidagi mutaxassislarning qiziqishi tabiiydir. Pedofillar va ularning xulq-atvori penitensiar yo‘nalish mutaxassislari tomonidan ko‘p o‘rganiladi.

Pedofiliyaga ilk tavsiflardan birini R.Kraft-Eybing (1912) bergan bo‘lib, u pedofillarga bolalarga nisbatan birlamchi jinsiy mayl tug‘ilishi, potensiyaning saqlanishi, kattalar bilan muloqot qilish natijasida jinsiy ehtirosning qo‘zg‘alish imkoniyati yo‘qligi xos ekanligini, jinsiy aloqa qilishda quyushqondan chiqish hollari kuzatilishini, bolalar ularning o‘z jinsiy ehtiyojini qondirish obyektiga aylanishini qayd etadi. Uning fikricha, bunday jinoyatlarning aksariyatini, eng qabih va jirkanchlarini ruhiy kasallar emas, balki tabiiy jinsiy munosabatlardan zerikish natijasida, ba’zan mastlik oqibatida o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotgan sog‘lom odamlar sodir etadilar.

R.Kraft-Eybing bolalarga tajovuz qiluvchi jinsiy jinoyatchilarni quyidagi guruhlarga ajratgan:

1. Ayol bilan odatiy va noodatiy jinsiy aloqa qilishning barcha usullarini sinab ko‘rgan, o‘z tuyg‘ularini junbishga keltirish, umuman olganda o‘ziga yangicha jinsiy lazzat baxsh etish maqsadidagina qiz bolaning nomusiga tegadigan buzuq odamlar.

Ayni paytda, ayol bilan jinsiy aloqa qilish uchun jinsiy quvvatning yetishmasligi yoki potensiya paydo bo‘lishi uchun ilgari sinalmagan ta’sirlantiruvchi omillarga ehtiyoj ham ma’lum ma’noda rol o‘ynashi mumkin.

2. Ayollar bilan jinsiy aloqa qilishda o‘z potensiyasi va dadil harakat qilishiga ishonmaydigan yoki hozircha ishonmaydigan yosh yigitlar. Bular asosan ruhiy impotensiyaga yoki jinsiy zaiflik negizidagi impotensiyaga yo‘liqqan va bolalar bilan axloqqa zid harakatlarda o‘zi amalga oshira olmaydigan jinsiy aloqa muqobilini (ekvivalentini) izlayotgan odamlardir. Bunday odamlarga jinsiy lazzat olish (orgazm) va shahvat chiqishi (eyakulyatsiya) uchun bolalarni ehtiros bilan paypaslashning o‘zi kifoyadir.

3. O‘ziga qarash yoki tarbiyalash uchun topshirilgan o‘g‘il bolalardan jinsiy aloqa qilish uchun foydalanadigan xizmatkor ayollar, murabbiyalar, hatto qarindoshlar yana bir keng toifani tashkil etadi.

R.Kraft-Eybing bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarni tahlil qilar ekan, mazkur harakatlarda aybdorlar orasida qariligi tufayli aqli zaiflashgan, epilepsiya, alkogolizmga yo‘liqqanlar, tug‘ma aqli past odamlar ham anchagina ekanligini qayd etadi. Olim mazkur odamlarning axloqiy tuyg‘u va jinsiy qobiliyatida nuqsonlar bor, deb hisoblaydi. Biroq axloqiy buzuqlik va jinsiy zaiflik o‘z holicha subyektni aqli noraso deb topish uchun asos bo‘lmaydi, chunki normal jinsiy aloqalardan zerikkanlik, ba’zan mastlik negizidagi oddiy buzuqlik nafsi buzuq shaxslarni bunday g‘ayritabiiy qilmishlarni sodir etishiga olib kelishi mumkin. Lekin jinoiy harakatning g‘ayrioddiylik darajasi qancha yuqori, uni sodir etgan odam normal jinsiy aloqa chegarasidan jismoniy va ruhiy jihatdan qancha ko‘proq chetga chiqqan bo‘lsa, jinoyatning subyektiv tomoniga baho berishda shuncha ehtiyot bo‘lish kerak [10].

Boshqa olimlarning fikriga ko‘ra, pedofiliyani diagnostika qilish mezonlari qatoriga jinsiy yetilish yoshiga to‘lmagan bolalar bilan erotik va seksual manipulyatsiyalarni amalga oshirish, geteroseksual moslashuvning yo‘qligi yoki uning kamida olti oy mobaynida susayishi bilan birga kuzatiladigan bolalarga nisbatan jinsiy maylning kuchliligi kiradi [11].

Bunday turdagi jinoyatlar ancha ko‘p uchraydi, lekin ulardan atrofdagilar doim ham ogoh bo‘lavermaydi va shu sababli aybdorlar jinoiy ta’qib qilinmaydi, ya’ni yuqorida qayd etib o‘tilganidek, bunday qilmishlar latentligining nihoyatda yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Masters va Jonson bergan ma’lumotlarga ko‘ra, bolalarning nomusiga tegish bilan bog‘liq holatlarning deyarli uchdan birida jinoyatchi ularning qarindoshi bo‘lgan. B.Z.Shayxovaning yozishicha, kichik yoshdagi (10 yoshga to‘lmagan) jabrlanuvchilarning qariyb yarmi o‘z oila a’zolari yoki tanishlarining jinsiy tajovuziga uchragan.

2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118, 119, 128, 129-moddalariga muvofiq qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari umumiy sonining 4,2 % ni sodir etilgan jinsiy jinoyatlar tashkil etadi. Bunda o‘gay ota-qiz (52,7%), ota-qiz (22,7%), aka-singil (8,1%) juftligi ko‘proq bo‘lgan ota-o‘g‘il, ona-o‘g‘il, bobo-nevara juftligi kamroqni tashkil qilgan.

O‘rganilgan jinoyat ishlarining barchasida seksual harakatlar jabrlanuvchilarning roziligisiz sodir etilgan, faqat bir o‘smir aybdorga ijobiy munosabatda bo‘lgan, unga sukut saqlash bilan rozilik bergan va ularning munosabatlari to jabrlanuvchining buvisi voqea haqida ichki ishlar organlariga xabar bergunga qadar ikki yil davom etgan.

Biroq, nomusga tegish, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan seksual harakatlar va uyatsiz buzuq harakatlar, odatda, jabrlanuvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysundirish orqali amalga oshirilgan, jinsiy aloqa aldov yo‘li bilan ham sodir etilgan.

Jinoyatchilar (78 %) spirtli ichimliklar ichib, ayrim hollarda esa o‘ta mast holda bo‘lganlar [12], lekin bu harakatlarni, odatda, ularning mohiyatini to‘liq anglagan holda sodir etganlar. Shu narsa diqqatga sazovorki, aybdorlar ko‘pincha o‘zlarining bunday harakatlarini aynan mastlik bilan izohlaydilar, ba’zan hech narsani eslay olmasliklarini qayd etadilar.

Jinoyatchining spirtli ichimlik iste’mol qilishi va uning mast holda jinsiy jinoyatni sodir etishi o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik ko‘zga tashlanadi. Bizning ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rganilgan jinoyat ishlarining 78 % da jinoyatchilar oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarni sodir etgan paytida spirtli ichimlik iste’mol qilib, mast holatda bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalari bolalikda jinsiy tajovuzga duchor bo‘lish xavfi o‘gay ota bo‘lgan oilada tarbiyalanayotgan qizlarga ko‘proq tahdid solishini ko‘rsatadi.

Masalan, sud V.ni o‘gay qizining nomusiga tekkanligi uchun jazoga hukm qiladi. Xotini ish bo‘lgan paytida mahkum uning 13 yashar qizi J.ning nomusiga tegishga harakat qilgan, biroq qiz yordam so‘rab qichqira boshlagan. Yordamga qo‘shnilar yetib kelgach, erkak qizni qo‘yib yuborgan. V. o‘z harakatlarini kechasi takrorlab, J.ning nomusiga tekkan. Ertasiga jabrlanuvchi onasi ishlaydigan kasalxonaga kelib, unga o‘gay otasi tinimsiz ichkilik ichayotganini aytgan va undan uyga qaytishni so‘ragan, biroq uni ranjitgisi kelmay yuz bergan voqea haqida og‘iz ochmagan. Tunda o‘gay ota yana qiziga jinsiy zo‘ravonlik qilgan. Bu safar J. bo‘lgan voqeani onasiga gapirib bergan. Onasi bu haqda o‘z dugonasi orqali ichki ishlar organiga xabar bergan, chunki buni o‘zi qilishga qo‘rqqan. Sud tibbiy ekspertizasi xulosasiga ko‘ra, nomusga tegish harakatlari sodir etilganidan so‘ng qiz uzoq vaqt uxlay olmagan, yuz bergan voqea unga og‘ir ta’sir qilgan.

Boladan o‘z jinsiy ehtiyojini qondirish uchun foydalanadigan oilaning katta yoshli a’zosi uning tuyg‘ulari va keyingi taqdiri bilan mutlaqo qiziqmaydi, balki o‘zining jinsiy maylini qondirish haqida o‘ylaydi, xolos. Holbuki, bunday aloqa bolaning ruhiyatiga begona odam tomonidan sodir etilgan ayni shunday harakatlarga qaraganda ko‘proq darajada shikastlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, chunki jabrlanuvchi oilaviy rishtalar bilan bog‘langan, oila a’zosi hisoblangan tajovuzkorga to‘liq qaram bo‘ladi. U hatto o‘z oilasi bag‘rida ham o‘zini xavfsiz his etmaydi va kuchli ruhiy zo‘riqishni boshdan kechiradi.

Otasi nomusiga tekkan qizning ahvoli favqulodda og‘ir, hatto fojialidir. U otasi bilan yomon ish qilganini yaxshi anglaydi, unda aybdorlik tuyg‘usi shakllanadi, bu tuyg‘u uni bir lahza ham tark etmaydi, sharoit uni o‘zi moddiy jihatdan qaram bo‘lgan ota-onasini yaxshi ko‘rishga majbur qiladi. U o‘zi yordam so‘rab murojaat qilishi mumkin bo‘lgan odam yo‘qligini his qiladi.

U o‘zi va otasi orasidagi munosabatlardan begonalar xabar topgudek bo‘lsa, oila buzilsa, javobgarlik o‘z zimmasiga tushishini, otasini qamab qo‘yishsa, onasi moddiy ko‘maksiz qolishini o‘ylab, onasini ranjitishni istamaydi. Odatda, bu fikrni unga otasi uqtiradi. Jabrlangan bola dahshatli yolg‘izlik va bu dunyoda ortiqchalik tuyg‘usini his etadi.

Shu holat diqqatga sazovorki, ba’zan o‘gay ota yoki ota o‘z qiziga jinsiy zo‘ravonlik qilayotganidan ona xabardor bo‘ladi, biroq bunga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilmaydi. Yuz bergan voqeani har xil vajlar, chunonchi: erdan ayrilish, uydan haydalish yoki erining o‘zidan o‘ch olishidan qo‘rqish, atrofdagilardan uyalish, biror-bir suiiste’molliklarning fosh bo‘lishidan cho‘chish va hokazolarga ko‘ra yashirishga harakat qiladi, ammo barcha holatlarda ham bolaga nisbatan befarqlik odatdagi bir hol ekanligini qayd etadi. Ayrim hollarda ishni bosdi-bosdi qilishga urinishlar kuzatiladi, bunda onalar har xil uydirmalar to‘qish, qiz bolani yolg‘on ko‘rsatmalar berishga ko‘ndirishdan ham qaytmaydilar.

Aksariyat hollarda xotin erining uni tashlab ketishidan qo‘rqadi, ba’zan moddiy sabablarga ko‘ra shunday ish tutadi. Ayniqsa, jinoyatchi oilaning birdan-bir boquvchisi bo‘lganida, ona, agar erini qamab qo‘yishsa, oilasining moddiy jihatdan qiynalib qolishidan cho‘chiydi. Bunga P.ning jinoyat ishi misol bo‘lishi mumkin. U ishdan mast holda kelgan va ular bilan birga yashaydigan va ularning chaqalog‘iga qaraydigan 12 yashar qayinsinglisining nomusiga tekkan. Jabrlanuvchi ota-onasiz yetim bo‘lgan, shu sababli uni va ukasini katta opasi mazkur oilaning birdan-bir boquvchisi sanalgan mahkum bilan birga tarbiyalagan [13].

Nima uchun jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi jinoyatchilar o‘z tajovuzlarining obyekti sifatida o‘z oilasining a’zosi bo‘lgan voyaga yetmaganlarni tanlaydilar? Balki buning sababi bolalar o‘zlari ishonishga odatlangan yaqin odamlariga kuchli qarshilik ko‘rsatmasligi, bu odam ularni osongina ko‘ndirishi yoki aldashi mumkinligidadir. Yaqin qarindoshlarining jinsiy tajovuziga duchor bo‘lgan bolalar yuz bergan voqea haqida birovga og‘iz ochishni uncha xohlamaydilar va o‘zlari ham yuz bergan voqeaning mohiyatini doim ham tushunavermaydilar.

Jinsiy zo‘rlik ishlatishning latentligi jabrlanuvchining o‘z atrofidagilardan uyalish, o‘ziga nisbatan bunday harakatlar sodir etgan shaxsdan qo‘rqish natijasida yuz bergan voqeani yashirishga intilishi bilan izohlanadi [14].

Bizning tadqiqotlar ham buni to‘liq tasdiqlaydi. Undan tashqari, o‘smirlar o‘z yaqinlariga yordam va himoya so‘rab murojaat etganida, ular mazkur voqeaga befarq qaraganlar, tubanlikka tushgan onalar esa, jabrlanuvchilarning so‘zlariga qaraganda, hatto ularni “rashk qilganlar” va bunda ularning o‘zlarini ayblaganlar. Vaziyat o‘z yechimini topmagani bois o‘smirlar uydan bosh olib chiqib ketishga majbur bo‘lgan, natijada ko‘chada qolgan va keyinchalik ayni shu jinoyatlardan jabrlangan shaxslarning o‘zi ham jinoyatga qo‘l urgan [15]. Hatto otasi nomusiga tekkan 14 yashar qizni o‘z onasi o‘ldirganligi ham ma’lum [16].

O‘z farzandlariga nisbatan jinsiy harakatlar sodir etish muammosi tabiatning eng chigal jumboqlaridan biridir. Bunday tajovuzlar inson mavjudligining teran mazmuniga mutlaqo ziddir. Insoniyat bunday harakatlar bilan o‘z kelajagini barbod qilishi, o‘z mehnati va ijodini behuda ishga aylantirishi mumkin [17].

Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘rlik ishlatish keng tarqalgani tufayli jahon hamjamiyati tomonidan bolalarni himoya qilish ishi eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu boradagi tadqiqotlarning ahamiyati Yevropa Kengashining Vazirlar qo‘mitasi a’zo-davlatlarga boylik orttirish, pornografiya, fohishalik, bolalardan shahvoniy maqsadda foydalanish maqsadida ularni savdo qilishni taqiqlash xususida bergan R(91)II sonli tavsiyalarida (Vazirlar qo‘mitasi tomonidan 1991-yil 9-sentyabrda qabul qilingan) ham ko‘rsatib o‘tilgan [18].

Yevropa Kengashi Vazirlar qo‘mitasi Ustavining 15-moddasi “b” bandiga muvofiq, shuningdek BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (1989)ni nazarda tutib, a’zo-davlatlarga quyidagi:

1) bolalar va voyaga yetmaganlarni shahvoniy maqsadda ekspluatatsiya qilishning xususiyati va har xil shakllari (ayniqsa madaniyat darajasini hisobga olib);

2) pedofiliyaning tabiati va unga turtki beruvchi omillar;

3) farzandlikka olish va shahvoniy maqsadda ekspluatatsiya qilish o‘rtasidagi aloqadorlik;

4) oiladagi jinsiy tajovuzlar va fohishalikning aloqadorligi;

5) bolalar fohishaligi va pornografiyasi mijozlarining tavsifi, roli va ehtiyojlari;

6) fohishalikka jalb qilingan yoshlarni bu yo‘ldan qaytarish dasturlari va ularga kasb o‘rgatish masalalariga doir tadqiqotlar;

7) shahvoniy industriyaning tuzilishi, xalqaro tarmoqlari, o‘zaro aloqalari va daromadlari;

8) porno, shahvoniy-industriya va uyushgan jinoyatchilikning aloqadorligi;

9) bolalar va voyaga yetmaganlarning shahvoniy maqsadda ekspluatatsiya qilinishining oldini olish va ularga barham berish vositasi sifatida jinoyat adliyasi organlarining imkoniyati va chegaralari;

10) bolalarda jinsiy yo‘l bilan o‘tuvchi kasalliklar epidemiologiyasi, sabablari va oqibatlarining jinsiy tajovuzlar va bolalarni shahvoniy maqsadda ekspluatatsiya qilish bilan aloqadorligini milliy va xalqaro miqyosda tadqiq etish tavsiya qilinadi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish va ba’zi taklif va tavsiyalarni ilgani surish mumkin. Jumladan:

*Birinchidan,* voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etilgan beqaror oilada ijtimoiy nazorat olib borish funksiyasi buziladi, yosh avlodning axloqiy tarbiyasi yomonlashadi, yoshlarda moddiy manfaat izidan quvish, har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, bir lahzalik lazzat olishga intilish hissiyoti kuchayadi. Bu hol tiyiqsiz axloqiy erkinlikka olib keladiki, uning o‘zagini jinsiy beboshlik, bu borada ko‘p sonli taqiqlarga befarqlik shakllanadi. Ruhiy holati buzilgan shaxslar tomonidan oilada g‘ayriqonuniy qilmishlarning sodir etilishi ehtimoli ko‘payadi.

*Ikkinchidan,* bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan, anomal jinsiy xulq-atvorning turli-tuman shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxslar orasida pedofiliya va efebofiliyaga moyil shaxslar ko‘proq uchraydi.

*Uchinchidan,* jinoyatlarning ushbu turiga o‘ta yashirinlik (latentlik) xos; o‘gay ota-qiz juftlari, ayniqsa, ko‘p uchraydi; oilada bolalarga nisbatan jinsiy tajovuzlar o‘rta hisobda ikki yil, odatda, jabrlanuvchilar roziligisiz, davom etgan, jinsiy aloqa ko‘pincha aldov yo‘li bilan, bolalarning ishonuvchanligi, itoatkorligi, kattalarga qaramligidan foydalanib amalga oshirilgan; jinoyatchi aksariyat hollarda spirtli ichimlikdan mast holatda bo‘lgan, biroq o‘z harakatlarining mohiyatini to‘liq anglagan holda sodir etgan. Jinsiy munosabatlarning xususiyati har xil bo‘lgan, ko‘pincha buzuq tarzda sodir etilgan.

*To‘rtinchidan,* bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etgan jinoyatchi shaxslarni vaziyat taqozosiga ko‘ra va ataylab zo‘rlik ishlatuvchi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Jumladan, *vaziyat taqozosiga ko‘ra* jinsiy zo‘rlik ishlatuvchilar bir necha tipga ajratilgan:

a) regressiv zo‘rlik ishlatuvchilar. Bu guruh o‘zini hurmat qilmaydi, oilaviy munosabatlarda

vaziyatni boshqara olmasligi, o‘z mayllarini nazorat qilish va boshqarishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi; o‘z farzandlarining bo‘ysunishi, ular ustidan hukmronlik qilishga urinishi ularga nisbatan zo‘rlik ishlatilishiga olib keladi;

b) odamning farqiga bormaydigan zo‘rlik ishlatuvchilar. Ular o‘ziga yaqin barcha odamlar (xotini, qarindoshlari, do‘stlari)ga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘ladi. Hatto bola ham bunday munosabat obyektiga aylanishi mumkin. Mazkur tipga mansub jinoyatchilar, odatda, jismoniy kuch ishlatib, bolani o‘zi bilan jinsiy aloqa qilishga majburlaydi;

v) seksual munosabatlarda odam tanlamaydigan zo‘rlik ishlatuvchilar, ya’ni o‘z jinsiy ehtiyojlarini qondirishda chegara bilmaydigan “jinsiy eksperimentchi” nazarda tutilishi mumkin;

g) insoniy tuyg‘ularni yo‘qotgan zo‘rlik ishlatuvchilar. Bu tipga ijtimoiy qadriyatlarni mensimaydigan odamlar kiradi. Ular uchun bolalar zarracha qimmat kasb etmaydi.

*Ataylab jinsiy zo‘rlik ishlatuvchi jinoyatchilar.* Bu guruhga jinsiy mayli faqat bolalarga qaratilganlar kiradi.

Ataylab jinsiy zo‘rlik ishlatuvchilar orasida quyidagilar farqlanadi:

a) qiziqtirib yo‘ldan uradigan odamlar. Bular bolalar bilan til topishib, ularda o‘ziga ishonch uyg‘ota oladigan odamlardir. Jinsiy munosabatlarga tortish bolaga diqqat-e’tibor ko‘rsatish, uning ko‘nglini ovlash, shuningdek sovg‘alar berish orqali amalga oshiriladi;

b) introvertlar. Bunday zo‘rlik ishlatuvchining jinsiy mayli ham bolalarga qaratilgan bo‘ladi, biroq u qiziqtirib yo‘ldan uruvchi kabi bolalar bilan tez til topisha olmaydi. Bola bilan jinsiy munosabatlarga kirishishga yo‘l ochadigan aloqalar o‘rnatish uning uchun oson ish emas. Shu sababli seksual aloqalar qisqa vaqt davom etishi, shuningdek jismoniy kuch ishlatish orqali amalga oshirishi mumkin;

v) sadistlar. Mavjud statistikada bunday zo‘rlik ishlatuvchilar ko‘p emas (atigi 2%). Bular faqat bolalar bilan jinsiy aloqa qilishni afzal ko‘ruvchi odamlardir. Zo‘rlik ishlatib bunday harakatlarni sodir etganlar odam o‘ldirishgacha boradilar.

*Beshinchidan,* oilada bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov qilish borasidagi faoliyat huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari kasbiy mahoratining darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy tajovuzlarning alomatlarini sezish, bilib olish uchun ehtimol tutilgan jabrlanuvchilar bilan ishlaydigan xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari lozim. Jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish, davolash jarayonida shifokorlar, psixologlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislarning o‘zaro hamkorligi talab etiladi. Mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar tizimida reabilitatsiya va profilaktika bilan shug‘ullanuvchi mahkamalararo guruhlarning tashkil etilishi, ular tarkibiga turli kasb mutaxassislarining kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jinsiy jinoyatchilar orasida ruhiy holati buzilgan shaxslar ancha ko‘p bo‘lgani bois, nafaqat jinoyatchilar, balki bunday jinoyatlarni sodir etishga moyil shaxslar uchun ham majburiy davolash muassasalari zarur.

## Foydalanilgan manbalar / References


1. Международные акты о правах человека: Сб. документов. – М., 2000. – С. 306-326; Моделный Уголовный кодекс для государств – участников СНГ / Известия вузов // Ж. Правоведение. – 1996. – № 1. – С. 92-150; Волженкин Б.В. Пояснителная записка к Моделному Уголовному кодексу для государств – участников Содружества Независимых Государств // хттп:// правовед. журфак. спб. Ру.
2. Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlarning jinoiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish muammolari (jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlar): Yurid.fan.nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2006; Люблинский П.И. Половые посягательства против детей // Проблемы преступности: Сб.науч. трудов. – М., 1926. – С. 91.
3. Антонян Ю.М., Ткаченко А.А., Шостакович Е.В. Криминальная сексология. – М., 1999. – С. 64.
4. Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi tajovuzlarda jabrlanuvchining viktimologik xususiyatlari va uning oldini olish // Davlat va huquq, 2004. №1. – B.46-47; Ergashev X.J., Qodirov A.A. Voyaga yetmagan jinoyat qurbonlari va ularga yetkazilgan zararni qoplash // O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2005. –B. 332-335; Морозова Н.Б. Психические расстройства у несовершеннолетних потерпевших жертв сексуального насилия: Автореф. дис... д-ра мед. наук. – М., 1999. – С. 2.
5. Pulatov Yu.S. Oila-turmush sohasida jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktika faoliyatini yanada takomillashtirish // Oila muhitini sog‘lomlashtirishning vosita va uslublari: Konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2006. –B.53-57.; Irsaliyev A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish zarur bo‘lgan o‘ziga xos jarayonlar // Huquq-Pravo-Law, 2001. №4. –B. 22-23; Xudoyberganov S. Факторы, влияющие на формирование преступного поведения несовершеннолетних// Mustaqillik yillarida yuridik fan va amaliyotning rivojlanishi: Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. P qism. – Toshkent, 2002. –B. 61-64.
6. Нурманова А.Р. К вопросу о личности преступника в сфере бытового насилия.// Ж. Ученые труды Академии МВД Республики Казахстан.2022. –С. 88.
7. Сексопатология. Справочник. –М.: Медицина, 1990. –С. 427, 428, 430.
8. Имелинский К. Сексология и сексопатология. – М., 2012. – С. 308.
9. Антонян Ю.М., Позднякова С.П. Сексуальные, преступления и их предупреждение. – М., 1991. –С. 31; yana qarang: Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlar jinoiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarning sodir etilish sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish muammolari. – Toshkent, 2005.
10. Крафт-Эйбинг Р. Половая психопатия. – М., 1996. –С. 73, 530, 544.
11. Шостакович Б.В., Ушакова И.М., Потапов С.А. Половые преступления против детей и подростков. – Ростов-на-Дону, 1994. –С. 21.
12. Abzalov A.E. Jabrlanuvchining ojiz ahvolidan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovning xususiyatlari: Yurid. fan.nomz. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2006. – B.15.; Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning yuridik tahlili. –Toshkent, 2006; Taxirov F. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarni sodir etishning og‘irlashtiruvchi holatlari // Davlat va huquq, 2004. №1. –B. 49-52.
13. Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi arxividan. JSX-1-240-2016-sonli jinoyat ishi.
14. Taxirov F. Jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini hal etishda viktimologik muammolar // TDYUI Axborotnomasi, 2006. №5. –B. 72-77; Niyozova S. Oila doirasida zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik jihatlari // TDYUI Axborotnomasi, 2007. №14. –B. 62.
15. Jinoyatlarga turtki bergan sabablar va omillarni teranroq o‘rganish bunday hollar ancha ko‘p ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ayrim qarorlarida jinoyatchi shaxsini, u jinoyatga qo‘l urishiga turtki bergan sabablar va omillarni har tomonlama o‘rganish talabi qo‘yiladi (masalan, qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2002-yil 15-oktyabr 21-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari to‘plami. 1991-2006. T.2. – Toshkent, 2007. – 298 b.).
16. Конышев Л.П. Проблемы борьбы с изнасилованиями. – М., 1985. –С. 88.
17. Nazarov A. Ona tomonidan yangi tug‘ilgan chaqalog‘ini qasddan o‘ldirish jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari // Yosh olimlar ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2005. №8. –186-190 b.
18. Защита прав человека и борьба с преступностью. Документы Совета Европы. – М., 1998. –С. 192-196.

# AYOLLAR JINOYATCHILIGI VA GIYOHVANDLIK: KRIMINOLOGIK TAHLIL




***Maxmudov Dilmurod Rozmetovich***

*yuridik fanlar doktori, dotsent*
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*доктор юридических наук, доцент*
*Академия МВД Республики Узбекистан*

*Doctor of Law, Associate Professor*
*Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan*



***Azizov Dilshod Muxsimovich***

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ofitseri*

*Офицер Министерства внутренних дел Республики Узбекистан*

*Officer of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*



***Annotatsiya.*** *Maqolada ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik jinoyatlarining kriminologik xususiyatlari va ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Ayollarning jinoyatga jalb etilishida psixo-ijtimoiy stress, oilaviy zo'ravonlik va iqtisodiy himoyasizlik ayollarning jinoyatga jalb etilishida asosiy omil bo'lishi asoslantirilgan. 1988-yilgi BMT Konvensiyasi, YEI amaliyoti va O'zbekiston qonunchiligi qiyosiy tahlil etilib, gender-sensitiv profilaktika va reabilitatsiya choralarini kuchaytirish hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*


***Kalit so'zlar:*** *ayollar jinoyatchiligi; giyohvandlik; kriminologik tahlil; gender-sensitiv profilaktika; reabilitatsiya; 1988-yilgi Vena konvensiyasi; YEI amaliyoti; O'zbekiston qonunchiligi; retsidiv; ijtimoiy himoya.*


***WOMEN'S CRIMINALITY AND DRUG-RELATED CRIME: A CRIMINOLOGICAL ANALYSIS***


***Abstract.*** *The article examines the criminological characteristics of drug-related offenses committed by women and the legal mechanisms aimed at prevention and response. It substantiates that psychosocial stress, domestic violence, and economic insecurity increase women's risk of criminal involvement. A comparative analysis is conducted of the 1988 UN Vienna Convention, European Union practice, and Uzbekistan's legislation. The paper proposes strengthening gender-sensitive prevention and rehabilitation measures and aligning national legislation with international standards.*


***Keywords:*** *women's criminality; drugs; criminological analysis; gender-sensitive prevention; rehabilitation; 1988 Vienna Convention; EU practice; Uzbekistan legislation; recidivism; social protection.*


Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar hozirgi global xavfsizlik muhitida jamiyatning barqaror taraqqiyoti, inson salomatligi va milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi eng murakkab ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar ishtirokida sodir etilayotgan giyohvandlik jinoyatlari masalasi alohida e'tibor talab etadi. Chunki ular ko'p hollarda oilaviy muhit, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy qiyinchilik va majburiy ta'sir omillari natijasida bunday huquqbuzarliklarga tortiladi.

BMTning Ma'lumot va giyohvandlik bo'yicha idorasi (UNODC)ning 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, jahonda narkotiklardan foydalanuvchilar soni 292 million nafardan oshgan bo'lib, ularning har to'rttasidan biri ayollardir [1]. Shu bilan birga, ayollar giyohvandlik moddalarni iste'mol qilish oqibatida ko'pincha davolanish va reabilitatsiya xizmatlariga kirish imkoniyati cheklanganligi sababli ularning salomatligi va ijtimoiy hayotdagi xavfsizligi yanada murakkab holatga tushib qolmoqda [2].

Shuningdek, ayollarni narkotrafik jarayonlariga majburlash, ularni kuryerlik yoki tarmoqdagi yordamchi rollarga jalb etish holatlari ham bugungi kunda dolzarb muammo ekanligi hech kimga sir emas. Xususan, *UNODC va UN* Women'ning 2024-yilgi hisobotlariga ko'ra, inson savdosi va qonunga xilof ekspluatatsiya qurbonlarining 60 foizdan ortig'ini ayollar va qizlar tashkil etadi [3]. Bu esa narkotrafik bilan bog'liq jinoyatlarda ularning ishtirokini chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik jinoyatlarining kriminologik xususiyatlariga to'xtalib o'tsak. Bugungi kunda ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari qator omillar bilan belgilanadi. Jumladan, ularning sodir etilishida ***ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, oiladagi nizolar va zo'ravonlik holatlari, ishsizlik hamda ijtimoiy himoyasizlik*** hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kriminolog olim *V.N. Kudryavsevning* ta'kidlashicha, jinoyatchilikning ayrim turlari gender omillari ta'sirida shakllanib, ayollarda ijtimoiy muhofazasizlik va ruhiy bosim asosiy kriminogen sharoit sifatida namoyon bo'ladi [4].

Shu bilan birga, ayollar ko'pincha narkotrafik jarayonlariga mustaqil qaror asosida emas, balki ***turmush o'rtoqlari, yaqin qarindoshlari yoki jinoiy guruhlar bosimi*** natijasida jalb etiladi. A.I. Dolgovaning fikricha, ayollar jinoyatchilikka ko'proq tashqi muhit ta'siri, iqtisodiy muhtojlik va oilaviy munosabatlar ichidagi zo'ravonlik orqali tortiladi [5].

Kriminologik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar orasida giyohvandlik jinoyatlari sodir etilishi ko'p hollarda ***ruhiy bosim, depressiya, stress holatlari va ijtimoiy izolyatsiya*** kabi omillar ta'sirida kechadi. UNODCning 2024-yilgi hisobotida ayollar giyohvandlik moddalaridan foydalanishda va tarqatish jarayonlarida ko'pincha zaif ijtimoiy guruh sifatida namoyon bo'lishi, ularning reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati esa cheklanganligi qayd etilgan [6].

Yana bir muhim xususiyat shundaki, ayollar narkotrafikda, asosan, ***kuryerlik, tashuvchilik* yoki *yordamchi vazifalarda*** qatnashadi. Bu ularning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan zaif qatlam sifatida ko'proq jinoiy faoliyatga tortilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ularda ***retsidiv xavfi*** ham yuqori, chunki davolanish va reabilitatsiya xizmatlariga kirish imkoniyati ko'p hollarda cheklangan bo'ladi [7].

UNODC va UN Womenning 2024-yilgi hisobotlarida e'tirof etilganidek, ko'plab ayollar narkotrafikda to'g'ridan-to'g'ri xohishi bilan emas, balki turmush o'rtog'i yoki jinoiy guruhlar bosimi ostida ishtirok etadi. Shu sababli, ularni *"qurbon-jinoyatchi"* sifatida baholash zarurati mavjud [8].

Demak, ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy-iqtisodiy muhtojlik va himoyasizlik;
- oilaviy zo‘ravonlik va tashqi bosim ta’siri;
- ruhiy-emotsional iztirob va stress holatlari;
- narkotrafikda yordamchi va zaif rollarni bajarish;
- retsidiv xavfining yuqoriligi.

Bundan tashqari, mazkur jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari ularni bartaraf etishda nafaqat jazo choralari, balki ***ijtimoiy-psixologik yordam, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va profilaktik tadbirlar***ni ham kompleks tarzda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, ayollar jinoyatchiligini tahlil qilish masalasi xalqaro va milliy kriminologiyada muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu borada turli mamlakat olimlari turli nazariyalarni ilgari surgan bo‘lib, ularning umumiy jihati – ayollarning jinoyatga jalb etilishida **ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar**ning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi hisoblanadi. Xususan:

AQSH huquqshunosi M. Tonrining nazariyasiga ko‘ra, ayollar jinoyatchilikka asosan “ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy zaiflik” ta’sirida jalb qilinadi. U mehnat bozoridagi tengsizlik, ishsizlik, kam ta’minlanganlik kabi omillarni asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi. Shuning uchun Tonri ayollar jinoyatchiligini bartaraf etishda jazo choralaridan ko‘ra, **ijtimoiy kafolatlar va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish** muhim ekanini ta’kidlaydi [9].

AQSH kriminologi F. Adler esa *“Sisters in Crime”* asarida ayollar jinoyatchiligini jamiyatdagi **tenglik jarayonlari bilan bog‘laydi**. Uning fikricha, ayollar huquq va imkoniyat jihatidan erkaklarga yaqinlashgan sari, ularning jinoyatchilikda ishtirok darajasi ham o‘sishi mumkin [10].

N.F. Kuznetsova ayollar jinoyatchiligini asosan oilaviy muhit va ijtimoiy nazoratning yetarli emasligi bilan bog‘laydi. Uning ilmiy qarashicha, ayollar jinoyatga ko‘proq oiladagi zo‘ravonlik, turmushdagi muammolar va ijtimoiy muhit ta’sirida kirib qoladilar. Shu bois, olima profilaktikada ayollar uchun psixologik va huquqiy qo‘llov tizimini kuchaytirishni taklif qiladi [11].

Psixologiya va huquqshunoslik kesishgan sohada ish olib borgan amerikalik olim *K. Gilligan* o‘zining *“In a Different Voice”* asarida ayollarning axloqiy va huquqiy qaror qabul qilishdagi yondashuvi erkaklarnikidan farqli ekanini ko‘rsatadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, ayollar ko‘proq “aloqadorlik, mas’uliyat va g‘amxo‘rlik”ka asoslangan qaror qabul qiladi, bu esa ularning jinoyatchilikka munosabatini ham shakllantiradi [12].

Rossiyalik olim A.S. Zanin ijtimoiy xavfsizlik va huquqiy muhofaza masalalarida gender omillariga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, ijtimoiy sug‘urta va davlat kafolatlari tizimlari ko‘p hollarda “gender-neytral” shaklda tuzilsa ham, amalda ayollar imkoniyatlari cheklanganligi sababli ular bu tizimlardan kamroq foyda oladilar. Shu bois, u ijtimoiy-huquqiy siyosatda ayollar uchun **qo‘shimcha kafolatlar va imtiyozlar**ni nazarda tutish zarurligini ta’kidlaydi [13].

K. Shnayder esa ayollar jinoyatchiligini “sotsializatsiya nazariyasi” asosida izohlaydi. Uning fikricha, jamiyat ayollarga ikkinchi darajali ijtimoiy rollarni yuklatgani uchun ular ko‘pincha huquqiy va ijtimoiy himoyadan chetda qoladilar, bu esa jinoyatchilikka jalb qilinishi xavfini oshiradi [14].

Professor I. Ismoilov ayollar jinoyatchiligi masalasini profilaktika nuqtai nazaridan o‘rganib, ichki ishlar organlari faoliyatida gender-sensitiv yondashuvni qo‘llash jinoyatchilikka qarshi samarali ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda ayollarning ijtimoiy holati va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega [15].

Shuningdek, YUNESKO va BMTning maxsus hisobotlarida ayollar orasida jinoyatchilikka jalb qilinishi ko‘p hollarda zo‘ravonlik qurboni bo‘lish, odam savdosi va giyohvandlik bilan bog‘liq holatlar orqali kechishi ko‘rsatilgan. Bu holat xalqaro tashkilotlardan davlatlarga gender-sensitiv siyosat yuritish va maxsus reabilitatsiya dasturlarini joriy etishni talab etadi [16].

Yuqoridagi olimlar va xalqaro tashkilotlarning nazariy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligini tahlil qilishda faqat huquqiy jihatlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bu jarayonda **ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, madaniy stereotiplar va oilaviy muhit** asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-nazariy qarashlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, jinoyatchilikka qarshi kurashda gender-sensitiv yondashuv davlat siyosati va huquqni muhofaza qilish amaliyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lishi zarur.

Shu o‘rinda, mavzumizning xalqaro va milliy qonunchilikda ifodalanishiga nazar tashlasak. Xususan, giyohvandlikka qarshi kurashish jahon miqyosida universal muammo hisoblanib, xalqaro hamjamiyat ushbu sohada tizimli huquqiy asoslarni ishlab chiqqan. Jumladan, 1988-yil 20-dekabrda Vena shahrida qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi BMT Konvensiyasida davlatlar nafaqat jinoiy-huquqiy choralarni, balki profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini genderga xos ehtiyojlarni hisobga olgan holda amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmalariga olgan [17]. Bu orqali xalqaro huquq normalari giyohvandlikka qarshi kurashish jarayonida ayollarning ijtimoiy-psixologik holatini e’tiborga olish zarurligini belgilab bergan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi ham bu yo‘nalishda ahamiyatga ega. Xususan, Germaniya, Fransiya va Italiyada ayollar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ularda faqat tibbiy yordam emas, balki huquqiy maslahat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy adaptatsiya choralari yo‘lga qo‘yilgan [18]. Bu tajriba ayollar orasida giyohvandlik jinoyatlarining kriminogen xususiyatlarini bartaraf etishda kompleks yondashuvning samarali ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston qonunchiligida ham ushbu yo‘nalishda huquqiy asoslar mavjud. Xususan, 2000-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonunda davlat organlari oldiga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, shuningdek, profilaktika va ijtimoiy reabilitatsiya ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilgan [19]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (270–275-moddalar) giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanib, ularning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlangan [20].

Biroq milliy amaliyotda *gender-sensitiv yondashuv*[1] yetarlicha samarali yo‘lga qo‘yilmagani mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Masalan, ayollar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari cheklangan, mavjud dasturlarda esa psixologik yordam va ijtimoiy adaptatsiya xizmatlari ko‘pincha umumiy ko‘rinishda tashkil etilgan. Bu esa ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik jinoyatlarini to‘liq bartaraf etishga to‘sqinlik qiladi [21].

Demak, xalqaro va milliy huquqiy asoslarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ayollar orasida giyohvandlik jinoyatlariga qarshi samarali kurash olib borish uchun qonunchilikda belgilangan profilaktika va reabilitatsiya choralarini gender omillari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bunday yondashuv nafaqat ayollarning huquqiy muhofazasini ta’minlaydi, balki ularning ijtimoiy hayotga qaytishi va retsidiv xavfining kamayishiga ham xizmat qiladi

[1] *Izoh: “Gender-sensitiv yondashuv” (gender-sensitive approach) – bu jamiyatda yoki muayyan sohada tadbir, siyosat, qonun yoki tadqiqotni ishlab chiqish va amalga oshirishda ayol va erkaklar manfaatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlaridagi farqlarni inobatga olishga qaratilgan ilmiy-amaliy yo‘nalishdir.*

Xalqaro va milliy huquqiy asoslarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida davlatlar oldida ikki yo‘nalishda asosiy vazifa dolzarb bo‘lib turibdi. Bular:

*birinchisi,* jinoiy-huquqiy choralar orqali giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi qat’iy kurashish;

*ikkinchisi* esa profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini samarali tashkil etish orqali ayollar va zaif ijtimoiy qatlamlarni jinoyatchilikdan himoya qilish [22].

Shu o‘rinda, 1988-yilgi BMT Konvensiyasiga nazar tashlasak. Konvensiyada davlatlar gender omillarini hisobga olgan holda profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmalariga olgani ushbu jarayonning xalqaro huquqiy asosini tashkil etadi [23]. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyotida esa ayollar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari tashkil etilib, huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rish mumkin [24].

Yuqorida amalga oshirilgan ilmiy tahlillardan kelib chiqib, hozirgi kunda ayollar tomonidan sodir etilayotgan giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish maqsadida milliy qonunchiligimizda qator islohotlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz. Bular:

*birinchidan*, milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususan, jinoiy-huquqiy choralarda gender omillarini hisobga olish hamda jazo siyosatini insonparvarlik va reabilitatsiyaga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligini 1988-yilgi BMT Vena konvensiyasi va Yevropa Ittifoqi amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi;

*ikkinchidan,* gender-sensitiv profilaktika dasturlarini amaliyotga joriy etish talab etiladi. Bunda, mahalla va xotin-qizlar qo‘mitalari, profilaktika inspektorlari hamkorligida xavf guruhiga mansub ayollarni erta aniqlash va ular bilan individual ish olib borish samarali yo‘l hisoblanadi. Axborot-targ‘ibot vositalari orqali ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy oqibatlari haqida keng jamoatchilikka yetkazish ham profilaktikaning muhim mexanizmi bo‘ladi;

*uchinchidan*, ayollar uchun ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuv markazlarini tashkil etish zarur. Bunday markazlarda tibbiy muolajalar, psixologik yordam, huquqiy maslahat va kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarining uyg‘unlashgan tarzda yo‘lga qo‘yilishi ayollarning jamiyatga qaytishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Xorijiy tajriba, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi maxsus markazlar faoliyati, bu yo‘nalishda milliy amaliyot uchun samarali namuna bo‘lib xizmat qiladi;

*to‘rtinchidan*, iqtisodiy himoya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat grantlari, mikrokreditlar va kasb-hunar kurslari orqali moddiy jihatdan qiyin ahvoldagi ayollarning mehnat bozoriga kirishiga sharoit yaratilishi, ularning jinoyatga tortilish ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, reabilitatsiyadan o‘tgan ayollarni ish bilan ta’minlashda davlat buyurtmasi asosida kafolatli mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq;

*beshinchidan,* huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun gender-sensitiv tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish talab etiladi. Buning uchun akademiya va malaka oshirish kurslariga ayollar jinoyatchiligi psixologiyasi, gender omillarini hisobga olgan tergov taktikalari, xalqaro standartlar asosida sud amaliyoti kabi maxsus kurslarni kiritish zarur;

*oltinchidan,* fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda kompleks dasturlarni amalga oshirish orqali ayollar o‘rtasida huquqiy madaniyat va savodxonlikni oshirish mumkin. Bu jarayonda davlat idoralari, xotin-qizlar tashkilotlari va volontyorlar o‘rtasidagi hamkorlik jinoyatchilikning oldini olishda yangi samarali modellarni shakllantiradi.

Shu tariqa, qonunchilik bazasini takomillashtirish, gender-sensitiv profilaktika, ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya markazlari, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tayyorgarligi va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik tizimi uyg‘un mexanizm sifatida amalga oshirilsa, ayollar tomonidan sodir etiladigan giyohvandlik jinoyatlarining oldini olishda barqaror natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan manbalar / References**


1. UNODC. World Drug Report 2024. Special Highlights. United Nations Office on Drugs and Crime, Vienna, 2024.
2. UNODC. Gender Brief on Drugs 2024. United Nations Office on Drugs and Crime, Vienna, 2024.
3. UN Women & UNODC. Global Report on Trafficking in Persons 2024. New York, 2024.
4. Кудрявцев В.Н. Общая теория причин преступности. – М.: Наука, 1984. – С. 73–75.
5. Долгова А.И. Криминология: Учебник. – М.: Норма, 2010. – С. 415–418.
6. UNODC. World Drug Report 2024. Special Highlights. – Vienna: United Nations, 2024.
7. Paxriddinov F. Kriminologiya: nazariy va amaliy asoslar. – T.: Akademnashr, 2022. – B. 289–293.
8. UNODC & UN Women. Global Report on Trafficking in Persons 2024. – New York: UN, 2024.
9. Tonry M. Thinking About Crime. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
10. Adler F. Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal. – New York: McGraw-Hill, 1975.
11. Кузнецова Н.Ф. Криминология. – Москва: Норма, 2015.
12. Gilligan C. In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development. – Harvard University Press, 1982.
13. Занин А.С. Финансово-правовое регулирование деятельности субъектов страхового рынка Российской Федерации. – Москва, 2021.
14. Schneider K. Kriminologie und Gender. – Berlin: Springer, 2010.
15. Ismoilov I. Jinoyatchilik profilaktikasida gender masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
16. UNESCO Report on Gender Equality, 2020; UNODC. Global Report on Trafficking in Persons. – New York, 2022.
17. United Nations. Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances. Vienna, 1988.
18. European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction (EMCDDA). Gender and Drugs: Health and Social Responses. Luxembourg, 2022.
19. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2000-yil 19-avgust.
20. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. lex.uz.
21. Paxriddinov F. Kriminologiya: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
22. United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2024. – Vienna: UNODC, 2024.
23. United Nations. Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances. – Vienna, 1988.
24. European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction (EMCDDA). Gender and Drugs: Health and Social Responses. – Luxembourg, 2022.

# XOTIN-QIZLAR JINOYATCHILIGI: TAHLILIY YONDASHUV




***Kaxarova Munira Maxamadjanovna***

*siyosiy fanlar doktori,*
*O'zbekiston Respublikasi*
*Kriminologiya tadqiqot instituti*
*ilmiy xodimi*

*доктор политических наук,*
*научный сотрудник*
*Исследовательского*
*института криминологии*
*Республики Узбекистан*

*Doctor of Political Sciences,*
*Research Fellow at the Research*
*Institute of Criminology of the*
*Republic of Uzbekistan*



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O'zbekistondagi kriminogen vaziyat, ayniqsa respublika mahallalari kesimida ayollar jinoyatchiligi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar natijalari keng yoritilgan. 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni, ularning turlari va dinamika tahlil qilingan. Shuningdek, ayollar jinoyatchiligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar, xususan ishsizlik, kambag'allik, oilaviy nizolar, ta'lim va bandlik bilan bog'liq muammolar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan. Maqsadli yondashuv, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va huquqiy savodxonlikni oshirish orqali ayollar jinoyatchiligining turli omillari kamaytirilishi va jamiyatda barqaror ijtimoiy muhit shakllantirilishi ilmiy asosda ko'rsatilgan.*



***Kalit so'zlar:*** *ayollar jinoyatchiligi, kriminologiya, profilaktika, davlat-jamoat hamkorligi, mahalla, raqamlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xavf guruhlari, profilaktika tadbirlari, omillar tahlili.*


## *WOMEN'S CRIME: AN ANALYTICAL APPROACH*


***Abstract.*** *This article analyzes the concept of crimes against the sexual inviolability of a minor and scientific approaches to its status. In addition, the article presents the opinions of scientists on the fact that sexual crimes are directed against the individual, encroach on sexual freedom and immunity, are one of the most dangerous crimes for society, and its social danger, and provides relevant proposals and recommendations.*



***Keywords:*** *Punishment, responsibility, victim, crime, sex, sexual integrity, criminal-legal aspects, violence, aggression, defamation.*


O'zbekistonda xotin-qizlar mavqeyini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilik profilaktikasi tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli, uzluksiz va izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda gender tengligiga erishish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning turli xil zo'ravonlik va huquqbuzarliklardan muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida tegishli huquqiy-me'yoriy baza muntazam ravishda takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, mahalla institutlarining roli kuchaytirilib, xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, "Xavfsiz mahalla"[2] va profilaktika inspektorlari hamkorligida ayollar bilan ishlashning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilikning ayrim turlari dinamik jihatdan o'zgarib borayotgani, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, oilaviy nizolar, psixologik bosim yoki huquqiy savodxonlikning pastligi kabi omillar ayollarni turli huquqbuzarliklarga yo'l qo'yishga olib kelayotgani kuzatilmoqda. Shu bois, davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o'rganish[1], ayollar jinoyatchiligining zamonaviy tendensiyalari, uning profilaktikasida mahalla tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu esa jinoyatchilik sabablarini aniqlash, xavf guruhidagi ayollar bilan manzilli ishlash, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga qaratilgan kompleks choralarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ayollarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda ishsizlik, kambag'allik, turmush sharoiti og'irligi kabi omillar xotin-qizlar jinoyatchiligiga tahdid soluvchi asosiy risk faktorlari sifatida saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi oqibatlari, oilaviy munosabatlardagi turg'unlikning buzilishi, ta'lim va tarbiya sohasidagi uzilishlar ayrim ayollarning ijtimoiy himoyadan chetda qolishiga, bu esa ularning huquqbuzarlikka moyilligini kuchaytirishga zamin yaratmoqda.

Jinoyatchilikning davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ko'p hollarda maishiy muammolar, emotsional zo'riqish, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki oilaviy nizolar ta'sirida yuzaga keladi. Bunday holatlarda mahalla tizimi, xususan, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlari, psixolog va ijtimoiy xodimlar hamkorligida erta aniqlash va manzilli yordam mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla a'zolari bilan muntazam individual profilaktik suhbatlar o'tkazish, muammoli ayollarni psixologik qo'llab-quvvatlash, huquqiy savodxonlikni oshirish o'quvlari tashkil etish jinoyatchilikni bartaraf etishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablarini ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilish, jinoyat sodir etgan xotin-qizlarning ijtimoiy portretini shakllantirish, ularga ta'sir etuvchi omillar tizimini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion profilaktika modellarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ayollar huquqbuzarligining oldini olishda profilaktikaning individga qaratilgan, oilaning ichki muhitini sog'lomlashtiruvchi va mahalla ijtimoiy muhitini kuchaytiruvchi bosqichlari o'zaro uyg'unlashgan tarzda amalga oshirilsa, jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Mazkur masalalarni ilmiy tadqiq etish nafaqat huquqbuzarlikka moyil bo'lgan ayollarni aniqlash va ular bilan samarali ishlash imkonini beradi, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlash, mahalla institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xotin-qizlar jinoyatchiligi masalasini mahalla darajasida o'rganish, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va har bir ayol uchun individual yondashuvni belgilash jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali yo'llaridan biri sifatida qaralmoqda. Mahalla – ayolning birlamchi ijtimoiy muhiti, uning kundalik faoliyati, iqtisodiy imkoniyatlari, ruhiy holati va oilaviy munosabatlari bilan bevosita bog'liq maskan sifatida jinoyatchilik profilaktikasining asosiy bo'g'iniga aylanmoqda. Mahalladagi ishsizlikning oldini olishga qaratilgan choralar ko'rish, aholi, ayniqsa, xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, ularni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish yoki mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashish[3] imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mahalla faollarining malakasini oshirish, xotin-qizlar bilan ishlashning yangi metodikalarini joriy qilish, ularning muammolarini erta bosqichda aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi ayollarni aniqlashning aniq mezonlarini belgilash, ular bilan muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish, psixologik testlar va monitoring orqali jinoyat yoki huquqbuzarlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan belgilab olish profilaktika samaradorligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, mahalla doirasida ayollar bandligini ta’minlash, ularni kasbiy o‘qitish, oilaviy biznes va tadbirkorlikka jalb qilish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishlari uchun sharoit yaratish ham jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim omillardan hisoblanadi. Iqtisodiy imkoniyatga ega bo‘lgan ayollar huquqbuzarlik omillari ta’siridan ancha chekinib, o‘z hayoti va oilaviy farovonligi uchun mas’uliyatni yanada chuqur his qiladilar.

Huquqiy savodxonlik ham xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayollar o‘z huquq va majburiyatlarini, oilaviy munosabatlarda qonuniy tartib-qoidalarni, iqtisodiy shartnomalar yoki kredit majburiyatlari bo‘yicha talabi va kafolatlarni bilgan taqdirda, ular turli aldov yoki psixologik bosimlar qurboni bo‘lib qolmaydilar. Shu bois mahallada huquqiy ta’lim, ma’rifiy suhbatlar, maslahat xizmatlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Nihoyat, xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olishda oila – tarbiyaning bosh manbai sifatida markaziy o‘rinni egallaydi. Oiladagi ruhiy holat, o‘zaro hurmat, sog‘lom munosabatlar ayollarning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi, turli salbiy ta’sirlarga qarshi “immunitet” hosil bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bois, oila institutini mustahkamlash, er-xotin munosabatlarida sog‘lom muhitni shakllantirish, nikoh oldidan maslahat va ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish keng qamrovli profilaktikaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shu tarzda, jinoyatchilikka moyil ayollarning ijtimoiy-psixologik holati, oilaviy muhiti, iqtisodiy imkoniyatlari va mahalladan olayotgan qo‘llab-quvvatlov darajasini kompleks tarzda o‘rganish orqali aniq ilmiy xulosalar chiqarish va samarali amaliyotlarni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu esa jinoyatchilikning oldini olishda zamonaviy, maqsadli va barqaror yondashuvni ta’minlaydi.

2024-yil statistik ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublika miqyosida xotin-qizlar jinoyatchiligi bir qadar pasaygan bo‘lsa-da, hududlar kesimida holat bir xil emas. Umumiy kamayish 0,6 %ni tashkil etgani (7 957 tadan 7 903 taga) jinoyatchilikning barqaror ravishda pasayish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatsa-da, ayrim viloyatlarda aksincha, o‘sish kuzatilgani muammoni manzilli va individual tarzda o‘rganish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, Samarqand viloyatida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 27,8 %ga oshgani, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich 24,6 %ni tashkil etgani, Surxondaryo viloyatida esa 9,9 % o‘sish qayd etilgani ushbu hududlarda kriminogen muhitga ta’sir etuvchi omillar kuchayganidan dalolat beradi. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, oilaviy nizolar kuchayishi, migratsiya jarayonlari, ayollar bandligining yetarli darajada emasligi yoki profilaktika ishlarining samaradorligiga tegishli masalalar mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, jinoyatlar sezilarli darajada kamaygan hududlar ham mavjud. Jumladan, Farg‘ona viloyatida jinoyatlar soni 11,2 %ga, Toshkent shahrida 7,5 %ga, Navoiy viloyatida 7,3 %ga, Qashqadaryo viloyatida esa 6,6 %ga pasaygan. Bu hududlarda profilaktika ishlarining nisbatan tizimli yo‘lga qo‘yilgani, xotin-qizlar bilan ishlashda mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik samarali ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayollar bandligi, ijtimoiy yordam dasturlari, oila institutini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan choralar natijadorligi yuqori bo‘lganini taxmin qilish mumkin.

Biroq kamayish qayd etilgan hududlarda ham pasayish sur’ati bir xil darajada emas. Masalan, Andijon, Xorazm, Jizzax, Buxoro, Toshkent va Namangan viloyatlarida ko‘rsatkichlar past sur’atda, 0,8–4,9 % atrofida kamaygan. Bu esa ayrim hududlarda natija ijobiy bo‘lsa-da, barqaror va yuqori samarali mexanizmlar hali to‘liq ishlamayotganidan dalolat beradi.

Ma’lumotlardan kelib chiqib, respublika miqyosidagi umumiy ijobiy dinamikaga qaramay, ayrim hududlarda ayollar jinoyatchiligining o‘sishi qator omillar bilan bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin. Ular orasida:

iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi;
mahallada profilaktika ishlarining yetarli darajada emasligi;
oilaviy nizolar va zo‘ravonlik holatlarining ko‘payishi;
ta’lim va ish bilan ta’minlash masalalaridagi muammolar;
huquqiy madaniyat darajasining pastligi;
migratsiya jarayonlari oqibatida ijtimoiy himoyasizlik va nazoratsizlik holatlari.

Shunday ekan, ayollar jinoyatchiligi dinamikasini hududlar kesimida o‘rganish uning sabablarini chuqur tahlil qilishni, har bir hududning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy muhitini e’tiborga olgan holda, maqsadli profilaktika dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, jinoyatchilik o‘sgan hududlarda indikatorlar bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar, ijtimoiy qatlamlarning real ehtiyojlarini o‘rganish va mahalla tizimidagi ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ayollar jinoyatchiligi turlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2024-yil davomida ayrim og‘ir va o‘ta xavfli jinoyatlar keskin oshgan bo‘lib, bu holat jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolarning keskinlashuvidan darak beradi. Jumladan, qotillik 50 foizga, tovlamachilik 44,9 foizga, giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar 33,7 foizga va bezorilik 2,8 foizga oshgani ayollar orasida huquqbuzarlik tendensiyalarining yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Bu o‘sish nafaqat jinoyatchilik darajasining ko‘payishi, balki ayollarning ruhiy holati, ijtimoiy muhitdagi beqarorlik va maishiy sohadagi qiyinchiliklarning ortishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Eng achinarlisi, qotillik va tovlamachilik kabi og‘ir jinoyatlarning ko‘payishi ayollarning ekstremal xulq-atvorga moyilligi kuchayganini anglatadi. Bu holat ko‘p jihatdan oilaviy nizolarning avj olishi, turmush doirasidagi zo‘ravonlik, iqtisodiy qiyinchiliklardan kelib chiqadigan ruhiy bosim, ijtimoiy izolyatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi natijasida yuzaga keladi.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan og‘ir jinoyatlar tabiatini o‘rganish borasida ilmiy adabiyotlarda ham muhim xulosalar bayon etilgan. Masalan, V.A. Vnukov o‘zining “Ayol qotillar”[5] nomli tadqiqotida ayollarni qotillikka olib keladigan ichki omillar, ruhiy jarayonlar va emotsional zo‘riqish holatlarini sinchiklab tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, ayollar tomonidan sodir etiladigan qotillik holatlarini faqat tashqi sharoitlar bilan izohlab bo‘lmaydi, aksincha, bunday jinoyatlarning mohiyatini anglash uchun ularning ichki dunyosi, hissiyotlari, psixologik jarayonlari va ruhiy bosim ostidagi reaksiyalarini chuqur o‘rganish talab etiladi.

Giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va bezorilikning o‘sishi esa ayollar orasida ijtimoiy nazoratning susaygani, profilaktik chora-tadbirlarning barcha hududlarda bir xil samara bermayotgani, shuningdek, ayrim hududlarda yoshlar bilan ishlashda vakuum mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat ijtimoiy xizmatlar, mahalla tizimi, psixologik markazlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligini talab qiladi.

Umuman olganda, ayollar jinoyatchiligining ayrim turlarda o‘sish jamiyatdagi qator ijtimoiy muammolarning yaqqol ko‘rinishi bo‘lib, uning oldini olish uchun iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muammolarni bartaraf etish, psixologik yordamni kuchaytirish, profilaktik tadbirlarni tizimli

tashkil etish va ayollar bilan individual ishlash mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Boshqacha aytganda, jinoyat turlarining keskin o‘sishi ayollar ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy xavf ostida ekanini, shu bilan birga, mahalla, ijtimoiy xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar profilaktika va erta intervensiya choralarini kuchaytirishi lozimligini ko‘rsatadi. Bu tendensiyalarning oldini olishda individual va kompleks profilaktika tadbirlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Ayollar jinoyatchiligining demografik tarkibi tahlil qilganda, ularning yoshiga doir katta farqlarni ko‘rish mumkin. 2024-yilda jinoyat sodir etgan 7 163 nafar ayolning: 4,1 % ni voyaga yetmagan qizlar, 31,9 % ni 18–30 yoshlilar, 63,8 % ni 30 yoshdan yuqori ayollar [4] tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlardan ayollar jinoyatchiligida yosh o‘sgan sari jinoyat sodir etish ehtimoli ortganini ko‘rish mumkin. Yosh ayollar orasida jinoyatchilik nisbatan past bo‘lsa-da, voyaga yetmagan qizlar va 18–30 yoshdagi yoshlar guruhi ehtiyoj va nazoratsizlikka ko‘proq moyilligi bilan ajralib turadi.

Yosh xotin-qizlar va katta yoshdagi ayollar jinoyatchiligi dinamikasi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy faktorlar bilan bog‘liq. Masalan, 30 yoshdan yuqori ayollar orasida ijtimoiy qiyinchiliklar, oilaviy muammolar va iqtisodiy stress kabi omillar jinoyatchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, voyaga yetmagan va yosh ayollar orasida jinoyatchilikning turli ko‘rinishlari ko‘proq maishiy muammolar, oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar va ijtimoiy nazoratning pastligi bilan bog‘liq.

Shu tariqa, demografik tahlil ayollar jinoyatchiligining oldini olishda yosh va ijtimoiy statusga qarab maqsadli profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu ayollarning individual ehtiyojlari va xavf omillarini hisobga olgan holda samarali intervensiyani yo‘lga qo‘yish anglatadi.

Xavf guruhlari tahlili ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishda umumiy yondashuv o‘rniga individual va maqsadli choralarni qo‘llash lozimligini ko‘rsatadi. 2024-yilda 66 124 nafar ayol profilaktik nazorat ro‘yxatlariga kiritilgan, ularning tarkibi quyidagicha: ilgari sudlanganlar – 1 544 nafar, JIEMdan qaytganlar – 825 nafar, probatsiya hisobda – 8 677 nafar, giyohvandlar – 119 nafar, spirtli ichimlikka ruju qo‘yganlar – 1 222 nafar, tajovuzkor ruhiy kasallar – 846 nafar, farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatganlar – 14 222 nafar, ajrim yoqasida turganlar – 38 669 nafar.

Bu raqamlar ayollar orasida xavf omillari turlicha va ko‘pqirrali ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, ijtimoiy nazorat, oilaviy qiyinchiliklar va ruhiy salomatlik muammolari bir vaqtda bir shaxsda uchrashi mumkin. Shu bois profilaktika ishlarini rejalashtirishda har bir ayolning individual kuzatuvga olish muhimdir.

Individual yondashuv quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

ilgari sudlangan va probatsiya nazoratida turgan ayollar bilan qonuniy tartibda erta profilaktika ishlarini olib borish;

giyohvandlik va spirtli ichimlikka moyilligi bo‘lgan ayollarga tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish;

farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan va ajrim yoqasida turgan ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga oilaviy maslahat va reabilitatsiya xizmatlari orqali yordam ko‘rsatish;

tajovuzkor ruhiy kasallik bilan og‘ritayotgan ayollar uchun tibbiy intervensiya va nazorat tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

Ayollar xavf guruhlarini shu tarzda to‘liq va har tomonlama chuqur o‘rganish profilaktikaning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga va jinoyatlarning qayta sodir etilish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish natijalaridan aniq ko‘rinib turibdiki, ayollar jinoyatchiligida iqtisodiy omillar ustuvor ahamiyatga ega. 2024-yilda sodir etilgan jinoyatlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: 66,9 % – yengil daromad topish maqsadida sodir etilgan, 12,1 % – ishsizlik bilan bog‘liq, 2,8 % – oilaviy kelishmovchiliklardan kelib chiqqan. Bu ko‘rsatkichlardan aniq bo‘lishicha, ayollar jinoyatchiligining asosiy drayveri iqtisodiy qiyinchiliklar hisoblanadi. Ko‘p hollarda ayollar daromad topish imkoniyati cheklangan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi samarali bo‘lmagan va shuning natijasida huquqbuzarlikka moyillik ortib ketadi.

Ishsizlik va kambag‘allik, shuningdek, ijtimoiy stress va oilaviy muammolarni kuchaytirib, turli jinoyatlarga, xususan, yengil va moliyaviy jinoyatlarga yo‘l ochadi. Shu bois, profilaktika choralari nafaqat huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, balki iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy yordam dasturlarini samarali tashkil etish orqali ham amalga oshirilishi lozim.

Shu tariqa  jinoyatlarning iqtisodiy omillarni kamaytirish va ayollarning daromad topish imkoniyatlarini oshirish ularning huquqbuzarlikka moyilligini sezilarli darajada pasaytiradi va barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar respublikada ayollar jinoyatchiligida umumiy pasayish tendensiyasi kuzatilayotganini, ammo ayrim hududlarda kriminogen vaziyat keskinlashganini ko‘rsatdi. Ayollar jinoyatlarining asosiy sabablari iqtisodiy muammolar va ishsizlik ekani ma’lum bo‘ldi.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda quyidagilar taklif etiladi:

1. Ayollar bandligini ta’minlashga qaratilgan yangi klaster va oilaviy biznes loyihalarini kengaytirish.
2. Nizoli oilalarni erta aniqlash algoritmini yanada takomillashtirish.
3. “Xavf guruhi”dagi 66 mingdan ortiq ayol bilan individual korreksion dastur asosida ishlash.
4. Ayollar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni ilmiy tahlil qilish.
5. Profilaktika tadbirlari samaradorligini baholash va takliflarni doimiy yangilash.
6. Xalqaro tajriba va ilmiy metodologiyalarni joriy etish orqali respublikada profilaktika tizimini takomillashtirish.

**Foydalanilgan manbalar  / References**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni. https://lex.uz/docs/4494849.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 801-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/7243832.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 334-son qarori. https://lex.uz/docs/6972601.
4. Jinoyatchilik tendensiyalari va jinoyatchilik omillari davlat hisoboti. – T.: O‘zbekiston Respublikasi kriminologiya tadqiqot instituti, 2024.
5. Внуков В.А. Женщины-убийцы. Убийства и убийцы / Под ред. Краснушкина Е.К. и др. – М., 1928.

## KORRUPSIYANING TURLI FANLARDA VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKDA TUSHUNCHASI




***Ollamov Yarash Yo‘ldoshevich***

*yuridik fanlar nomzodi, dotsent O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti*

*Кандидат юридических наук, доцент, Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан*

*Candidate of Law, Associate Professor, Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*



***Yarov Bekmamat Alikulovich***

*filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti*

*Кандидат филологических наук, Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан*

*Candidate of Philological Sciences, Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*



***Annotatsiya.*** *Maqolada korrupsiyaning turli fanlarda va korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tushunchasi yoritilgan hamda tegishli fikr va mulohazalar bildirilgan.*



***Kalit so‘zlar :*** *korrupsiya, poraxo‘rlik, resurslarni manipulyatsiya qilish, korrupsiya tushunchasining keng va tor yondashuvi, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, jinoiy javobgarlik, ma’muriy javobgarlik, intizomiy javobgarlik, odob-axloq qoidalari.*


### *THE CONCEPT OF CORRUPTION IN VARIOUS DISCIPLINES AND IN ANTI-CORRUPTION LEGISLATION*


***Abstract.*** *The article explains the concept of corruption in various disciplines and in the legislation of the Republic of Uzbekistan on combating corruption, and expresses relevant opinions and considerations.*



***Keywords:*** *corruption, bribery, , manipulation of resources at the disposal of officials, broad and narrow approaches to the concept of corruption, corruption offense, criminal liability, administrative liability, disciplinary liability, rules of conduct.*


Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev 2017-yilning 14-yanvarda bo‘lib o‘tgan, mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: “Davlat byudjeti o‘lchovsiz narsa emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqat.

Shunday ekan, nima uchun G‘aznachilik va Nazorat-taftish boshqarmasining apparatlari haddan tashqari kengayib ketgan? Ularda jami 4 ming nafar xodim ishlaydi va xarajatiga yiliga 90 milliard so‘m davlat mablag‘i sarflanadi. Ana shu tuzilmalar rahbar va xodimlari shunday tasavvur bilan yashamoqdaki, ularning vazifasi go‘yo faqatgina nazorat qilish va boshqalarni jazolashdir.

O‘tgan yilning o‘zida 22 mingta tashkilotda jami 200 milliard so‘mlik o‘zlashtirish va mablag‘larni boshqa maqsadlar uchun sarflash holatlari aniqlangan. Ularning asosiy qismi ijtimoiy soha tashkilotlariga to‘g‘ri keladi” [1].

Yuqoridagilardan tashqari, bunday salbiy holatlar “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2020-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalari bilan ham tasdiqlanadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, 83,2 foiz respondent korrupsiya O‘zbekiston jamiyatida u yoki bu sohalarda mavjud deb hisoblaydi. So‘rov yuzma-yuz intervyu, telefon so‘rovi va Internet tarmog‘idagi miqdoriy so‘rovlar natijalarini qamrab olgan jamoatchilik fikri shaklida amalga oshirilgan [2].

Korrupsiyaga qarshi harakat – hozirgi vaqtda jamiyat hayotida muhokama qilinayotgan juda muhim mavzulardan biri. Bu masala nafaqat hokimiyat organlarini tashvishlantiradigan, balki keng jamoatchilikning alohida e’tiborini ham jalb etgan muammolar. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda muayyan tashkiliy va huquqiy asoslar shakllantirilganligiga qaramay, u hodisa sifatida konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar faoliyatini muhim darajada qiyinlashtiradi, ijtimoiy-siyosiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladi, fuqarolarni xavotirga solishning jiddiy sabablaridan biri sifatida namayon bo‘ladi hamda hokimiyat organlariga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otadi, shuningdek xalqaro maydonda O‘zbekistonga nisbatan salbiy imidj yaratadi va mamlakat xavfsizligiga tahdidlardan biri sifatida qaraladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish deganda, davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlari va jismoniy shaxslarning o‘z vakolatlari doirasidagi quyidagi faoliyati tushuniladi:

korrupsiyaning oldini olish – korrupsiya sabablarini aniqlash va kelgusida bartaraf qilish (korrupsiya profilaktikasi) faoliyati;

korrupsiyaga qarshi kurashish – korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tergov qilish, jinoyatlarni ochish, oldini olish va ogohlantirish faoliyati;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oqibatlarini kamaytirish va tugatish faoliyati [3].

Korrupsiya, ba’zi odamlar tomonidan, albatta, yuz beradigan kulfat va faqat unga moslashish kerak bo‘lgan, muqarrar sodir bo‘ladigan hodisa sifatida [4], ba’zilari tomonidan esa korrupsiyani huquqbuzarlik emas, balki korrupsiyaviy “bitim”ning har ikki tarafi tomonidan to‘lig‘icha foydalaniladigan va ma’qul keladigan “xulq-atvor normasi” sifatida idrok qilinadi [5].

Ko‘plab fuqarolar siyosiy irodaga ega bo‘lgan kuchli hokimiyat korrupsiyani “bir yo‘la” yengishi mumkin, deb hisoblaydilar. Bunda ular davlatning kuchiga ishongan holda korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxsan o‘zining ishtiroki imkoniyatlarini tasavvur etmaydilar, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi ishtiroki orqali vaziyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga shubha bilan qaraydilar.

Shuning uchun korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarga nisbatan tahlikali vaziyatni kuchaytirish zarur. O‘zgarishlar, avvalo, xodimlar ongi va keng jamoatchilik fikridagi ijobiy o‘zgarishlar bilan boshlanishi kerak, korrupsiyaga nisbatan “yengib bo‘lmaydigan ofat” sifatida emas, balki uning darajasini muhim darajada kamaytirsa bo‘ladigan va bartaraf etiladigan ijtimoiy munosabatlarning real kamchiliklari sifatidagi munosabatni shakllantirish lozim.

Korrupsiya davlat uchun jiddiy tahdid bo‘lib, u davlatning harakat qobiliyatini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, qonun ustuvorligi prinsiplarini buzadi, fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Shuning uchun ham korrupsiya muammosi, shuningdek, uni minimallashtirish va bartaraf etish vazifasi zamonaviy dunyoda eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu tasoddif emas, chunki “korrupsiya jinoiy xususiyatdagi alohida muammodan milliy miqyosdagi muammoga aylandi” [6].

Ilmiy hamjamiyat vakillari korrupsiyaning tadbirkorlik [7], huquq-tartibot [8], xalqaro hamkorlik [9] va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalari [10] uchun xavfliligini qayd etadi, korrupsiya terrorizm va ekstremizm [11] kabi eng xavfli jinoyatlar bilan tenglashtiriladi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va davlat-huquqiy islohotlarga to‘siq sifatida qaraladi [12].

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni [13] va 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun [14] qabul qilingandan so‘ng korrupsiyani mustaqil huquqiy hodisa sifatida ilmiy jihatdan jiddiy o‘rganish boshlandi [15].

Korrupsiya turli fanlar – sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisod, huquqshunoslik va boshqa fanlarning o‘rganish predmetiga aylandi. Shu bilan birga, korrupsiyaning mohiyatini anglash uchun turli yondashuvlar qo‘llanila boshlandi. Bunda, korrupsiyaning mohiyatini tushunish uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, siyosatshunoslikda korrupsiya deviant siyosiy xulq-atvor sifatida, sotsiologiyada ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos xulq-atvori yoxud tizimning muayyan nuqsoni sifatida, iqtisodiyotda mansabdor shaxslar ixtiyoridagi resurslarni manipulyatsiya qilish hisobiga ishlab chiqilmagan daromad olish usuli (yoxud foydani noqonuniy ratsional hisoblash yo‘li) sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, barcha fanlarda “korrupsiya – jamiyatda shaxsning o‘z mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni anglatuvchi umumiy atama”[16] bo‘lib, uning mohiyati “mansabdor shaxslar tomonidan xizmat vakolatlaridan foydalangan holda, g‘arazli maqsadlarda boylik orttirish, boshqa moddiy manfaatlarga ega bo‘lish” [17] dan iborat degan fikrda birdamdirlar.

Yurisprudensiya fan sifatida, qonunchilik, davlat va mahalliy boshqaruv bilan yaqindan bog‘liq bo‘lib, korrupsiyani o‘rganadigan boshqa fanlarga nisbatan eng samaralisi hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda korrupsiya mavzusi, asosan, jinoyat huquqi doktrinasi doirasida, jinoyat huquqining “poraxo‘rlik” jinoiy-huquqiy (“pora olish”) kategoriyasi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Bunday holat ba’zi mualliflarning e’tirozlariga sabab bo‘ldi. Ularning fikricha, korrupsiyaning zamonaviy doktrinal va huquqiy ta’riflarining asosiy kamchiliklaridan biri, asosan, hali ham korrupsiyaning ma’muriy, intizomiy va boshqa turlariga javobgarlik belgilanadigan ko‘rinishlarini o‘z tarkibiga kiritmasdan, faqat uning jinoiy-huquqiy ko‘rinishlari bilan cheklanganligi, shu munosabat bilan korrupsiya poraxo‘rlik bilan bog‘lanmaganligi, uning ancha murakkab, o‘zgarib va yangilanib turuvchi shakllari mavjud bo‘lib, o‘zining o‘ta yuqori darajada latentligi bilan bir qatorda, tobora ortib boruvchi ijtimoiy xavfni ham namoyon qilishini ta’kidlab keldilar.

So‘ngi yillarda kriminologiyada korrupsiya mavzusiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilganligi, shuningdek, ilmiy doira vakillari ilgari o‘rganilmagan kriminal jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan, masalan, korrupsiya xavf-xatarini aniqlash, davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish, korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish amaliyotini optimallashtirish va boshqa elementlarni aniqlamoqdalar.

Yuridik fanda “korrupsiya” tushunchasini aniqlashda asosan keng va tor yondashuv ishlab chiqilgan. Keng yondashuv korrupsiyani davlat apparatiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish bilan tavsiflanadi, uning belgilari hokimiyatning tanazzulidan dalolat beruvchi [18], mansabdor shaxsning hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilishi, o‘z mansab vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish yoki guruh manfaatlarini ko‘zlab tamagirlik maqsadlarida qasddan foydalanishni o‘zida ifodalaydi. Ushbu toifadagi jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Hokimiyat va mansab vakolatini suiiste’mol qilish” deb nomlangan XV bobida keltirib o‘tilgan [19]. Tor yondashuv huquqiy, ya’ni ushbu hodisa shaxsning xizmat mavqeidan tamagirlik yoki boshqa maqsadlarda (shaxsiy yoki guruh manfaatlarida) foydalanishi bilan tavsiflanadi.

Har ikkala yondashuvning tarafdorlari va muxoliflari bor. Korrupsiyani aniqlashda, keng yondashuv muxoliflarining fikricha, korrupsiya ko‘rinishlari o‘zining turli kriminologik tavsiflari bo‘yicha bir tushuncha doirasida birlashtiriladi, umuman olganda, ular korrupsiyaning ijtimoiy xavfi darajasini asossiz ravishda tenglashtirish deb hisoblaydilar. Tor yondashuv muxoliflari jinoyatlarning ayrim turlarini qamrab oluvchi korrupsiya tushunchasi o‘rganilayotgan hodisaning mazmunini asossiz ravishda toraytiradi, deb hisoblaydilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, “so‘nggi o‘n yillikda xalqaro huquqiy hujjatlarda yanada kengroq yondashuv hukmron bo‘lib, uni universal deb hisoblash mumkin, chunki u nafaqat davlatni, balki xususiy sohani ham o‘z doirasiga oladi” [17] va korrupsiya “davlat hokimiyatini shaxsiy maqsadlarda, uchinchi shaxslar yoki guruhlarning manfaatlarida foyda olish uchun suiiste’mol qilish” [21], degan tushunchani o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi ilmiy fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash joizki, doktrinal ta’rifga ko‘ra, korrupsiya “mansabdor yoki boshqa shaxs tomonidan o‘z lavozimidan o‘zi yoki uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida qonunga xilof foydalanishni, boshqa shaxslar tomonidan bunday naf ko‘rsatishi, shuningdek, yuqorida qayd etib o‘tilgan harakatlarni sodir etishda vositachilik va boshqa shakllarda yordam berishdir” [17].

Shuni ta’kidlash lozimki, davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, yuridik va jismoniy shaxslar bilan hamkorlikda korrupsiya darajasini pasaytirish bo‘yicha olib borayotgan ishlari samaradorligi bevosita kurashish zarur bo‘lgan korrupsiya hodisasining mohiyatini to‘g‘ri tushunib olishga bog‘liq. Shu bilan birga, “hozirgi kunga qadar korrupsiyaning yagona universal tushunchasi tanlanmagan” [21]. Bu bilan ushbu salbiy hodisaning murakkabligi va uning doimiy o‘zgarishda bo‘lishi, shakllari va usullarining “modernizatsiyasi”, shu jumladan, korrupsiyaga moyil bo‘lgan yangi sohalarning paydo bo‘lishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining rivojlanishiga huquqbuzarlarning munosabati bilan izohlanadi.

Korrupsiya tushunchasini qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish va demak, ushbu atamaning amalda qo‘llanilishi ham uning mohiyatini tavsiflovchi yagona, umume’tirof etilgan, to‘liq va aniq ta’rifning yo‘qligi bilan murakkablashadi [21]. Buni korrupsiyaga qarshi kurashishda amaldagi qonunchilikda mustahkamlangan korrupsiyaning rasmiy (huquqiy) ta’rifini izohlash muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab nashrlar tahlili ham tasdiqlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida korrupsiya tushunchasi “... shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi

shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish", deb ta'riflangan.

Fanda esa korrupsiyaga bir nechta ta'riflar mavjud. Masalan, professor Sh.Qobilov o'zining "Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlari va oldini olish yo'llari"[22] nomli monografiyasida korrupsiyaga turli hujjatlarda, shuningdek, olimlar tomonidan berilgan 16 ta ta'rifni misol tariqasida keltirgan [23] va korrupsiyaning belgilarini yoritgan.

Olim ushbu masalani sharhlar ekan keng ilmiy jamoatchilik vakillari korrupsiya tushunchasining ta'rifida korrupsiyaning eng yorqin ko'rinishi bo'lgan g'ayriqonuniy xulq-atvor (harakat yoki harakatsizlik) sanab o'tilganligini va bunday xususiyatni "mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi", "o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni qasddan sodir etishi", "mansabdor shaxsning o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo'lishi", "bajarishi lozim bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi", "shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi" va boshqalarni ko'rsatadi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida korrupsiya "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish" sifatida ta'riflangan. Ushbu tushunchadan, birinchidan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faqat korrupsiyaga oid jinoyatlar bilan cheklanmasligi, bunday huquqbuzarliklar korrupsiya belgilariga ega bo'lgan harakatlar sifatida tushunilishi kerakligi, ular uchun normativ-huquqiy hujjatda jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlik belgilanishi mumkinligi kelib chiqadi.

Masalan, "korrupsiya" tushunchasi tarkibiga kiritilgan "... taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)" [24], ya'ni qonunga xilof xatti-harakatlar – bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoiy javobgarliklardir.

Mazkur qonunning 27-moddasida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari belgilangan. Unga ko'ra, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning xatti-harakati amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra, muayyan huquqlardan, shu jumladan, muayyan lavozimni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkinligi hamda yuridik shaxslar korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan.

Qayd etib o'tganimizdak, ilgari korrupsiya deganda, Jinoyat kodeksining dispozitsiyalarida shaxsning xizmat vazifasi bilan bog'liq ravishda pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilishni nazarda tutuvchi harakat yoki harakatsizlik deb tushunib kelingan [25]. Vaholanki, shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik, guruhlar manfaatlari yo'lidagi harakatlar, xodimlarni pora va boshqa haq evaziga og'dirish yo'lidagi harakatlar ko'plab sodir bo'ladi.

*Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik.* Jinoyat huquqida "korrupsiya" atamasi davlat idoralari mansabdor shaxslari va davlat xizmatchilari hamda xususiy soha mansabdor shaxslarining uyushgan guruh, shuningdek, boshqa jinoyatchi shaxslar bilan o'zaro til biriktirib, jinoyat sodir etishi yoki ularga jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratib berishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi va ularning ro'yxati nazarda tutilmagan. Ushbu masala "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda mustahkamlangan "korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish" tushunchasida nazarda tutilgan. Mazkur tushunchadan jinoyat qonunchiligida qaysi jinoyatlar korrupsiyaviy jinoyatlar ekanligini bilib olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida mustahkamlangan ushbu ta'rif xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga umume'tirof etilgan ta'rif berilmagan. Biroq, korrupsiya o'zida poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilish, noqonuniy ustunliklarni olish va odil sudlovga to'sqinlik qilish maqsadida, o'z mansabidan foydalanish kabi muayyan xatti-harakatlar tizimidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tegishli moddalari sanksiyalarida korrupsiyaviy jinoyatlarga oid javobgarlik masalalari turlicha aks etgan. Jumladan, Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2-qismi "g" bandi, 168-moddasi 2-qismi "v" bandi, $192^{9}$ , $192^{10}$-moddalari, 210–214-moddalari, 182-moddasi 2-qismi "g" bandi, $192^{11}$, 205–206, 209-moddalari hamda jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holda sodir etilgan Jinoyat kodeksining 243-moddasi sanksiyasida belgilangan korrupsiya bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalalarida tegishli jazo turlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasida ko'rsatilgan korrupsiya bilan bog'liq barcha jinoiy aktlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi yuqorida qayd etilgan Konvensiyada ko'rsatilmagan korrupsiya bilan bog'liq jinoiy aktlarnii ham nazarda tutadi. Mutaxassislar bunday aktlar jumlasiga Jinoyat kodeksining 167, 175, $192^{9}$, $192^{11}$, $192^{11}$, 205, 206, 207, 208, 209, 210, $211^{1}$, 212, 213, 214, 230, 236, $241^{1}$, 243-moddalarini kiritish mumkinligini ta'kidlaydilar" [22].

*Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.* O'zbekiston Respublikasiniing "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi 61-moddasida ("Oz miqdorda talon-toroj qilish") mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'rilash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning $293^{1}$-moddasida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish va $293^{2}$-moddasida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berganlik yoki uni mulkiy manfaatdor etganlik yoki mulkiy manfaatdor bo'lganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan korrupsiya bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jarima jazosi nazarda tutilgan.

*Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik.* O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat

tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish [26].

Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari”da davlat xixmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi belgilangan.

Davlat xizmatchilariga ularning mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning umumiy qoidalariga amal qilishi lozimligi to‘g‘risida quyidagi talablar qo‘yilgan:

davlat xizmatining obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish;

mas’uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;

murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko‘maklashish;

xushmuomalalik, e’tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg‘otish;

oilasida sog‘lom muhitni ta’minlab, oila a’zolariga doimiy g‘amxo‘r bo‘lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo‘lish;

jamiyatda axloqning umume’tirof etilgan qoidalariga amal qilish [27].

Korrupsiyaning naqadar xavfliligini hisobga olgan holda ba’zi tadqiqotchilar hokimiyat yoki mansab vakolatiga ega bo‘lgan shaxsning tegishli harakatlari shaxsiy manfaatlar (mulkiy yoki nomulkiy) tavsifidan qat’i nazar, korrupsiya tushunchasi bilan qamrab olinishi zarurligiga ishora qilgan holda, korrupsiya ta’rifiga nomoddiy ehtiyojlarni ham qondirish maqsadida mansabdor shaxs tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishi kabi noqonuniy faoliyatni kiritish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishni taklif qilmoqdalar.

Ilmiy hamjamiyat korrupsiyaning huquqiy ta’rifini “uning yangi ko‘rinishlari, avvalo, “ishonchsiz” foyda olishda nomoddiy manfaatdorlik va vositachilikning turli shakllari namoyon bo‘lishini hisobga olgan holda takomillashtirish zarurligi”[28]ni ta’kidlamoqdalar hamda buning oqibatida “korrupsiyaning ayrim shakllari, masalan, qarindosh-urug‘chilik, favoritizm, mablag‘ning bir qismini orqaga qaytarish (otkatlar), korrupsiyaga oid lobbizm, nepotizm va boshqalar huquqiy tartibga solish doirasidan tashqarida qolganligi haqida fikr bildirmoqdalar [29].

Shuningdek, “korrupsiya” kategoriyasining huquqiy mazmunidan kelib chiqib, mazkur qonunchilikni shakllantirish borasidagi noaniqliklar huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, ilmiy jamoatchilik tomonidan taklif etilayotgan ta’riflar ham bir-biridan farq qiladi va, o‘z navbatida, ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi. Ta’kidlash joizki, atamaviy nomukammalliklarga qaramay, qonun hujjatlarida korrupsiya tushunchasining huquqiy ta’rifi mustahkamlanganligi uning mazmun-mohiyatini aniqlashga va umuman, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, korrupsiyaning yaxlit tushunchasini shakllantirish, albatta, unga qarshi kurashishning yanada samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Korrupsiya hozirgi davrda ko‘pqirrali hodisa hisoblanib, uni chuqur o‘rganish va oldini olish uchun kompleks va tizimli yondashuv, davlat va jamiyat, nazariya va amaliyot kuchlarini birlashtirishni taqozo etadi. Eng avvalo, korrupsiya paydo bo‘lishining obyektiv va subyektiv sabablarini o‘rganish, shu sabablarni davlatchilik rivojlanishining muayyan bosqichidagi rivojlanishi bilan taqqoslash, shundan keyin korrupsiyaning kelib chiqishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini yo‘qotishga yo‘naltirilgan amaliy qadamlarni tashlash va ushbu illatning oldini olishga qaratilgan turli yo‘nalishdagi profilaktik tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada aniqlashtirish talab etiladi. Shubhasiz, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi bevosita olib borilayotgan huquqiy siyosatning izchilligi va ilmiy jihatdan asoslantirilganligi bilan bevosita bog‘liq.

BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasida, shu bilan birga, ko‘plab rivojlangan xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida noqonuniy boylik ortirish va mansabni suiiste’mol qilish korrupsiyaga oid jinoyatlar sifatida o‘z aksini topgan. Ularni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aks ettirish korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan manbalar / References**


1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 226 b.
2. https:// sputniknews-uz.com/20210420/aholining-83-fizidan-ziyodi-ozbekistonda-korruptsiyabor -deb-hisoblaydi—sorov-natijalari—18410152.html
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.
4. Купреев С.С. Российское антикоррупционное законодательство и пути преодоления правового нигилизма в обществе // Роль общественной экспертизы законодательства как формы взаимодействия государства и гражданского общества: Материалы конференции 9 декабря 2009 года, г. Москва. – М., 2009. – С. 184.
5. Овчинников О.А., Тришкин С.В. Правовые и социальные аспекты, оказывающие влияние на коррупционную ситуацию в России // Административное право и процесс. – 2012. – № 5. – С. 9.
6. Цирин А.М. Противодействие коррупции в Российской Федерации: проблемы правового регулирования // Журнал российского права. – 2002. – № 2.; Бадруддинов М.С., Рахимов С.Ф. Борьба с коррупцией: опыть Республики Татарстан // Журнал российского права. – 2012. – № 12. – С. 60.
7. Симанович А.А. Институциональные корни коррупции // Безопасность бизнеса. – 2009. – № 3. – С. 34.
8. Чершенцев В.С. Коррупция о российская уголовная политика // Российский следователь. – 2007. – № 7.
9. Власенко Н.А., Грачева С.А., Рафалюк Е.К. и др. Правовые средства противодействия коррупции: научно-практическое пособие /отв. ред. Н.А. Власенко). – М.: ЭПС “Система ГАРАНТ”, 2013.
10. Попова Н.Ф. К вопросу о борьбе с коррупцией в сфере государственного управления // Адм. право и процесс. – 2011. – № 10.– С. 5.
11. Губарева Т.И. Воспитательная функция в юридическом образовании в свете проводимой антикоррупционной политики // Юридическое образование и наука. – 2013. – № 3. – С. 12.
12. Костенников М.В., Куракин А.В., Калита И.А. Прокуратура и противодействие коррупции // Российская юстиция. – 2013. – № 8. – С. 35.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 5-m.
14. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/23/931/0402-son; 26.02.2025-y., 03/25/1038/0188-son.
15. Ollamov Ya.Y. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari: o‘zaro munosabatlarda murojaatlarning o‘rni, jamoatchilik nazoratining roli va murojaatlar bilan ishlashni takomillashtirish muammolari. – T., 2021. – B. 303–424.
16 . Сименович А.А. Институциональные корни коррупции // Безопасность бизнеса. – 2009. – № 3. – С. 30.

17. Хабриева Т.Я. Научно-правовые проблемы противодействия коррупции // Журнал российского права. – 2012. – № 7.
18. Трунцевский Ю.В. О мерах по уничтожению коррупции в России // Российский следователь. – 2012. – № 1. – С. 24.
19. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Yridik adabiyotlar publish, 2025. – B. 192–223.
20. Трунцевский Ю.В. О мерах по уничтожению коррупции в России // Российский следователь. – 2012. – № 1. – С. 23.
21 Ревина С.Н., Хваткова В.А. Некоторые вопросы с коррупцией: международный аспект // Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2013. – № 3 (101). – С.152.
22. Qobilov Sh.R. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlari va oldini olish yo‘llari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2019. – B. 26-30.
23. Belskiy K.S.; Dolgova A.I.; Kuznetsova N.F.; Jonson M. va Nayem J.S.; Satarov G.A.; Levin M.I. va Sirik M.L.; Kirpichnikov A.I.; Voljenkin B.V.; Dmitriyev Yu.A. va hokazolar korrupsiyaga ta’rif bergan.
24. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Yridik adabiyotlar publish, 2025. – 8-b.
25. Sovet jinoyat huquqi. Maxsus qism. – T., 1965. 224–230-b.
26. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi // (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 04.07.2024-y., 03/24/934/0469-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 14.02.2025-y., 03/25/1030/0144-son; 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son; 12.11.2025-y., 03/25/1095/1036-son.
27. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2022-y., 09/22/595/0921-son; 22.10.2025-y., 09/25/662/0964-son.
28. Арбузова Н.А., Артемов В.Ю., Булаевский Б.А. и др. Коррупциогенность законодательства: причины, факторы, преодоление: монография (отв. ред. Е.И. Спектор, А.М. Цирин). – М., 2013.
29. Губарева Т.И. Воспитательная функция в юридическом образовании в свете проводимой антикоррупционной политики // Юридическое образование и наука. – 2013. – № 3. – С. 13.

# INTERNETDA GIYOHVANDLIK MODDALARI AYLANMASI VA ULARNING TERGOVIGA DOIR DOLZARB MASALALAR



***Turabbayev Xusanbek Abdusalamovich***

*yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor*

*доктор философии по юридическим наукам, профессор*

*Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Professor*

***Annotatsiya.*** *Maqolada muallif tomonidan Internet tarmog‘i orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof aylanishi va uning tergov qilishdagi xususiyatlari tahlil qilingan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jinoyatchilikka ta’siri, elektron dalillar yig‘ish va tahlil qilishdagi muammolar, virtual shaxslarni aniqlash va xalqaro hamkorlik zarurati ko‘rib chiqilgan.*

*Maqola ilmiy nazariy va amaliy xulosalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *axborot texnologiyalari, internet tarmog‘i, giyohvandlik moddalari, noqonuniy aylanish, dastlabki tergov, kiberjinoyatchilik, elektron dalillar, xalqaro hamkorlik.*

***CURRENT PROBLEMS OF INTERNET DRUG TRAFFICKING AND ITS INVESTIGATION***

***Abstract.*** *In the article, the author analyzes drug trafficking via the Internet and its features in the investigation. The impact of information and communication technologies on crime, the problems of collecting and analyzing electronic evidence, identifying virtual persons, and the need for international cooperation are considered. The article contains scientific, theoretical and practical conclusions aimed at improving legal mechanisms in the fight against cybercrime.*

***Keywords:*** *information technology, Internet, drugs, illicit trafficking, preliminary investigation, cybercrime, electronic evidence, international cooperation.*

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan huquqni muhofaza qilish tizimiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet tarmog‘i orqali ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo‘layotgani, bir tomondan, fuqarolarga qulay imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan, jinoyatchilikning yangi turlari va usullarini keltirib chiqarmoqda.

Xususan, giyohvandlik moddalarining qonunga xilof ravishda aylanishi sohasida an’anaviy jinoyat usullaridan farqli tarzda, Internet tarmog‘i imkoniyatlaridan foydalangan holda giyohvandlik moddalarini tarqatish holatlari tobora ko‘payib bormoqda. Elektron tijorat platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va “darknet” orqali amalga oshirilayotgan bunday faoliyat nafaqat jinoyatlarni fosh etishni qiyinlashtiradi, balki tergov jarayonida yangi taktik va texnik yondashuvlarni talab etadi.

Giyohvandlik moddalarining Internet orqali tarqalishi nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. BMTning Giyohvandlik vositalari va psixotrop

moddalar nazorati boʻyicha 2024-yilgi hisobotiga koʻra, Internet orqali noqonuniy moddalar savdosi 2018-yilga nisbatan deyarli uch barobarga ortgan. Shu tendensiya Oʻzbekistonda ham kuzatilmoqda, bu esa milliy xavfsizlik va aholi sogʻligʻi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi [6].

Giyohvandlik moddalarining qonunga xilof ravishda aylanishi jamiyat xavfsizligiga, fuqarolar sogʻligʻi va davlatning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladigan ogʻir jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (keyingi oʻrinlarda – JK)ning 270–276-moddalarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bu jinoyatlarning anʼanaviy shakllari yangi koʻrinishlarda namoyon boʻlmoqda. Hozirda giyohvandlik moddalari aylanishi koʻpincha Internet tarmogʻi orqali amalga oshirilmoqda, bu esa jinoyat tarkibini, subyektiv va obyektiv tomonlarni aniqlashni ancha murakkablashtiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisida”gi (2003-yil 29-aprel) hamda “Elektron raqamli imzo toʻgʻrisida”gi (2004-yil 11-dekabr) qonunlari elektron maʼlumotlarni huquqiy kuchga ega hujjat sifatida tan oladi. Bu esa elektron dalillarni jinoyat ishlarini yuritish jarayonida qonuniy asosda dalil sifatida qoʻllash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi oʻrinlarda – JPK)ning 82-moddasiga koʻra, elektron maʼlumotlar, shu jumladan audio, video, raqamli tasvirlar va fayllar, “boshqa hujjatlar” sifatida dalil deb tan olinishi mumkin. Lekin amaliyotda bu normani toʻgʻri qoʻllash, elektron dalillarning haqiqiyligi va yaxlitligini taʼminlashda muammolar mavjud [2].

Koʻpgina jinoyat ishlarida, jinoyatning subyekti sifatida, yoshlar va Internet texnologiyalarini yaxshi biluvchi shaxslar ishtirok etadi.

Shunday qilib, giyohvandlik moddalarining Internet orqali aylanishi bilan bogʻliq jinoyatlar anʼanaviy tarzda belgilangan jinoyat tarkibining barcha elementlariga ega boʻlsa-da, ularning amalga oshirish usuli va vositalari zamonaviy raqamli muhitga moslashgan boʻladi. Bu esa dastlabki tergov jarayonida maxsus kibertexnikaviy bilimlarni talab etadi.

Internet orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof aylanishi bilan bogʻliq jinoyatlarni dastlabki tergov qilish anʼanaviy tergov jarayonidan keskin farq qiladi. Buning sababi – jinoyatning elektron muhitda sodir etilishi, yaʼni moddiy izlardan koʻra raqamli dalillar ustun boʻlishidir [3].

Dastlabki tergov jarayonidagi asosiy vazifa – elektron dalillarni aniqlash, yigʻish, saqlash va tahlil qilish. Bu jarayonda har qanday xato tergov natijasiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin, chunki raqamli maʼlumotlarning osongina oʻzgarishi yoki yoʻqolishi ehtimoli yuqori. Shu sababli, elektron dalillar bilan ishlashda protsessual qoidalarga qatʼiy rioya etish talab etiladi.

Tergov organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning bir qator muhim jihatlari mavjud. Jinoyat izlarini aniqlashda, birinchi navbatda, elektron qurilmalar – smartfon, kompyuter, planshet, USB-fleshka, veb-server va bulutli (cloud) xizmatlar tahlil qilinadi. Tergovchi ushbu qurilmalardan olinadigan maʼlumotlarning aslligini taʼminlash uchun maxsus kiber-kriminalistika usullaridan foydalanishi kerak [7].

Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Ekspert-kriminalistika markazida bunday tahlillar uchun qator zamonaviy dasturlar joriy etilgan. Ushbu vositalar yordamida jinoyatchi foydalangan IP-manzillar, brauzer tarixi, yozishmalar va fayl metamaʼlumotlari aniqlanadi [9]. Jinoyatchilar koʻp hollarda taxallus, soxta akkaunt yoki VPN orqali harakat qiladilar.

Jinoyat-protsessual amaliyotda raqamli dalillar moddiy dalillar kabi huquqiy ahamiyatga ega boʻlishi uchun ularning aslligi, yaxlitligi va haqqoniyligi kafolatlanishi lozim.

Bosh prokuratura huzuridagi Tergov departamentida soʻnggi yillarda raqamli dalillar bilan ishlash boʻyicha maxsus metodik qoʻllanmalar ishlab chiqilgan. Ularda dalillarni saqlash, nusxa olish, shifrlash va sudga taqdim etish tartibi boʻyicha aniq koʻrsatmalar berilgan.

Dastlabki tergov bilan uzviy bogʻliq boʻlgan tezkor-qidiruv faoliyatida ham axborot texnologiyalari muhim oʻrin tutadi. Elektron dalillarni tahlil qilish, tyergov jarayonida olingan maʼlumotlar “data mining” va “big data analytics” usullari yordamida tahlil qilinadi. Bu orqali giyohvandlik moddalari bilan bogʻliq akkauntlar oʻrtasidagi bogʻliqliklar, pul aylanmasi va jinoyat zanjirlari aniqlanadi.

Bunday tahlil jarayonlarida sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ham istiqbolli yoʻnalish sifatida qaralmoqda.

Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosini tashkil etish va amalga oshirish bilan bogʻliq jinoyatlar XXI asrdagi eng murakkab illatlardan biriga aylangan. Bu turdagi jinoyatlarning fosh etilishi anʼanaviy usullar bilan emas, balki kiberxavfsizlik, axborot tahlili va raqamli dalillar bilan ishlash sohalaridagi maxsus bilim va texnik imkoniyatlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik moddalarining qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashda Ichki ishlar vazirligi (IIV), Davlat xavfsizlik xizmati (DXX), Bosh prokuratura va Bojxona qoʻmitasi oʻrtasida hamkorlikdagi tizimli faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar vazirligi tizimida Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi hamda Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bosh boshqarmasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu tuzilmalar oʻzaro hamkorlikda Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan giyohvandlik moddalariga oid xabarlar, botlar va anonim savdo kanallarini muntazam monitoring qilib boradilar.

Bundan tashqari, IIV Akademiyasida maxsus kurslar tashkil etilgan boʻlib, ularda tergovchilar va tezkor xodimlarga “kibertergov”, “elektron dalillar bilan ishlash” va “Internet orqali jinoyatlarni fosh etish metodikasi” boʻyicha amaliy tayyorgarlik oʻquv mashgʻulotlari olib boriladi.

Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) milliy xavfsizlikni taʼminlash doirasida Internet makonidagi giyohvandlik moddalari savdosini moliyalashtirish va tashqi aloqalar bilan bogʻliq holatlarni nazorat qiladi. DXXning Kiberxavfsizlik markazi xalqaro hamkorlar bilan axborot almashinuvini yoʻlga qoʻygan boʻlib, ayniqsa “darknet”da faoliyat yurituvchi jinoiy guruhlarning moliyaviy oqimlarini kuzatishda muhim rol oʻynaydi.

Bosh prokuraturaning Tergov departamenti tergov jarayonidagi protsessual qonun buzilishlarining oldini olish, elektron dalillarning yuridik kuchini taʼminlash va raqamli maʼlumotlarni sud muhokamasiga tayyorlashda markaziy oʻrin tutadi.

Shu bilan birga, Bosh prokuratura huzurida Kiberjinoyatchilikni tahlil qilish markazi tashkil etilgan boʻlib, u elektron dalillarning huquqiy kuchini baholash, ularni sud muhokamasida qonuniy ravishda foydalanish boʻyicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi asosiy muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

*Texnik jihatdan ortda qolish.* Jinoyatchilar zamonaviy VPN, proksi va shifrlash usullaridan foydalangan holda izlarni yashirishga muvaffaq boʻlmoqda. Baʼzi hududiy tergov boʻlinmalarida zamonaviy dasturiy taʼminot va server resurslari yetishmaydi.

*Mutaxasis kadrlar malakasining pastligi.* Barcha tergovchilar kibertergov, kriptovalyuta tranzaksiyalari va raqamli dalillar bilan ishlash boʻyicha yetarli bilimga ega emas.

*Huquqiy asoslarning yetarlicha takomillashmaganligi.* Amaldagi qonun hujjatlarida Internet muhitidagi jinoyatlarni tergov qilish boʻyicha ayrim normalar umumiy shaklda berilgan, bu esa amaliyotda turlicha talqin qilinishiga olib keladi.

*Xalqaro hamkorlikdagi to‘siqlar*. Jinoyatchilar ko‘p hollarda chet el serverlari va platformalaridan foydalanadilar. Bu esa axborot so‘rovlariga javob olishni kechiktiradi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- IIV Akademiyasi, DXX va Bosh prokuratura tizimidagi malaka oshirish kurslarida kibertergov va raqamli dalillar bilan ishlash fanini o‘qitishni yanada rivojlantirish;
- Internet orqali giyohvandlik moddalarining tarqalishiga qarshi avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini keng joriy etish;
- xalqaro tashkilotlar – BMTning Narkotik vositalar bo‘yicha komissiyasi va Interpol bilan axborot almashinuvini institutsional darajada kuchaytirish;
- sud-tergov jarayonlarida elektron dalillar haqqoniyligini ta’minlovchi blokcheyn asosidagi raqamli dalillar platformasini yaratish.

Internet orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof aylanishi jarayonlarida kriptovalyuta va moliyaviy texnologiyalardan foydalanish holatlari keskin oshib bormoqda. Avvallari giyohvandlik moddalari savdosi naqd pul orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirda bu jarayon virtual to‘lov tizimlari, anonim kriptovalyutalar va elektron hamyonlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa jinoyatni fosh etishni ancha qiyinlashtiradi.

Kriptovalyutalar – blokcheyn texnologiyasiga asoslangan raqamli aktivlar bo‘lib, ularning asosiy xususiyati anonimlik va detsentralizatsiya hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar jinoyatchilar uchun qulay muhit yaratadi, chunki operatsiyalar ortda iz qoldirmaydi yoki izni kuzatish uchun yuqori darajadagi texnik tahlil talab etiladi.

Giyohvandlik moddalari savdosida eng ko‘p qo‘llaniladigan kriptovalyutalar – Bitcoin (BTC), Monero (XMR) va Zcash (ZEC) hisoblanadi. Ulardan ayniqsa Monero va Zcash “shifrlangan tranzaksiyalar” tizimiga ega bo‘lib, operatsiya haqidagi ma’lumotni (yo‘llovchi, qabul qiluvchi va summa) deyarli yashirib qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Bosh prokuraturaning 2023-yildagi qo‘shma ma’lumotnomasiga ko‘ra, giyohvandlik moddalari savdosi bilan bog‘liq 50 dan ortiq jinoiy ishda kriptovalyuta orqali hisob-kitob amalga oshirilgani aniqlangan.

Giyohvandlik moddalarini sotish uchun jinoyatchilar ko‘pincha “darknet marketplace” (yashirin onlayn bozorlar) platformalaridan foydalanadilar. U yerda xaridor va sotuvchi VPN va Tor brauzeri orqali bog‘lanadi, tovarlar esa maxsus “klad” usuli bilan yetkaziladi.

To‘lovlar bitkoin yoki monero orqali amalga oshiriladi, so‘ng “mixing services” yoki “tumbling” deb ataluvchi mikserlar yordamida mablag‘lar bir necha kriptohamyonlar orqali aylantiriladi. Bu jarayon pullarning manbasini yashirish va ularni “qonuniy” ko‘rinishga keltirish imkonini beradi.

Kriptovalyutalarni kuzatishdagi asosiy muammo ularning anonimligi va transmilliy xususiyatidir. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kriptoaktivlarni jinoiy daromad sifatida musodara qilish tartibi to‘liq ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, sud-tergov amaliyotida kriptovalyuta bilan bog‘liq dalillarni qonuniy mustahkamlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Texnik jihatdan esa kriptotranzaksiyalarni kuzatish uchun maxsus dasturlar talab etiladi. Bu tizimlar blokcheyn zanjiridagi harakatlarni vizual ko‘rinishda tahlil qilib, muayyan hamyon yoki IP-manzil bilan bog‘lay oladi [10].

Jahon amaliyotida kriptovalyutalar orqali giyohvandlik moddalari savdosini fosh etishda qator samarali yondashuvlar mavjud. O‘zbekiston uchun bu tajribalarni inobatga olgan holda, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– kriptovalyuta bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha alohida huquqiy asoslar yaratish;

– kiberkriminalistika va moliyaviy nazorat sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash;

– blokcheyn tahlili bo‘yicha milliy laboratoriya tashkil etish;

– Interpol va BMT doirasida kriptotranzaksiyalarga oid ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan kriptoaktivlar aylanmasi uchun huquqiy asos yaratilgan bo‘lsa-da, ulardan jinoyatchilik maqsadida foydalanishga qarshi profilaktika mexanizmlari alohida belgilanmagan. Shu munosabat bilan, Jinoyat kodeksiga “kriptovalyuta yordamida noqonuniy aylanmani moliyalashtirish” bo‘yicha yangi modda kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu modda giyohvandlik moddalari savdosini kriptoto‘lovlar orqali amalga oshirgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosi transmilliy xususiyat kasb etdi. Bu jinoyatlar ko‘pincha bir nechta mamlakatlarning hududlarida sodir etilgani uchun milliy huquqiy mexanizmlar yetarli emas. Shu bois xalqaro hamkorlik va qonunchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Internetdagi giyohvandlik moddalari savdosini samarali tergov qilish uchun davlatlar orasida qator mexanizmlar mavjud:

– Interpol va Europol – kiberjinoyatlar va darknet bozorlariga qarshi maxsus dasturlar orqali ma’lumot almashadi va birgalikda tergov olib boradi.

– UNODC (BMTning Giyohvandlik moddalari va Jinoyatchilik bo‘yicha Boshqarmasi) – a’zo davlatlarga huquqiy maslahatlar va moliyaviy monitoring texnologiyalarini yo‘lga qo‘yishda yordam beradi.

– Financial Action Task Force (FATF) – kriptovalyuta orqali amalga oshirilayotgan jinoiy mablag‘ aylanmasiga qarshi milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi xalqaro organ [5].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosi bilan tahdid qiluvchi transmilliy jinoyatlarga qarshi qator normalar mavjud:

- Jinoyat kodeksining 246 moddasi – giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanishga oid jinoyatlar; 247 moddasi – giyohvandlik moddalari savdosini tashkil etish va ularni Internet orqali tarqatish;
- “Huquqiy tartib va xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qonun transmilliy jinoyatlarga qarshi hamkorlik va ma’lumot almashinuvini tartibga soladi.

Shu bilan birga, kriptovalyutalar va elektron to‘lovlar orqali amalga oshirilgan jinoyatlarga nisbatan qonunlar hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Xalqaro tajribani hisobga olib, qonunchilikni takomillashtirish orqali tergov jarayonini qulaylashtirish zarur [12].

Shu tarzda, Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosini samarali fosh etish va oldini olishda xalqaro hamkorlik muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosini kamaytirishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar tergovi bilan cheklanish mumkin emas. Ijtimoiy profilaktika va huquqiy ma’rifiy faoliyat ham muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda qonunchilik, davlat organlari va jamiyatning hamkorligi asosiy omil hisoblanadi.

Giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi profilaktika choralari quyidagilardan iborat: ma’rifiy va huquqiy kampaniyalar – maktablar, kollej va universitetlardagi ma’rifiy darslar, ommaviy axborot vositalari orqali ogohlantiruvchi materiallar tarqatish; oila va jamoatning roli – oilaviy tarbiya va jamoatchilik kuzatuvi yoshlar orasida giyohvandlik moddalari iste’molining oldini olishda samarali vosita; onlayn monitoring va filtrlar – Internet platformalaridagi yoshlar uchun zararli kontentlarni bloklash va Internet xavfsizligi dasturlari [11].

Shuningdek, huquqiy profilaktika quyidagilardan iborat:

- qonunchilik asosida ogohlantirish – Jinoyat kodeksi va ma’muriy javobgarlik normalari bo‘yicha aholini ma’lumot bilan ta’minlash;
- mahalliy huquqiy mexanizmlar – mahalliy hokimliklar, masjidlar, MFY orqali jamoatchilik kuzatuvi va huquqiy maslahatlar taqdim etish;
- davlat organlari faoliyati – IIV, DXX va Bosh prokuratura hamkorligida huquqiy maslahatlar markazlari tashkil qilish.

Ma’rifiy faoliyat orqali jamiyatdagi huquqiy ongni oshirish mumkin. Bunda asosiy yo‘nalishlar quyidagilar:

– mas’uliyat va xavf haqida axborot berish – internet orqaligi savdoning qonunga zidligi va jazo choralari to‘g‘risida aholini ma’lumotlantirish;

– yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish – Internetdagi xavf-xatarlardan himoya qilish va kiber-jinoyatlarga qarshi ongli harakat qilishga o‘rgatish;

– jamoatchilik tashabbuslari – mahalla va jamoat tashkilotlari orqali profilaktika kampaniyalari va ma’rifiy loyihalarni tashkil qilish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Internet orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof ravishda aylanishi jamiyatning huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy asoslariga jiddiy tahdid solayotgan zamonaviy muammolardan biridir. Bu turdagi jinoyatlar an’anaviy usullardan farqli ravishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilayotgani ularni fosh etish va tergov qilish jarayonida zamonaviy texnik va huquqiy yondashuv talab etadi.

Internet orqali giyohvandlik moddalarining aylanishi quyidagi xususiyatlarga ega:

anonimlik va taxalluslilik imkoniyati jinoyatchilarni aniqlashni qiyinlashtiradi;

kriptovalyutalar orqali mablag‘larni yuvish va izini yo‘qotish imkoniyati yuqori;

darknet va shifrlangan messenjerlar orqali jinoiy faoliyatni tashkil qilish tendensiyasi kuchaymoqda;

tyergov jarayonida xalqaro hamkorlik va raqamli dalillarni yig‘ish bo‘yicha muammolar vujudga kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari – IIV, DXX, Bosh prokuratura hamda sud-ekspertlik muassasalari tomonidan Internet orqali sodir etilayotgan giyohvandlik moddalari savdosini fosh etish borasida muayyan ijobiy tajriba to‘plandi. Biroq, bu sohada hali yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar ham mavjud:

- Internet orqali sodir etiladigan jinoyatlarni aniqlash va dalillashning yagona protsessual standarti mavjud emas;
- raqamli dalillarni sudda qonuniy asosda taqdim etish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan;
- huquqni muhofaza qilish organlarining texnik bazasi va mutaxassislar malakasi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi;
- kiberfazoda sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik hali yetarli darajada samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Internet orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qonunchilikni takomillashtirish:

○ “Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi alohida qonunni qabul qilish;

○ Jinoyat kodeksiga Internet orqali giyohvandlik moddalari savdosi va kriptovalyuta orqali mablag‘ yuvishga oid maxsus moddalarni kiritish;

○ elektron dalillarni protsessual tartibda yig‘ish va ularning autentifikatsiyasini ta’minlash bo‘yicha normalarni aniq belgilash.

2. Tergov organlari faoliyatini takomillashtirish:

○ IIV va DXX tizimida “Kiber patrul” bo‘linmasi faoliyatini kengaytirish;

○ tyergovchilar uchun kiber xavfsizlik, kriptovalyuta tahlili, blokcheyn tekshiruvi bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

○ axborot texnologiyalari va moliyaviy monitoring sohasidagi mutaxassislarni tergov guruhlariga jalb qilish.

3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:

○ Interpol, Europol va UNODC bilan axborot almashish jarayonini avtomatlashtirish;

○ kiberjinoyatlarga qarshi qo‘shma operatsiyalarni tashkil etish;

○ qo‘shni davlatlar bilan giyohvandlik moddalari aylanishi bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini yaratish.

4. Profilaktika va ma’rifiy ishlarni rivojlantirish:

○ yoshlar orasida Internet xavfsizligi va giyohvandlikka qarshi ma’rifiy dasturlarni kengaytirish;

○ mahalla, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari ishtirokida ijtimoiy monitoringni kuchaytirish;

○ onlayn platformalarda profilaktik videoroliklar va huquqiy ma’lumotlar tarqatish.

5. tyexnik bazani modernizatsiya qilish:

○ tyergov organlarini zamonaviy kiber tahlil dasturlari, kriptovalyuta monitoring vositalari va raqamli dalillar ekspertizasi uskunalari bilan ta’minlash;

○ Milliy kiberxavfsizlik markazi huzurida giyohvandlik moddalari savdosi bilan bog‘liq Internet tahdidlarini aniqlovchi avtomatlashtirilgan tizim yaratish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Internet orqali giyohvandlik moddalarining qonunga xilof aylanishiga qarshi samarali kurashish faqat huquqiy choralar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy, ma’rifiy va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilishi lozim. Tergov jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirib, elektron dalillar orqali jinoyatchilarni fosh etish imkonini beradi.

O‘zbekiston uchun bu sohadagi ustuvor yo‘nalishlar – qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va profilaktik ishlar samaradorligini kuchaytirish hisoblanadi.

Shunday qilib, giyohvandlik moddalarining Internet orqali qonunga xilof aylanishiga qarshi samarali kurash – bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokidagi umummilliy vazifadir.

**Foydalanilgan manbalar / References**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2024.
3. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonun / Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 21-martda qabul qilingan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PF–84-son “Giyohvandlikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni.
5. United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances (Vienna Convention, 1988). – United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC).

# GIYOHVANDLIK MODDALARINING INTERNET ORQALI NOQONUNIY AYLANISHI VA UNGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY JIHATLARI




***To‘rayev Ilxomjon Esanovich***

*tibbiyot fanlar bo‘yicha falsafa doktori*
*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti*

*доктор философии в области медицинских наук*
*Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан*

*Doctor of Philosophy in Medical Sciences*
*Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*





***Esanov Dilshodbek Ilhomjon o‘g‘li***

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistraturasi tinglovchisi*

*Слушатель магистратуры Академии МВД Республики Узбекистан*

*Student of the Master's degree at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*



***Annotatsiya.*** *Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida shakllangan global muammolardan biri – giyohvandlik moddalarining Internet tarmoqlari orqali noqonuniy aylanishi tahlil qilingan. Onlayn narkotrafikning o‘sish tendensiyalari va ularning aholi salomatligiga salbiy ta’siri yoritilgan. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlash, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali noqonuniy aylanmani cheklash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*


***Kalit so‘zlar:*** *giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, aholi salomatligi, axborot xavfsizligi, onlayn savdo, telemeditsina va internet-dorixonalar.*


## SOCIO-LEGAL ASPECTS OF ILLICIT DRUG TRAFFICKING VIA THE INTERNET AND THE FIGHT AGAINST IT


***Abstract.*** *The article analyzes one of the global problems that has emerged as a result of the rapid development of information and communication technologies - the illegal trafficking of narcotic substances through the internet. It highlights the growth trends of online drug trafficking and its negative impact on public health. Furthermore, it proposes recommendations to limit illegal circulation by ensuring information security, improving legislation, and raising the legal awareness of citizens.*


***Keywords:*** *narcotic drugs, psychotropic substances, public health, information security, internet trade, telemedicine and online pharmacies.*


XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumot almashish, muloqot qilish va turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi barobarida, global miqyosda xavfli oqibatlarga olib kelayotgan salbiy holatlar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, giyohvandlik vositalarining onlayn savdosi jamoat xavfsizligi, ayniqsa yoshlar salomatligi uchun jiddiy tahdidga aylanmoqda.

Giyohvandlik vositalarining onlayn savdosi nafaqat jinoyatchilik darajasining ortishiga, balki ijtimoiy muhitdagi barqarorlikka, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur muammoga qarshi samarali kurashish uchun xalqaro tashkilotlar, huquqni muhofaza qilish organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish lozim.

“Giyohvandlik moddalari savdogarlari o‘z mahsulotini sotishda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, turli xil platformalardan foydalanishlari dunyo miqyosida giyohvandlik moddalari iste’molini rag‘batlantirmoqda”, deyiladi BMTning Giyohvandlik moddalari nazorati bo‘yicha Xalqaro qo‘mitasi (International Narcotics Control Board – INCB)ning 2024-yil e’lon qilingan hisobotida [1].

Ko‘plab o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, Internet tarmog‘i orqali narkotrafikka qarshi kurashish bugungi kunda kompaniyalar tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mashhur onlayn platformalarda olib borishini tavsiya etmoqda. Negaki, bunday turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda ularni aniqlashdan ko‘ra ularga jamoatchilik tashkilotlari orqali ta’sir o‘tkazish ancha osonroq usul sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Biz ko‘ryapmizki, giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanmasi faqat “darknet”da amalga oshirilmaydi. Achinarlisi, jinoyatchilar so‘ngi 10 yillikda qonuniy elektron tijorat platformalaridan ham faol tarzda foydalanmoqda”, – dedi BMTning MKKN*(INCB)* qo‘mitasi vitse prezidenti Jalal Tufik [2].

Mazkur jinoyatchilik rivojlanishining tezligi shundaki, ijtimoiy tarmoqlar giyohvandlik moddalari sotuvchilariga masofadan turib butun dunyo iste’molchilariga chiqish imkonini beradi. Internetda giyohvandlik moddalari savdosi bilan bog‘liq tendensiyalar hozirda muloqot va tranzaksiyalarda shifrlash usullaridan foydalanish, *“darknet”*da anonim ko‘rish hamda qiyin izlanadigan kriptovalyutalar orqali to‘lovlardan iboratdir. Hisobotda aytilishicha, jinoyatchilar o‘z faoliyatlarini huquqni muhofaza qilish tizimlari imkoniyatlari kamroq yoki cheklangan hududlariga ko‘chirib, ko‘pincha ekstraditsiyadan qochish mumkin bo‘lgan mamlakatlarni tanlaydi [3].

World health organization tashkiloti mutaxassislari Internetda fentanil va boshqa sun’iy opioidlarning mavjudligi bilan bog‘liq o‘limga olib keluvchi ortiqcha doza xavfi ortganini haqida shunday deydi: *“Internet orqali tarqatilayotgan fentanil va uning analoglari ko‘pincha “kaptagon”, “ekstazlar” yoki boshqa nom bilan yashirib sotiladi. Aslida esa ularning tarkibi aniq bo‘lmaganligi uchun iste’molchilar dozani nazorat qila olmaydilar. Bu esa ortiqcha doza (overdose)da iste’mol qilishga va so‘ngida o‘limlar sonining keskin ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda”* [4].

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan mazkur yo‘nalishdagi jarayonlar ilmiy izlanishlar, kuzatuvlar hamda xalqaro va mahalliy ekspertlar *(UNODC, SARIKS, SHOS, BKBOP SNG vakillari hamda boshqa olimlar)*ning tahlillari asosida tadqiq qilindi.

Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda muomalasi taqiqlanmagan bir qator giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning keng tarqalish tendensiyasi kuzatilib, ularning yaqin istiqbolda mamlakatimizga kirib kelish xavfi yuqori. Jumladan:

1. Joriy yilning avgust oyidan boshlab, Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Markaziy Osiyo hududiga (Tojikistonga) “nitazen” nomli yangi turdagi sintetik opiodlar kirib kelishi boshlaganligi ma’lum bo‘ldi.

“Nitazen” moddasi 1950 yilda AQSHda kashf etilgan bo‘lib, mazkur modda, odatda, besh turiga bo‘linadi – “etonitazen”, “klonitazen” (O‘zbekistonda taqiqlangan), “metonitazen”, “izotonitazen” va “protonitazen” (taqiqlanmagan). Nitazen kuchli og‘riq qoldiruvchi va o‘ziga nisbatan tez qaramlikni keltirib chiqaruvchi xususiyatga ega. Hatto kichik dozalar ham nafas olish tizimining tez bostirilishi (respirator depressiya)ni keltirib chiqaradi, bu o‘limga olib kelishi mumkin.

Nitazenlar, asosan, boshqa moddalar bilan aralashtirilganligi bois geroin, kokain yoki boshqa moddalarga o‘xshab ko‘rinadi, bu esa ularni vizual aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, kukun, tabletka, suyuq shaklda ham bo‘lishi mumkin. “Nitazen”ning ta’siri “geroin”dan 50–250 baravar, “fentanil”dan 10–50 baravar kuchli hisoblanib, uning 1 *gr*.dan olinadigan daromad 600 yevroni tashkil etmoqda.

2. Ayni vaqtda, O‘zbekistonda muomalasi taqiqlanmagan 16 turdagi prekursorlar BMTning 1988-yilgi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyaga yangitdan kiritildi.

Ushbu Konvensiya jahonda narkotik moddalar muomalasiga qarshi kurashda asosiy xalqaro hujjat hisoblanib, 190 dan ortiq davlat tomonidan imzolangan bo‘lib, maqsadi – narkotiklarning ishlab chiqarilishi va tarqalishining oldini olish uchun prekursorlarning nazoratini muntazam ravishda kuchaytirishdan iborat.

Xususan, 2024-yil 3-dekabrdan “fentanil”ning ikki turdagi prekursorlari (4-piperidon va 1-bok-4-piperidon), shuningdek, “amfetamin”ning F-2-P-metilglitsid kislotasi va uning 8 ta efirlari hamda 3,4-MDF-2-P-metilglitsid kislotasining 7 ta efirining muomalasi taqiqlangan.

Mazkur prekursorlar arzon va oson foydalaniladigan kimyoviy moddalar bo‘lib, ulardan laboratoriyalarda kuchli narkotiklar sintez qilinadi, ular fentanil va uning analoglari ishlab chiqarilishida asosiy rol o‘ynaydi, chunki ulardan fentanilning asosiy oraliq moddalari hosil qilinadi, bu esa sintezning samaradorligini oshiradi. Shu bois ular yashirin laboratoriyalarda sintetik narkotik tayyorlash uchun qulay xomashyo sifatida foydalaniladi.

Hozirgi holatda, mazkur moddalar yordamida Markaziy Osiyo davlatlarida kichik laboratoriyalarda tayyorlanadigan sintetik narkotiklarning miqdori keskin ko‘payishi mumkin. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda o‘tkazilgan reydlarda bunday laboratoriyalar aniqlangan bo‘lib, UNODC hisobotlariga ko‘ra, 2024–2025-yillarda sintetik narkotiklar ishlab chiqarilishi 20–30 foizga oshishi prognoz qilinmoqda, bu esa Markaziy Osiyoning tranzit va iste’mol hududi sifatidagi o‘rnini kuchaytiradi.

3. Janubiy-Sharqiy Osiyo (Myanma, Tailand va Xitoy)da yangi turdagi psixotrop moddalar, jumladan, dizayner narkotiklari (mavjud narkotik moddalarga o‘xshash ta’sirga ega, lekin kimyoviy tuzilishi o‘zgartirilgan moddalar) keng ishlab chiqarilishi boshlangan bo‘lib, ularning qisqa muddatda Markaziy Osiyo mamlakatlari, Yevropa bozorlariga tranzit qilinishi prognoz qilinmoqda.

Markaziy Osiyo “Shimoliy yo‘lak” deb ataluvchi asosiy narkotrafik yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat qiladi, bu esa Afg‘onistondan keladigan an’anaviy opioidlar (geroin, opiy) bilan birga, yangi sintetik moddalarning tarqalishini kuchaytiradi.

Bu borada, O‘zbekistonda hozirda muomalasi taqiqlanmagan bir qator yangi psixoaktiv moddalar (NPS) mavjud, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **3-xlormetkatinon,** kuchli stimulyator sifatida eyforiya, energiya oshishi va konsentratsiyaning kuchayishini keltirib chiqaradi;
- **dipentilon**, uzoq muddatli qaramlik, nevrologik buzilishlar va yurak ritmi buzilishi kabi xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi;
- **2-ftordesxlorketamin**, asab tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, nafas olish tizimini bostirishi va ortiqcha dozada o‘limga olib kelishi mumkin;
- **bromazolam**, sedativ modda bo‘lib, kuchli qaramlikni shakllantiradi va opioidlar yoki alkogol bilan aralashganda o‘lim xavfini keskin oshiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar inson hayotining turli sohalariga chuqur kirib borishi bilan bir qatorda, sog‘liqni saqlash tizimida ham yangi tendensiyalarni, ya’ni telemeditsina va Internet-dorixonalar faoliyatini shakllantirdi. Bu xizmatlar tibbiy imkoniyatlarini kengaytirishi, dori vositalarini shifokor tashxisi asosida taqsimlash va ularni bemorlarga yetkazib berish jarayonini soddalashtirishi mumkin bo‘lsa-da, ammo mazkur jarayon bilan bog‘liq salbiy holatlar ham mavjud. Retseptsiz dori vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchilarga taklif qilayotgan noqonuniy Internet-do‘konlar aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Statistik ma’lumotlar bugungi kunda dunyoda noqonuniy farmatsevtik preparatlar savdosining umumiy hajmi 4,4 milliard AQSH dol. yetganini ko‘rsatmoqda va bu jarayonlar mazkur muammoning ko‘lamini yaqqol namoyon etadi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 12–15 yoshdagi bolalarning 25 foizi giyohvandlik moddalarini (psixoaktiv yoki sintetik) sinab ko‘rgan yoki iste’mol qilish tajribasiga ega [6]. Ayrim mamlakatlarda o‘g‘il bolalarning 56 foizi va qizlarning 20 foizi hech bo‘lmaganda bir marta giyohvandlik yoki mast qiluvchi vositalarni sinab ko‘rgan, shuningdek, 45 foiz o‘g‘il bolalar va 18 foiz qizlar ularni muntazam iste’mol qilib kelmoqda [7].

Ushbu global tahdid sharoitida mamlakatimizda ham profilaktik chora-tadbirlar doirasida jamoatchilik ishtirokidagi muhokamalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda “Yuksalish” umummilliy harakati hamkorligida “Yoshlar va o‘smirlar orasida giyohvandlik moddalari hamda psixotrop vositalarni iste’mol qilishning oldini olish masalalari” yuzasidan jamoatchilik eshituvlari tashkil etildi. Mazkur eshituvlarda dolzarb muammo sifatida o‘smirlarning giyohvandlik moddalariga moyilligi, ularning noqonuniy aylanishi hamda yoshlarni bunday illatlarga jalb etish holatlari atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, ushbu holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari keng ko‘rib chiqildi [8].

Manbalarga ko‘ra, respublikamizda asosan “tropikamid”, “pregabalin” (“lirika”, “regapen”, “lipre”), “zaleplon” (“selofen”) kabi kuchli ta’sir qiluvchi dorilar hamda “tramadol” giyohvandlik vositasining sotilishi hamda iste’mol qilinishi bilan bog‘liq holatlar qayd etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugun onlayn savdoning rivojlanishi bilan iqtisodiy faoliyat yangi bosqichga chiqdi va raqamli bozorning kengayishiga kuchli turtki berdi. Shu munosabat bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi ko‘chalardan, ta’lim muassasalaridan va dorixonalardan ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chib o‘tdi. Ushbu jarayon, bir tomondan, ta’lim muassasalarida xavfsizlikning bir muncha oshishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan noqonuniy giyohvandlik moddalari savdosi mavhumligini bir muncha oshib ketishiga olib keladi. Shu sabab Internet maydonchalari ko‘plab jinoiy guruhlarning noqonuniy savdosi uchun qulay axborot makoniga aylandi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mamlakatimizda psixotrop vositalar va prekursorlarni targʻib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish taqiqlanadi. Ammo bugungi kunda biz bunday maʼlumotlarga Internetda deyarli har kuni duch kelmoqdamiz. Afsuski, oʻrganishlar shuni koʻrsatmoqdaki, bunday turdagi taqiqlangan axborotlarning tarqalishi yil sayin ortib bormoqda. Tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda giyohvandlik moddalari savdosi boʻyicha monitoring ishlari amalga oshirilganda, birgina 2024-yilda Telegram, Instagram, Facebook, Whatsapp ijtimoiy tarmoqlarida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni reklama qilish va tarqatish bilan bogʻliq holatlar soni 18 393 taga yetganligi aniqlangan.

Muhim jihati, jamiyatimizda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining oshishi keng jamoatchilikning bugungi kunda mazkur muammoga befarq emasligini koʻrsatmoqda. Xususan, 2024-yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda Telegram messenjerida yaratilgan *“@stopnarko_bot”* [9]ga fuqarolar tomonidan jami 2 484 ta foto, 128 ta video, 54 ta fayl, 4 ta audio, 829 ta havola, 17 ta ovozli va 13 ta gif materiallari qonunga xilof ravishda tarqatilganlik haqida maʼlumotlar yuborilgan [10].

Oʻz navbatida, ichki ishlar organlari mazkur holatlar boʻyicha aniqlangan faktlarni qonun doirasida koʻrib chiqib, aybdorlarni maʼmuriy va jinoiy javobgarlikka tortmoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi esa, ijtimoiy tarmoqlar administratorlari bilan birgalikda, Internet-maydonchalar va sahifalar orqali noqonuniy kontent tarqalishini cheklash boʻyicha choralar koʻrmoqda.

Yuqorida keltirilgan raqamlar bu yoʻnalishda ishlarni yanada kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun, avvalo, huquqiy bazani mustahkamlash va yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilish lozim.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrda “Internetning global tarmogʻida axborot xavfsizligi darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori [11] qabul qilinib, oʻtgan 7 yillik davr mobaynida Internet va ijtimoiy tarmoqlar, raqamlashtirish, axborot xavfsizligini taʼminlash, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish sohasi sezilarli darajada rivojlandi. Lekin bugungi kunda aksariyat Internet tarmoqlari, xususan, Telegram messenjeri orqali aylanayotgan materiallarning aniq bir monitoring tizimi mavjud emas. Shu sababli ham qonunchilikka tegishli oʻzgartirishlar kiritish dolzarb zaruratga aylanib bormoqda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ijobiy taʼsir koʻrsatish bilan birga, yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy ravishda tarqatilayotgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar hamda ularning analoglari aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligi uchun jiddiy xavf tugʻdirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, Internet-dorixonalar va telemeditsina xizmatlarining kengayishi, bir tomondan, sogʻliqni saqlash tizimida qulaylik yaratsa, boshqa tomondan, noqonuniy aylanishga oid yangi shakllarning paydo boʻlishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, mazkur jarayonlarni tizimli oʻrganish va ularning salbiy taʼsirini kamaytirish boʻyicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish jamiyat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga egadir.

Yuqorida koʻtarilgan muammolardan kelib chiqib, noqonuniy giyohvandlik moddalari aylanmasiga qarshi quyidagi choralar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi:

*birinchidan,* huquqiy bazani takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida noqonuniy savdoni aniqlash hamda uning oldini olishga qaratilgan alohida qonunchilik hujjatini qabul qilish;

*ikkinchidan,* axborot xavfsizligini taʼminlash ustuvor vazifa ekanligi nuqtai nazaridan, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda tarqatilayotgan noqonuniy kontentlarni muntazam monitoring qilish imkonini beradigan milliy axborot tizimini yaratish, Internet-platformalar administratorlari bilan hamkorlikda bunday materiallarni oʻz vaqtida aniqlash va ularning tarqalishini cheklash boʻyicha qisqa metrajli milliy kontentlarni tayyorlash;

*uchinchidan,* profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarlar orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Giyohvandlik moddalarining salbiy oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan targʻibot dasturlarini kengaytirish, taʼlim muassasalarida huquqiy madaniyat va axborot xavfsizligi masalalari boʻyicha majburiy oʻquv kurslarini joriy etish yosh avlodni zararli illatlardan himoya qilishda dolzarb ahamiyatga ega;

*toʻrtinchidan,* UNODC ning **Early Warning Advisory** (EWA) tizimini Oʻzbekistonda joriy qilish, bu yangi turdagi narkotik moddalar haqida global ogohlantirishlarni olish imkonini beradi;

*Mazkur tizim yangi psixoaktiv moddalar (NPS), sintetik narkotiklar va ularning prekursorlari paydo boʻlishi, tarqalishi va xavf-xatarlarini erta aniqlash va ularga qarshi choralar koʻrishni tezlashtirishga xizmat qiluvchi global monitoring platformasi boʻlib, BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish idorasi tomonidan jahon miqyosida narkotik moddalar bilan bogʻliq yangi tendensiyalarni kuzatish, davlatlar va xalqaro tashkilotlarga maʼlumot taqdim etish orqali ularning gʻayriqonuniy muomalasining oldini olishga xizmat qiladi.*

*beshinchidan,* telemeditsina va Internet-dorixonalarning rivojlanishi sharoitida ularning faoliyatini qatʼiy tartibga solish. Xususan, shifokor retsepti asosida dori vositalarini taqdim etadigan litsenziyali onlayn-dorixonalar faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish orqali retseptsiz psixotrop vositalarni noqonuniy ravishda sotuvchi Internet-doʻkonlarga nisbatan qatʼiy javobgarlik choralarini belgilash aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim oʻrin tutadi.

### Foydalanilgan manbalar / References

1. Report 2024 – Embargo Observe release date: Not to be published or broadcast before 4 March 2025, at 1100 hours (CET) CAUTION // https: //www.incb.org/documents/Publications/AnnualReports/AR2024/Annual_Report/E-INCB-2024-1-ENG.pdf?utm_source=chatgpt.com
2. International Narcotics Control Board // Monitoring and supporting Governments' compliance with the international drug control treaties - https://www.incb.org/
3. United Nations office on drugs and crime “Drugs and age – Drugs and associated issues among young people and older people” journal / World drug report // 2024
4. World health organization Opioid Overdose Fact Sheet - 29 August 2025
5. World health organization Opioid Overdose Fact Sheet - Opioids // https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/opioid-overdose?utm _source = chatgpt.com
6. United Nations office on drugs and crime “Drugs and age – Drugs and associated issues among young people and older people” journal / World drug report // 2024
7. United Nations office on drugs and crime “Executive Summary” journal Vienna / World drug report // 2023
8. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining kengaytirilgan yalpi majlisi, 2024-yil
9. @stopnarkobot
10. Парпиев М. Социальные сети как угроза: как цифровые платформы становятся рассадником наркотиков. https://upl.uz/
11. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Butunjahon Internet tarmogʻida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. https: // lex.uz/ru/docs/3893085

# DEVIANT XULQ-ATVORNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI



**Akramov Xasan Furkatovich**

*sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*доктор философии по социологическим наукам (PhD)*

*Doctor of philosophy in sociology (PhD)*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada deviantlikning kelib chiqishi, shakllanishi, dyeviantlik muammosini o'rgangan olimlar fikrlari va olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaxsning distruktiv xatti-harakatlari nazariy jihatdan o'rganilib, "deviantlik"ning ma'nosi va uning tuzilmaviy xususiyatlari, tipologiyasi ochib berilgan. Deviantologiya, kriminologiya va jinoyatchilik sotsiologiyasi doirasidagi nazariyalar tahlili asosida deviantlik, delikventlik va kriminal xatti-harakatlarni mohiyati ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *shaxs distruktivligi, deviant xulq-atvor, deviatsiya, deviantlik tipologiyasi, antropotsentrizm, sotsiotsentrizm, konfliktologiya, fenomenologiya, jinoyatchilik, deviantologiya.*

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF DEVIANT BEHAVIOR

***Abstract.*** *This article discusses the origin, formation, and various characteristics of deviance in society. The opinion of scientists who have studied the problem of deviance and the results of the conducted research are presented in the article. This article provides a theoretical analysis of destructive personality behavior, reveals the meaning of the word deviance and its structural features, typology. Based on the analysis of theories within the framework of deviantology, criminology and sociology of crime, the article describes deviance, delicacy and criminal behavior.*

***Keywords:*** *personality destructiveness, deviant behavior, deviation, deviant typology, anthropocentrism, sociocentrism, conflictology, phenomenology, crime, deviantology.*

Ma'lumki, deviant xulq-atvor – jamiyatda keng tarqalgan va turli huquqbuzarliklarda namoyon bo'lib, ijtimoiy me'yordan chetga chiqish yoki uni buzish sifatida fanda o'rganilgan hodisa.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib. pozitiv maktablar shakllanishi bilan jinoyatchilikni o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy nazariyalar juda ko'p va ular, skeptiklarning fikriga ko'ra, faqat gipotetik va qisman individning haqiqiy xatti-harakatlari modelini belgilaydi. Sotsiologiya fanida deviant xulq-atvor haqidagi nazariyalar keng tarqalgan, ammo juda noto'g'ri tushunchalar bilan talqin etilib, ularni "shisha minoralari" kabi qo'llash qiyin va tushunarsizligi hammaga ma'lum.

Zamonaviy sotsiologiyada deviant xulq-atvorning bir-biri bilan raqobatlashadigan ko'plab ilmiy yondashuvlari, nazariyalar va uslubiy an'analari shakllandi. Nazariyotchilar va tadqiqotchilarning ma'lum bir ilmiy maktabga sodiqligi, mohiyatan, tadqiqotning qanday usullari, tamoyillari va paradigmalaridan foydalanilishiga, deviantlik va jinoyatchilikning u yoki bu ijtimoiy yoki tabiiy omillariga qanday ahamiyat berilishiga bog'liq edi. Ko'rinib turibdiki, deviant xatti-harakatlarning biologik va psixologik nazariyalari antropologik va genetik anomiyalar, instinktlar, psixikaning xususiyatlari va uning holatlari, to'laqonli bo'la olmaslik komplekslari, psixotravmalarning ustuvorligini aniqlash asosida pozitivizm doirasida shakllangan.

Dastlabki sotsiologik nazariyalarda (A.Ketle [1], K.Marks, V.Bonger, E.Dyurkgeym [2, 82]) pozitivlik falsafasi va metodologiyasi ta'siri ostida deviant xatti-harakatni belgilaydigan sotsiotuzilmaviy omillarga obyektiv yo'nalishlarni ifodalashgan.

Zamonaviy deviantologiyada poliparadigmallik sharoitida deviantlikni tahlil qilishning pozitiv istiqboli shakllandi, mustahkamlandi va sotsiolog-funksionalistlarning asarlarida sezilarli darajada rivojlandi, uning doirasida bir qator fundamental sotsiotuzilmaviy nazariyalar yaratildi.

Ular orasida shahar ekologiyasi, ijtimoiy dizorganizatsiya nazariyalari (R.Park, E.Burgess, V.Tomas, F.Znanetskiy, K.Shou, G.McKay) [3], differensial assotsiatsiya (E.Sazerland), submadaniyat (G.Sayks, D.Matza, V.Miller, F.Ferrakuti, M.Volfgan) [4], anomiya va zo'riqish (R.Merton [5], A.Koyen, R.Klauord, L.Olin [6, 58-68]), ijtimoiy nazorat va cheklash (F.Nay, V.Rekless, T.Xirshi, M.Gotfredson) [7] va boshqa ko'plab ishlarni misol qilish mumkin. Bir qator tarkibiy kuchlanish nazariyalari (A.Koyen va boshqalar) [6, 58-68] aniq submadaniyat yondashuvi bilan birlashtirilgan [2, 48].

Deviant xulq-atvor sosiologiyasida ijtimoiy xulq-atvor – psixologik paradigmaning rivojlanishi bilan prosyessual stigmatizasiya nazariyasida taqdim etilgan deviantlikni tahlil qilishning interaksionistik istiqboli shakllana boshladi (F.Tanenbaum, E.Lemert, G.Beker, E.Shur, J.Kisyuz, F.Zak va boshqalar) [4], dramaturgik yondashuv (I.Gofman va boshqalar) [8], fenomenologik yo'nalish va konstruktlik (S.Genri, D.Milovanovich, P.Filmer, M.Filipson, D.Uolsh va boshqalar) [4]. Fenomenologlar deviantologiyada sotsiologik pozitivizmni keskin tanqid qildilar.

Olimlarning K.Marks va G.Zimmel asos solgan radikal paradigmaga qiziqishi natijasida XX asrning ikkinchi yarmi boshidagi deviant xatti-harakatlar sotsiologiyasida deviantlik va jinoyatchilikni tahlil qilishning ziddiyatli istiqboli shakllandi. Tanqidiy yondashuv va neomarksizmga ishtiyoqli sotsiologlar va kriminologlar neopozitivizmga asoslanib, deviantlik va jinoyatchilikning bir qator "mashhur" konfliktologik nazariyalarini yaratadilar. Ular orasida: G.Voldning guruh mojarosi nazariyalari, O.Terkning kriminallashuvi, V.Chemblissning jinoyatchilikning siyosiy iqtisodiyoti, R.Kvinnining qonuni va jinoyati, D.Grinbergning yoshga bog'liqligi va boshqalarni [9] misol qilish mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiologiya fani nafaqat poliparadigmallikni, polikonsyeptuallikni, balki metodologik plyuralizmni ham namoyish etadi. Utgan asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshlarida an'anaviy deviantologiya va kriminologiya bilan bir qatorda modernizm va pozitivizmning ilmiy nazariyalariga nisbatan yangi tanqidiy yo'nalishlar va yondashuvlar rivojlandi. Bularga fenomenologiya, konstruktivizm, konstitutsiyaviy kriminologiya (S.Genri, D.Milovanovich), feminizm (K.Deyli, M.Chesnind), so'l realizm (J.Yosh, V.Dekesseredi), postmodernizm (B.DiKristina, E.Yang, D.Milovanovich, G.Barak), tinchlikparvarlik kriminologiyasi (G.Pepinski, R.Kuinni) [9], anarxik kriminologiya (B. DiKristina) [10] kiritilgan.

Nima uchun ba'zi odamlar (ularning aksariyati) moslashadi, boshqalari (ularning ozchiliklari) ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadi, degan savolga javob nafaqat spekulyativ, balki ko'proq amaliy ma'noga ega. Bu ijtimoiylashuv va ijtimoiy nazoratni amalga oshirish bo'yicha har qanday loyihaning ajralmas qismidir. Demak, deviantlikni yaxshiroq modellashtirishga imkon beradigan nazariyalarning yaratilishi uning namoyon bo'lishini ijtimoiy nazorat qilish mexanizmlari va amaliyotlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Professor Ya.I.Gilinskiy ijtimoiy og‘ishlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Bu ma’lum bir jamiyatda (madaniyat, guruh) rasmiy ravishda o‘rnatilgan yoki amalda shakllangan me’yorlar va kutishlarga mos kelmaydigan inson faoliyatining nisbatan ommaviy, statistik jihatdan barqaror shakllarida (turlarida) ifodalangan ijtimoiy hodisa”.[11, 28] Deviantlikni ijtimoiy hodisa sifatida yaratadigan deviant xatti-harakatlar shaxs yoki guruhni ma’lum bir jamiyatdagi “bu yerda va hozir” ijtimoiy me’yorlar va kutishlardan muntazam ravishda chetga chiqishidan iborat. Bir tomondan, deviantlik haqiqiy xulq-atvor harakatlarida, faoliyatlarida (obyektiv xulq-atvor hodisasi) ifodalanadi, boshqa tomondan, bu ijtimoiy qurilma, ijtimoiy harakat subyektlari tomonidan deviant xatti-harakatni ramziy aniqlash jarayonining mahsulidir. Deviantlik  an’anaviy ijtimoiy qurilma bo‘lib, u ijtimoiy me’yor orqali aniqlanadi. Me’yorlar ma’lum bir an’ana, madaniyat natijasidir, ular odamlar tomonidan yaratilganligi sababli vaqt va makonda nisbiy va o‘zgaruvchan hisoblanadi.

“Deviant” so‘zi (*lotincha “**deviatio**” so‘zidan olingan*) – chekinish, buzilish, og‘ish degan ma’nolarni bildiradi. Deviant xulq-atvor – mavjud jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki ijtimoiy tizimda belgilangan xatti-harakatlarga qarama-qarshi harakatlar majmui.

Deviant xatti-harakatlar noaniq, ya’ni ijtimoiy yoki individual oqibatlariga ko‘ra, ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Deviantlik ijtimoiy o‘zgarish mexanizmini belgilaydi.

Ijobiy deviantlar – buyuk ijodkorlar va daholar o‘z davrlarida taraqqiyotga katta hissa qo‘shdilar. Biroq, ularning ko‘plari, eng yaxshi holatda, unutilib ketishdi, eng yomoni, inkvizitsiya olovida bid’atchilar, ya’ni o‘z davrining qoidalariga binoan deviant sifatida yoqib yuborildi.

Salbiy deviantlar – bu deviant xatti-harakatlari bilan o‘zlarining jismoniy yoki axloqiy sog‘lig‘ini buzadigan, boshqalarga tahdid va muammolarni keltirib chiqaradigan odamlar.

Olimlar salbiy deviantlikni o‘rganishga ko‘proq e’tibor berishadi, chunki uning ko‘lamini o‘sishi va jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik, fohishabozlik, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlari, qimor o‘yinlari va boshqalar ko‘rinishlari jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammodir. XX asrning oxirlarida, N.Kristi yozganidek, kriminologlar “jazo inqirozi”ning boshlanishini tan olishadi, bu ijtimoiy nazoratning odatiy choralari salbiy, ba’zan o‘ta repressiv sanksiyalarning ustunligi bilan deviantlarga ozmi-ko‘pmi samarali ta’sir qila olmaslikda namoyon bo‘ladi [10]

Deviantlikning turli xil ko‘rinishlarining o‘sishi, ijtimoiy o‘zgarishlarning tezlashishi va jamiyatning postmodern davrga o‘tishi sharoitida “qonun va tartib” dominant modeli doirasida ijtimoiy nazorat samaradorligining pasayishi, “zamonaviy kapitalizm” jarayonlarini nazariy tushunish, deviantlikni tushuntirish masalasi keskin ko‘tarildi. Postmodernistlarning ta’kidlashicha, “deviatsiya fenomeni jamiyatning ajralmas kelajagi hisoblanadi” [3], ayrimlarining fikricha bu “nazorat illyuziyasi bilan bog‘liq holat bo‘lib, u umidlardan voz kechish kerak” [4],  degan fikrlarga kelingan.

Agar odamlarning xatti-harakatlarini boshqaradigan ijtimoiy sabablarga ko‘ra og‘ish manbalari qidirilsa, uning og‘ishlarni tushuntirishi sotsiotsentrik hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘z joniga qasd qilishni individual psixologik sabablar bilan izohlash qat’iyan rad etiladi. “O‘z joniga qasd qilish, – deydi E. Dyurkgeym, – asosan shaxsning ichki xususiyatlariga emas, balki odamlarni boshqaradigan tashqi sabablarga bog‘liqdir” [12].

Deviantologiyada, ayniqsa, uning eng rivojlangan qismida – jinoyatchilik sotsiologiyasi yoki kriminologiyada deviantlikni modellashtirish bo‘yicha ulkan nazariy tajriba to‘plangan. Yaratilgan nazariy modellar mavjud deviant amaliyotlarning aksidir. Samarali nazariya deviant, huquqbuzarlik faktlari va hodisalarini tushunish uchun ko‘plab qiyin “narsalarning tasodifiy tomonini” ochishga yordam beradi. Bundan tashqari, nazariya jinoiy xatti-harakatlar va boshqa og‘ishlarning yangi, hali noma’lum misollarining mohiyatini tushunish va tushuntirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Nazariyalar deviant xatti-harakatlarning tabiati haqidagi eng keng tarqalgan savollarga javob beradi.





“Nazariya” tushunchasining ko‘plab talqinlari mavjud. Juda ishonchli ta’riflardan biri taniqli amerikalik kriminolog Don Gottfredson tomonidan ilgari surilgan. Uning fikricha, “nazariyalar bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator hukmlardan iborat bo‘lib, ular ma’lum bir sinfdagi voqealarni tasvirlash, tushuntirish, bashorat qilish va oxir-oqibat ularni boshqarish imkonini beradi” [13].

Demak, deviantologik nazariya – bu deviantlik sinfidagi bir qator hodisalarni tavsiflash, ularning determinatsiya omillarini keltirib chiqaradigan boshlanishini tushuntirish va bashorat qilish imkonini beradigan tartibli va o‘zaro bog‘liq bayonotlar to‘plami.

Deviantolog Kennet R.Xover nazariyadan ijtimoiy fanlarda foydalanishning to‘rtta asosiy usulini aniqlaydi: empirik ma’lumotlarni talqin qilish uchun namunalar bilan ta’minlash (xususiyatlari); bir tadqiqotni boshqasi bilan bog‘lash; tushunchalar va o‘zgaruvchilar maxsus ma’noga ega bo‘lgan uslubiy asosni (frameworks) yaratish; olingan ilmiy natijalarni sifatli talqin qilish [13].

Shubhasiz, huquq, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy ish, sosiologiya, psixologiya, pedagogika sohalarida professional martaba qurishni rejalashtirganlar uchun klassik va zamonaviy deviantologiyaning nazariy asoslarini chuqur bilish zarurdir. Aslida, deviantlikning eng ijtimoiy xavfli turi sifatida jinoyatga olib keladigan har qanday xatti-harakatni deviant xatti-harakatlarning u yoki bu nazariyasi bilan tavsiflash mumkin.

Shuning uchun, deviant xulq-atvor nazariyalari nafaqat mutaxassislarning, balki eng oddiy odamlarning qiziqish doirasidir va ular farzandlarining kelajagi ular uchun konformizm nuqtai nazaridan yoki undan ham yaxshiroq – ijobiy deviantlik nuqtai nazaridan ko‘rinadi.

Amerikalik sotsiolog va kriminolog Edvin Sazerlend 1947-yilda kriminologiyani qonunchilik, huquqbuzarlik va huquqni qo‘llashning ichki jarayonlari to‘g‘risidagi ta’limot sifatida belgilagan [14]. Ushbu ta’rif kriminologik nazariyalarning klassik tipologiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sazerlend fikriga ko‘ra, jinoyatchilikni rasmiy ijtimoiy nazorat qilish sohasi haqidagi nazariyani ta’kidlash uchun asos sifatida ko‘rib chiqilsa, unda jinoyatchilik qonunini yaratish va qo‘llash nazariyalari ma’lum bir konvensiyaga ega bo‘lgan guruhga kiradi. Ushbu nazariyalar jinoiy xatti-harakatlar qanday va nima uchun qurilganligi haqidagi savollarga javob beradi va uning tashuvchilari jinoyatchilar deb ta’riflanadi. Davlat jinoyatchilikka qanday huquqiy yo‘llar bilan qarshi turadi, bu qonun buzilgan taqdirda amalga oshiriladigan harakatlar turini (jazo chorasini) belgilaydi. Agar ijtimoiy yoki huquqiy normalarni buzishdan iborat bo‘lgan xatti-harakatlar obyekti sifatida ko‘rib chiqilsa, Sazerlendning fikriga ko‘ra, bunday model deviant yoki jinoiy xatti-harakatlar nazariyalariga tegishli hisoblanadi.

Deviantlik nazariyasida nima uchun odamlar ijtimoiy va huquqiy normalarni buzadi, degan savolga javob beriladi. Biroq, bu savol bir-biri bilan bog‘liq ikkita jihatiga ega. *Birinchidan*, nazariyalar turli xil ijtimoiy guruhlar va jamoalarda deviant va jinoiy xatti-harakatlar darajasida ma’lum farqlar mavjudligini tushunishga imkon beradi. Gender farqlari nuqtai nazaridan, erkaklar ayollarga qaraganda jinoiy harakatlarning ishtirokchisiga aylanish ehtimoli ko‘proq. Ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda jinoyatchilik darajasi etnik jihatdan bir xil va hukmron madaniyatga ega bo‘lgan jamiyatlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bunga misol qilib, Yaponiyada jinoyatchilik darajasi AQSH va eng rivojlangan Yevropa mamlakatlariga qaraganda ancha past.

*Ikkinchidan*, deviantlik nazariyalarida ba’zi odamlar deviant harakatlar va jinoyatlarga moyillik bildirishsa, boshqalarida esa bunga moyillik yo‘q bo‘ladi. Insonni me’yorlarni buzishga moyilligini nima belgilaydi? Nima uchun ba’zi odamlar, barcha imkoniyatga ega bo‘lib, jinoyat sodir etishadi,

boshqalari esa bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lib, qonunni buzmaydilar? Nima uchun ba’zi shaxslar jinoiy martaba qurishga moyildirlar, boshqalari esa bir marta qoqilib, jinoyatdan butunlay voz kechishadi?

Ko‘rib turganingizdek, savollarning birinchi guruhi deviantlikning ijtimoiy va guruh modellarini aniqlashga, ikkinchisi, deviantning individual farqlari va shaxsiy xususiyatlariga qaratilgan. Agar deviantlik nazariyasi deviantlik va huquqbuzarlikning umumiy tipik farqlari va umumiy ijtimoiy determinantlarini qamrab olsa, u deviant xatti-harakatlarning makro nazariyalari deb ataladi. Agar nazariya qoidalari shaxs yoki kichik guruh darajasida huquqbuzarlik va salbiy og‘ishlarning boshqa shakllarining sababiy majmuasini tavsiflasa, u mikro darajadagi deviantlik nazariyalariga tegishli hisoblanadi.

Deviant xatti-harakatlar nazariyalarini farqlash uchun turli xil asoslardan foydalaniladi. Donald Kressi jamiyatning barcha qatlamlarida deviantlik va jinoyatchilikning ommaviy tarqalishi mezonlariga, shuningdek, deviant xatti-harakatlarning individual namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligiga e’tibor qaratdi. Ronald Akers deviantlik nazariyalarini tarkibiy va protsessual nazariyalarga ajratdi [9]. Strukturaviy nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, guruhlar, jamoalar va sinflar o‘rtasidagi jinoyatlar nisbati jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Protsessual nazariyalarga ko‘ra, odamlar jinoyat sodir etishadi, chunki ular o‘tmishdagi huquqbuzarlik tajribasiga ega, ba’zi voqealarni boshdan kechirgan va muayyan jinoiy vaziyatlarga o‘ziga xos shaxsiy fazilatlar va reaksiyalarga ega bo‘ladi.

Tiplashtirish paradigmatik asosga tayanadi. Buni esa, deviantlikning sotsiologik nazariyalarini organik-tarkibiy-funksionalistik, ziddiyatli-radikal, ijtimoiy-xulqiy-psixologik deb tasniflash mumkin. Nazariyalarni vaqt mezoniga ko‘ra, erta, kech davrlarga ajratish mumkin. Tasniflarda ba’zan metodologik yondashuv (metafizik, pozitiv, pozitiv bo‘lmagan) asos sifatida ishlatiladi.

Deviantlik nazariyalari individual va sotsiosentrik deb ajratiladi. Greg Barak deviantlikning modernistik va postmodern nazariyalarini tahlil qiladi. Bir qator xorijiy sotsiologlar ilmiy ishlarida deviantlik va jinoyatchilikni tahlil qilishning turli nazariy istiqbollarini ajratib ko‘rsatish keng qo‘llanilgan. Ularga: pozitivlik, sotsiotuzilmaviy, interaksionist, konfliktologik, radikal-tanqidiy, modernistik, postmodern, integrativlar kiradi.

Zamonaviy deviantologiyada deviantlik nazariyalarini tiplashtirish juda keng tarqalgan bo‘lib, bu yuqorida sanab o‘tilgan barcha mezonlarni fanlararo yondashuv doirasida ishlatishga imkon beradi.

Deyarli barcha xorijiy va ba’zi mahalliy manbalarda antropo-biologik, psixologik va haqiqiy sotsiologik nazariyalarni ajratishga asoslangan tipologiya mavjud. Antropo-biologik nazariyalarda deviant xatti-harakatlarning tushuntirish modellari antropologik, biologik, biokimyoviy va genetik omillarning ustunligi doirasida quriladi. Psixologik nazariyalarda deviantlikni aniqlash psixologik shikastlar, neyropsixologik disfunksiyalar, kamsitilish komplekslari, shaxsning psixoseksual rivojlanish bosqichlari, umidsizlik, tajovuzkor istaklar yoki ijtimoiy o‘rganish ta’siri bilan bog‘liq psixologik o‘zgaruvchilar bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, antroposyentrizm doirasida yaratilgan zamonaviy nazariyalar ijtimoiy-madaniy va boshqa tarkibiy omillarning deviant xatti-harakatlarning genezisiga ikkilamchi ta’sirlarni istisno etishmaydilar.

Deviantlikning sotsiologik nazariyalari, bir tomondan, sotsiosyentrizmdan kelib chiqadi, sotsiotuzilmaviy, madaniy, funksional, konfliktologik kontekstlarni tahlil qilishni hisobga olgan holda deviantlik va jinoyatchilikning mohiyatini hisobga oladi. Boshqa tomondan, deviantlik ramziy interaksionizm, fenomenologiya, konstruktivizm doirasida individual markazlashgan pozitsiyalardan o‘rganiladi.





Uning tabiati ijtimoiy interaksiya jarayoni, ijtimoiy qurilma sifatida aloqa natijasida baholanadi. Agar antroposyentrizm doirasida biologik pozitivizm hukmronlik qilsa, sotsiosyentrizm doirasida sotsiologik pozitivizm, fenomenologiya va postmodernizm bilan raqobatlasha oladi.

Jahon deviantologiyasidagi nazariy merosning antropo-biologik, psixologik va sotsiologik nazariyalarga bo‘linishi juda biryoqlamalik bilan amalga oshirilgan, chunki deviantologik tahlildagi ko‘plab toifalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan nazariyalardir. Masalan, tuzilish va jarayon tushunchalari bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi, insonning deviant xulq-atvori tabiatida biologiya va psixologiya o‘rtasida ham ko‘p o‘xshashliklar mavjud. Ijtimoiy nazoratni deviantlikdan ajratish qiyin, bu bir-birini to‘ldiruvchi toifalar, chunki uning salbiy sanksiyalar orqali haddan tashqari qo‘llanilishi ko‘pincha deviant stigmatizasiyasini va natijada retsidivizm va deviant martabani keltirib chiqaradi. Biologik korrelyatsiyalar ijtimoiy va psixologik o‘zgaruvchilarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi.

*Deviant xulq-atvor* – jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa. U yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Deviant xulq deganda, quyidagi ijtimoiy harakatlar nazarda tutiladi:

a) *jinoyatchilik.* Muayyan davlatda o‘rnatilgan qonun va me’yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati, jinoiy faoliyati, mazkur holatni bajargan shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) *ichkilikbozlik.* Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir qator qarashlar mavjud: 1) alkogolni onda-sonda iste’mol qilish; 2) alkogolni ko‘p iste’mol qilish – spirtli ichimliklarni muntazam, ya’ni haftada bir martadan bir necha martagacha, o‘rtada tanaffus bilan ko‘p miqdorda (200 ml. dan oshiq) iste’mol qilish. Bu ko‘pincha alkogolizmga olib keladi; 3) Alkogolizm – spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o‘rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik turi.

c) *giyohvandlik.* Giyohvandlik yoki unga tenglashtirilgan psixotrop vositalarga doimiy ruju qo‘yish va ko‘rsatmalarsiz iste’mol qilish.

d) *fohishabozlik*. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikkita turga bo‘linadi, ya’ni: *konkubinat* – nikohsiz birga yashash; fohishabozlik – pul uchun o‘z tanasini sotish. G‘arbda asosan ikkinchisi qoralansa-da, sharqda ikkala holatga ham delikventlik sifatida qaraladi.

Deviantologik nazariyalar pozitivizm doirasida deviantlik tabiati va uning etiologiyasi to‘g‘risida u yoki bu tushunchani taklif qiladi. Yondashuvlar va nazariy konstruksiyalarning xilma-xilligi ilmiy munozaralarni keltirib chiqaradi. Ularning ba’zilarining qoidalari tanqid qilinadi, chunki ular juda ziddiyatli va to‘liq asoslanmagan.

Bir qator nazariyalar subyektivizm, deviantlik omillarini baholashda mafkuralashtirish yoki yondashuvning past amaliy qiymati uchun tanqid qilinadi. Albatta, nazariya qiymat jihatidan neytral bo‘lishi muhimdir. Shu bilan birga, ularning bir qatori muhim mafkuraviy yukini ko‘taradi.

Deviantologik nazariyalar boshqa har qanday nazariya singari, faqat ilmiy mezonlarga muvofiq baholanishi kerak. Ulardan asosiysi, pozitivistik mantiqqa rioya qilgan holda, empirik asoslilik mezonidir. Bu nazariyani tajriba, amaliyotdan sinchkovlik bilan to‘plangan faktlar bilan baholashga (uni tasdiqlash yoki rad etishga) imkon beradi. Bundan tashqari, nazariya mantiqiy ketma-ketlik va izchillik, isbotlash, qo‘llash sohasi, amaliy foyda mezonlariga javob berishi kerak bo‘ladi. Shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

*Empirik asoslilik.* Bu nazariyaning eng muhim baholash mezonidir. Bu shuni anglatadiki, agar nazariya amalda tasdiqlansa, nazariya to‘g‘ri bo‘ladi. Biroq, ijtimoiy fanlarda mutlaqo to‘g‘ri nazariyalar mavjud emas va bo‘lishi ham mumkin emas, chunki bilim nisbiy toifadir. Shu sababli, nazariya qanchalik empirik asoslanganligi, to‘plangan empirik faktlar uning zaif yoki kuchli qo‘llab-

quvvatlanishini ta’minlashi, ma’lum bir nazariya va boshqa deviantlik nazariyalarining empirik asosliligi qanday taqqoslanadi degan savolga javob berish muhimdir.

Empirik asoslilik nazariyasi har doim jinoiy harakatni keltirib chiqaradigan o‘zgaruvchilarni aniq belgilashi kerak degani emas. Ma’lumki, sababiylikning an’anaviy chiziqli tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, X omil Y ta’sirini keltirib chiqarishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, X omil Y xatti-harakatlarini qo‘zg‘atish uchun bir vaqtning o‘zida “zarur” va “yetarli” shart-sharoitlar bo‘lishi kerak. Ammo deviantlikni aniqlash shartlari deviant xatti-harakatlarning biror-bir nazariyasini bir vaqtning o‘zida zarur va yetarli darajada tushuntirish o‘zgaruvchilarining to‘plamini kafolatlay olmasligidadir.

Deviantologik nazariyalarning empirik asosliligini baholash uchun zamonaviy tadqiqotchilar sababiylikning ehtimoliy chiziqli bo‘lmagan tushunchasidan kelib chiqadilar. Bunda X omilining mavjudligi Y jinoyat hodisasining boshlanishini ko‘proq ehtimolga aylantiradi. Boshqacha qilib aytganda, jinoiy xatti-harakatlarning o‘zgarishi ma’lum bir tarzda nazariya tomonidan aniqlangan tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Nazariy modelda deviantlikni o‘zgaruvchilari majmuasining faqat ma’lum (ko‘proq yoki kamroq) ehtimollik natijasida paydo bo‘lgan funksiya sifatida belgilaydi. Bundan tashqari, boshlang‘ich o‘zgaruvchilar va deviant xatti-harakatlarning o‘zaro bog‘liqligi qanchalik kuchli bo‘lsa, nazariyaning empirik asosliligi shunchalik mukammal bo‘ladi.

Dastlabki o‘zgaruvchilar va funksiya o‘rtasidagi munosabatni ehtimollik qiymatida sababchi sifatida talqin qilib, uning yo‘nalishini baholash kerak, chunki teskari aloqalar mavjud bo‘lganda mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilar joylarni o‘zgartirishi mumkin. Misol uchun, nazariya qiyin o‘smir mahalliy yoshlar jinoiy guruhi vakillari bilan aloqalar va do‘stlik natijasida huquqbuzarlik xatti-harakatlarida ishtirok etishini taxmin qilishi mumkin. Bir kishining jinoiy xatti-harakati va uning do‘stlari guruhining huquqbuzarligi o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariyani qo‘llab-quvvatlash uchun dalil bo‘lishi mumkin. Biroq, bu fikr-mulohazalar qayta aloqa ham bo‘lishi mumkin. Shaxsning o‘zi jinoyat yo‘lini tutadi va keyin jinoiy faoliyat bo‘yicha yosh ittifoqchilarni qidiradi. Shuning uchun o‘spirinning huquqbuzarligi, avvalgi jinoiy tajribasi natijasida ham qaram, ham mustaqil o‘zgaruvchi bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, deviantologiyada sababiylikni ehtimollik bilan tushunish turli omillar (genetik, psixologik, tarkibiy, ijtimoiy-madaniy) faqat deviantning harakatlariga ta’sir qiladi va cheklaydi deb taxmin qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, ular unga jinoiy yoki boshqa deviant xatti-harakatlarni individual tanlash uchun joy qoldiradilar, shuning uchun ham ularni aniq bashorat qilib bo‘lmaydi.

*Mantiqiy ketma-ketlik va izchillik.* Ilmiy nazariyaning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning qoidalari mantiqning universal talablariga so‘zsiz muvofiqligi: aniq belgilangan tushunchalar, mantiqiy tuzilgan hukmlar, izchil qoidalar va xulosalar kiradi. Masalan, agar nazariyada jinoyatchilar biologik jihatdan to‘laqonlilik deb da’vo qilsa va bu ularning deviant xatti-harakatlarini tushuntirsa, unda oiladagi shaxsning ijtimoiylashuvi huquqbuzarlikning asosi ekanligi haqidagi da’voga asoslana olmaydi.

*Isbotlanish.* Ilmiy nazariya obyektiv va barqaror faktlar, dalillar bilan isbotlanishi kerak. Agar nazariyani empirik tarzda sinab ko‘rish mumkin bo‘lmasa, unda u ilmiy ahamiyatga ega emas. Nazariyaning isbotlanishi – bu tegishli empirik dalillar bilan tasdiqlanishi yoki rad etilishi mumkin bo‘lgan daraja. U empirik tekshiruv uchun, uning farazlarini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan dalillarni tahlil qilish uchun ochiq bo‘lishi kerak.

Biroq, deviantlik nazariyasi, agar uning qoidalari tavtologiyani o‘z ichiga olsa, isbotlanmasligi mumkin. Tavtologik bayonotni e’tirofi, agar u ta’rifi bo‘yicha to‘g‘ri bo‘lsa yoki aql-idrokning ayanchli doirasini yaratsagina bo‘ladi. Masalan, tavtologiya quyidagi hukmga asoslanadi. Nazariya muallifi zaif, o‘zini tuta bilishni jinoyatdan o‘zini tuta olmaslik deb ta’riflaydi va keyin zaif o‘zini tuta bilish qonunni buzish sababi deb faraz qiladi. Agar hukmlar shunchalik nomukammal bo‘lganda, har qanday bahsli empirik dalillarni nazariya uchun unga qarshi talqin qilish yoki qayta talqin qilish mumkin bo‘lsa, nazariya isbotlanmasligi mumkin. Agar nazariya amalda o‘lchanadigan faktlar va hodisalar bilan hech qanday aloqasi bo‘lmasa, uni isbotlab bo‘lmaydi. Agar unda ishlatiladigan tushunchalarga obyektiv mos keladigan faktologiyani topish imkoni bo‘lmasa, hatto tavtologik bo‘lmagan nazariyani ham isbotlab bo‘lmaydi. Masalan, gipotezada aytilishicha, odamlar ba’zi ko‘rinmas yovuz ruhlarning hiyla-nayranglari ta’sirida jinoyat sodir etishadi. Aytish joizki, bu yovuz kuchlar aslida tabiatda mavjudmi yoki yo‘qmi, ular jinoyat uchun javobgarmi yoki yo‘qligini tasdiqlaydigan faktlar yo‘q. Bunday holda, nazariyani isbotlash mumkin emas.

*Qo‘llash doirasi.* Deviantlik nazariyasi juda cheklangan yoki keng ko‘lamga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, xakerlar va frikerlarning yuqori texnologiyali jinoyatlari fenomenologiyasini tavsiflovchi nazariya yetarlicha asosli, ammo yuqori texnologiyali jinoyatchilik doirasi bilan cheklangan. Shu bilan birga, “ko‘k yoqali” jinoyatchilik sohasida u mutlaqo yaroqsiz bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi nazariya – bu eng keng qoidabuzarlik to‘plamini modellashtiradigan nazariya. Agar tushuntirish modeli ko‘p sonli jinoyatlarni bir nechta qisqa, ammo sig‘imli qoidalar bilan tavsiflasa, u ko‘plab tushunchalar va hukmlarni ilgari suradiganlarga qaraganda afzalroqdir, ammo ularga nisbatan kam sonli huquqbuzarliklar bilan “ishlaydi”.

*Amaliy foyda.* Deviantologik nazariyaning ahamiyatini uning deviant xatti-harakatlar ustidan ijtimoiy nazoratni takomillashtirish va ta’minlashdagi foydalari bilan baholash mumkin. Nazariya salbiy deviantlikning mohiyatini qanchalik yaxshi tushuntirsa, uning asosida ushbu murakkab ijtimoiy muammoni hal qilish choralari va usullarini ishlab chiqish shunchalik yaxshi bo‘ladi. Jinoyatchilikni cheklash, giyohvandlik va giyohvandlik moddalari trafigiga qarshi kurashish va politsiya hamda ichki ishlar kuchlarini tashkil etishning har qanday dasturi deviant va xususan, huquqbuzarlik xatti-harakatlarini tushuntirishga asoslangan bo‘ladi. Deviantlikning barcha ma’lum nazariyalari huquqni qo‘llash va ijtimoiy nazorat amaliyotida qo‘llaniladigan qoidalarni ilgari suradi. Qonun chiqaruvchilarga Jinoyat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tavsiyalar berish hamda boshqa qonun hujjatlarini samarali deviantologik nazariyaga asoslanishi kerakligi tushuntirishda asqatadi. Bunday holda, jinoyatga oid siyosat va huquqni qo‘llash amaliyoti qat’iy ilmiy asosga ega bo‘ladi. Bu deviant xulq-atvor nazariyalarining haqiqiy qiymati va amaliy foydasi hisoblanadi.

**Foydalanilgan manbalar / References**

1. Кетле А. Социальная система и законы, ею управляющие. – СПб., 1866. – С.100.
2. Дюркгейм Э. Норма и патология // Рубеж: Альманах социальных исследований, 1992. – №2. – С.82.
3. Schmalleger F. Criminology today: an integrative introduction. New Jersey, 1999.
4. Shmalleger F. Criminology today: an integrative introduction. 2nd ed. New Jersey,1999.
5. Мертон Р.К. Социальная структура и аномия / Социология преступности. – М.,1966.
6. Cohen A. K. Anomie and Deviant Behavior. – N.Y., 1966.
7. Hirschi T. Causes of delinquency. Berkeley: University of California Press, 1969.
8. Гоффман И. Представление себя другим в повседневной жизни. – М.: Канонпресс, 2000. – 304 с.
9. Akers R. Criminological theories: introduction end evaluation 2nd ed. Los Angeles: Roxbury publishing company,1997. – P.2.
10. Кристи Н. Пределы наказания / Пер. с англ. В.М. Когана; Под. ред. А.М. Яковлева, Вступ. ст. А.М. Яковлева, В.М. Когана. – М.: Прогресс, 1985. – 176 с.
11. Гилинский Я.И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и других «отклонений». 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: Изд-во Р.Асланова «Юридический центр Пресс», 2007. – С.28. – 520 с.
12. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / Пер. с франц. – М.: Мысль, 1994. – 237 с.
13. Higgins P, Butler R. Understanding Deviance. MgGraw-Hill Book Company, 1982. – P.2.
14.Luhman N. Beobachtungen der Moderne. Opladen. Westdeutscher Verlag.1992.

# METHODOLOGY FOR REDUCING ROAD TRAFFIC ACCIDENTS INVOLVING CHILDREN IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN




***Ibragimov Sherzod Shokirovich***

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i*

*начальник Службы безопасности дорожного движения Департамента общественной безопасности МВД Республики Узбекистан*

*Head of the Traffic Safety Service of the Department of Public Security of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*



***Abstract.*** *Road traffic accidents (RTAs) involving children remain one of the most pressing road safety issues worldwide. This article examines the main causes of such accidents, analyzes existing approaches to risk reduction, and proposes effective methods for preventing child injuries on the roads.*



***Key words:*** *children, road traffic accidents, prevention, road safety, infrastructure, education, supervision.*


### *O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLALAR ISHTIROKIDAGI YO‘L-TRANSPORT HODISALARINI KAMAYTIRISH METODOLOGIYASI*


***Annotatsiya.*** *Bolalar ishtirokida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari (YTH) butun dunyoda yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.Mazkur maqolada bunday hodisalarning asosiy sabablari ko‘rib chiqiladi, mavjud tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi, shuningdek, bolalarning yo‘llarda jarohat olish holatlarining oldini olish bo‘yicha samarali usullari taklif etiladi.*



***Kalit so‘zlar:*** *bolalar, yo‘l-transport hodisalari, profilaktika, yo‘l harakati xavfsizligi, infratuzilma, ta’lim, nazorat.*


Children are one of the most vulnerable categories of road users. In the context of increasing motorization and urbanization, ensuring their safety on the roads becomes particularly urgent.

The methodology for reducing road traffic accidents involving children should take into account a comprehensive set of factors: behavioral, infrastructural, legal, and educational.

According to the World Health Organization, RTAs are among the top ten leading causes of death for children aged 5 to 14. Ensuring child safety on the roads requires a comprehensive approach, including legal, technical, infrastructural, and educational measures.

Despite positive developments in this area, it is necessary to implement targeted measures to prevent violations such as exceeding speed limits, ignoring traffic rules by road users – especially drivers – and demonstrative disregard for these rules.

In the effort to reduce child-involved accidents on public roads, public awareness campaigns and educational activities in mass media and popular social networks play a crucial role.

To prevent this problem, which poses a serious threat to the lives and health of minors, the primary requirement is the development of effective mechanisms to ensure road traffic safety.

The issue of road traffic accidents involving children in the Republic of Uzbekistan is one of the priority areas of state policy in the field of road safety. The question of reducing child injuries on the roads is considered within the framework of a systemic approach, including legislative, infrastructural, educational, and preventive measures.

The main document defining the strategic direction of reforms in road safety is the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 732 dated 01.11.2024, “On Additional Measures to Ensure Road Traffic Safety.” This resolution pays particular attention to strengthening measures to protect children, the most vulnerable category of road users. The document provides for the implementation of modern control technologies, the improvement of infrastructure near schools, as well as the implementation of comprehensive preventive programs.

A significant amount of data and analytical material is also presented in the reports of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. These reports provide a detailed analysis of the dynamics of RTAs involving minors from 2015 to 2024 and identify key causes of accidents: low driver discipline, inadequate organization of pedestrian crossings, and the absence of proper fencing and lighting near educational institutions. The reports emphasize the need for an interagency approach to addressing the problem, including the involvement of the Ministry of Public Education, the Ministry of Health, and local authorities.

Special attention is given to fostering a culture of safe behavior among children. In the methodological recommendations of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, models are proposed for integrating traffic rules education into the school curriculum starting from primary school. The effectiveness of interactive and game-based learning methods is particularly emphasized.

In the study by Yakubov U.B., a comprehensive assessment of the effectiveness of preventive measures to reduce child injuries is presented. The author demonstrates that the most sustainable effect is achieved by combining educational programs, infrastructural changes, and driver behavior control near educational institutions.

According to the Global Status Report on Road Safety 2023, countries that have implemented comprehensive safety programs have reduced child injuries by 35–40%. These figures confirm the need for integrated approaches in Uzbekistan.

Thus, the existing scientific and regulatory framework provides a solid foundation for developing a methodology aimed at systematically reducing child-involved RTAs in the country, taking into account national characteristics and successful international experience.

Despite government measures to ensure road safety, road traffic accidents (RTAs) involving children in Uzbekistan remain one of the most pressing problems. This is due to several factors:

- **Insufficient safety of road infrastructure**, especially near educational institutions: lack of illuminated pedestrian crossings, absence of fences, speed bumps, and traffic lights;
- **Low road literacy among children**, as well as among some parents and teachers, which reduces children's ability to adequately assess road risks;
- **Drivers' disregard for traffic rules**, particularly in areas near schools and kindergartens (speeding, failure to yield to pedestrians);
- **Absence of a systematic approach** to preventing and reducing RTAs involving minors: measures are fragmented and episodic;
- **Weak coordination** between government bodies, schools, and local communities, and the lack of a unified program for monitoring and evaluating children's road safety;

- Insufficient use of modern information technologies (video surveillance, navigation systems, mobile applications, etc.) in ensuring child road safety.

Thus, there is an urgent need in Uzbekistan to develop and implement a scientifically grounded, comprehensive methodology aimed at the systematic and sustainable reduction of child-involved RTAs, with a focus on prevention, education, infrastructural modernization, and digital control.

For the effective organization of road traffic and ensuring its safety, it is extremely important to develop road infrastructure in accordance with modern requirements, widely implement information and communication technologies in the sector, and use them efficiently. This will significantly increase the safety of all road users, including children. Today, this issue is one of the most urgent and pressing.

To achieve these goals, the Government of the country has repeatedly outlined targeted objectives and approved a number of regulatory documents defining priority development areas [1]. Currently, large-scale reforms are being implemented within the framework of the sector's prospective development.

For example, under the chairmanship of President Shavkat Mirziyoyev, a video conference was held on July 9, 2025, to discuss measures for ensuring road safety, improving infrastructure, and reducing traffic congestion.

In recent years, 61 trillion soms have been allocated for road construction and repair—3.5 times more than the funding levels before 2017.

The practice of automatic violation detection and decision-making using artificial intelligence has been introduced [2].

According to the results of a scientific research analysis conducted by the Road Traffic Safety Service of the Public Safety Department of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 46 accident-prone sites were identified across the country, 42 of which have already been eliminated. The causes of these sites were usually unlit pedestrian crossings, dangerous turns, and the absence of protective barriers on roads.

Additionally, the Center regularly conducts social surveys among the population to identify specific problems in this area and takes public opinion into account, based on which proposals are developed to address them in the future. The survey is conducted every six months jointly with the Institute of Criminological Research of the Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan, and the results are immediately submitted to the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

In the survey conducted over the past six months, a total of 260,810 respondents participated, including 227,485 men and 33,325 women.

The survey results are presented in the following diagram (Fig. 1).

Despite the country's policies aimed at ensuring road safety and the development of a regulatory and legal framework, the level of road traffic accidents involving minors remains alarming. Analysis shows that the causes of these incidents are both behavioral and infrastructural in nature. Below are the main factors contributing to traffic accidents involving children:

*First,* the insufficient protection of children as a vulnerable category of road users Children, especially younger ones, have a limited ability to correctly assess traffic situations. Their attention, reaction, and behavioral characteristics do not always meet the requirements for safe movement. The lack of consistent traffic rule compliance skills makes them particularly vulnerable. Drivers, pedestrians, and passengers all play a key role in the occurrence of accidents.

*Second,* insufficient educational work with violators. In some cases, there is a lack of dialogue between local communities and traffic safety authorities regarding child safety.






*for the period of the last 6 months of 2025*

**Fig. 1. Results of a social survey among citizens of Uzbekistan (in percentages)**

*Third,* the use of sidewalks by cyclists and electric scooter riders. 65.8% of respondents note that cycling and riding e-scooters on sidewalks is dangerous for pedestrians, especially for children. In the absence of dedicated bike lanes, such situations often result in injuries.

*Fourth,* insufficient use of digital technologies and violation detection cameras. Although intelligent video surveillance systems are gradually being implemented in the country, territorial coverage is still insufficient. In areas without digital monitoring, more violations are recorded, including running red lights and speeding, particularly near schools.

*Fifth,* the psychological and emotional instability of children. The unpredictability of children's behavior is one of the most challenging problems in managing road safety. A child may suddenly run onto the roadway without realizing the consequences. This requires not only adult supervision but also the implementation of additional barriers (fences, ramps, traffic lights with audio signals, etc.).

Child road traffic injuries are an important and socially significant problem that requires a systematic approach. Considering that children are among the most vulnerable categories of road users, it is necessary to develop a comprehensive intersectoral methodology covering legal, educational, infrastructural, technological, and socio-cultural aspects [3].

The methodology is based on the following scientific approaches:

**Systemic approach** – considers traffic accidents as the result of the interaction of multiple factors, including driver behavior, infrastructure, education, and supervision.

**Preventive approach** – emphasizes prevention rather than addressing consequences.

**Comprehensive interdisciplinary approach** – combines the efforts of government authorities, educators, parents, law enforcement agencies, and civil society.

**Digitalization and innovation** – active implementation of ICT, Big Data, and analytical platforms for monitoring and managing risks [4].

All scientific aspects of the methodology for reducing traffic accidents involving children in the Republic of Uzbekistan are presented in Table 1.

Table 1

**Aspects of the Methodology for Reducing Traffic Accidents Involving Children in the Republic of Uzbekistan**

| № | Area of Intervention | Innovative Measure | Expected Effect |
|---|---|---|---|
| 1 | **Infrastructure** | Installation of “smart pedestrian crossings” (motion sensors, LED lighting, autonomous power supply) | Enhancing the visibility and safety of children on the roads |
| 2 | **Education and Prevention** | Introduction of a separate traffic rules subject in the school curriculum with VR-based road situation simulators | Conscious understanding of traffic rules by children, reducing behavioral mistakes |
| 3 | **Technology and Enforcement** | Use of GPS bracelets and mobile applications to monitor the movements of primary school children | Enhancing parental and school supervision of children’s movements |
| 4 | **Parental Involvement** | Mandatory traffic rules training for parents of first graders (digital courses with certification) | Fostering a family culture of road safety |
| 5 | **Urban Environment** | Organization of school “green corridors”: barriers, raised (speed) crossings, and bicycle lanes | Creating a safe and logical route network for children |
| 6 | **Media and Social Networks** | Large-scale Instagram campaign involving influencers and children: “Life is not on the road – life is in your hands!” | Increasing children’s and adolescents’ engagement in traffic rule compliance culture |
| 7 | **Analytics and Monitoring** | Creation of an interactive map of traffic accidents involving children with dynamic updates via the government platform | Identifying danger hotspots, prompt response, and intervention planning |
| 8 | **Behavioral Psychology** | Conducting regular psychological training on stress resilience and attentiveness for schoolchildren | Additional funding for targeted road safety measures |
| 9 | **Business Partnerships** | Engagement of car dealerships and insurance companies in the “1 Car – 1 Safety” campaign: donations for road signs | Additional funding for targeted road safety measures |
| 10 | **Digitalization of Inspection** | Pilot project “Child Traffic Inspector” — a gamified app where children report traffic violations | Developing responsibility and attentiveness in children |

Despite the country's policies aimed at ensuring road safety and the development of a regulatory and legal framework, the level of road traffic accidents involving minors remains alarming. Analysis shows that the causes of these incidents are both behavioral and infrastructural in nature. Below are the main factors contributing to traffic accidents involving children:





*First,* the insufficient protection of children as a vulnerable category of road users Children, especially younger ones, have a limited ability to correctly assess traffic situations. Their attention, reaction, and behavioral characteristics do not always meet the requirements for safe movement. The lack of consistent traffic rule compliance skills makes them particularly vulnerable. Drivers, pedestrians, and passengers all play a key role in the occurrence of accidents.

*Second,* insufficient educational work with violators. In some cases, there is a lack of dialogue between local communities and traffic safety authorities regarding child safety.

*Third,* the use of sidewalks by cyclists and electric scooter riders. 65.8% of respondents note that cycling and riding e-scooters on sidewalks is dangerous for pedestrians, especially for children. In the absence of dedicated bike lanes, such situations often result in injuries.

*Fourth,* insufficient use of digital technologies and violation detection cameras. Although intelligent video surveillance systems are gradually being implemented in the country, territorial coverage is still insufficient. In areas without digital monitoring, more violations are recorded, including running red lights and speeding, particularly near schools.

*Fifth,* the psychological and emotional instability of children. The unpredictability of children's behavior is one of the most challenging problems in managing road safety. A child may suddenly run onto the roadway without realizing the consequences. This requires not only adult supervision but also the implementation of additional barriers (fences, ramps, traffic lights with audio signals, etc.).

Child road traffic injuries are an important and socially significant problem that requires a systematic approach. Considering that children are among the most vulnerable categories of road users, it is necessary to develop a comprehensive intersectoral methodology covering legal, educational, infrastructural, technological, and socio-cultural aspects [3].

The methodology is based on the following scientific approaches:

**Systemic approach** – considers traffic accidents as the result of the interaction of multiple factors, including driver behavior, infrastructure, education, and supervision.

**Preventive approach** – emphasizes prevention rather than addressing consequences.

**Comprehensive interdisciplinary approach** – combines the efforts of government authorities, educators, parents, law enforcement agencies, and civil society.

**Digitalization and innovation** – active implementation of ICT, Big Data, and analytical platforms for monitoring and managing risks [4].

All scientific aspects of the methodology for reducing traffic accidents involving children in the Republic of Uzbekistan are presented in Table 1.

**Key Areas of Implementation**

1. Development of the national program “Safe School – Safe Child,” covering:

- Safety standards around all educational institutions;
- Creation of traffic rules classrooms and training grounds;
- Introduction of school safety inspectors.

2. Strengthening interagency cooperation between the Ministry of Internal Affairs, the Ministry of Preschool and School Education, the Ministry of Transport, local authorities, and authorized committees.

3. Parental involvement: conducting parent meetings and “Safe Parenting” schools.

4. Development of urban mobility: prioritizing pedestrian and bicycle infrastructure, implementing the “City for Children” concept [5].

Expected Results:

- Reduction of traffic accidents involving children by 30–50% over 5 years;

- Increase in legal awareness among children and adolescents;
- Strengthening public trust in government safety measures;
- Improvement of quality of life in cities and rural areas.

A comprehensive methodology for reducing traffic accidents involving children requires a systemic approach and continuous coordination between government agencies, educational institutions, society, and the road users themselves.

The implementation of modern technologies, legal mechanisms, and educational initiatives can significantly reduce the number of tragic incidents and create a safe transport environment for the younger generation.

**References / Foydalanilgan manbalar**


1. On additional measures to ensure road safety: Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 732 dated 01.11.2024 – Tashkent, 2024.
2. Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Analytical report on the state of road traffic accidents involving children for 2015–2024 – Tashkent, 2025. – 56 p.
3. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. Methodological recommendations for organizing traffic rules education for children in general educational institutions – Tashkent, 2024. – 32 p.
4. World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023 – Geneva: WHO Press, 2023. – 399 p.
5. UNICEF Uzbekistan. Child Road Safety in Central Asia: Challenges and Solutions – Tashkent, 2022.


# ZAMONAVIY KRIMINOLOGIK NAZARIYALAR EVOLYUTSIYASI: AN’ANAVIY VA INNOVATSION MAKTABLAR




***A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li***

*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi*

*научный сотрудник Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан*

*Researcher at the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*



***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada zamonaviy innovatsion maktablar – raqamli kriminologiya, sun’iy intellekt asosidagi tahlillar, kognitiv model, ekologik kriminologiya va postmodern yondashuvlar izchillikda tahlil qilingan. Har bir nazariy maktabning asosiy g‘oyalari, namoyondalari va ilmiy asoslari yoritilib, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari ko‘rib chiqilgan, jinoyatchilikka qarshi kurashda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish bo‘yicha xulosalar hamda takliflar berilgan.*



***Kalit so‘zlar:*** *kriminologik nazariyalar, klassik kriminologiya, biogenetik nazariya, psixologik yondashuv, konflikt nazariya, raqamli kriminologiya, sun’iy intellekt, kognitiv kriminologiya, ekologik kriminologiya, postmodern kriminologiyasi.*


***EVOLUTION OF MODERN CRIMINOLOGICAL THEORIES: TRADITIONAL AND INNOVATIVE SCHOOLS***


***Abstract.*** *This article consistently analyzes modern innovative schools - digital criminology, analysis based on artificial intelligence, cognitive model, ecological criminology, and postmodern approaches. The main ideas, representatives, and scientific foundations of each theoretical school are highlighted, the processes of harmony and integration between traditional and modern approaches are considered, and conclusions and proposals are made on the harmonization of theory and practice in the fight against crime.*



***Keywords:*** *criminological theories, classical criminology, biogenetic theory, psychological approach, conflict theory, digital criminology, artificial intelligence, cognitive criminology, ecological criminology, postmodern criminology*


Kriminologiya jinoyatchilik va unga qarshi kurash usullarini o‘rganuvchi fandir. Ushbu fan tarixan turli nazariy maktablar rivojini boshdan kechirgan va har bir davr jinoyatchiligining sabablari va tabiatini turlicha talqin qilgan. Klassik kriminologik nazariyalar jamiyatdagi jinoyatchilikni tushuntirishda biryoqlama omillarga urg‘u bergan: masalan, ayrim nazariyalar jinoyat sodir etishni insonning ijtimoiy muhitdan chetga chiqishi yoki ijtimoiy norma buzilishi bilan bog‘lasa, boshqalari esa biologik xususiyatlar yoki psixologik omillarni sabab sifatida ko‘rsatgan. Vaqt o‘tishi bilan bunday yondashuvlar takomillashib, XX asrda iqtisodiy (ratsional tanlov) va konflikt (sinflar to‘qnashuvi) nazariyalari ham shakllandi.

Zamonaviy innovatsion maktablar esa kriminologiyani yangi fan yutuqlari va jamiyatning raqamli transformatsiyasi bilan boyitmoqda. Bugungi kunda jinoyatchilik nafaqat an’anaviy

jinoyatchilik, balki kiberjinoyatlar, raqamli makondagi huquqbuzarliklar orqali namoyon bo‘layotgani raqamli kriminologiya sohasi rivojiga turtki berdi.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili esa huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga jadal joriy etilib, jinoyatchilikni bashorat qilish va oldini olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [1].

Zamonaviy kriminologik yondashuvlar globallashuv, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda fanlararo integratsiya ta’sirida shakllanib, jinoyatchilikni o‘rganishda yangi ufqlarni ochmoqda. Nazarimda, kriminologiyadagi an’anaviy nazariy paradigmalarga yangicha yondashuv lozim, jumladan: *Raqamli jamiyatda jinoyatning mohiyati qanday o‘zgaradi? Sun’iy intellekt jinoyatchilikni bashorat qila oladimi? Inson miyasi va ongini o‘rganish jinoyatchiga tushunishda yordam beradimi? Atrof-muhit va ekologik omillar jinoyatga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Postmodern davrda “jinoyat” tushunchasining o‘zi hozirda qanday qayta talqin etilmoqda?* Quyida shu savollar doirasida ayrim rivojlangan kriminologik innovatsion maktablar tahlil qilishga harakat qilamiz.

*Raqamli kriminologiya* – kriminologiya fanining raqamli jamiyat sharoitidagi jinoyat va jazoni o‘rganishga ixtisoslashgan yangi yo‘nalishi. Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib borishi natijasida jinoyatchilik ham yangi ko‘rinishlar oldi: kiberjinoyatlar, xususan, kiberfiribgarlik, xakerlik, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, onlayn tovlamachilik kabi yangi jinoyatlar paydo bo‘ldi. Raqamli kriminologiya avvalgi “kiberjinoyatchilik” mavzularini yanada kengaytirib, raqamli jamiyatda jinoyat va odil sudlovning barcha jihatlarini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar endi nafaqat o‘ziga xos texnologik jinoyatlarga (masalan, kompyuter viruslari tarqatish) e’tibor qaratmoqdalar, balki raqamli platformalardagi ijtimoiy jarayonlar – jinoyatni targ‘ib qiluvchi onlayn submadaniyatlar, internet orqali adolat izlovchi fuqarolar harakati (masalan, jamoatchilik tomonidan jinoyatchilarni fosh etish – digilantizm), ijtimoiy tarmoqlarda nafrat so‘zlari tarqalishi – bularning barchasi kriminologiyaning tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Masalan, A.Powell va hamkorlari “Raqamli kriminologiya: Raqamli jamiyatda jinoyat va adolat” kitobida raqamli jamiyat sharoitida jinoyat sodir etilishi va jinoyatga munosabatda sodir bo‘layotgan konseptual siljishlarni tahlil qilganlar [2].

Ular yangi “texnoijtimoiy kriminologiya” konsepsiyasini ilgari surib, jinoyatning onlayn muhitda namoyon bo‘lishi jamiyatdagi keng ijtimoiy munosabatlar va media-madaniyat bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar. Raqamli kriminologiyaning vujudga kelishi kriminologiya fanini bir necha boshqa sohalar (axborot texnologiyalari, multimedia kommunikatsiyalari, kiberxavfsizlik) bilan yaqindan aloqador qilib, multidisiplinar tadqiqotlarni talab qilmoqda.

*Sun’iy intellekt asosidagi tahlillar* – kriminologiyada so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan eng innovatsion yo‘nalishlardan biri. Katta hajmdagi ma’lumotlarni (big data) sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash orqali jinoyatlarni oldindan bashorat qilish, xavfli hudud va shaxslarni aniqlash imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Ko‘plab davlatlarda huquqni muhofaza qilish organlari *prediktiv politsiyachilik* (bashoratlovchi politsiya) tizimlarini sinovdan o‘tkazmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari jinoyat sodir etilgan joy va vaqt haqidagi katta tarixiy bazalarni o‘rgangan holda, qaysi hududda va qachon jinoyat sodir bo‘lish ehtimoli yuqoriligini hisoblab chiqishi mumkin. Deloitte kompaniyasining bir tadqiqotida keltirilishicha, aqlli texnologiyalar (xususan, AI)dan samarali foydalanuvchi shaharlar jinoyatchilik darajasini 30-40 foizga pasaytirishga, tezkor xizmatlarning voqea joyiga yetib kelish vaqtini esa 20-35 foizga qisqartirishga erishishi mumkinligi ma’lum qilingan.

Shu bilan birga, AI huquqni muhofaza qilishda boshqa yo‘nalishlarda ham qo‘llanilmoqda, masalan, yuzidan tanib olish (facial recognition) texnologiyalari qidiruvdagi jinoyatchilarni aniqlashga yordam bermoqda, intelligent kuzatuv kameralar olomon to‘planishidan tortib, shubhali harakatlargacha avtomatik tahlil qila olmoqda. AQSH Milliy Adliya institutining hisobotlarida sun’iy intellekt tergov jarayonida videoyozuvlarni tahlil qilish, gumondorlarning xatti-harakatidan ularning qurol-yarog‘i bor-yo‘qligini aniqlash, jinoyat joyidagi dalillarni avtomatik saralash kabi ishlarni yengillashtirishi ko‘rsatilgan [3].

AI yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashishda Yevropada ham bir qator tajribalar o‘tkazilmoqda, jumladan, Buyuk Britaniyada PredPol dasturi [4], Niderlandiyada Crime Anticipation System [5] sinovdan o‘tdi. Albatta, sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan bir qatorda, jiddiy muammolar ham yuzaga chiqmoqda: shaxsiy hayot daxlsizligi (privacy), ma’lumotlarda tarafkashlik (data bias) tufayli AIning noxolis qarorlari hamda AIni qo‘llashdagi huquqiy va axloqiy chegaralar. Biroq, to‘g‘ri yondashuv bilan sun’iy intellekt kriminologik tahlillarning aniqligi va tezkorligini oshirishda bebaho qurol bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

*Kognitiv model va kriminologiya* – inson tafakkuri va ong faoliyati jarayonlarini jinoiy xulqni tushuntirishga tatbiq etuvchi yondashuv. Kognitiv kriminologiya, asosan, psixologiya fanining kognitiv psixologiya yo‘nalishiga tayansa-da, uni alohida innovatsion maktab sifatida ajratish mumkin, chunki u jinoyatchining fikrlash jarayonlari, qaror qabul qilish uslubi, axloqiy rivojlanishi kabi masalalarni markazga qo‘yadi. Kognitiv nazariya tarafdorlari jinoyatchilarda muayyan kognitiv nuqsonlar bo‘lishi mumkin deb hisoblashadi, ya’ni ko‘plab jinoyatchilar ijtimoiy moslashuv uchun zarur bo‘lgan ba’zi aqliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ortda qolgan bo‘lishadi.

Masalan, AQSH va Kanadada R.Ross va E.Fabiano tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv modelga ko‘ra, jinoyatchilarning aksariyati bolalik va o‘smirlik davrida muhim ijtimoiy kognitiv ko‘nikmalarni (muammoni hal etish, empatiya, impulslarni nazorat qilish kabi) to‘liq o‘zlashtirmagan bo‘ladi. Natijada, ular muayyan vaziyatlarda tajovuzkorlikka yoki noqonuniy yo‘lga osonroq beriladilar. Ushbu model jinoyatchilar bilan axloq tuzatish ishlari olib borishda (masalan, qamoqxonalarda reabilitatsiya dasturlari) kognitiv trening va terapiya samarali bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab berdi [6].

*“Ekologik kriminologiya”* atamasi ikki xil ma’noda qo‘llaniladi: *birinchisi,* jinoyatchilikning hududiy, geografik va ijtimoiy makon bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi an’anaviy ijtimoiy ekologik yondashuv; ikkinchisi, atrof-muhitga qarshi jinoyatlar va ekologik adolat masalalarini o‘rganadigan zamonaviy yashil (green) kriminologiya. Hozirgi zamonda bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldirib, keng ma’noda “ekologik kriminologiya” deya atalmoqda. Yashil kriminologiya – atrof-muhitga zarar yetkazuvchi huquqbuzarliklarni va ekologik adolatni o‘rganishga ixtisoslashgan yangi soha. M.Lynch 1990-yilda “yashil kriminologiya” atamasini fanda muomalaga kiritgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu yo‘nalishda jahon miqyosida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda [7].

Yashil kriminologiya nafaqat an’anaviy ma’nodagi jinoyatlar (masalan, noqonuniy ov qilish, noqonuniy chiqindilarni to‘kish, brakonyerlik) bilan cheklanadi, balki keng ma’noda *environmental harm* – atrof-muhit va ekologik tizimlarga zarar yetkazuvchi harakatlarni ham o‘rganadi. Masalan, iqlim o‘zgarishiga olib keluvchi faoliyat, yirik korporatsiyalarning tabiatga yetkazgan talafotlari (korporativ ekologik jinoyatlar), hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik holatlari – bularning barchasi yashil kriminologiya doirasida tahlil qilinadi.

*Postmodern yondashuvlar* kriminologiyada so‘nggi chorak asrda shakllangan bo‘lib, ular modernizm davridagi “katta nazariya”larni (metanarrativlarni) tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi. Postmodern kriminologlar jinoyat va jazo tushunchalarini absolyut kategoriyalar emas, balki ijtimoiy konstruksiya deb biladi. Ular nazarida, jinoyat nima ekanini aniqlash – bu hokimiyatga ega guruhlarning irodasini boshqa guruhlarga zo‘rlab o‘tkazish vositasi. Masalan, postmodernistlar fikricha, jinoyat to‘g‘risidagi qonunlar tili (“yuridik jargon”) hokim sinfning g‘oyalarini mustahkamlab, mustamlaka va patriarxat kabi tuzumlarni davom ettiradi.

Umuman olganda, zamonaviy innovatsion maktablar kriminologiya fanini ijobiy ma'noda ancha murakkablashtirdi va boyitdi. Agar klassik yondashuvlar jinoyatchilikni yakka chegaralangan sabablar orqali tushuntirishga intilgan bo'lsa, bugungi yondashuvlar jinoyatni ko'p qirrali, turli omillar tutashgan hodisa sifatida ko'radi.

Raqamli va AI yondashuvlar texnologik omillarni qo'shsa, kognitiv yondashuv inson ongini qo'shadi, ekologik yondashuv makon va tabiatni hisobga oladi, postmodern yondashuv esa ijtimoiy-ma'naviy diskurslarni tahlilga kiritadi. Endi kriminologiya multidisiplinar (ko'p fanli) sohaga aylangan bo'lib, huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, informatika, biologiya, siyosatshunoslik, pedagogika, ekologiya va falsafa bilan chegaradosh ilmiy mintaqada faoliyat yuritmoqda.

*An'anaviy va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi*. Kriminologiya fani o'z tarixida turli qarashlarni ko'rgan bo'lsa-da, bugungi kunda ularni integratsiyalash tendensiyasi kuchaymoqda. Integrativ nazariyalar bir vaqtning o'zida bir nechta omillarni hisobga olgan holda jinoyatchilikni tushuntirishga intiladi. Masalan, hozirgi vaqtda biosotsial kriminologiya jadal rivojlanib, jinoyatga moyillikni izohlashda genetik va biologik omillarni ijtimoiy tarbiya va muhit bilan birga ko'rib chiqmoqda. Bu yondashuv Lombrozo davridagi deterministik biologizmni takrorlamaydi, balki zamonaviy genetika (masalan, MAOA geni mutatsiyasi) va nevrologiya (miyada impulslarni boshqaruvchi markazlar faoliyati) ma'lumotlarini inobatga olib, ular faqat ma'lum sharoitda (negativ ijtimoiy muhit, zo'ravonlikka to'la atrof) jinoyatga olib borishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, *sotsiopsixologik integratsiya* ham ko'zga tashlanadi. Masalan, D. Elliotning integratsion nazariyasi Mertonning anomiya nazariyasini Sutherlandning differensial assotsiatsiyasi va Xirshi (Hirschi)ning ijtimoiy bog'lanish nazariyasi bilan uyg'unlashtirib, yoshlar jinoyatchiligining ko'p qirrali modelini taklif etgan.

Bu davrda jinoyat, yaʼni jamiyatga zid qilmish (xatti-harakat)lar, ularning sabab va shart-sharoitlari hamda ushbu qilmish (xatti-harakat)larni sodir etgan shaxslarga nisbatan diniy jihatdan yondashilgan. Nazarda tutilgan qilmish (xatti-harakat)lar ogʻir gunoh, uni sodir etgan shaxs esa shayton yoʻldan urgan gunohkor kimsa sifatida talqin qilingan. Javobgarlik masalalari ham diniy qoidalar asosida amalga oshirilib, asosan kastratsiya jazo turlari (osish, boshini tanasidan judo qilish, gulxanda yoqish, barmoq yoki qoʻllarni kesish kabilar) mavjud boʻlgan.

Ushbu davrdan boshqa davrlarga oʻtish jarayonida jinoyatchilarga nisbatan qoʻllaniladigan jinoiy jazo choralariga nisbatan insonparvarlik (gumanizm) prinsipi asosida yondashish gʻoyalari shakllangan.

Sharl Lui Monteskyo, Chezari Bekkaria va Meremia Bentam ushbu davrning buyuk namoyondalari sanalishadi.

Fransuz faylasufi va huquqshunosi Sharl Lui Monteskyo *(1689–1755)* [10]ning ilmiy qarashlari kriminologik taʼlimotning rivojiga katta hissa qoʻshdi. U “Qonunlar ruhi haqida”gi falsafiy-huquqiy asarida shunday fikrni bildiradi:

*“Aqlli qonun chiqaruvchi jinoyat uchun jazo haqida emas, balki jinoyatlarning oldini olish uchun qaygʻuradi. U jinoyat uchun jazolash emas, balki axloqni yaxshilash uchun harakat qiladi”*.

Shuningdek, buzuq axloqni jinoyatchilikning asosiy sababi sifatida koʻrsatib, davlat kishilarda eng yaxshi axloqni shakllantirishga ahamiyat berishi zarurligi haqida yozadi. U jinoyatlarni tasniflab, jazo jinoyatning ogʻirlik darajasiga qarab tayinlanishini yoqlab chiqqan edi.

Shundan soʻng uning jinoyatlarning oldini olish haqidagi ilgʻor gʻoyalari italiyalik huquqshunos Chezare Bekkaria *(1738–1794)* [11] tomonidan rivojlantirildi hamda huquqiy nuqtai nazardan asoslab berildi.

Insoniyat tarixida jinoyat va jazo masalalariga bagʻishlangan birinchi maxsus kitob – Ch. Bekkarianing 1764-yilda chop etilgan “Jinoyatlar va jazolar haqida” degan asari. Bu kitob Ch. Bekkariaga katta shuhrat keltirgan. *Shu kitob asosida 1800-yilda Angliya Jinoyat kodeksi ishlab chiqilgan.* Shundan keyin koʻpgina Yevropa mamlakatlarida Jinoyat kodekslari ishlab chiqila boshlangan.

Ch. Bekkarianing ilmiy qarashlarida jazoning jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatiga jiddiy eʼtibor qaratilgan. Jumladan, uning fikricha:

• axloq sohasida olib borilayotgan siyosat inson tabiatiga xos va doimiy boʻlgan his-tuygʻularga suyanmas ekan, axloqning yaxshilanishiga umid qilib ham boʻlmaydi;

• jazo jinoyat sodir etish istagining oldini oluvchi ichki omilga aylanadi. Ammo buning uchun jazo rasmiy, oshkora boʻlishi, darhol qoʻllanishi va qilmishga mos boʻlishi kerak;

• jinoyat uchun jazolagandan koʻra, uning oldini olgan yaxshidir, yaxshi qonun chiqaruvchining maqsadi ana shunday boʻlishi kerak. Ammo buning uchun shaxs davlat va jamiyatning toʻla fuqarolik huquqiga ega boʻlishi kerak [5].

Mashhur fransuz mutafakkiri Jan Pol Marat [12] (1743–1793) jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarining jamiyatning axloqiy sohasiga ta'siri masalasiga alohida ahamiyat bergan. U 1790-yili chop ettirgan "Jinoyat qonunchiligi rejasi" nomli kitobida jinoyatchilikning sabablari hukmron sinf bilan mehnatkashlar o'rtasidagi qarama-qarshilikda yotadi, shuning uchun qonun kambag'allar bilan boylar o'rtasidagi farqni imkoni boricha qisqartirishga harakat qilishi kerak, deb hisoblaydi.

Muayyan jinoyatning sodir etilish mexanizmini o'rganishga nemis faylasuflari Immanuil Kant (1724–1804), Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770–1831) ham jiddiy ahamiyat berishgan.

I. Kantning fikricha, shaxsga va mulkka qarshi jinoyatlar boshqalarning maqsadini o'z maqsadi uchun qurbon qilishdan iboratdir. U iroda erkinligi masalasida, o'z erkinligimni o'z xohishim bilan hal qilaman, bunda boshqalarning erkinligini buzmasam bo'ldi, degan nuqtai nazarni ilgari surgan.

G. Gegel esa jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi hayotning salbiy tomoni ekanligini uqtiradi, bunda aybdorni jazolash jamiyat uchungina emas, balki jinoyatchining o'zi uchun ham foydalidir [4], deb hisoblaydi.

Statistika nazariyotchilari tomonidan ham kriminologiyaning asosiy muammolari o'rganila boshlangan. Statistik tahlil vositasida jinoyatchilikning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqadorligining turli jihatlari aniqlangan.

Jumladan, Lamber Adolf Jak Ketle (1796–1874)ning xulosalariga ko'ra, jinoyatchilarning jinsi, yoshi, jinoyat sodir etish joyi va jinoyat qurollarini ishlatishlaridan kelib chiqqan holda, jinoyat sodir etilishining qiyosiy ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin. Shuningdek, u jinoyatchilik jamiyat hayotidagi juda ko'p salbiy holatlar bilan bog'liq ekanligiga ham alohida e'tibor qaratgan. U jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilib, "jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumoti darajasi, yilning mavsumi va boshqalarga bog'liq bo'ladi", shuningdek, uning jinoiy xulq-atvorning vujudga kelishiga ijtimoiy muhit sababchi [13], degan fikrlari asoslidir.

Avstriyalik vrach, frenolog *(kishining ruhiy va axloqiy xususiyatlari uning bosh suyagining tuzilishi bilan bog'liq ekanligi haqidagi nazariya asoschisi)* Frans Yozef Gall [14] (1758–1828) antropologik tadqiqotlarning asoschisi hisoblanadi. U barcha jinoyat sodir qilgan shaxslarni uch turkumga bo'ladi:

- birinchi turkumga o'ziga jalb qiluvchi, yomon havas va qiziqishlarga, o'zidagi tug'ma sifatlarga tayanadigan jinoyatchilarni kiritadi. Bunday shaxslar o'z harakatlarining faqat qonun bilan munosabatini solishtiribgina qolmasdan, balki ancha yuksak g'oyalarga ham solishtiradilar;
- ikkinchi turkumga tabiatan hamma narsadan mahrum bo'lgan shaxslarni kiritadi. Ular o'zlarining tug'ma sifatlariga ko'ra bo'sh va oson beriluvchan bo'lib, jinoiy maylga yengil beriladi;
- uchinchi turkumga birinchi va uchinchi turkum o'rtasidagi jinoyatchilar kiradi. Bu turkumdagi jinoyatchilar tabiatan jinoyat sodir etishga moyil kishilardir. Shu bilan birga, ularda tabiatan yomon, yaxshi sifatlar mavjud bo'lib, ular o'zlarini o'rab turgan muhit ta'sirida jinoyat yo'liga o'tib qoladilar.

F.Y. Gallning fikricha, jinoyat uni sodir etuvchi shaxsning mahsuli hisoblanadi, shunga ko'ra jinoyatning xususiyati bu individlarning tabiati va u yashab turgan muhitga bog'liq bo'ladi. Shuni e'tiborga olib, jinoyatni to'g'ri baholash mumkin, deb hisoblaydi.

Pozitivizm (ijobiy maqsad sari rivojlanish) davri *XIX* asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bunga sabab Yevropa jamiyatida sezilarli darajada jinoyatchilikning o'sishi kuzatildi va shu bilan birga, tabiiy va gumanitar fanlar rivojlana boshladi. Bu rivojlanish jinoyatchilikni chuqur va mukammal o'rganish imkoniyatini vujudga keltirdi. Natijada jamiyatga zid qarashlar, qilmishlar va ularni sodir etgan shaxslarni o'rganish yuzasidan tadqiqotlarning yangi-yangi usullari ham paydo bo'la boshladi.





Insonni o'rganadigan fanlarga esa aniq fanlarning usullarini qo'llash natijasida antropologiya, sotsiologiya (jamiyatshunoslik) va statistika fanlari vujudga keldi.

Bu davrdagi kriminologik bilimlarning metodologik asosini pozitivizm falsafasi tashkil etgan. Ushbu falsafada jamiyat hayotining turli tomonlari (qirralari) haqida bilimlar to'plangan.

Klassik davrda kriminologik ta'limotlar asosan aqlan fikrlash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, pozitivizm davrida esa sodir etilgan jinoyatlar miqdor va sifat jihatdan o'rganilib, statistik va boshqa daliliy ma'lumotlarga asoslana boshladi. Pozitivizm davrida jinoyatlarning sabab va sharoitlarini hamda uni sodir etgan shaxslarni o'rganuvchi ikkita katta yo'nalish vujudga keldi:

*Birinchi yo'nalish,* biologik yo'nalish – Italiyaning Turin shahrida vujudga kelgan bo'lib, Chezari Lombrozo (1835–1909) asos solgan antropologik maktab yuzaga kelgan. Keyinchalik bu yo'nalish xavfli holat nazariyasi, turli biologik qarashlar yoki yondashish nazariyasi (endokrin, genetik, konstitutsional va h.k.) kabi boshqa bir qator nazariyalar bilan to'lib bordi.

Tug'ma jinoyatchilar haqidagi nazariyani italiyalik psixiatr vrach Chezari Lombrozo asoslashga harakat qildi. "Dekabrning sovuq kunlaridan birida men surgun qilingan mahkumning bosh suyagini ko'zdan kechirayotib, uning bosh suyagida bir qancha quyi umurtqalilarga xos bo'lgan odatdan tashqari belgilarni ko'rib chiqar ekanman, ko'z oldim ufqqa qadar yorishib ketgandek bo'ldi. Jinoyatlarning mohiyati va kelib chiqishi men uchun hal bo'lgan edi. Jinoyatchilar jinoyatchi bo'lib tug'iladilar", deb yozgan edi u dastlabki ilmiy ishlaridan birida.

Ch. Lombrozoning fikricha, jinoyat xuddi insonning tug'ilishi va o'lishi kabi tabiiy va zaruriy hodisa, jinoyatchilikning kelib chiqishi biologik holat. U o'zining "Jinoiy odam", "Jinoyat, uning sabablari va davolash vositalari" nomli asarlarida tug'ma jinoyatchilikning mavjudligi haqida yozadi. U jinoiy xulqning kelib chiqishining asosiy sababi shaxsning anatom-fiziologik anomalliligiga va psixik xususiyatlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. U jinoyatchilik tug'ilish, kasallik va o'lim singari tabiiy biologik jarayon ekanligini, kishilar jinoyatchi bo'lib shakllanmaydilar, balki jinoyatchi bo'lib tug'iladilar hamda jinoyatchi shaxsi tug'ma individual psixo-fiziologik tashqi ko'rinishga ega bo'lishini [5] ta'kidlagan.

Shuningdek, uning ta'kidlashicha, tug'ma jinoyatchilar maxsus antropologik, fiziologik va ruhiy belgilarga ega bo'lib, ular barcha jinoyatchilarning 35 foizini tashkil etadi. U inson bosh suyagi, bo'yi, og'irligi va boshqa a'zolarini o'lchash orqali kishida jinoyatchiga xos bo'lgan belgilarni aniqlash mumkin deb hisoblaydi. Keyinchalik, u jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan omillarni tasniflab, 16 guruhga ajratadi *(masalan, metereologik, geografik, iqtisodiy, irqiy va boshq.)*.

Ch. Lombrozo tug'ma jinoyatchilardagi jinoyatchilikning oldini olish ularni bir umrga jamiyatdan ajratish yoki jismonan yo'q qilib yuborishdan iborat, deb hisoblaydi. Uning bu nazariyasi keyinchalik fashizm davrida davlat siyosatiga aylandi. Albatta, tug'ma jinoyatchilar to'g'risidagi nazariyaning birinchi asoschisi Ch. Lombrozo emas edi. Biz yuqorida ko'rsatgandek, frenolog F.Y. Gall tug'ma jinoyatchilar haqida bayon qilgan edi. Ammo uning tug'ma jinoyatchilar haqidagi nazariyasi keng tarqalmagan.

Keyinchalik Ch. Lombrozo jinoyatchilikning ijtimoiy sabablari, obyektiv muhit sharoiti ta'sirida jinoyatchiga aylanadigan shaxslar guruhi haqida aytgan bo'lsa-da, lekin tug'ma jinoyatchilar mavjudligi fikridan voz kechmadi.

Ch. Lombrozoning nazariyasi asosida jinoyatchilik va uning sabablari to'g'risida turli oqimlar paydo bo'la boshlaydi. Hozirgi kunda ham jinoyat sodir etishga moyillik tug'ma xususiyat ekanligining tarafdorlari oz emas. Mazkur nazariya tarafdorlarining fikricha, ko'pgina ruhiy xususiyatlar avloddan-avlodga o'tadi. Bu, o'z navbatida, jinoyat sodir etishga moyillikka ham tegishlidir, deb hisoblaydilar.

Ushbu yo‘nalishning kriminologik nazariyalarida jinoiy xulq-atvor insonni jinoyatga undovchi biologik xususiyatlar bilan bog‘liq deb fikr yuritilgan. Bu borada jinoyatchining jinoyat sodir etishga biologik moyilligi mavjud va ushbu xususiyatni insonda yo‘q qilib bo‘lmaydi, degan fikrlar mavjud bo‘lgan. Ushbu yo‘nalishdagi bir qator mualliflar jinoyatchilarga nisbatan turli ko‘rinishdagi choralarni qo‘llash kerak deb tavsiyalar ishlab chiqishgan.

Shulardan biri kastratsiya (bir umrga ozodlikdan mahrum qilish, hayotdan mahrum qilish kabi) jazo turlarini qo‘llashdir.

Bunda asos qilib sodir etilgan g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar emas, balki uni sodir etishga bo‘lgan moyillik, ya’ni biologik moyillik inobatga olingan. Biroq mazkur yo‘nalish tarafdorlarining hammasi ham bunday og‘ir choralarning tarafdorlari bo‘lmagan, aksincha “agar shaxs biologik jihatdan shunday moyillikka ega bo‘lsa, unda jamiyat ham ularga og‘ir kasalga chalinganlar sifatida qarashi kerak”, deb hisoblashgan.

*Ikkinchi yo‘nalish,* sotsiologik yo‘nalishga fransiyalik Ogyust Kont (1798–1857) asos solgan. Bu yo‘nalish tarafdorlarining g‘oyaviy asoslari sotsiologiya fanidan kelib chiqqan. Yo‘nalish namoyandalari tariqasida F.List (Germaniya), E.Ferri (Italiya), M.V.Duxovnыy, I.Ya.Foniskiy, S.V.Pozdnishev (Rossiya)larni keltirish mumkin.

Ushbu olimlar ma’lum darajada biologik faktorlarni rad etmasalar-da, jinoiy xatti-harakatlar ijtimoiy jihatdan asoslangan deb hisoblab, o‘z g‘oyalarini ilgari suradilar va XIX asrning oxirlarida sotsiologik tadqiqotlar usullari qo‘llanila boshlangan.

Shundan so‘ng ko‘p davlatlardagi jinoyatlar statistikasi va jinoyatchi shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoiy jazolar tizimi, shuningdek, jinoyatchi shaxslar kontingenti ilmiy jihatdan o‘rganilib, tahlil qilina boshlangan. Shular asosida jinoyatchilik sabablari bo‘yicha ro‘yxat tuzilib, ularning mohiyatini o‘rganishga harakat qilingan. O‘tkazilgan bir tadqiqot keyingisi uchun jinoyatchilikning bir qancha omillarini aniqlashga turtki bergan va imkoniyat yaratgan, bu avvalo sotsiologik yo‘nalishlarda amalga oshirilgan.

Jinoiy xulq-atvorning aniq sotsiologik konsepsiyalari paydo bo‘lib, ularning ayrimlari sotsiologik (ijtimoiy) nazariyaga asoslangan bo‘lsa, ba’zilari sotsiologik (ijtimoiy) psixologiyaga asoslangan.

Bugungi kundagi kriminologiyada esa jinoyatchilikning sabablari sifatida jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy va boshqa bir qator sohalaridagi kamchiliklar inobatga olinadi. Bu yondashuv Ikkinchi jahon urushidan keyin avj olib, jinoyatchilik, avvalo, qashshoqlik, ishsizlik, ayrim ijtimoiy guruhlar orasidagi tengsizlik kabi omillar natijasida kelib chiqadi, deb xulosa qilingan.

1884-yilda italiyalik kriminolog Rafael Garofaloning “Kriminologiya” [7] nomli kitobi chop etilgan. Bu kitob uch qismdan iborat bo‘lib, unda jinoyatchilik, jinoyatchi va jazo masalalari yoritilgan.

R. Garofalo o‘z tadqiqotlarida kambag‘allik, qashshoqlik bilan jinoyatchilik o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligini ta’kidlaydi.

Avstriyalik kriminalist va kriminolog Gans Gross (1847–1915) 1893 yilda nashr ettirgan “Sud tergovchilari uchun qo‘llanma” asarida politsiya va tergov organlarining jinoyatchilik haqidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarini tahlil qilib, kriminologiya va kriminalistika fanlarining uzviyligini qayd etadi.

Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi kriminologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan davrda kriminologik ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi turli xil fikrlar, qarashlar edi, xolos.

Ilm-fanning rivojlanib borishi bilan kriminologik ta’limotlar ham rivojlana bordi. Qadimdan hozirgi vaqtgacha ko‘plab olimlar kriminologik ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq muammolar ustida tadqiqotlar olib bordilar va kriminologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jinoyatchilik bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish hamda jinoyatlar profilaktikasining samarali choralarini ishlab chiqish masalasi insoniyatning eng ilg‘or qismini, ayniqsa, ijtimoiy-tabiiy fanlar turli sohalarining namoyandalari *(siyosatchilar, faylasuflar, ruhiyatshunoslar, tibbiyot olimlari, huquqshunoslar va boshq.)*ni har doim qiziqtirib, tashvishga solib kelgan [3].

Shuning uchun ham taraqqiyotning har bir davrida jinoyatlarning oldini olish choralari jamiyatdagi mavjud fan-texnika yutuqlari asosida qo‘llanilganligini va zarur ilmiy-nazariy asoslarga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Jinoyatchilik bilan bog‘liq mavzularda badiiy asar yaratgan yozuvchilarning asarlaridagi jinoyatchilik, jinoyatchining shaxsi va ichki kechinmalari bayon etilgan badiiy lavhalar ham jamiyatda jinoyatchilik bilan bog‘liq muammolar xususida zarur xulosalar shakllanishiga yordam berib kelgan.

Jinoyatchilikni ilmiy bilishga bo‘lgan qiziqish va shu yo‘nalishdagi g‘oyalarga sodiqlik, jinoyatchilikka taalluqli qaysi muammoni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘lmasin, kriminologiya fanini nazariy jihatdan to‘ldirib bordi. Shu bilan birga, jinoyatchilikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy tadqiqot obyektiga aylanishi unga qarshi kurash amaliyotini takomillashtirishga imkon yaratdi.

Jinoyatchilik bilan bog‘liq muammolarga har bir olim o‘z mutaxassisligi nuqtai nazaridan yondashgan holda jinoyatchilik, uning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar, jinoyatchi shaxsi, jabrlanuvchi shaxsi hamda jinoyatlar profilaktikasi to‘g‘risida o‘z nazariyalarini yaratganlar. Bu esa, tabiiyki, jinoyatchilikni ilmiy bilishda zarur manba bo‘lib xizmat qilgan. Olimlarning fikrlari hozirgi kunda ham jinoyatchilik muammosini o‘rganishda o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Buni mutafakkirlarning quyidagi fikrlari misolida ham ko‘rish mumkin:

- “Jinoyatga bahona bo‘lsa bas” (yunon faylasufi Aristotel (mil. av. 384/383–322/321);
- “Jazo bermaslik jinoyatga katta rag‘batdir” (rim faylasufi Siseron Mark Tuliy (mil.av. 106–43);
- “To‘g‘ri yo‘lga qadam qo‘yishning birinchi sharti aybga iqror bo‘lishdir” (rim yozuvchisi Seneka Luyiy Anney (mil. av. taxm. 4–65);
- “Nima uchun odam o‘z aybiga iqror bo‘lmaydi? Chunki u hamon o‘sha ayblari sirtmog‘idadir. Bu xuddi uyqudagi odamdan tushini gapirib berishni talab qilganday gap” (Seneka Luyiy Anney);
- “Jinoyatchi ba’zan jazodan qutulib qolishi mumkin, ammo jazo dahshatidan qutula olmaydi” (Seneka Luyiy Anney);
- “Kimki jinoyatning oldini olishga imkoni bo‘la turib, uni qilmasa, u jinoyatni rag‘batlantiradi” (Seneka Luyiy Anney);
- “Bir jinoyat ikkinchisiga yo‘l ochadi” (Seneka Luyiy Anney);
- “Yaramas odamlar jazodan qo‘rqqanlaridan, yaxshilar esa ezgulikka mehr-u oqibatlari tufayli yomon ishlardan o‘zlarini saqlaydilar” (rim shoiri Yuvenal Desim Yuniy (taxm. 60–127);
- “O‘z aybiga iqror bo‘lmaslik – aybni ko‘paytirish demak” (rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoy (1828–1910);
- “Fuqarolarning o‘zaro bir-birini nazorat qilishi jinoyatni bartaraf etadi” (fransuz yozuvchisi Onore de Balzak (1799– 1850);
- “O‘g‘irlashga imkon yaratish o‘g‘rini tug‘diradi” (ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561–1626);

• Qing‘irliklar bilan oshna tutingan odam, o‘sha qing‘irliklarning asiridir" (Amerika yozuvchisi Teodor Drayzer (1871–1945).

Insoniyat tarixida XIX asr turli fan sohalarida katta kashfiyotlar asri hisoblanadi. Shu bilan birga, yirik ishlab chiqarishning shakllanishi ilg‘or mamlakatlarda aholi ko‘pchilik qismining ishlab chiqarish sanoatiga jalb qilinishi bilan bog‘liqdir. Yangi ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi insoniyat uchun juda katta foyda keltirishi bilan birga, ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlarni ham chuqurlashtirib yubordi. Bu, o‘z navbatida, jinoyatchilikning ham o‘sib ketishiga olib keldi. Jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi jamiyatning muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Ijtimoiy munosabatlarning beqiyos darajada murakkablashib borishi va shunga muvofiq jinoyatchilikning ko‘payib borishi bu salbiy ijtimoiy hodisaga qarshi kurashni kuchaytirishni ham taqozo qilar edi. Bu esa jinoyatchilikni har tomonlama va chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu tufayli XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida jinoyatchilikni o‘rganish sohasida ko‘plab tadqiqotlar, jumladan, falsafiy, siyosiy, huquqiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, antropologik, statistik, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlar ham olib borila boshlandi.

Natijada, XIX asrning oxirida kriminologiya mustaqil fan tarmog‘i sifatida shakllandi. XX asrda esa bu fanning tadqiqot obyektiga taalluqli tizim yaratildi.

Dastlab, bu fan jinoyat antropologiyasi, jinoyat sotsiologiyasi deb aytilgan bo‘lsa-da, keyinchalik kriminologiya mustaqil fan tarmog‘i sifatida rivojlanib bordi.

O‘ylaymizki, kriminologik ta’limotlar doirasida jinoyatlar profilaktikasiga oid samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar yaratish muhimdir, chunki kriminologik ta’limotlar ilmiy-nazariy jihatdan boyitib borilmasa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda zarur vazifalarni bajara olmaydigan, rivojlanishdan to‘xtab qolgan fanga aylanib qoladi.

Bugungi kunda kriminologiya fani jinoyatchilikka qarshi kurashishni ta’minlashda ilmiy-nazariy tavsiyalar manbai bo‘lib qolmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur fan davr talabiga ko‘ra o‘zining yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda.

Binobarin, kriminologiya fan sifatida vujudga kelgan davrdan buyon o‘tgan vaqt ichida jamiyat hayotida nafaqat ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, balki shu bilan bog‘liq holda, kishilarning dunyoqarashi, ongida ham yangicha fikrlashlar yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. Tabiiyki, bu holat kriminologiya faniga ham davr talabi asosida yondashishni taqozo etmoqda.

Bu esa kriminologlar tomonidan jamiyat uchun yot bo‘lgan qilmish (jinoyat)ning tor ma’nodagi huquqiy tushuncha emasligi va unga ijtimoiy hamda psixologik tushuncha sifatida ham qarash e’tirof etilganligini ko‘rsatadi. Bu holat insonning qilmishiga yangi ilmiy nuqtai nazardan yondashish omilini yuzaga keltirdi hamda jinoyatchilikning huquqiy jihatdan belgilangan chegaradan chetga chiquvchi sabab va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar jinoyatchilikka qarshi kurashdagi asosiy yo‘nalish ekanligi va umuman, jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi bu yo‘nalishlarning murakkabligi, shu bilan birga, xilma-xil bo‘lishini isbotlash kabi muammolarga yangicha yondashishga e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda kriminologiya fanining jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotidagi ahamiyati tobora oshib, fanning ilmiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan ilg‘or tajribalar jinoyatchilikka qarshi kurash borasida muhim qarorlarga kelishga imkon yaratmoqda.

So‘nggi yillarda kriminologiya sohasi plyuralistik nuqtai nazardan rivojlanib, ilmiy tadqiqotlar muayyan muammo va yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashdi. Bu esa ilmiy xulosalarning amaliy qiymatini oshirmoqda, profilaktika tizimini isloh qilish va uni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.





Hozirgi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti jinoyatchilikni nazariy jihatdan tubdan o‘rganish orqali ilmiy tashxis qo‘yish yanada dolzarb ahamiyat kasb etgani bois umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari asosiy o‘ringa qo‘yilayotgan bugungi davrda kriminologiyaning muhim muammosi islohotlar yo‘liga to‘siq bo‘layotgan salbiy hodisalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, bu hodisalar samarasi o‘laroq, kelajakda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini prognoz qilib, jinoyatchilikka qarshi samarali choralar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin jinoyatchilikning oldini olish sohasida kriminologik g‘oyalar tizimli ravishda rivojlandi va bosqichma-bosqich takomillashdi. Ilmiy qarashlar avvalo amaliyotdagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ular nazariy jihatdan boyib, milliy kriminologiya maktabining shakllanishiga olib keldi. Jinoyatchilikning sabablari, shart-sharoitlari, xavf omillari, viktimologik omillar va huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini tahlil qilish borasida yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar, davlat boshqaruvi tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalari jadal sur’atlar bilan kirib kelayotgan bir paytda zamonaviy tahdidlardan himoya qilishda kriminologik tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan bir qatorda raqamli jinoiy tahdid va xavotirlar ham bor. Shu munosabat bilan kriminologiya fani doirasida "Raqamli kriminologiya", "Jinoyatchilikni prognoz qilishda sun’iy intellektning roli", "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda sun’iy intellektning o‘rni" va "Kriminologik faoliyatga sun’iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari" kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilishiga jiddiy ahamiyat qaratilishi zarur.

**Foydalanilgan manbalar / References**


1. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G, Ismailov I. va boshq. Kriminologiya: Darslik – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 318 b.
2. Zaripov Z.S., Pulatov Yu.S.,. Avanesov G.A va boshq. Kriminologiya: Darslik / prof. Z.S. Zaripov tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 474 b.
3. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Yu. Kriminologiya fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 57 b.
4. Гегел Г.Ф. Работы разных лет: В 2-х т. – М., 1973. – Т. 2. – С. 107.
5. Чезаре Ломброзо. «Преступный человек». хттпс.www.боокс.гоогие.со.уз.
6. Кетле А. Человек и развитие его способностей. – СПб., 1865. – С. 7-8.
7. Гарофало, Рафаеле. Ин: Википедия [Интернет]. 2023 [ситед 2024 Апр 3]. Аваилабле фром.
8. https://ru.wikipedia.org/wiki/Platon.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Arastu.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/SharlLuide_Monteskye.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bekkaria_Chezare;
12. https://ru.wikipedia.org/wiki /Marat,_Jan-Pol;
13. https://uk.wikipedia.org/wiki /Adolf_Ketle;
14. https://ru.wikipedia.org/wiki /Gall,FransYozef.

# JINOYATCHILIKNING ENVAYRONMENTAL DETERMINANTLARI



**_Muxitdinov Faxritdin Muxitdinovich_**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori*

*профессор кафедры Уголовного права Университета общественной безопасности Республики Узбекистан*

*Professor of the Department of Criminal Law, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan*

***Annotatsiya.*** *Maqolada jinoyatchilikning envayronmental determinantlari, ya'ni atrof-muhit omillarining jinoyat sodir etishga ta'siri masalalari tahlil qilingan. Muallif XX asrning 70-80 yillaridan boshlab rivojlangan "vaziyatlar kriminologiyasi" nazariyasining shakllanishini, uning envayronmental kriminologiyaga aylanish jarayonini ko'rib chiqadi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda birinchi marta mamlakatimiz ilmiy maydonida envayronmental kriminologiyaning asosiy tamoyillari (hududiylik, tabiiy kuzatish, kirishni boshqarish, tashqi ogohlantirish va fazoviy ta'sir prinsiplari) tahlil qilingan hamda ularning O'zbekiston Respublikasining huquqiy siyosatiga, xususan shaharsozlik va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *envayronmental kriminologiya, jinoyatchilikning determinantlari, vaziyatlar kriminologiyasi, CPTED, hududiylik prinsipi, tabiiy kuzatish, kirishni boshqarish, shaharsozlik, urbanistik omillar, xavfsiz shahar.*

*ENVIRONMENTAL DETERMINANTS OF CRIME*

***Abstract.*** *The article analyzes environmental determinants of crime, namely the influence of environmental factors on crime commission. The author examines the formation of "situational criminology" theory that developed since the 1970s-80s and its transformation into environmental criminology. The scientific novelty of the article lies in the fact that it analyzes for the first time in our country the main principles of environmental criminology (territoriality, natural surveillance, access control, external warning, and spatial impact principle) and demonstrates possibilities of their application in the legal policy of the Republic of Uzbekistan, particularly in urban planning and crime prevention activities.*

***Keywords:*** *environmental criminology, crime determinants, situational criminology, CPTED, territoriality principle, natural surveillance, access control, urban planning, urbanistic factors, safe city.*

XX asrning 70-yillaridan boshlab jinoyatchilikning sabablariga bo'lgan qarashlar bir muncha o'zgarishlarga yuz tutdi. Unda jinoyatchilikning chuqur va murakkab nazariy tavsiyalaridan, oddiyroq – jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarga tushunarliroq va undagi talablarni amalga oshirish imkonini beruvchi tavsiyalar ustuvorlik qila boshladi. Mazkur ilmiy-nazariy tavsiyalarning asosini "jinoyatchilik – bu vaziyatlarning oqibati" degan aqida tashkil etdi. Ana shu davrdan boshlab, agar jinoyatlarni vujudga keltiruvchi vaziyatlar bartaraf etiladigan bo'lsa, jinoyatchilikning darajasini pasaytirib borishga erishish mumkin" [4] degan qarash ustuvorlik kasb eta boshladi.

Shu nuqtai nazarda qaraydigan bo'lsak, jinoyatni sodir etilishiga imkoni beruvchi *vaziyat* – uning qachon va qanday sodir etilganligini aks ettiruvchi *holat* emas, balki endi jinoyatning *sababi* sifatida talqin qilinadi. Bunday qarashlarning, ya'ni "*vaziyatlar kriminologiyasi*"ning asosida aynan muayyan makonda harakatlanuvchi insonlar va boshqa obyektlar o'z harakatlari bilan qanday qilib jinoyat sodir etish uchun imkoniyatlar yaratadilar, degan fikrlarni anglashimiz mumkin. Va, "*...insonlar jinoyatlarni sodir etish uchun rejalar tuzdilar yoki jinoyatni sodir etish uchun vaziyatlar yaratadilar. Jinoyat faqat jinoyatchining yashash, harakatlanish makonida duch keluvchi jabrlanuvchiga yoki mavjud bo'lgan muayyan obyektga nisbatan sodir etiladi*", [3] degan g'oya ushbu nazariyaning poydevoriga aylandi.

Shu asosda mazkur nazariya o'z predmetining quyidagi yo'nalishlarini belgilab olganligini ko'rishimiz mumkin, bular:

– *shaxsiy hayotiy makon* (bu insonlar o'z hayotlarining asosiy vaqtini o'tkazadigan manzil-makon, ya'ni xonadon, ish, o'qish va dam olish joylari va b.);

– *shaxsiy hayotiy yo'l* (bu bir makondan boshqa makonga olib boruvchi hayotiy yo'l hisoblanib, jinoyatchi aynan o'z manzil-makonida jinoyat sodir etish imkoniyatini qidiradi hamda o'zining hayotiy yo'lida jinoyat sodir etadi);

– *hayotiy chegaralar* (inson hayotining chegarasi mavjud (manzil-makon va hayotiy yo'l nuqtai nazaridan) va u boshqa insonlarning, obyektlarning unga "yot" manzil-makonidan ajratib turadi, jinoyatlar aynan shu chegaralar atrofida, hattoki jinoyatchi va jabrlanuvchi bir biri bilan tanish bo'lmagan taqdirda ham sodir etiladi) [4].

Vaziyatlar kriminologiyasida shakllangan yana bir fikrga, xususan ingliz olimi Lourens Koen fikriga ko'ra, "jinoyat muayyan manzil-makonda va bir vaqt oralig'ida sodir etilishi uchun uchta elementning uyg'unligi zarur, bular: 1) *motivga ega jinoyatchi*; 2) *munosib maqsad* va 3) *huquqbuzarlikdan iqtidorli himoya qiluvchining mavjud emasligi*. Shu bois, olimning fikricha, aynan vaziyatlarni nazorat qilish jinoyatchilik darajasini pasaytirish uchun muhim rol o'ynaydi, zero jamiyatda jinoiy motivga ega shaxslar va munosib maqsadlar talaygina [10].

Darhaqiqat, agar kriminologik tadqiqotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak, shaxsga, mulkka qarshi va boshqa jinoyat turlarining ko'pincha jinoyatchi yoki jabrlanuvchining asosiy hayotiy vaqti o'tadigan manzillarda hamda ularning hayotiy yo'nalishlarida sodir etilishi holatini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi sifatida jinoyatchi va jabrlanuvchining bir-biri bilan tanish ekanligi yoki ularning hayotiy yo'nalishlari bir manzil-makonda tutash bo'lishi bilan izohlash mumkin. Demak, ta'kidlangan nazariy qarashlar taqdim etadigan muhim xulosa shuki, u insonlar harakatlanadigan manzil-makon vujudga keltiradigan vaziyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni amalga oshirish imkoningining kengayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur ilmiy qarashlar jinoyatlar ko'p sodir etiladigan hududlar geografiyasini, undagi "xavfli" manzillar maydonini aniqlash imkonini ham taqdim etadi. Bu esa, jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni o'rganish va ularni ilmiy, texnik va texnologik vositalar, xususan shaharsozlik, ya'ni arxitekturasini loyihalash ishlarini amalga oshirishda aynan kriminogen vaziyatni e'tiborga olish kabi ko'nikmalar yordamida bartaraf etish uchun juda muhim ilmiy-amaliy manba bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, kriminologiyadagi qayd etilgan vaziyatlar nazariyasi keyinchalik mazkur ilmiy tadqiqot yo'nalishining rivojlanishi asnosida umumlashgan bir kriminologik ta'limotga – envayronmyental kriminologiyaga birlashib, uning tarmog'iga aylandi.

Shunday qilib, envayronmental yoki ekologik kriminologiya – kriminologiya fanining insonga kriminogen ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek uning xatti-harakatlaridagi ongli xulq-atvor darajasini

tahlil qiladigan atrofdagi va shahar muhitining elementlarini aniqlaydigan ilmiy-nazariy yo‘nalishi. An’anaviy kriminologik nazariyalardan farqli o‘laroq, *envayronmental kriminologiya* jinoyatning asosiy sabablarini aniqlashga yoki shaxsning nima uchun jinoyatchiga aylanishini tushuntirishga harakat qilmaydi. U o‘zining tadqiqot imkoniyatlarini *jinoiy motivatsiya shakllarini, jinoyat sodir etilishini osonlashtiradigan shart-sharoitlarni tahlil qilishga, jinoyat sodir etish vaqtida jabrlanuvchilar uchun mavjud bo‘lgan xavfsizlik va himoya imkoniyatlarini o‘rganishga va jinoyat sodir etilgan atrof-muhitni o‘rganishga qaratadi* [8].

Shuningdek, envayronmental kriminologiya o‘zining tadqiqot predmetini jinoyat sodir bo‘lgan *vaqt va joy* bilan chegaralagan holda, u huquqbuzarning niyatlariga to‘sqinlik qilish yoki, aksincha uning harakatlarini yengillashtirishga qodir bo‘lgan ushbu omillar bilan bog‘liq *umumiy xulq-atvor shakllarini va atrof-muhit xususiyatlarini* aniqlashga qaratadi. Demak envayronmental kriminologiya jinoyatchilikni tahlil qilishda, avvalo, jinoyat sodir etilgan vaziyatga nisbatan munosabatda bo‘lishga oid yondashuv bilan uzviy bog‘liq tushunchadir.

Shunday ekan, envayronmental kriminologiyaning o‘ziga xos xususiyati bevosita jinoyat sodir etilish va uning oqibatida qurbon bo‘lish holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi atrof-muhitning xususiyatlari bilan bog‘liq holda, shaxslar va muayyan ijtimoiy guruhlarning faoliyatini, harakatlarini muayyan makonda va vaqt oralig‘ida amalga oshirish holatini o‘rganishni ham nazarda tutadi. Shu bois jinoyatchilikni envayronmental tahlilida atrof-muhit hamda vaqt omillari asosiy o‘ringa egadir.

Kriminologiyada envayronmental yondashuv ilk bor XX asrning 80-yillarida Pol va Patrisiya Brantingem tomonidan jinoiy faoliyatga ta’sir etuvchi envayronmental omillarni tahlil qilishda qo‘llanilgan edi. “Envayronmental” iborasi inglizcha: “*environment”* so‘zidan olingan bo‘lib, *“atrofni o‘rab turuvchi muhit”* ma’nosini anglatadi. Shu nomdagi tadqiqot modeliga olimlar asosan: *makon (geografiya), vaqt, qonun, huquqbuzar va jabrlanuvchining shaxsi* kabi elementlarni kiritadilar [5]. Bunga ko‘ra, qayd etilgan elementlarning uyg‘unligi aniq jinoyat sodir etish mexanizmining muhim omillari hisoblanadi. Unda aniq jinoyat sodir etuvchi shaxsning va jabrlanuvchining ishtirokida shakllangan vaziyatdagi deviant xulq-atvori aniq namoyon bo‘ladi, bundan jabrlanuvchi yaratgan va uning atrof-muhitida vujudga kelgan vaziyat shaxsning jinoyat sodir etish motivlarini uyg‘otishi hamda undan foydalanib jinoyatning sodir etilishi jarayonini tushunish mumkin.

Shu bilan birga, jinoyat sodir bo‘lgan makon va vaqt asosida u yerda mavjud bo‘lgan holatni o‘rganishda o‘sha makonda va o‘sha vaqtda mavjud obyektlardan foydalanish tartibi, transport va harakat tizimining xususiyatlari, ko‘chaning dizayn xususiyatlari, jinoyatdan jabrlangan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning kundalik faoliyati va harakatlari kabi omillar ham e’tiborli hisoblanadi.

P. Brantingemning yozishicha, jinoyatchilar doimo va asosan o‘zlarining kundalik harakatlanish yo‘nalishlariga taalluqli hududlarda – bozorlar, rastalar, savdo markazlari, yashash, o‘qish va ish joylari, ko‘ngilochar maskanlar kabi “harakatlanish punkti”da jabrlanuvchilarni izlaydilar. Bunda, ular o‘z “hududlari”da jismoniy, ruhiy va simvolik jihatdan o‘zlarini kemtik his qiladilar. Boshqa tomondan, ayrim “harakatlanish punkt”lari jinoyat sodir etish attraktoriga yoxud unga imkon yaratuvchi, ya’ni qilmishning generatori bo‘lishi mumkin. Jinoiy faoliyatning attraktorlari (ya’ni jinoyatni sodir etishda qatnashuvchi subyekt va obyektlar – *F.M.*) – bu jinoyatchi o‘z motiv va maqsadlarini amalga oshiradigan hamda unga imkon yaratadigan mavjud shart-sharoitlardir, bularga olim: fohishaxona hududlari, pivoxonalar, spirtli ichimliklar savdosi bilan shug‘ullanadigan muassasa va maskanlarni kiritadi. Jinoyatning generatorlari – bu insonlar to‘planadigan, ammo jinoyat sodir etish uchun to‘planmaydigan hamda jinoyatchi aynan jinoyat sodir etish maqsadida hozir bo‘lmagan, lekin qulay vaziyat vujudga kelganda jinoyatni sodir etadigan joylar, ya’ni savdo markazlari, kinoteatr, restoran va shu kabi maskanlar kiradi [9].

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mamlakatimizning turli hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlarining rivojlanishi, shuningdek sanoatning o‘sishi, hududiy rivojlanish, ularning arxitekturasi va shahar muhitining o‘zgarishi fuqarolarimiz ijtimoiy hayotining ijobiy tarafga o‘zgartirish bilan birga, jinoyatchilik holatining ham o‘zgarishiga imkon yaratmoqda. Jumladan, shaharlashuv jarayonlarining kuchayib borishi, infratuzilmaviy o‘zgarishlarning jadallashuvi, yangi shaharlar va hududlardagi o‘ziga xos submadaniy qarashlarning shakllanib borishiga yo‘l ochmoqda, bu esa, jinoyatlarning sifat jihatdan murakkablashuviga, ularning determinant xususiyatlarini, shubhasiz shunga mos ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati usullarini ham murakkablashuviga sabab bo‘lmoqda.

Agar statistik ma’lumotlarga murojaat etadigan bo‘lsak, mamlakatimizda ro‘yxatga olingan jinoyatlarning 62,7 foizi shaharlarda va tuman markazlarida sodir etilmoqda. Ana shu jinoyatlarning 78,6 foizi esa yirik shaharlarga, ya’ni Toshkent shahri va viloyatlar markazlariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim[1]. Negaki, tadqiqotchilarning fikricha, aynan yashash hududining yuqorida ta’kidlangan infratuzilmaviy o‘ziga xos jihatlari, o‘sha hududda istiqomat qiluvchi insonlarning xarakteri va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday infratuzilmaviy tashqi omillarning inson motivatsiyasiga va qarorlar qabul qilish tabiatiga ta’sir etish xususiyatlari bevosita katta shaharlar aholisining ruhiy-psixologik va mental tavsiflarida bir muncha yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, qishloq aholisiga qaraganda shaharda istiqomat qiluvchi insonlar ushbu makonda mavjud ko‘ptarmoqli kommunikativ munosabatlar tufayli ancha emotsional, hissiy jihatdan beqaror, bir muncha asabiy va tajovuzkor hisoblanib, ushbu alomatlar ularni tez-tez ziddiyatli vaziyatlarga yetaklaydi hamda ularning harakatlari ko‘pincha jinoiy qilmishga aylanishiga olib keladi [12].

Shuningdek, envayronmental kriminologiya tadqiqotlari Yevropa mamlakatlari hamda AQSH jinoyat huquqi doktrinasida jiddiy o‘rin egallaydi. Masalan, AQSHda 1970-yillarda arxitektor Oskar Nyuman “qo‘riqlanadigan makon” konsepsiyasini shakllantirib, u binolarning dizayni va shahar muhitining jinoyatchilikka bilvosita, ayrim hollarda bevosita ta’sirini ilmiy asoslashga uringan edi. Shu bilan birga, O. Nyuman Nyu-Yorkdagi uy-joy majmualarining holatini, ularning arxitektura-loyiha xususiyatlarini tahlil qilgan holda, aynan ochiq maydonlar, ko‘chalarning yoritish uskunalari bilan ta’minlanganligi hamda aholining kuzatuv-nazorat imkoniyatlarining mavjud bo‘lishi jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada pasaytirishi mumkinligini asoslashga harakat qildi. Uning tadqiqotlari shaharsozlik amaliyotiga tub o‘zgartirishlar kiritdi, oqibatida jinoyatchilik darajasini kamaytirishga erishildi.

Kanadalik olimlar Pol va Patrisiya Brantingemning “jinoyat namunalari nazariyasi”dan tashqari, Britaniyada Ronald Klark “vaziyatlar bilan bog‘liq (situatsiyaviy) jinoyatchilikning oldini olish” konsepsiyasini ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. R. Klarkning g‘oyasi L. Koenning qarashlariga yaqin bo‘lsa-da, ammo uning qarashlarida o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin.

R. Klark fikriga ko‘ra, jinoyatning yuz berishi uchun uchta omil bir vaqtda va bir makonda jamlanishi zarur, bular: a) *motivatsiyalangan jinoyatchi,* b) *unga mos jabrlanuvchi* hamda v) *tashqi nazoratning yo‘qligi* [11]. Ana shu metodologik asosda o‘tgan asrning 90-yillarida R. Klark jinoyatchilikning oldini olishning “yigirma besh usuli” texnikasini ishlab chiqdi hamda ular Buyuk

[1] *Izoh: O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yil holatini aks ettiruvchi statistik ma’lumotlar to‘plamidan olingan. – C.231.*

Britaniya, Niderlandiya va Skandinaviya mamlakatlarida bugungi kunda ham muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

R. Klark mazkur usullarni asosan besh asosiy toifaga ajratdi va bular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: *1) jinoyatni sodir etishni qiyinlashtiruvchi sharoitlarni yaratish,* bunga muallif, bizning tushunchamizda maxsus profilaktik choralarni, jumladan: darvozalarga qo‘shimcha qulflar, zirhli oynalar, xavfsizlik eshiklarini o‘rnatish, elektron ruxsatnomalar tizimini, qorovul xizmatini joriy etish, avtomobillarga immobilayzer o‘rnatish, spirtli ichimlik mahsulotlar sotuvini cheklash, sovuq va o‘qotar qurollar muomalasini cheklash va boshqalarni kiritdi; 2) *vaziyat bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish*, bularga: ko‘chalarni yoritishni yaxshilash, aholi tomonidan manzil-makonni vizual nazorat qilish imkoniyatlarini yaratish, qo‘riqchilar sonini ko‘paytirish, videokuzatuv tizimlarini joriy etish va boshqalar; 3) *jinoyatdan olinadigan foydani pasaytirish*, bularga: bozorlar va katta savdo markazlaridagi o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini kamaytirish maqsadida maxsus choralarni ko‘rish, qarovsiz joylardagi savdolarni to‘xtatish, avtomobillardan qimmatbaho buyumlarni ko‘rinmaydigan joyga yashirish, telefon va kompyuterlarga IMEI raqamlarini joylash, qurol-yarog‘dan foydalanuvchi shaxsini tezkor identifikatsiya qilish tizimini joriy etish va shu kabilar; 4) *jinoyatga undovchi omillarni bartaraf etish*, bularga: xizmat ko‘rsatish muassasalarida navbatlarni samarali boshqarish, salqinlashtirish tizimlarini ishga solish, nizolarning oldini olish maqsadida restoranlar, barlar va klublarda professional xavfsizlik xizmatidan foydalanish, bino dizayni va inteynerlarini neytral ranglarda rasmiylashtirish, maktablarda billingga qarshi alohida dasturlarni ishlab chiqish, pornografik materiallarni cheklash va boshqalar; 5) *jinoyatni oqlashga yo‘l qo‘ymaslik choralari*, bularga: xulq-atvor qoidalari haqida aniq axborotlarni tarqatish, yo‘l harakati ishtirokchilariga harakatlanish qoidalarini tushuntirish, spirtli ichimliklar va giyohvandlik moddalarini iste’mol qilishdan voz kechish va qutilishga ko‘mak berish, mulkning muqaddas ekanligini tushuntirish kabi choralar kiritiladi.

R. Klark yondashuvining o‘ziga xosligi shundan iborat ediki, u avvalambor insonlarning ratsional fikrlash va shu asosda harakatlanish nazariyasiga tayangan. Bu nazariyaga muvofiq, “*harakatni amalga oshirish uchun jinoyatchilar ratsional qaror qabul qiladilar – agar jinoyat sodir etish juda murakkab va mashaqqatli, ba’zan xavfli va kam foydali bo‘lsa, ular ko‘pincha bunday maqsaddan voz kechadilar*”. R. Klarning jinoyatchilikning oldini olish usullarini qo‘llash orqali “vaziyatlarni” bartaraf etgan holda, hattoki ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o‘zgartirmasdan ham, tez samaraga erishish mumkinligini G‘arb mamlakatlari amaliyoti tasdiqladi.

Klarkning jinoyatchilikning oldini olishga oid yondashuvi bilan deyarli bir vaqtda, aniqrog‘i 1980-yillarda AQSHda Dj. Uilson va J. Kelling tomonidan *“siniq oyna nazariyasi”* ishlab chiqildi. Bu nazariyaga muvofiq, mayda tartibsizliklarning jamiyat tomonidan e’tiborsiz qoldirilishi yoxud aholining huquqbuzarlikka nisbatan “nol” munosabati oqibatda katta jinoyatlarga olib kelishi mumkin. O‘tgan asrning 90-yillarida ushbu yondashuv asosida amalga oshirilgan profilaktik faoliyat natijasida Nyu-Yorkda shahar jinoyatchiligini yarmiga kamaytirishga erishilgan edi [12].

Yevropa Ittifoqida ham envayronmental kriminologiya 2000-yillarda alohida yo‘nalishga aylanib ulgurdi. Jumladan, Niderlandiyada “Xavfsiz arxitektura” dasturi (Police Label Safe Housing) 1996-yilda joriy etilgan bo‘lib, u qurilish loyihalarini maxsus xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish, dasturlarni sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi. Talablarga binoan loyihalashtirilayotgan binolarning tashqi qobig‘i jinoiy hujumga kamida 3 daqiqa qarshi turishi shart. Shunday dasturlarning mamlakat amaliyotiga joriy etilishi natijasida sertifikatlangan uylarda o‘g‘irlik va bosqinchilik jinoyatlari 90%ga kamaygan [16].





Germaniyada ham shahar arxitektura-qurilish faoliyatini rejalashtirishda majburiy xavfsizlik ekspertizasi joriy etilgan. Fransiyada esa 1996-yilda mamlakatning 752 maskanida amalda bo‘lgan “Urbanistik nazorat zonalari” (Zones urbaines sensibles, ZUS) dasturi joriy etilgan[2]. Ushbu dastur ijtimoiy-iqtisodiy muammoli (ishsizlik, kambag‘allik yuqori bo‘lgan) hududlarga moslashtirilgan bo‘lib, unga muvofiq jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida ham ijtimoiy, ham urbanistik arxitektura choralarini birgalikda qo‘llash orqali, Fransiyaning bir qancha shaharlarida (Leon, Tuluza va boshqalar) og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni 30-40 foizga qadar kamaytirishga erishilgan [3].

Ko‘plab mamlakatlarning jinoyatchilik bilan kurashda envayronmental kriminologiya tavsiyalarini qo‘llash amaliyotini tadqiq etish asosida ushbu nazariyaning mazmunini tushunish uchun muhim prinsiplarni shakllantirish imkonini berdi, bular: 1) *hududiylik prinsipi* (bu prinsip: shahar atrof-muhitiga, alohida bino va inshootlarga, uning atrofidagi hududga va mahalliy aholiga – o‘z maqsadi, an’anaviy qadriyati, individualligi, foydaliligini aniqlash, o‘zlariga tegishli bo‘lgan mulk uchun mas’uliyatni his qilish imkonini yaratadigan o‘ziga xos xususiyat va fazilatlarni taqdim etish tushunchasidan iborat); 2) *tabiiy kuzatish prinsipi*, unga ko‘ra kuzatish potensial jinoyatchining sezadigan xavfini oshiradi, u jamoat joyida jinoyat sodir etishga qaror qilganda buni hisobga oladi (mazkur prinsip kunning qorong‘i vaqtida yoritishni yaxshilash, shaharsozlikda yopiq (ya’ni kirish qiyin, uzoq bo‘lgan) hududlardan qochish, aholi foydalanishi uchun qulay bo‘lgan kuzatish uchun maxsus joylarni yaratish orqali amalga oshiriladi; 3) *kirishni boshqarish prinsipi*, bartaraf etish va cheklash uchun mo‘ljallangan jinoyatchilarning yashash joylariga kirish qobiliyati (ushbu prinsip binolarga kirishni to‘g‘ri joylashtirish va himoya qilish orqali, qat’iy umumiy va xususiy kirish joylarini ajratish, turniketlarni o‘rnatish va boshqa to‘siqlar, turli xil himoya vositalarini o‘rnatish kabi choralar orqali amalga oshiriladi); 4) *tashqi ogohlantirish prinsipi* – obod va jozibali shahar muhitini idrok etish bilan bog‘liq, bu potensial jinoyatchiga hudud nazoratda va kuzatilayotganligi, unga g‘amxo‘rlik qilinayotgani va uning egasi mavjudligi haqida ma’lumot beruvchi muhitni, mulkka ehtiyotkor bo‘lish va uning egasi tomonidan mulkning xavfsizligiga vijdonan yondashuvni nazarda tutadi; 5) *fazoviy ta’sir prinsipi* – atrof-muhitni nazarda tutib, u ekologik omillar katta ahamiyatga ega bo‘lgan holda, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish: jinoiy va ijtimoiy jihatdan ma’qullangan va fazoviy muhitning o‘zi rag‘batlantiruvchi manbani, ya’ni qonunga bo‘ysunuvchi xulq-atvorni va shaxsiy xavfsizlik darajasini kuchaytirish muhitini yaratish bilan bog‘liq [14].

Bizning fikrimizcha, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar – bu oila a'zolari (sobiq er-xotin va boshqa a'zolari) yoki yaqin qarindoshlik munosabatlariga ega shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida amalga oshiriladigan, amaldagi qonun hujjatlari, axloqiy me'yorlar va inson huquqlari talablarini buzuvchi g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik bo'lib, u jismoniy, ruhiy, jinsiy yoxud iqtisodiy zo'ravonlik shaklida namoyon bo'ladi va shaxsning shaxsiy daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatiga hamda oila institutining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur qilmish qonunchilikka muvofiq taqiqlangan hamda ma'lum bir javobgarlikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday qilmishlar oila institutining barqarorligiga, jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda davlat tomonidan huquqiy muhofaza vositalari orqali oldi olinishi lozim bo'lgan ijtimoiy xavfli holatlar sirasiga kiradi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 592-moddasi (Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik), Jinoyat kodeksining 1261-moddasi (Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik)da nazarda tutilgan qilmishlar, shuningdek, motivi, maqsadi, subyektiv va obyektiv tomonlariga ko'ra oilaviy munosabatlarga bog'liq ravishda sodir etilgan boshqa har qanday jinoyatlar kiradi.

Ushbu mavzu doirasida, avvalo oilaviy munosabatlar doirasida qanday turdagi huquqbuzarliklar kuzatilayotgani, raqamli texnologiyalarning qanday imkoniyatlar yaratayotgani va qanday cheklovlari borligi hamda olimlar tomonidan ilmiy ishlarda qayd etilgan fikrlarni ko'rib chiqamiz.

Hozirgi raqamli transformatsiya davrida zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida, jumladan oilaviy munosabatlarda ham yangi texnologik yechimlar qo'llanilmoqda.

Oila institutining barqarorligi, a'zolar o'rtasidagi sog'lom munosabatlar va huquqiy himoya darajasi mamlakat barqarorligi va ijtimoiy xavfsizlikning muhim omili hisoblanadi. Shu bois oilaviy munosabatlar doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy raqamli yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Quyida oilaviy munosabatlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar borasida ayrim tadqiqotchilarning fikrlarini havola etamiz.

R. Ismaylova oilada zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik guruhlar usulida yordam ko'rsatish haqida, psixologik yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash ishlarining maqsadi nafaqat shaxsga zo'ravonlik natijasida yuzaga kelgan psixologik jarohatni yengishga yordam berish, balki faol ijtimoiylashuviga yordam beradigan hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan ham iboratligi haqida, "O'zaro qo'llab-quvvatlash guruhlari"ni tashkil etish samarasi haqida fikr mulohazalarini bildirgan [4].

N. Gayibova oilaviy maslahatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, kommunikatsiyani diagnostika qilishda samarali hisoblangan "Oila sotsiogrammasi" metodikasi haqida, shuningdek, mamlakatimizda ham oilaga psixologik xizmat ko'rsatish masalalariga alohida yondashilib, oilaviy maslahat ishlarini ilmiy jihatdan takomillashtirish lozimligini davr taqozo etayotganligini haqida fikr bildirgan [5].

Shu kabi ko'pchilik tadqiqotchilar oilaviy munosabatlar doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda psixologik uslub va maslahat berishning roliga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi – demak raqamli xizmatlar faqat texnik vosita emas, balki psixologiya va interaktiv yordam bilan uyg'un bo'lishi lozim degan fikrni ilgari surish lozim.

Qayd etish joizki, oila doirasidagi zo'ravonlik, tahdid, majburlash yoki iqtisodiy diskriminatsiya kabi huquqbuzarliklar nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayollar, bolalar va keksalar ko'pincha jabrlanuvchi qatlamini tashkil etadi. Ming afsuski, ushbu holatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish uchun an'anaviy choralar yetarli bo'lmay qolmoqda.

Zamonaviy raqamli vositalar ushbu huquqbuzarliklarning oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Jumladan: ma'lumotlar tahlili va monitoring tizimlari: davlat organlari, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar ma'lumotlarini yagona raqamli platformada birlashtirish orqali tahdid omillarini erta aniqlash mumkin bo'ladi;

mobil ilova va onlayn xizmatlar: jabrlanuvchilar uchun anonim murojaat qilish, tez yordam chaqirish yoki psixologik maslahat olish imkonini beruvchi mobil ilovalar ("Ishonch telefoni", "112uz" va h.k.) ishlab chiqiladi;

sun'iy intellekt asosidagi tahlillar: IA algoritmlari ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlar, murojaatlar va yozuvlardan xavf signallarini aniqlab, huquqni muhofaza qilish idoralarini xabardor qilish imkoniyati oshadi;

onlayn ta'lim va ma'rifiy platformalar: elektron tizimlar orqali aholi o'rtasida huquqiy bilim va gender tenglik madaniyati oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda raqamli yondashuvlar nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimini samaralilashtiradi, balki profilaktik ishlarni ham avtomatlashtirib, xavfni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali fuqarolarning huquqiy ongi va mas'uliyati oshishi bilan oila instituti mustahkamlanadi, jamiyatda tinchlik va barqarorlik kafolati ta'minlanadi.

Ushbular sababli, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion dasturiy ta'minot va platformani yaratish lozim. Undan fuqarolar foydalanib o'zining muammolarini hal qila oladigan, eng asosiysi jabrlanayotgan shaxs u orqali sog'lig'i, mulki va hayotini asrab qola oladigan bo'lishi lozim.

Ayrim jinoyatlar (ko'pincha qasddan odam o'ldirish, tan jarohati yetkazish va nomusga tegish kabilar) oiladagi zo'ravonlik zamirida shakllangan omillar sababli sodir etilayotgani, bunga qarshi kurashni kuchaytirish va ushbu holatlar qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarni barvaqt aniqlash hamda himoya qilishning muhimligini ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston jinoyat qonunchiligida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bo'yicha alohida huquqiy norma, shuningdek xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimi (himoya orderi) mavjud, biroq bular zo'ravonlik sodir etilmasligiga to'liq kafolat bera olmayapti. Shu sababli fuqarolarimizni oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklardan himoya qilish innovatsion yondashuvga hamda xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan dasturiy ta'minot va platformaga ehtiyoj sezilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” 2025-yil 3-yanvardagi qarorida oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga ilmiy yondashuv orqali chora-tadbirlar belgilash lozimligi belgilangan [6].

Tahlillarga ko'ra, joriy yilning 6 oyi davomida 416 ta oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatlari sodir etilgan. Har 100 ming aholiga nisbatan hisoblaganda 1,1 tani tashkil etadi. Respublikamiz hududida o'rtacha hisobda har oyda oyda 20-30 tagacha oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatlari sodir etilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan oilaviy munosabatlar bilan bog'liq jinoyat va huquqbuzarliklar o'sib borish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Yuqoridagilarda kelib chiqib, biz quyidagi platformani oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarlikning oldini olishni asosiy vositalaridan biri deb hisoblaymiz.

Jumladan, platforma oiladagi zo'ravonlik holatlarini aniqlash, jabrlanuvchilarga yordam berish va ichki ishlar organlariga tezkor xabar berish imkonini beradigan, zo'ravonlik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxsni to'xtatib qoladigan va jabrlanuvchiga zarar yetib qolishini oldini olishga xizmat qiladigan, xalqaro tajribaga asoslangan innovatsion dasturiy ta'minotli bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, undan jabrlanuvchilar va shunday holatga tushishi mumkin bo'lgan shaxslar xavfsizligini ta'minlash uchun onlayn maslahat va yordam olishlari (huquqiy maslahatlar, psixologik yordam va reabilitatsiya xizmati) mumkin bo'ladi. Buning uchun, oilaviy zo'ravonlikning monitoringini olish va tahlil qilishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqiladi.

Bu dastur zo'ravonlik holatlarini aniqlash, jabrlanuvchilarga yordam berish va huquqni muhofaza qilish organlariga tezkor xabar berish imkonini beradi. Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun onlayn platformada jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun maslahat, yordam va resurslar olishlari mumkin bo'ladi. Platformada, huquqiy maslahatlar, psixologik yordam va reabilitatsiya xizmati bo'ladi. Platformada ma'lumotlar bazasi va tahlil tizimi yaratiladi.

Zo'ravonlik holatlari bo'yicha katta ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Bu bazada aniq holatlar va statistik ma'lumotlar to'planib, ulardan kelgusida zo'ravonlik holatlarini oldindan prognoz qilish uchun foydalaniladi.

Dasturiy ta'minot va platforma yana quyidagilarni oldini olishga ham xizmat qiladi, jumladan jabrlanuvchilardagi ruhiy depressiya, stress, ishonchsizlik, bolalarda yoshlikdagi travma, agressiv xulq-atvor paydo bo'lishi, oilalarning parchalanishi va ijtimoiy norozilikning ortishi, xotin-qizlarning xo'rlanishi mehnat bozorida passivligi, shaxslardagi huquqiy savodsizlik, maishiy favquloddagi va suitsidal holatlar.

Platforma doirasida ommaviy targ'ibot (maqsadli o'qitish va treninglar), maxsus “aloqa”, qarshi kurashish tizimining tezkor reaksiya mexanizmi, jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish (psixologik va ijtimoiy yordam), raqamli zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqiladi. Jumladan, maslahat kutubxonasi: interaktiv shaklda video, audio va test shaklda; “Siz yolg'iz emassiz” bo'limi – ilhomlantiruvchi haqiqiy voqealar jamlanadi; anonim forum va ruhiy yordam chatlari: jabrlanuvchilar bir-biri bilan anonim suhbat qurishi, ruhiy ko'mak olish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, biz taklif etayotgan innovatsion dasturiy ta'minot va platformada jabrlanuvchiga yoki ehtimoli bor shaxs telefoniga o'rnatiladigan dasturda quyidagi imkoniyatlar bo'ladi:

Maxfiy yordam so'rash (SOS) tugmasi bo'ladi: ilovani maxfiy tarzda ochib, bir bosishda yordam so'rash, telefonni titratish, PIN-kod orqali aktivlashadi. Aniq holatni loglash va dalillarni saqlash: audio/video yoki matn tarzda zo'ravonlik holatini maxfiy yozib olish va ishonchli bulutda saqlash, ko'rinishda kalkulyator, kalendar ilovasi kabi ko'rinadi. Yuridik va psixologik maslahat: onlayn huquqshunos va psixologlar bilan chat/video chat, avtomatlashtirilgan chat-bot (AI yordamida). Texnologiyalar: Android-native, backend-Java (mobil uchun), Python/Django yoki Node.js (backend), PostgreSQL yoki MongoDB, Google Firebase / AWS (data storage + alerts), avtotest xavf darajasini baholash. Integratsiya usuli: REST API / SOAP API, Avtomatik Case ID generatsiyasi, VPN/Lokal kanalda ma'lumot almashinuvi.

Har bir holat uchun: shaxs ma'lumoti, jabrlanuvchi profili, xavf bahosi natijalari, geolokatsiya ma'lumotlari, dalillar (audio, video, foto), huquqiy harakatlar jurnali saqlanadi.

Bundan tashqari, qurilmaga qo'yidagicha texnik talablar qo'yiladi: smart-soat yoki SOS-braslet, android Wear OS yoki RTOS, 4G/LTE + SIM karta, foydalanuvchi tomonidan 2-3 soniya bosilsa, signal yuboriladi, haqiqiy vaqt joylashuvni aniqlash va yuborish, SOS tugma bosilganda avtomatik 30-60 soniya ovozli yozuv, 400–600 mAh, 2–5 kunlik faol ishlash, yashirin rejim (ekranda hech qanday signal chiqmaydi), qurilma faollashtiriladi (QR yoki ID orqali), qurilmaning joylashuvi kuzatib boriladi, REST API orqali soatdan signal, GPS va audio fayllar qabul qilinadi, Firebase yoki AWS S3 orqali audio fayllarni saqlash, JSON formatda ma'lumot yuboriladi, Token asosida autentifikatsiya, Qurilmaning identifikatsiyasi (IMEI yoki UUID orqali), xavfsizlik AES-256 shifrlash audio fayllar uchun va HTTPS orqali API aloqasi, GPS yuborish, Telegram bot yoki mobil ilova orqali ogohlantirish.

Yaratilgan dasturiy ta'minot orqali, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish avtomatlashtiriladi. Bu, mamlakatdagi ushbu turdagi jinoyatning salbiy tendensiyasini tez va samarali o'zgartishga imkoniyat yaratadi. Natijada, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar jabrlanuvchisi yoki bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs bilan doimiy aloqa, ushbu qilmishni sodir etishi mumkin bo'lgan shaxsni nazorat qilish imkoni yaratiladi hamda jinoyatlarning oldini olish, ijtimoiy tartibni saqlash va og'ir oqibatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan samarali tizimni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Dasturiy ta'minot respublikadagi haqiqiy kriminogen vaziyat to'g'risida ma'lumot olish, jinoyatlar o'choqlarini aniqlagan holda kuch vositalarni samarali boshqarish imkonini beradi. Bu esa jinoyatlarning barvaqt oldi olinishi natijasida shaxslar va davlatga yetkaziladigan katta miqdordagi moddiy zararlarning oldi olinadi hamda fuqarolarimizda davlatga va qonunlarga nisbatan ishonchning oshishiga sabab bo'ladi.

Platforma ko'p tilda bo'ib, arizalar va hujjatlar tayyor shablon shaklda bo'ladi, xavfsiz joylar xaritasi, psixolog va boshqa yordam markazlari joyi ko'rsatib beriladi, qurilmada yurak urish tezligini nazorat qilish orqali hech bir qo'shimcha harakatlarsiz stress haqida xodimga ma'lumot keladi.

Qayd etilgan dasturiy ta'minot va platforma nafaqat oilaviy va maishiy zo'ravonlik jinoyatlarining oldini olish maqsadida, shu bilan birgalikda tazyiqqa uchragan shaxs bilan bog'liq boshqa og'ir oqibat va noxush holatlarni ham kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutadi.

Tazyiqqa uchragan yoki uchrashi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash, tinch hayot kechirishi uchun ko'maklashish hamda hayotini himoya qilishga asoslanadi. Respublikamiz hududlaridagi zo'ravonlikka uchragan va uchrashi mumkin bo'lgan shaxslar haqiqiy aniqlanib, xodimlar ishlash obyektlari ma'lum bo'ladi hamda tezkor munosabat bildirish imkoniyati oshadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun:

– oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy va milliy tajriba o'rganilib ilmiy tahlil qilinadi;

– oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi innovatsion dastur va platformaning texnik topshirig'i ishlab chiqiladi;

– o'quv kurslari dasturi, ma'ruzalar matni, qo'llanma, topshiriqlar, mashg'ulotlar, testlar, imtihon-sinov savollari ishlab chiqiladi va chop etiladi;

– oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan axborotni jamlash, qayta ishlash, tahlil qilish tarqatish, onlayn xizmat ko'rsatish, masofaviy elektron nazorat qilish, murojaatlarga tezkor javob berish, ularni yo'naltirish, turli signallarni qabul qilish hamda munosabat bildirish imkoniyati mujassamlashtirilgan platforma yaratiladi.

Rivojlangan davlatlarda, Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Germaniyada zo'ravonlikni oldini olishga xizmat qiluvchi “Hilfetelefon” rasmiy veb-sayti va mobil ilovasi, "Sicher Zuhause" (Uyda xavfsiz), “StoP – Stadtteile ohne Partnergewalt”, “Weißer Ring”, “JAD – Just a Detail” platformalari mavjud [7]. Ushbu tizim oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda va xavfli bartaraf etishda katta rol o'ynaydi.

Niderlandiyada oilaviy va maishiy zo'ravonlikni baholashda aholining bandlik darajasi, davlat organlarining faoliyati va boshqa ijtimoiy indikatorlar tizimli tarzda qayd etiladi. Bu ma'lumotlar asosida oilaviy va maishiy zo'ravonlik sodir etilishi mumkin bo'lgan xonadonlar “xavf” sifatida belgilanishi mumkin. Shu kabi platformalar, Kanada, Koreya kabi davlatlarda ham mavjud [8].

Lekin mazkur platformalar ularning geografik joylashuvi, jinoyatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari asosida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston sharoitida o'zgartirishlarsiz qo'llab bo'lmaydi.

Biz taklif etayotgan platformada xalqaro tajriba, shu jumladan Yevropa mamlakatlaridagi hamda Germaniyadagi tizim va platformalarining ijobiy jihatlaridan foydalaniladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab, radial-bazisli adaptiv neyron tarmoq nazariyasi asosida moslashtirish algoritmlari, zamonaviy integratsiyalash texnologiyalarini qo'llab, tizimli yagonalik, o'zaro moslik va standartlashtirish tamoyillariga asoslangan tizim yadro xususiyatlari mezonlarining murakkab jarayonlarini optimallashtirish uchun funksional IDEF metodologiyasidan foydalaniladi. Natijada, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan axborotni jamlash, qayta ishlash, tahlil qilish tarqatish, onlayn xizmat ko'rsatish, masofaviy elektron nazorat qilish, murojaatlarga tezkor javob berish, ularni yo'naltirish, turli signallarni qabul qilish hamda munosabat bildirish imkoniyati mujassamlashtirilgan platforma yaratiladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda, uni oldindan aniqlashning ahamiyati katta, chunki bunday xatti-harakatlar dastlabki bosqichda aniqlanmagan taqdirda og'ir oqibatlardan qochib bo'lmaydi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklardan o'ta og'ir jinoyatlar turkumiga nazariy jihatdan ajratilib statistikada ko'rsatilgan 416 ta jinoyatlarning barchasi zamirida oilaviy va maishiy zo'ravonlikning ma'lum bir darajasi turibdi.





Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etilgan jinoyatlarning 55 tasi o'lim bilan bog'liq, 66 tasi qasdan badanga og'ir tan jarohati yetkazish bilan bog'liq oqibatlarga olib kelgan.

Aynan shular sababli, bugungi kunda oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda jabrlanuvchi yoki jabrlanishi ehtimoli mavjud bo'lgan shaxs tezkor himoyasini ta'minlash, uning holatidan (haqiqiy vaqt rejimida) xabardor bo'lib turish imkoniyati bo'lgan platformaga ehtiyoj mavjud. Bu xodimning faoliyati samaradorligini oshirishi hamda fuqarolarning xavfsizligi oshishiga hissa qo'shadi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar haqida ta'rif berganda, uning xavfli ekanligini alohida qayd etish joiz, shu bilan birga u jamiyatning muhim tayanchi bo'lgan oilaning, mehr – oqibatning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi.

Uning o'z vaqtida oldi olinmasligi qasddan odam o'ldirish, og'ir tan jarohati yetkazish, mulkni qasddan nobud qilish kabi o'ta og'ir jinoyatlarni ko'payib ketishiga, ziddiyat va nizolarning keng ko'lam olishiga, shafqatsizlik va millat kelajagi buzilishiga zamin bo'lishi mumkin. Ushbu huquqbuzarlikka qarshi kurashish uchun an'anaviy tadbirlar bilan birgalikda zamonaviy innovatsion yondashuv zarur.

Aynan shu maqsadda biz taklif etayotgan elektron dastur va platformani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Darhaqiqat, xorijiy davlatlar, jumladan Germaniyada zo'rovonlikni oldini olishga xizmat qiluvchi “Hilfetelefon” rasmiy veb-sayti va mobil ilovasi, “Sicher Zuhause” (Uyda xavfsiz), “StoP – Stadtteile ohne Partnergewalt”, “Weißer Ring”, “JAD – Just a Detail” platformalari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Biroq, ularning barchasi tegishli davlat qonunchiligi bo'yicha tayyorlanganligi sababli, ularni O'zbekistonda bevosita joriy qilish imkoniyati mavjud emas.

Respublikamiz aholisi mentalitetiga xos innovatsion dasturlar va raqamli platformalarning yaratilishi, jamiyatda oilaviy munosabatlar doirasidagi huquqbuzarliklarni kamaytirishga faol ta'sir ko'rsatadigan kuchli kriminologik profilaktika tizimiga aylanishiga imkon beradi.

Zero, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas, har bir shaxsning shaxsiy huquq va erkinliklari qonun bilan himoyalangan.

**Foydalanilgan manbalar / References**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/6445145
2. https://president.uz/uz/lists/view/3492
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentyabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, https://lex.uz/docs/7730357
4. Ismaylova R. Oilada zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik guruhlar usulida yordam ko'rsatish. – Qo'qon DPI, 2025. https://kokandsu.uz/scientific_journals/journal _68a3f85e9c2d0.pdf Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025-yil 3-son, 113–114-b.
5. https://slib.uz/en/article/view?id=28393
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. https://www.lex.uz/docs/7330260
7. https://www.hilfetelefon.de/ru/
8. https://sheltersafe.ca/, https://bcsth.ca/technology-safety-project-resources/, .mogef.go.kr, https://www.women 1366.kr, https://d4u.stop.or.kr.

# ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA RAQAMLI DALILLARDAN FOYDALANISH ALGORITMI



***Badalboyev Feruz Yusufovich***

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy departament boshlig‘i o‘rinbosari*

*заместитель начальника организационного отдела МВД Республики Узбекистан*

*Deputy Head of the Organizational Department of the MIA of the Republic of Uzbekistan*

***Annotatsiya.*** *Maqolada raqamli dalillarning jinoyat-protsessual jarayondagi o‘rni va ahamiyati, ularni to‘plash, saqlash, tahlil qilish hamda taqdim etishning nazariy va protsessual jihatlari yoritilgan. Raqamli kriminalistika sohasida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar tahlil qilinib, ularning tergov samaradorligiga ta’siri ko‘rsatilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida raqamli dalillarni tartibga solish tajribasi va milliy qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.*

*Kalit so‘zlar: raqamli dalillar, raqamli kriminalistika, algoritm, ishni sudga qadar yuritish, innovatsion texnologiyalar, xesh-funksiya, blokcheyn, biometrik identifikatsiya.*

### *AN ALGORITHM FOR USING DIGITAL EVIDENCE IN PROCEEDING A CASE TO COURT*

***Abstract.*** *The article highlights the role and significance of digital evidence in criminal procedure, as well as the theoretical and procedural aspects of its collection, storage, analysis, and presentation. Innovative technologies used in the field of digital forensics are analyzed, and their impact on the effectiveness of the investigation is shown. The experience of regulating digital evidence in the legislation of foreign countries and areas for improving national legislation were also considered.*

***Keywords:*** *digital evidence, digital forensics, algorithm, pre-trial proceedings, innovative technologies, hash function, blockchain, biometric identification.*

Bugungi kunda jamiyatni raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalar kabi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga ham ta’sir etmoqda. Jinoyatlarni tergov qilish va isbotlash jarayonida raqamli dalillardan foydalanish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, sudga qadar ish yuritish bosqichida raqamli dalillar bilan ishlash algoritmini belgilash orqali ularning haqiqiyligi va ishonchliligini ta’minlash mumkin.

Ishni sudga qadar yuritishda raqamli dalillarni to‘plash, tahlil qilish, saqlash va taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi va tergovchilarga katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, yashirin aloqalarni aniqlash va olingan ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi.

Zamonaviy sharoitda rivojlanayotgan raqamli kriminalistikada ishni sudga qadar yuritish jarayonida turli innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish taktikasi qo‘llanilmoqda.

Texnologiya tizimli, ijodiy, texnik fikrlashni shakllantirishga va ishlab chiqarish muammolarini hal qilishda nostandart texnik g‘oyalarni yaratish qobiliyatiga qaratilgan yo‘nalishdir [1].

S.S. Yagyadjik ta’kidlaganidek, «innovatsion texnologiyalar – bu zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o‘zgarishlar orqali ijobiy natijaga erishishga qaratilgan o‘qitish usullari, metodlari, yo‘llari va tarbiyaviy vositalar tizimi» [2].

Raqamli kriminalistika (Digital Forensics) raqamli dalillarni olish, saqlash, tahlil qilish va taqdim etish uchun ilmiy va texnologik usullarni qo‘llaydigan maxsus sohadir. Ishni sudga qadar yuritishda innovatsion texnologiyalar tergovning samaradorligi va aniqligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

«Raqamli kriminalistika» va «raqamli dalillar» tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, raqamlashtirish jinoyatlarni tergov qilish va huquqiy muammolarni hal qilish sohasida asos hisoblanadi.

Raqamli dalillar binar kod (0 va 1) ko‘rinishida mavjud. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o‘zgaruvchanlik (volatility): jismoniy dalillardan farqli o‘laroq, raqamli ma’lumotlar osongina o‘zgartirilishi, o‘chirilishi yoki yo‘q qilinishi mumkin, ba’zan hatto beixtiyor ravishda; 2) latentlik (latent): raqamli dalillarni ko‘pincha oddiy ko‘z bilan ko‘rib вщlmaydi, ularni aniqlash, ajratib olish uchun maxsus usullar talab etiladi; 3) keng tarqalganligi: turli xil qurilmalar va joylarda (kompyuterlar, qattiq disklar, SSD, tezkor xotira (RAM) topilishi mumkin; 4) raqamli (mobil) qurilmalar: (smartfon, planshet, uyali telefon va boshqa gadjetlar) shaklida mavjud bo‘ladi; 5) tarmoq qurilmalari: (serverlar, marshrutizatorlar, kommutatorlar) ko‘rinishida bo‘ladi; 6) bulutli xotiralar: ya’ni bulutli provayderlar (Google Drive, Dropbox, iCloud) serverlaridagi ma’lumotlar shaklida uchraydi; 7) Internet buyumlari: (IoT) qurilmalari (aqlli soatlar, fitnes-trekerlar, aqlli maishiy texnika, ulangan avtomobillar); 8) olinadigan tashuvchilar:

USB-fleshkalar, xotira kartalari, tashqi qattiq disklar shaklida uchraydi; 9) kommunikatsiyalar: (elektron pochta, messenjerlardagi xabarlar, SMS, qo‘ng‘iroqlar yozuvlari) ko‘rinishida bo‘ladi; 10) log-fayllar: tizim va ilovalar faoliyati yozuvlarini o‘z ichiga oladi.

Raqamli kriminalistikaning maqsadi ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yordam beradigan dalillarni topish, qayta ishlash va taqdim etishdan iborat. Raqamli dalillarning tadqiqot obyekti raqamli kriminalistika mutaxassislari ishining asosiy natijasi hisoblanadi [3].

Shunday qilib, raqamli kriminalistika texnologik jarayon sifatida raqamli ma’lumotlar bilan ishlashda ishonchli va ilmiy asoslangan yondashuvni ta’minlaydi, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni yuridik ahamiyatga ega dalillarga aylantiradi.

Innovatsion axborot-raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni ajratib olishning ilg‘or usullari va vositalari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: bulutli kriminalistik vositalar (Cloud Forensics Tools), bulutli saqlash joylaridan (Google Drive, Dropbox, iCloud) ma’lumotlarni qonuniy va yaxlit olish uchun maxsus dasturiy ta’minot va metodologiyalar, SaaS ilovalari (Microsoft 365, Salesforce), korporativ bulutli xizmatlar. Bu sohadagi innovatsiyalar API cheklovlarini chetlab o‘tish, taqsimlangan ma’lumotlar bilan ishlash va dinamik muhitda yaxlitlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishining hozirgi sharoitida raqamli daliliy ma’lumotlarni o‘zgartirishdan himoya qilish, uning yaxlitligi va o‘zgarmasligini ta’minlash uchun nusxalash va takrorlash kafolatlari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ma’lumotlarni olish joyida ham, huquqni muhofaza qilish organlari infratuzilmasining idoraviy axborot tizimida ham saqlash talabi mavjud. O‘zgartirishning oldini olishning eng aniq va ishonchli usullaridan biri xesh-funksiyani (hash value) hisoblash bo‘lib, u xesh-funksiyaning chiqish natijasi bo‘lgan bitli satrni ifodalaydi[4]. Xesh-

funksiyalarni qo‘llash raqamli (elektron) hujjatlarni belgilangan bitlar sonigacha siqish imkonini beradi, ya’ni tegishli hujjatlarning noyob «daktiloskopik izini» hisoblash mumkin bo‘ladi. Bu iz axborotni identifikatsiyalash va o‘zgartirmaslikni tekshirish uchun ishlatiladi [5].

Dalillarni tekshirishda asl nusxaning nazorat raqamlari va raqamli daliliy axborotning nusxalari taqqoslanadi, ular tekshirish paytida bir-biriga mos kelishi kerak. Yuqorida keltirilgan standartda dalillarni olishning ishonchli usulini yaratish va ta’minlash uchun raqamli ma’lumotlarni 128 bitli MD5 xeshlash algoritmiga asoslangan usul bilan saqlash taklif etiladi. Bu usul, o‘z vazifasiga ko‘ra, barmoq izi bo‘yicha raqamli imzo o‘rnini bosadi. Xeshlash algoritmining kriminalistik ahamiyati shundaki, u raqamli faylning belgilangan uzunlikdagi noyob «izini» olish imkonini beradi. Bu «iz» olingan hujjatning raqamli (elektron) shaklda identifikatsiyalash xususiyati hisoblanadi [6].

Xesh-funksiyalardan foydalanishning qo‘shimcha kafolati sifatida hosil qilingan izning bir necha nusxasi (ikki-uchta) turli raqamli axborot tashuvchilarda va qurilmalarda saqlanadi. Masalan, bir nusxasi tintuv bayonnomasi nusxasiga o‘xshash tarzda olib qo‘yilgan ma’lumot egasida qolishi, ikkinchisi esa huquqni muhofaza qiluvchi organ serverida yoki raqamli platformada saqlanishi mumkin. Ushbu texnik tartib-taomillar elektron daliliy ma’lumotlarni identifikatsiyalash muammolarini to‘liq hal qiladi.

Daliliy axborotni qayd etishning raqamli usulini tan olish masofadan turib isbotlashning imkoniyatlari va istiqbollarini ochib beradi. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi, karantin va izolyatsiya davrida bu muammo yanada dolzarb bo‘ldi. Tergovni raqamli onlayn shaklda amalga oshirish zarurati paydo bo‘ldi, bu esa vaqt o‘tishi bilan an’anaviy qog‘oz shaklini almashtirishi mumkin. Jinoyat ishlari bo‘yicha masofadan turib ish yuritish anchadan beri videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanish orqali amalga oshirilib kelmoqda. Qolaversa, dastlabki tergov bosqichida protsessual harakatlarni o‘tkazishda videokonferensaloqa texnologiyasini kengaytirish jarayoni ham kuzatilmoqda.

Raqamli dalillarga huquqiy maqom berish boshqaruv, ma’muriy, axborot-texnologik, tezkor-qidiruv, texnik-kriminalistik va jinoyat-protsessual dalillash faoliyatining axborot imkoniyatlarini birlashtirish imkonini beradi. Huquq sohalari va huquqni qo‘llash faoliyati turlarining integratsiyasi jinoyat-protsessual isbotlashning kumulyativ samarasini ta’minlaydi [7]. Axborot imkoniyatlarini birlashtirish raqamli platformalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi, chunki ular raqamli formatda ham ichki, ham idoralararo hamkorlikni ta’minlash uchun eng maqbul kompleks innovatsion axborot-raqamli texnologiyalardir. Raqamli platformalardan foydalanish natijasida avtomatlashtirilgan rejimda axborot almashinuvining yangi shakli va mazmuni shakllanadi, bu esa inson omilining sekinligini kamaytiradi. Dastlabki tergovni olib borishda qo‘llaniladigan innovatsion raqamli texnologiyalar axborot almashinuvi tezligini oshiradi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati amaliyotini o‘rganish raqamli platformalarni yaratish tendensiyalarini ko‘rsatmoqda. Raqamli platformalardan foydalanish qog‘oz shaklidagi ish yuritishni raqamli (elektron) hujjat aylanishiga o‘tkazishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga «raqamli dalil» tushunchasining kiritilishi dalillarni to‘plashda avtomatlashtirishning eng oqilona usuli sifatida sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanish istiqbollarini ochadi. Sun’iy intellekt, raqamli platformalar bilan birga, uyali aloqa tarmoqlari, navigatsiya tizimlari, axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalaridan ma’lumot to‘plash bo‘yicha isbotlash faoliyatida avtomatlashtirish va robotlashtirishning yangi davrini boshlab beradi.

Barcha turdagi raqamli ma’lumotlar banklarini tadqiq qilishni avtomatlashtirish ichki ishlar organlarining kriminalistik ro‘yxatga olish va hisobga olishning axborot-tahliliy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa raqamli ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash yondashuvlari, vositalari va usullari majmuasi orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu virtual ma’lumotlar katta miqdordagi turli xil, shu jumladan tarqoq yoki zaif bog‘langan axborot manbalaridan oqilona vaqt ichida qo‘lda qayta ishlash mumkin bo‘lmagan hajmda olinadi.

Raqamli dalillar tufayli isbotlash kelajakda shaxsni, axborot-texnologik qurilmalarni, odamlarning harakatlarini, hodisalarni va natijalarni identifikatsiyalash jarayoniga aylanadi [8]. Identifikatsiyalash uchun raqamli identifikatorlar, shaxsning raqamli profili, raqamli platformalar, idoralararo hamkorlik tizimi, kriminalistik ro‘yxatga olish hisoblari va avtomatik ro‘yxatga olishning boshqa turlariga asoslangan raqamli usullardan foydalaniladi.

Foydalanuvchilarni aniqlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar o‘rtasidagi idoralararo hamkorlik va ishning samaradorligini ta’minlash uchun raqamli platformalarda Yagona identifikatsiya tizimini joriy etish maqsadga muvofiq [9].

O‘zbekistonda shaxsga doir biometrik ma’lumotlarga ishlov berish, shu jumladan ularni to‘plash va saqlash, tekshirish hamda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish maqsadida jismoniy shaxsning taqdim etilgan biometrik shaxsga doir ma’lumotlariga muvofiqlik darajasi to‘g‘risidagi axborotni uzatishni ta’minlaydigan yagona biometrik tizim ishlab chiqilgan [10]. Yagona biometrik tizim, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, insoning DNK, yuz, barmoq izlari, ovoz, imzo, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar kabi belgilar bo‘yicha eng tez aniqlash imkonini beradi.

Raqamli dalillardan foydalanish isbotlashning axborot-texnologik rejimini, jinoyatlarni ochish va tergov qilishning yangi strategiyalarini shakllantirish istiqbollarini ochib beradi. Yangi tartibning shakllanishi «hujjatlardan ma’lumotlarga» o‘tishdan dalolat beradi, bu esa qog‘oz hujjat aylanishini raqamli shaklga o‘tkazadi. Jamiyatning yangi raqamli tuzilishida hujjat aylanishining istiqbolli texnologiyasi kontekstga bog‘liqlik tamoyiliga asoslangan blokcheyn texnologiyasidir. Bunday texnologiyadan foydalanilganda elektron hujjatlarning haqiqiyligi, ishonchliligi, o‘zgarmasligi va xavfsizligi ta’minlanadi.

Jinoyat protsessida isbotlash institutining muhimligi va ko‘p qirraliligini, olimlar va amaliyotchilar tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikni zamonaviylashtirishga urinishlarni hisobga olgan holda, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq vazifalarni hal qilish uchun tegishli protsessual harakatlar algoritmini ishlab chiqish zarur. Bu raqamli dalillarning moddiy kelib chiqishi, ularni aniqlash, qayd etish va baholashning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq. Bunda, shuni yodda tutish kerakki, sudga qadar ish yurituviga raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganish va shakllantirishni jadal rivojlanayotgan innovatsion axborot-raqamli texnologiyalarga moslashtirish zarur. Buning uchun quyidagilar kerak: raqamli voqelik sharoitida jinoyat-protsessual isbotlash jarayoni tushunchasi va mazmunini anglash; jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlashni raqamlashtirishning mohiyatini aniqlash; mamlakatimizda ishni sudga qadar yuritish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlarini ko‘rib chiqish.

Ilmiy tadqiqotlarda raqamli dalillardan foydalanishning universal, ko‘p qirrali mohiyatiga bir necha bor e’tibor qaratilgan. Masalan, S.B.Rossinskiy turli ma’lumotlarni bilish va tegishli qarorlarni asoslash mohiyatini belgilaydigan gnoseologiya va formal mantiq qonuniyatlariga asoslangan jinoyat-protsessual isbotlashning kompleks, sintetik tabiati mavjudligini to‘g‘ri ta’kidlaydi [11].

V.Yu. Stelmax «isbotlash jinoyat-protsessual faoliyatning o‘zagi, yadrosi» ekanligini asosli ravishda ko‘rsatib o‘tgan [12]. Darhaqiqat, isbotlash (bizning holatimizda raqamli texnologiyalar sohasidagi isbotlash) bilishning ajralmas qismi bo‘lib, u jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi va qat’iy belgilangan qoidalar va tartib-taomillar doirasida amalga oshiriladi.

Isbot qilish jarayonining mazmuni uning huquqiy tabiati, retrospektiv xarakteri va koʻp qirrali mohiyatidan kelib chiqadi. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 85-moddasiga muvofiq, isbot qilish ishni qonuniy, asosli va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega boʻlgan holatlar toʻgʻrisidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni toʻplash, tekshirish va baholashdan iborat. A.V.Smolinning fikricha, isbotlash izlanishli va mantiqiy xususiyatga ega [13].

Jinoyat ishlari boʻyicha isbot qilish nazariyasi va huquqiy tartibga solish muammolariga bagʻishlangan fundamental tadqiqotlardan birida isbot qilish – bu bilishning ajralmas elementi boʻlib, uning maqsadi dalillarni toʻplash va tekshirish boʻyicha amaliy harakatlar tizimiga kirib borish ekanligi ta'kidlangan [14]. A.I. Trusovda ham shunga oʻxshash fikr mavjud, u isbotlashni «insonlarning bilish faoliyatining bir turi» [15] deb hisoblaydi. Oʻz navbatida, A.V.Rudenko dalillarni baholovchi shaxslar ularni baholashda shaxsiy mantiqiy va psixologik xususiyatlariga asoslanadi [16], degan fikrni ilgari suradi.

Tergov va surishtiruv organlari xodimlari orasida oʻtkazgan soʻrovimiz ularning aksariyati dalillarni toʻplash, tekshirish va baholash tartibi haqida yuzaki tushunchaga ega ekanini koʻrsatdi. Bu, ayniqsa, virtual xususiyatga ega boʻlgan raqamli dalillarni toʻplash, tekshirish va baholash tartibiga taalluqlidir. Raqamli dalillarning an'anaviy dalillardan farqi haqidagi savolga soʻrovda ishtirok etganlarning 88 foizi ularning kelib chiqishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bogʻliq, deb javob berishgan. Axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarning 86 foizi raqamli dalillarning tabiatini toʻgʻri aniqlagan boʻlsa-da, oʻzaro ta'sir algoritmi haqida yuzaki tasavvurga ega boʻlgan va faqat 45 foizigina bunday turdagi oʻzaro ta'sirning xususiyatlarini bilgan.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qiladigan boʻlsak, bugungi kunga kelib raqamli dalillar jinoyat protsessining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, ularni toʻplash va saqlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni zamonning oʻzi taqozo etmoqda. Milliy qonunchilikda "raqamli dalillar" tushunchasini yanada aniqlashtirish, ularni avtomatlashtirilgan tartibda yigʻish va taqdim etish mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini tergov amaliyotiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.



**Foydalanilgan manbalar / References**


1.Далингер В.А. Инновационные педагогические технологии -проводники новых образовательных стандартов // Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 3–2. – С. 167–169.
2. Ягяджик С. С. Виды инновационных технологий и их характеристики // Молодой ученый. – 2016. – № 23 (127). – С. 548-551.
3. Д. Ю. Русанова Цифровая криминалистика: возможности и перспективы развития // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №12–4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-kriminalistika-vozmozhnosti-i-perspektivy-razvitiya (дата обращения: 30.08.2025).
4. Пастухов П. С. (2022b). Цифровая идентификация личности. В книге: Т. П. Подшивалов, Е. В. Титова, Е. А. Громова (ред.). Право цифровой среды: Монография (с. 625-632). – Москва: Проспект, 2015. https://elibrary.ru/zomcik
5. Пастухов П. С. (2022a). Новые подходы к информационному обеспечению уголовно-процессуальной деятельности. В сб. Т. В. Евтух, Л. Ю. Мхитарян и др. (ред. кол.), А. Н. Самойлов (отв. ред.), С. А. Котова (отв. за вып.), Государственное и муниципальное управление в России: состояние, проблемы и перспективы: материалы Всерос. науч.-практ. конф., г. Пермь, 17 ноября 2022 г. (с. 139-143).
6. Мусаев Г. (2023). Цифровые доказательства как направление в расследовании преступлений. Общество и инновации, 4(4), 132–138. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4-pp132-138
7. Поздняков А. Н. Оперативно-розыскная деятельность в цифровом мире и ее процессуальная ценность // Закон и право. – 2021. – №9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/operativno-rozysknaya-deyatelnost-v-tsifrovom-mire-i-ee-protsessualnaya-tsennost (дата обращения: 30.08.2025).
8. Кахрамонов А. (2024). Инструменты цифровой криминалистики . Наука, инновации и образование: ключевые векторы общественного прогресса, 1(1), 84–98. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-innovation-education/article/view/47710
9. Юань И. (2017). Проблемы рассмотрения доказательств по новому УПК КНР. Социально-политические науки, 3, 137–138.
10. Югай Л.Ю. Использование методов биометрической идентификации в раскрытии и расследовании преступлений: Учебное пособие. – Т.: Академия, 2023. – 134 с.
11. Россинский С..Б. Размышления о сущности доказывания в уголовном судопроизводстве // Lex russica. – 2020. – № 9(166). – С. 64.
12. Стельмах В. Ю. Система средств доказывания в досудебных стадиях уголовного процесса: проблемы теории, нормативного регулирования и практики: Дис. ... д-ра юрид. наук: 12.00.09. – Екатеринбург, 2021. – С. 4.
13. Уголовно-процессуальное доказывание: теория, практика, методология / А. Ю. Афанасьев, А. А. Зайцев, С. А. Лубин, А. В. Смолин. – М.: Юрлитинформ, 2021. – С. 70.
14. Шейфер С.А. Доказательства и доказывание по уголовным делам: проблемы теории и правового регулирования. – М.: Норма, 2008. – С.21.
15. Трусов А.И. Основы теории судебных доказательств: (Краткий очерк). – М.: Госюриздат, 1960. С. 8.
16. Руденко А. В. Содержательная логика доказывания: Монография. – М., 2014. – С.151.

# TOVLAMACHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISH YO‘NALISHIDA AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI HAMDA ULARNI MILLIY AMALIYOTGA JORIY ETISH MASALALARI



***Irisbekov Ulug‘bek Askarbekovich***

*yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti*

*доктор философии (PhD) по юридическим наукам*
*Исследовательский институт криминологии Республики Узбекистан*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences*
*Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan*

***Annotatsiya.*** *Maqolada tovlamachilik jinoyatlarining ijtimoiy xavfi, mazmun-mohiyati va uning oldini olishga oid xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Xususan, Yaponiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatchilik profilaktikasiga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslarni himoya qilish va reabilitatsiya qilish tizimlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda tovlamachilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirishda xorijiy tajribadan foydalanishning dolzarbligi asoslab berilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *tovlamachilik, viktimologik profilaktika, xorijiy tajriba, jinoyatchilikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, reabilitatsiya, kompensatsiya tizimi, Germaniya tajribasi, Yaponiya tajribasi, huquqiy siyosat.*

## *EXPERIENCE OF SELECTED FOREIGN COUNTRIES IN PREVENTING EXTORTION CRIMES AND ISSUES OF THEIR IMPLEMENTATION INTO NATIONAL PRACTICE*

***Abstract.*** *The article analyzes the social danger, essence, and content of extortion crimes, as well as the foreign experience in preventing this type of crime. In particular, the priority directions of state policy in crime prevention in developed countries such as Japan and Germany, along with systems for protecting and rehabilitating victims of offenses, are examined. The relevance of applying international practices to improve the victimological prevention of extortion crimes in Uzbekistan is substantiated.*
***Keywords:*** *extortion, victimological prevention, foreign experience, crime prevention, victim protection, rehabilitation, compensation system, German experience, Japanese experience, legal policy.*

Xorijiy davlatlar tajribasining tahlili shundan dalolat bermoqdaki, shaxsni tovlamachilik jinoyatlaridan himoya qilishda profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni tashkil etishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, davlat organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish hamda aholi o‘rtasida jinoiy tajovuzlardan himoyalanish usul va shakllarini keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida tovlamachilikning oldini olishning ustuvor yo‘nalishi sifatida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini mazkur turdagi jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsad qilingan. Bu borada, avvalo, tovlamachilikka olib keluvchi va undan jabrlanishga sabab bo‘luvchi omillarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni manzilli ravishda muayyan obyektlarga qaratgan holda amalga oshirishga xizmat qiluvchi yangi mexanizmlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tovlamachilikning jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlari, shuningdek, uning profilaktikasi masalalari bo‘yicha G‘arbiy Yevropa davlatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Shvetsiya, Italiya va boshqalar), AQSH, Kanada, Yaponiya hamda MDHga a’zo mamlakatlarda keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Mazkur davlatlarda nafaqat tovlamachilik jinoyatini oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatining nazariy jihatlari, balki uning amaliy qirralarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ham alohida e’tiborda turibdi.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, tovlamachilikning oldini olishda ishtirok etuvchi subyektlar doirasi hamda ularning profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi samaradorlik ko‘rsatkichlarida muayyan tafovutlar mavjud. Xususan, xorijiy mutaxassislar tadqiqotlarida jinoyatlarning oldini olish subyektlari ichida eng yuqori samaradorlik ichki ishlar organlari hissasiga to‘g‘ri kelishi (67,6 foiz) ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Keyingi o‘rinlarda prokuratura organlari (25,4 foiz), ta’lim muassasalari (23,4 foiz), diniy tashkilotlar (20,3 foiz), jamoat tuzilmalari (19,7 foiz) hamda sud organlari (17 foiz) qayd etilgan. Ushbu tahlillardan kelib chiqib, tovlamachilikning, xususan uning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlarining (politsiya) roli alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash mumkin [1].

Jinoyatlarning profilaktikasi sohasida zamonaviy mexanizmlarni tatbiq etish va ularning samaradorlik darajasini o‘rganish masalasi xalqaro ilmiy hamjamiyat diqqat markazida turibdi. Bu borada jahon davlatlarida jinoyatchilik holati va uning dinamikasini tahlil qilish imkonini beruvchi xalqaro onlayn ma’lumotlar bazalari (masalan, UNODC, Eurostat, World Bank Criminal Justice Database va boshqalar) muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu ma’lumotlar bazasi orqali turli davlatlarda jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan zamonaviy profilaktik mexanizmlarning qo‘llanilishi va ularning samaradorlik darajasi qiyosiy tarzda o‘rganilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur statistik va analitik ma’lumotlar davlatlar tajribasida profilaktik chora-tadbirlarning qay tarzda amalga oshirilayotgani hamda ularning jinoyatchilik ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida qayd etilgan davlatlarda jinoyatlar, jumladan tovlamachilikning barvaqt oldini olishga yo‘naltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan tovlamachilik profilaktikasiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar a) individual yoki ijtimoiy guruhlar darajasidagi kriminallashuv va viktimlashuvning obyektiv hamda subyektiv omillarini aniqlash hamda bartaraf etish; b) aholining alohida toifasi (*tovlamachilikni sodir etishga va undan jabrlanishga moyil*) o‘rtasida tushuntirish ishlari, huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish; v) davlatning kompensatsiya va zararni qoplash tizimini nazarda tutgan holda jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish yo‘nalishlarini ko‘proq qamrab olganligini kuzatish mumkin [3].

Jahon davlatlari tajribasi tahlili shundan dalolat bermoqdaki, tovlamachilikka qarshi kurashish, ayniqsa, uning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar turli yo‘nalishlarga ega. Xususan, ayrim davlatlarda bu borada keng jamoatchilik ko‘magiga tayanilsa, boshqa mamlakatlarda minglab

maxsus dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgan. Shuningdek, uchinchi toifa davlatlarda mazkur turdagi jinoyatlarning latentligini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilsa, yana ba'zi davlatlarda tovlamachilikdan jabrlanishning oldini olishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu davlatlarni quyidagi uchta guruhga bo'lib o'rganish lozim deb hisoblaymiz:

*Birinchi guruh davlatlar* qatoriga Yaponiya, Germaniya, Isroilni kiritish mumkin. Ushbu davlatlarning jinoyatlarni oldini olish tajribasi ularning mazkur faoliyatda hamkorlikka tayanishi bilan bog'liqdir.

Tahlillar **Yaponiyada** tovlamachilik va shunga o'xshash jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ilg'or tajribalar amaliyotga tatbiq etilganligini ko'rsatmoqda. Yaponiyaning jinoyatlikka qarshi kurashish asoslari "Politsiya to'g'risida"gi [4] qonunida mustahkamlangan bo'lib, uning o'ziga xos ahamiyati politsiyaning oldida turgan ustuvor vazifa sifatida jinoyatlarning oldini olish belgilanganligida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu davlatda tovlamachilik kabi jinoyatlarning oldini olishda vakolatli organlarga ko'maklashuvchi kuchlarning kengligi hamda ularning majburiyatlari sifatida jinoyatlar profilaktikasini amalga oshirishda ishtiroki muhimdir. Darhaqiqat, Yaponiyada jinoyatlar profilaktikasi jamoatchilik ko'magiga asoslanadi va shu orqali samarador hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishda yaponlarning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarining kengligi bilan ham baholash mumkin [5].

Bundan tashqari, "Koban" yo'riqnomasida yapon politsiyasining jinoyatlar profilaktikasini amalga oshirishda aholi va jamoat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlarining o'rnatilishi nisbatan ustuvor hisoblanadi [5].

Har bir politsiya bo'linmasida "aholi bilan aloqalar bo'linmasi" faoliyati yo'lga qo'yilgan.Uning tarkibiga politsiya xodimlari, jamoatchilik vakillari, jamoat tashkilotlarining a'zolari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, turar joy komplekslari mas'ullari (JEK), ko'ngillilar va boshqalar kiritilgan. Ushbu kengashlar tomonidan jinoyatlarning, ayniqsa, zo'ravonlik, mulkka qarshi qaratilgan, shu jumladan, tovlamachilik bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasini amalga oshiradilar. Ularning eng faollari "Probatsiya ko'ngillilar assotsiatsiyalari", "Ayollarga yordam assotsiatsiyasi", "Advokatlar assotsiatsiyasi" va "Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi assotsiatsiyalar" shular jumlasidandir. Politsiya kengashlari ko'ngillilar bilan doimo maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirib turadi.

Bunday tadbirlarda nafaqat tovlamachilik va shu kabi boshqa turdagi jinoyatlarning oldini olish, balki ko'ngillilar harakatini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqiy himoyasini ta'minlash masalalari ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, 2015-yil davomida o'tkazilgan maxsus tadbirlarning katta qismi aynan ko'ngillilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, 45 mingga yaqin guruhlar tarkibida 3 milliondan ortiq ko'ngilli birlashgan holda faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, Yaponiyaning jinoyatchilikka qarshi siyosati nafaqat umumiy jinoyatchilikni kamaytirishga, balki zo'ravonlik bilan bog'liq alohida turdagi jinoyatlarning, jumladan tovlamachilikning oldini olishga ham yo'naltirilganligi alohida ta'kidlanishi lozim.

Jahon reytinglariga ko'ra, yapon politsiyasining jinoyatlarni profilaktika qilishdagi samaradorligi 118 balldan 114 ballni tashkil etib, yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Ushbu natijalar Yaponiyani dunyodagi eng tinch va xavfsiz davlatlardan biri sifatida baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, mamlakatda 100 ming aholiga 45 nafar mahkum to'g'ri kelsa, AQSHda ushbu ko'rsatkich qariyb 14 barobar yuqori ekanligi mazkur xulosani yanada mustahkamlaydi [6].

Yapon politsiyasining boshqa davlat organlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorligi kompleks xususiyatga ega bo'lib, tezkorlik va tejamkorlikda yuqori, shuningdek, natijadorlikda ham ancha samarador hisoblanadi. Yapon politsiyasining jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha natijalariga oid har yili "Jinoyatchilik haqidagi oq kitoblar" hamda "Politsiya haqidagi oq kitoblar" chiqariladi va aholini doimo xabardor qilib borishadi [7.].

Yapon politsiyasi va jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshirish vakolatiga ega organlar tomonidan jinoyatlarning, shu jumladan, tovlamachilikning profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlar belgilanganligi diqqatga sazovordir:

– tovlamachilikning oldini olish bo'yicha politsiya va vakolatli organlar hamda keng jamoatchilikning samarali hamkorligini ta'minlash;

– mazkur turdagi jinoyatlar profilaktikasi bo'yicha vakolatli subyektlarning o'zaro axborot almashinuvini tashkil etish;

– provinsiyalardagi muammolarni tahlil qilish va har bir muammoga individual yondashishga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi dasturlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

– huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda jamoatchilikning tashabbusini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish va hokazo.

**Germaniyada** tovlamachilik profilaktikasi bo'yicha tajribaning o'ziga xosligi bu kabi chora-tadbirlarning bevosita jabrlanganlar va jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan amalga oshirish jarayonida kuzatiladi.

Tovlamachilikdan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy asoslari mavjud bo'lib, Germaniyada bu jarayon "Jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qaytarish to'g'risida"gi 1976-yilda qabul qilingan qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur qonunga ko'ra, moddiy zarar yetkazilmagan hollarda kompensatsiya to'lanmaydi. Shu bilan birga, kompensatsiyaning amaliy ta'minlanishi Germaniya Federal adliya vazirligi tomonidan har yili ajratiladigan mablag'lar hisobidan shakllanadigan davlat, xususiy va maxsus fondlar tizimi orqali kafolatlanadi.

Aytish joizki, Germaniya tajribasida jinoyat qurbonlari huquqlarining himoya qilinishi jinoyat protsessi doirasida faqat prokuror bilan cheklanib qolmaydi. Og'ir turdagi jinoyatlardan jabrlanuvchilar manfaatlari davlat hisobidan sarf-xarajatlari qoplanadigan xususiy advokatlar tomonidan ham himoya qilinadi.

Germaniyaning ko'plab viloyatlarida davlat dasturlari bilan bir qatorda jinoyatdan jabrlanganlarga yordam berish uchun ko'plab xususiy dasturlar mavjud. Ularda jinoiy tajovuzdan zarar ko'rgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalariga oid qonun va sud amaliyotidagi o'zgarishlar batafsil tahlil qilinadi.

Germaniya huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan jinoyatning viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan quyidagi tajribalarni mamlakatimiz ichki ishlar organlari amaliyotiga joriy etish mumkin:

fuqarolarning mol-mulkini barcha turdagi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning usullari haqida aholi bilan muntazam ravishda maslahatlashuvlarni *(keng jamoatchilik orasida, televideniyeda "Jinoyat politsiyasi maslahati" ruknidagi, boshqa turdagi OAVda ma'lumotlar berish orqali)* amalga oshirish;

politsiya xodimlari tomonidan firibgarlikning oldini olish bo'yicha maxsus dastur *(uning asosiy g'oyasi politsiyaning aholi bilan aloqasi profilaktika manfaatlariga xizmat qilish kerak)* ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturlar politsiyaning aholi bilan hamkorligini samarali tashkil etishni ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Xorijiy tadqiqotlar tahlili huquqshunoslarning hammasi ham tovlamachilik yoki umuman jinoyatlar profilaktikasida davlat dasturlarining rolini muhim, deb hisoblamasligini koʻrsatmoqda. Bu borada ularning ayrimlari dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar tovlamachilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega boʻlganligini, profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishga olib kelganligini taʼkidlashgan. Boshqa toifa huquqshunoslar esa bu boradagi fikrlarga qisman qoʻshilgan va jinoyatlar profilaktikasiga qaratilgan dasturlarni amaliyotga tatbiq etilishi juda sustligini va bu yoʻnalishdagi profilaktik chora-tadbirlarni samaradorligiga ijobiy taʼsir etmasligini nazarda tutishadi. Uchinchi toifa huquqshunoslar esa davlat dasturlari oʻzining profilaktik xususiyatini va dolzarbligini yoʻqotganligini shuning uchun bu boradagi profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilgan yangicha mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala ekanligini asoslantirishga harakat qilishadi [9].

Germaniyada jinoyatdan jabrlanganlarga yordam beruvchi jamoat birlashmasi (Beloye kolso) ning bugungi kunda 3 mingdan ortiq oʻz xohishiga koʻra koʻmak beruvchi yordamchilari, 400dan ortiq filiallari, 60 mingga yaqin aʼzolari boʻlib, "qurbon"larni qoʻllab-quvvatlash va himoya qilish boʻyicha har qanday, jumladan, siyosiy, huquqiy, boshqaruv sohasidagi va boshqa savollarga javob beriladi, shuningdek, ular jinoyatdan jabrlanganlarga davlat tomonidan berilishi lozim boʻlgan kompensatsiyalar bilan bogʻliq muammolarga ham aralashadi va jabrlanuvchilar foydasiga hal qilishadi.

*Ikkinchi guruh* davlatlar qatoriga Rossiya, Angliya va Qozogʻistonni kiritish mumkin. Ushbu davlatlar tajribasi huquqiy targʻibotning yangicha mexanizmlarini joriy etish va amaliyotga tatbiq etish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayotganligi bilan diqqatga sazovordir.

Tovlamachilikning profilaktikasiga oʻziga xos yondashuvini Rossiya Federatsiyasi huquqshunoslari qarashlarida kuzatish mumkin. Ularning qarashlarida tovlamachilikning profilaktikasi uning sabab-sharoitlarini, tovlamachilikning sodir etilishini taqozo etuvchi omillarni chuqur oʻrganish va ishlab chiqilayotgan profilaktik chora-tadbirlarni faqat ularni bartaraf etishga yoʻnaltirgandagina samarador ekanligini taʼkidlashadi [10].

*Uchinchi guruh davlatlar* qatoriga AQSH, Kanada, Germaniya davlatlarini kiritish mumkin. Ushbu davlatlarda tovlamachilikni minimallashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni oʻzida aks ettirgan davlat dasturlarini qabul qilish amaliyotga tatbiq etish ommalashtirilgan.

AQSHda profilaktika faoliyatining quyidagi uch modeli mavjud:

jamoat tashkilotlari modeli;

shaxsiy xavfsizlik modeli;

atrof-muhitning taʼsiri modeli.

Jinoyatlar profilaktikasining viktimologik aspekti shaxsiy xavfsizlik modeli orqali tatbiq etiladi. Federal hamda mahalliy darajada "Jinoyatlar profilaktikasi dasturlari" ishlab chiqiladi. Ayrim shtatlarda jamoat tartibini saqlash, muhofaza qilishda fuqarolar ishtirok etadi, ular tezkor profilaktik ahamiyatga ega boʻlgan maʼlumotlarni taqdim etganligi uchun politsiya organlari tomonidan taqdirlanadi. Shuningdek, jinoyatdan jabrlanganlar (qurbonlar)ga yordam koʻrsatish boʻyicha "Qurbonlarga koʻmaklashuv byurosi", "Milliy assotsiatsiya" va "Ayollar jinsiy zoʻravonlik tahdidlariga qarshi qoʻmitasi" faoliyati yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ular jinoyatdan jabrlanganlarga yordam beradi [11].

AQSHda politsiya xodimlariga oʻzining shaxsiy xavfsizligini taʼminlashlari uchun qurol bilan muomala qilish oʻrgatiladi. Ushbu qoidalar taktik xarakterga ega boʻlib: a) huquqbuzarga yaqinroq kelishni taqiqlaydi (uni masofada ushlab turishni talab qiladi); b) jiddiy asoslar paydo boʻlganda qurolni chiqarish tavsiya etiladi; v) huquqbuzar qoʻlga olinib, unga qoʻl kishani taqilmagunga qadar qurolni gʻilofga solmaslikni nazarda tutadi.





Mamlakatning barcha hududlarida politsiya jamoatchilikda jinoiy tajovuzlarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish maqsadida turli varaqalar va boshqa bosma axborotlarni dunyoning turli tillariga tarjima qilib tarqatadi. Ushbu mahsulotlarni tarqatishga asosan fuqarolar jalb etiladi. Baʼzi hollarda, ayniqsa, jamoat joylarida aniqlangan jinoiy faoliyat zonalari atrofida nazorat postlari yaratiladi. Ushbu ishlar natijasida politsiya tomonidan bir qator manfaatdor vazirlik va idoralar rahbariga vaziyatni tartibga solish boʻyicha choralar koʻrish toʻgʻrisida takliflar yuboriladi.

Koʻplab milliy tashkilotlar faoliyat koʻrsatadi, ularning har biri jinoyat qurbonlariga zarur yordam koʻrsatadigan minglab maxsus oʻqitilgan koʻngillilarni birlashtiradi.

Ilmiy-tadqiqotlar va aholining barcha qatlamlariga yetkaziladigan axborotlar maxsus jurnallar, bukletlar, broshyuralar, yoʻriqnomalar, eslatmalarda chop etilib, doimiy ravishda radioeshittirish va telekoʻrsatuvlarda namoyish etib boriladi.

Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Germaniya, Hindiston va Avstraliyada amalga oshirilayotgan ilgʻor tajribalarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda jamoatchilikni jalb etish amaliyoti keng qoʻllanilayotganligini kuzatish mumkin. Mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun "qoʻshnilar nazorati (neighborhood watch)", "jinoyatchilikni toʻxtatamiz (crimes toppers)", "tashqi muhitni tashkil etish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi dasturi (Crimeprevention throughen vironment design (broken window) (Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashqi muhitdan kuzatuv ostiga olish (siniq oynalar)", "Safety City (Xavfsiz shahar)" kabi dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga samarali tatbiq etib kelinmoqda.

Yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribalarini inobatga olgan holda, yurtimizda ham bu kabi bir qator dasturlar qabul qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori, 2021-yil 23-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi boʻgʻin sifatida ishlashini taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi farmoni, 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi hamda 2025-yil 18-avgustdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi qarorlari [12] asosida mamlakatimizda profilaktika va ijtimoiy reabilitatsiyaning: a) mehnat va ijtimoiy sohadagi yangi profilaktika tizimi; b) "Xavf-xatar guruhi" tushunchasi; v) idoralararo hamkorlikning institutsionallashuvi; g) axborot va raqamli monitoring tizimi; d) taʼlim tizimida profilaktika mexanizmlari; ye) huquqiy va axborot kommunikatsiya mexanizmlari; i) ilmiy va metodik yangiliklar; k) jamoatchilik va mahalla ishtirokini kuchaytirish; l) kriminogen vaziyati murakkab va ogʻir mahallalarda "namunali xavfsiz koʻcha" va "namunali xavfsiz uy" tashkil etish kabilarni oʻz ichiga olgan mutlaqo yangicha mexanizmlarini joriy etilib, amaliyotga tatbiq etildi. Shu tariqa, ushbu hujjatlar va ular asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar profilaktika va ijtimoiy reabilitatsiya sohasida yangi, kompleks va integratsiyalashgan mexanizmlar tizimini shakllantirdi, bu esa jamiyatda xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda samarali natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Mazkur tahlillarga tayanilgan holda, xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalarini mamlakatimiz ichki ishlar organlarining tovlamachilik jinoyatining oldini olish faoliyati amaliyotiga joriy etish mumkin boʻlgan oʻziga xos jihatlar quyidagicha umumlashtiriladi:

– “Tovlamachilik profilaktikasi to‘g‘risida”gi Milliy strategiya (yoki konsepsiya)ni qabul qilish hamda unda jinoyatchilikning bu turi bo‘yicha viktimologik, kriminologik va kiber xavfsizlik yo‘nalishlarini birlashtirgan yagona tizim yaratish, shuningdek har bir sohada (ichki ishlar, prokuratura, ta’lim, axborot texnologiyalari) mas’ul organlarning aniq vazifalarini belgilash;

“Tovlamachilikning oldini olish bo‘yicha Respublika idoralararo kengashi”ni tashkil etish va bu kengash tarkibiga IIV, Bosh prokuratura, AKT vazirligi, Ta’lim vazirligi, Din ishlari qo‘mitasi, NNT va OAV vakillarini kiritish, shuningdek har chorakda profilaktik tadbirlar samaradorligi bo‘yicha hisobotlar tayyorlashni ta’minlash;

Internet muhitidagi tovlamachilik holatlarini aniqlovchi milliy onlayn monitoring platformasi yaratish, aholi uchun “Kiberxavfsizlik madaniyati” kurslarini joriy etish (masofaviy va ochiq formatda);

IIV va Axborot texnologiyalari vazirligi hamkorligida sun’iy intellekt (AI) asosidagi “Criminal Risk Mapping” tizimini yaratish, mazkur platforma orqali geoanalitik ma’lumotlar, tovlamachilik jinoyati sodir etilgan hududlar, ijtimoiy omillar va onlayn faoliyatni tahlil qilish orqali “Xavf darajasi yuqori zonalar”ni avtomatik aniqlash;

jinoyatchilikning, xususan tovlamachilik va uning kiber ko‘rinishlarining barvaqt oldini olish maqsadida ichki ishlar, prokuratura, bank tizimi, telekom operatorlari va kiberxavfsizlik markazlari ma’lumotlarini integratsiya qiluvchi yagona “e-Profilaktika” platformasini yaratish orqali avtomatik monitoring, tahlil va xabar berish (alert system) imkoniyatlarini joriy etish;

tovlamachilik bilan bog‘liq jinoyatchilik holatlari, jinoyatga qarshi kurash bo‘yicha xarajatlar, jabrlanuvchilarga berilgan yordamlar haqidagi ma’lumotlarni blokcheyn texnologiyasi asosida saqlash va jamoatchilik uchun ochiq qilish;

fuqarolar uchun “MySafety.uz” mobil ilovasini ishlab chiqish orqali tovlamachilik holatlarini anonim xabar qilish, maslahat olish, statistika bilan tanishish imkonini yaratish;

IIV Akademiyasi va Kriminologiya tadqiqotlar instituti qoshida “Kriminologik tahlil va jinoyatchilik profilaktikasi” ilmiy markazini ochish;

IIV va prokuratura huzurida tovlamachilik bilan bog‘liq jinoyatchilik profilaktikasi natijalarini baholaydigan mustaqil analitik guruh tuzish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida: a) tovlamachilik va uning kiber ko‘rinishlari bo‘yicha jinoyatlar 3–5 yil ichida 25–30% ga qisqaradi; b) fuqarolarning huquqiy madaniyati va xavfsizlik immuniteti kuchayadi; v) davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashish va javobgarlik tizimi shaffoflashadi; g) jinoyat qurbonlariga yordam tizimi samarali shakldа ishlaydi.

Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlar jinoyatchilikning, ayniqsa tovlamachilik va uning kiber ko‘rinishlarining oldini olishda ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Bu tizim davlat, jamoatchilik va xususiy sektorning hamjihat faoliyatiga asoslanib, fuqarolar xavfsizligini kafolatlaydi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovlamachilik jinoyatining oldini olishda viktimologik profilaktika, jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, davlat dasturlari va kompensatsiya tizimlari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Milliy amaliyotda mazkur tajribalarning tatbiq etilishi: a) jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlari yanada kuchli himoya qilinadi; b) aholi o‘rtasida huquqiy madaniyat va jinoyatchilikka qarshi barqaror immunitet shakllanadi; v) jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi; g) profilaktika tizimining proaktiv (oldindan ogohlantirish) xususiyati kuchayishiga olib keladigan natijalarni beradi.



**Foydalanilgan manbalar / References**


1. Written evidence submitted by The Police Foundation. https://committees. parliament. uk/ writtenevidence/ 125623/html/?utm_source=chatgpt.com.; Crime Statistics: Modeling Theft in Favour of Victims’ Choices. https://www.mdpi.com/2227-7099/6/2/25?utm_source=chatgpt.com.
2. Защита потерпевшых благородная работа // Фонд поддержки пострадавшех от преступлений. [Электронный ресурс]. Режим доступа: Soprotivlenie.org. //(дата обращения: 02.09.2025).
3. Theoretical basis and occurrence of internet fraud victimisation: Based on two systems in decision-making and reasoning. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9940837/?utm_source=chatgpt.com.; The role of social-psychological factors of victimity on victimization of online fraud in China.https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/ articles/PMC9822720/?utm_ source= chatgpt.com.
4. Yaponiya politsiyasining “yuragi” nima? Yoxud Yaponiyada jinoyatchilikka qarshi qanday kurashiladi?// https://darakchi.uz/uz/80552.
5. Инструкция по работе полицейских постов „Koban“//https://ap.net.ua/ru/brand/koban.
6. Квашис Е.В., Морозов Н.А. Полиция Япониии: организация, функции, эффективность // Научный портал России. – 2015. – №1.–Ст.62.
7. Квашис Е.В. Полиция Япониии: организация и эффективность // Общества и права. – 2018. – №2 (64).– С.28.

# ПРОГНОЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВОГО ОПЫТА ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАН ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ ЗАТОРОВ НА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГАХ ОБЩЕГО ПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Ташкенбаев Фазлиддин Хуснитдинович**

*Служба безопасности дорожного движения МВД Республики Узбекистан, начальник управления*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarma boshlig‘i*

*Road Safety Service of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Head of Department*

**Носиров Шохрух Бобониёзович**

*Служба безопасности дорожного движения МВД Республики Узбекистан, ведущий специалист*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarma yetakchi mutaxassisi*

*Road Safety Service of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Leading Specialist*

***Аннотация.*** *Рост численности автотранспорта в Республике Узбекистан влечёт за собой увеличение транспортной нагрузки на автомобильные дороги общего пользования. Одной из наиболее острых проблем в этом контексте является образование заторов, особенно в крупных городах и на ключевых магистральных направлениях. Настоящая статья рассматривает возможности применения передового опыта европейских стран по управлению дорожным движением и предотвращению заторов. Проведён анализ реализуемых в ЕС мер: интеллектуальных транспортных систем (ITS), развития общественного транспорта, дорожного ценообразования и других механизмов.*

*Сформулированы прогнозы эффективности адаптации этих решений в условиях Узбекистана с учётом социально-экономических, технических и институциональных факторов.*

***Ключевые слова:*** *заторы, интеллектуальные транспортные системы, общественный транспорт, парковка, транспортное планирование, устойчивое развитие.*

***FORECAST OF THE APPLICATION OF ADVANCED EUROPEAN EXPERIENCE IN PREVENTING TRAFFIC CONGESTION ON PUBLIC ROADS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN***

***Abstract.*** *The growth of motor vehicles in the Republic of Uzbekistan leads to increased traffic load on public roads. One of the most pressing issues in this context is traffic congestion, especially in large cities and on key arterial routes. This article examines the potential for applying advanced European experience in traffic management and congestion prevention.*

*The study analyzes measures implemented in the EU, including Intelligent Transport Systems (ITS), development of public transport, road pricing, and other mechanisms. Forecasts are made regarding the effectiveness of adapting these solutions in Uzbekistan, taking into account socio-economic, technical, and institutional factors.*

***Keywords:*** *congestion, intelligent transport systems, public transport, parking, transport planning, sustainable development*

Развитие транспортной инфраструктуры является одним из приоритетных направлений государственной политики Республики Узбекистан. Вместе с тем, наблюдается устойчивая тенденция роста количества автотранспортных средств, особенно в городах. Это приводит к снижению пропускной способности улично-дорожной сети, увеличению времени поездок, загрязнению окружающей среды и потере экономической эффективности.

Мировая практика показывает, что решить проблему заторов исключительно за счёт строительства новых дорог невозможно.

Эффективным подходом считается внедрение комплексных мер, сочетающих инфраструктурные, технологические и организационные решения.

Особенно ценный опыт в этом направлении накоплен в странах Европейского Союза.

*Обзор литературы*

*Рациональное снижение заторов: комплексный анализ затрат и стратегий уменьшения транспортной перегрузки.* В работе Т. Литмана рассматриваются современные подходы к снижению транспортных заторов, включая экономические, инфраструктурные и поведенческие меры. Автор выделяет значимость интегрированного планирования городской мобильности, оптимизации использования личного транспорта и развития общественного транспорта. Особое внимание уделено моделям динамического ценообразования (например, платный въезд в центр города) и стимулированию перехода граждан на экологичные виды транспорта.

*Трансформация городской мобильности: интегрированные и устойчивые транспортные решения для городов.*

Доклад подчеркивает необходимость системного подхода к организации городского движения. Основными направлениями названы развитие «умных» транспортных систем (ITS), внедрение цифрового мониторинга дорожных потоков и улучшение условий для общественного и немоторизованного транспорта. Опыт европейских стран демонстрирует эффективность внедрения концепции «город для людей, а не для машин».

*Улучшение городской мобильности с помощью общественного транспорта.*

В публикации Международной ассоциации общественного транспорта (UITP) приведены примеры успешных европейских практик — развитие скоростного трамвая, внедрение единой билетной системы и приоритет общественного транспорта на перекрестках. Отмечается, что именно устойчивое развитие общественного транспорта является ключом к снижению заторов и улучшению городской среды.

*Умная мобильность в Центральной Азии: передовые практики и рекомендации по пилотным проектам в Ташкенте.*

Документ фокусируется на региональных особенностях Центральной Азии, предлагая адаптацию европейских цифровых решений под местные условия.

В частности, рекомендовано развитие интеллектуальных транспортных систем, управление потоками через датчики и камеры, а также внедрение мобильных приложений для информирования водителей и пассажиров в реальном времени.

*Программа комплексного развития улично-дорожной сети в городах Республики Узбекистан на 2023–2027 гг.*

В национальной программе предусмотрено применение международного опыта для модернизации транспортной инфраструктуры страны. В числе приоритетов – развитие транспортных развязок, внедрение «умных» светофоров, организация «зеленых волн» движения и повышение пропускной способности магистралей.

Обзор источников показывает, что успешное предотвращение заторов требует комплексного подхода, сочетающего инфраструктурные инновации, цифровые технологии и стимулирование использования общественного транспорта.

Европейский опыт может быть эффективно адаптирован в Узбекистане при условии учета национальных особенностей городской застройки, транспортного спроса и уровня цифровизации.

Среди основных факторов, способствующих образованию заторов на дорогах общего пользования Узбекистана, можно выделить:

- Рост числа личных автомобилей *(в крупных городах — до 15% в год);*
- Отсутствие системного регулирования движения на основе данных;
- Слабое развитие интеллектуальных транспортных систем;
- Низкий уровень популярности общественного транспорта;
- Нерегулируемая парковка и использование обочин;
- Недостаточная координация между органами управления транспортом и градостроительной политикой.

Актуальность изучения зарубежного опыта обусловлена необходимостью перехода к интеллектуальному управлению дорожным движением на национальном уровне.

*1. Интеллектуальные транспортные системы (ITS)*

В Европе ITS используются для мониторинга трафика, прогнозирования заторов, управления светофорами и информирования водителей в режиме реального времени (VMS, навигационные сервисы и т.д.). Примеры:

- **Германия**: автоматизированные системы управления потоками на автомагистралях *(Autobahn control systems).*
- **Нидерланды**: Smart Mobility Program — использование данных о трафике, погоде и поведении водителей.
- **Финляндия**: интеграция ITS с городской мобильностью и климатической политикой.

*2. Управление спросом и дорожное ценообразование*

- В Лондоне, Стокгольме и Милане внедрены **зоны платного въезда**, что позволило снизить поток транспорта на 20–30%.
- Использование **динамического ценообразования** в зависимости от времени суток.

*3. Развитие общественного и альтернативного транспорта*

- В Париже и Барселоне приоритет отдаётся **общественному транспорту** и велосипедной инфраструктуре.
- Создание **«Зон с низкой мобильностью личного транспорта» *(LEZ)*** способствует разгрузке центра города.

*4. Интеграция транспортного планирования с градостроительством*

- Примеры Стокгольма, Копенгагена и Вены демонстрируют важность долгосрочного планирования и «транспортно-ориентированного развития» *(TOD).*

**Прогноз эффективности внедрения европейских практик в Узбекистане (табл.1)**

***Таблица 1***

***Перспективные меры для Узбекистана:***

| Европейская практика | Потенциал применения в Узбекистане | Возможные барьеры |
|---|---|---|
| **ITS и интеллектуальные светофоры** | Высокий в Ташкенте и Самарканде | Требуются инвестиции и ИТ-кадры |
| **Зоны платного въезда** | Умеренный в центре Ташкента | Социальное восприятие, необходимость правовой базы |
| **Развитие ОТ и велоинфраструктуры** | Высокий в крупных городах | Слабая инфраструктура, предпочтение автомобилям |
| **Парковочная политика** | Высокий | Необходимость мониторинга и контроля |

Согласно моделированию, внедрение интеллектуального регулирования движения и реформирование парковочной политики в Ташкенте может снизить среднее время в пути на 15–20% в течение 3 лет. Создание выделенных полос для общественного транспорта — до 25% в часы пик.

1. Разработка и внедрение **Национальной программы по борьбе с заторами**, основанной на данных.
2. Пилотное внедрение **интеллектуальных систем регулирования трафика** в крупнейших городах.
3. Поддержка **общественного транспорта** как приоритетного направления (в том числе через субсидии и инфраструктурные инвестиции).
4. Введение **регулируемой парковки** и штрафов за нарушения.
5. Повышение уровня осведомлённости населения о преимуществах устойчивой мобильности.
6. Обмен опытом с европейскими странами и участие в международных проектах (например, через программы ЕС по транспорту и устойчивому развитию).

Опыт европейских стран по предотвращению заторов на автомобильных дорогах может быть эффективно адаптирован в Республике Узбекистан при условии последовательной политики и модернизации транспортной системы.

**Организация логистических хабов на въездах в крупные города.** Создание распределительных складов (хабов) для грузового транспорта позволит перераспределять грузы и ограничить въезд тяжелого транспорта в центры городов, снижая уровень пробок и улучшая экологическую ситуацию.

**Внедрение интеллектуальных транспортных систем (ITS)**. Использование умных светофоров, датчиков движения, систем мониторинга потоков и динамического управления дорожным движением для оптимизации потоков и сокращения времени простоя.

**Развитие общественного транспорта и альтернативных маршрутов**.

Расширение сети городского и пригородного транспорта, внедрение выделенных полос для автобусов и маршруток, стимулирование пересадок на общественный транспорт для снижения количества личных автомобилей на дорогах.

**Введение системы управления грузовым трафиком**.

Регулирование времени въезда грузовых автомобилей в город, оптимизация маршрутов доставки, внедрение «умных парковок» и временных зон разгрузки для снижения конфликтов с пассажирским транспортом.

**Развитие велосипедной и пешеходной инфраструктуры**.

Создание безопасных велодорожек, пешеходных зон и «зелёных коридоров» позволит снизить количество автомобилей на коротких маршрутах и уменьшить заторы.

**Использование цифровых приложений и навигации**.

Разработка мобильных приложений и систем GPS-навигации для информирования водителей о загруженности дорог, альтернативных маршрутах и ограничениях движения.

**Повышение культуры вождения и информирование населения**.

Проведение кампаний по безопасности и организации движения, обучение водителей правилам маневрирования в пробках, стимулирование соблюдения скоростного режима.

**Строительство обходных дорог и новых развязок**.

Создание транспортных развязок, объездных путей и новых магистралей позволит разгрузить центральные участки и снизить пиковые заторы.

Внедрение ITS, реформирование парковочной и транспортной политики, приоритет общественному транспорту и интеграция с градостроительными мерами позволят существенно повысить пропускную способность улично-дорожной сети и улучшить качество жизни в городах.

**Использованные источники / References**


1. Литман, Т. (2022). Рациональное снижение заторов: комплексный анализ затрат и стратегий уменьшения транспортной перегрузки. Институт транспортной политики Виктории.
https://www.vtpi.org/cong_relief.pdf
2. Всемирный банк. (2020). Трансформация городской мобильности: интегрированные и устойчивые транспортные решения для городов.
https://www.worldbank.org/en/topic/transport/publication
3. UITP – Международная ассоциация общественного транспорта. (2022). Улучшение городской мобильности с помощью общественного транспорта. Брюссель: Издательство UITP.
4. Азиатский банк развития. (2021). Умная мобильность в Центральной Азии: передовые практики и рекомендации по пилотным проектам в Ташкенте. Рабочий документ по транспорту АБР.
5. Министерство транспорта Республики Узбекистан. (2023). Программа комплексного развития улично-дорожной сети в городах Республики Узбекистан на 2023–2027 гг. Ташкент: Министерство транспорта.


## «ADVANCED EXPERIENCE IN GLOBAL CRIMINOLOGY» II INTERNATIONAL FORUM

On November 17-18 of this year, the II International Forum "Advanced Practices of World Criminology," organized by the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, was held in Samarkand.

The forum was attended by representatives of police departments and criminological research structures of such countries as Russia, China, Turkey, India, Hungary, Belarus, Kazakhstan, Qatar, Tajikistan, a total of 54 specialists from 5 international (UNODC, TIKA, GIZ, KOICA, BKBOP CIS) and 8 national organizations, including the Director of the Security Research Center of the Police of the Emirate of Qatar Jassim Muhammad al-Obaidli, Vice-Rector of the Law Enforcement Faculty of the Hungarian Police State University "Ludovika" Gabor Kovac, Head of the All-Russian Research Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia Valery Kozhokar, Deputy Head of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of Belarus Pavel Gridyushko, Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of Tajikistan Rustamzoda Alisher, Deputy Head of the Haifei Research Institute for Public Security of China Li Changzheng, Director of the Information Center of the UN Regional Office for Central Asia on Crime and Drugs (UNODC) Salome Flores, Head of the TIKA Esin Ajar Ergin








At the forum, specialists in the field of criminology discussed the following priority areas, namely: research on artificial intelligence and dipfake technologies in combating and preventing crime on a global scale; strengthening the role of the public in the prevention of offenses; systematic study of criminological diagnostics and forecasting, as well as socio-legal threats in the field of science; joint research of interstate crime, joint launch of scientific projects, and shared best foreign practices.

The forum participants made proposals aimed at contributing to the conduct of systemic criminological research in Uzbekistan, publishing articles in the international journal "Criminological Activity" dedicated to modern approaches to early crime prevention, and developing mutually beneficial cooperation.














Also, within the framework of the Forum, bilateral memorandums of cooperation were signed with the Federal State Institution "All-Russian Research Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation," the V.F. Yakovlev Ural State University of Law, the National Institute of Criminology of Hungary, and the Law Enforcement Faculty of the Ludovika University of Public Service of Hungary.

Bilateral negotiations were held with the delegation of the Emirate of Qatar, agreements were reached on organizing mutual scientific internships, conducting joint research projects, establishing a "Qatar Criminology Research Office" at the Research Institute of Criminology of Uzbekistan, as well as the implementation of annual scientific projects on early crime prevention with Hungary, Tajikistan, Russia, Belarus, Kazakhstan, and China.

We are confident that this international forum, in which more than ten foreign countries and international organizations, as well as leading specialists of our country, have participated, will serve as an important factor in the development of scientific and practical cooperation between states, further coordination of scientific research in the field of criminology, the formation of new research directions and increasing the effectiveness of scientific results, and most importantly, in the fight against crime and its prevention.



**KRIMINOLOGIYA**

XALQARO ILMIY-AMALIY JURNAL

**КРИМИНОЛОГИЯ**

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

**CRIMINOLOGY**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL

№ 2 - 2025
ISSN 3060-5369

Original-maket O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi

Muharrirlar: B.A. Yarov, G.T. Muminova
Dizayn va sahifalovchi: G.T. Muminova
Texnik muharrir: A.R. Fayziyev

Bichimi 60x40 1/8. Nashriyot-hisob tabog'i 9,5. Adadi 50 nusxa
Buyurtma №25/

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Tahririy-noshirlik markazida chop etildi

100187 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77 Website: kti.iiv.uz

O‘z.KTI